

ONA TILI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING
5-SINFI UCHUN DARSLIK

To'ldirilgan 4-nashri

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2015

**N. MAHMUDOV, A. NURMONOV, A. SOBIROV,
V. QODIROV, Z. JO‘RABOYEVA**

Aziz o‘quvchilar!

Sizlar 1–4-sinflarda «Ona tili» fanining dastlabki tushunchalari haqida ma’lumotlar oldingiz.

Tovush va harf o‘rtasidagi farqlarni ajrata olish ko‘nikmasiga ega bo‘ldingiz, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, gap to‘g‘risidagi ilk saboqlarni tingladingiz. Lekin bilasizlarmi, o‘zbek tilidan yaxshi xabardor bo‘lish uchun bu bilimlar kifoya qilmaydi. Siz kelgusida yanada ko‘proq mehnat qilishingiz, sabot va chidam bilan ona tilining sir-asrorlarini o‘rganishingiz lozim. Sababi – ona tili barcha fanlarni bilish va o‘zlashtirishning bebaho kaliti sanaladi.

Zo‘r matematik, biolog, shifokor, muhandis, diplomat yoki boshqa kasb egalari bo‘lish uchun, birinchi galda, ona tili va adabiyotni mukammal bilish darkor.

Sizlar 5-sinfda so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi, imlo qoidalari, tinish belgilarining ishlatilish o‘rinlari, leksikologiya (so‘z ilmi), lug‘atshunoslik kabi tilshunoslik bo‘limlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

Aziz bolajonlar!

Ona tilining sir-asrorlarini yaxshi bilib olish uchun bu yil ham bir g‘ayrat qilinglar! Bu yo‘lda Sizlarga muvaffaqiyat yor bo‘lsin.

Shartli belgilar



– javob bering.



– eslab qoling.



– bilib oling.



– iqtidorli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashq va topshiriqlar.



– o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashqlar.



– tajriba uchun mo‘ljallangan mashqlar.

Har bir bo‘lim bo‘yicha savol va topshiriqlar mustahkamlash hamda takrorlash darslarida berildi, jadvallar tuzish ham hisobga olindi.

**Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan
ijara uchun chop etildi.**

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligisiz to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosish taqiqlanadi.

M 4702620204–02
M 25 (04)–15

ISBN 978-9943-04-118-9

© «Ma’naviyat», 2015

KIRISH

1-d a r s. **KIRISH SUHBATI. TIL – IJTIMOY HODISA**

1-topshiriq. Ertalab turib, ota-onangizga, oila a’zolaringizga nima deysiz? Ular bilan gaplashayotganda qaysi tildan foydalanasiz? Ona tili deyilishi sababini izohlang.

2-topshiriq. Nima uchun Rossiyada yoki Amerikada o’zbek tilida gaplashishmaydi? Nega rus, ingliz, nemis, arab tillarini maxsus o’rganamiz? Shu til sohiblari qayerlarda yashashini ayting.

Yer yuzida tillar ko’p. Olimlarning hisob-kitobiga ko’ra, ularning miqdori 7000 ga yaqin. Masalan: rus, ingliz, nemis, arab, fors, koreys va boshqa tillar. Tillarning barchasi insonlar o’rtasidagi aloqa-aralashuvni ta’minlash vazifasini bajaradi.

Rossiyada rus tilida, Fransiyada fransuz tilida, Eronda fors tilida gaplashishadi.

Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Jamiyatdan uzilgan, insonlarning o’zaro aloqasiga xizmat qilmaydigan til o’lik tildir.

Siz kitoblar, kinofilmlar orqali yovvoyi hayvonlar orasida o’sgan bolalar haqida ma’lumot olgansiz. O’shanda bir narsaga e’tibor berganmisiz? Bunday bolalar hayvoniy qiliqlarga ega bo’lib, eng muhim insoniy fazilatdan – so’zlashdan mahrum edilar.

! **Demak, til jamiyatga, ya’ni odamlarning o’zaro munosabatga kirishuviga, aloqa qilishiga xizmat qiladi, shuning uchun u ijtimoiy hodisa sanaladi.**

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o’zbek tilining ijtimoiy vazifalari yanada kengaydi.

1-mashq. Quyidagi so’zlarning o’zbek tilida paydo bo’lish sabablarini aniqlang.

Kollej, litsey, tadbirkor, fermer, tuman, viloyat.

2-mashq. Matnni o‘qing va undagi g‘oya haqida o‘z fikringizni bayon qiling.

Podshoh bir kuni vazirlariga:

– Menga eng lazzatli taom pishirib keltiringlar, – dedi.

Vazirlar maslahatlashib, unga tildan taom pishirib keldilar.

Taom podshohga ma‘qul bo‘ldi. U:

– Endi esa menga eng achchiq narsadan tayyorlangan ovqat olib kelinglar, – deb farmon berdi.

Bu gal ham unga tildan ovqat pishirib keldilar.

Podshohga topshiriqning ijrosi maqbul bo‘ldi. Nima uchun?

✓ **3-mashq.** Quyidagi maqollarni daftaringizga yozib oling va yodlang.

Tig‘ yarasi bitadi, lekin til yarasi bitmaydi. Odobning boshi – til. Yaxshi so‘z – jon ozig‘i, yomon so‘z – bosh qozig‘i. Yaxshi so‘z bilan ilon inidan chiqadi, yomon so‘z bilan pichoq – qinidan. Til – dil kaliti.

***4-mashq.** Topishmoqlarning javobini toping. O‘zingiz ham *til, so‘z, ilm, kitob* haqida bilgan topishmoqlaringizni o‘rtoqlaringizga aytib bering.

1. Tilsiz aql o‘rgatar. 2. Og‘izdan chiqquncha meniki, og‘izdan chiqqani elniki. 3. Asaldan shirin, zahardan achchiq. 4. Temir qo‘rg‘on ichida qizil toychoq o‘ynaydi. 5. Bir nafasda olamni kezar.

Savollarga javob bering



1. Yer yuzidagi xalqlar nima uchun har xil tilda gaplashishadi?
2. Til – ijtimoiy hodisa deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun yovvoyi hayvonlar ichida o‘sgan bolalar gapira olmaydi?
4. O‘zbeklarning qayerlarda istiqomat qilishi haqida so‘zlab bering.
5. *Ijtimoiy* so‘ziga izoh bering.
6. O‘zingiz o‘rganayotgan xorijiy til haqida nimalarni bilasiz?

5-mashq. *Uyga topshiriq.* Bugungi ozod va obod hayotimiz haqida fikrlaringizni yozing.

2-d a r s. O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

1-topshiriq. Nima uchun ota, aka-uka yoki opa-singil tili emas, aynan onaga nisbat berib *ona tili* atamasidan foydalanamiz? Shu haqida bahs yuriting.

2-topshiriq. Siz yashayotgan yoki Sizga yaqin bo‘lgan ko‘cha, mahal-laning 15–20 yil oldin qanday nom bilan yuritilganini eshitganmisiz? Agar farqlansa, buning sababini aytib bering.

! 1989-yilning 21-oktabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili ma-qomi berildi. Shundan boshlab ta’lim-tarbiya ishlari, majlis-lar, ish qog‘ozlari, asosan, o‘zbek tilida yuritiladigan bo‘ldi.

Har bir millat o‘z hayoti davomida aloqa-aralashuv quroli sifatida, asosan, bitta tildan foydalanadi. Farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishda onaning o‘rni beqiyos bo‘lgani, bola ilk tovushlarni, so‘zlarni onasidan eshitgani bois bu tilga ona tili deyiladi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida ona tilimizni asrab-avaylab kelganlar.

Mustaqillik tufayli bu ish yanada jadallashdi.

Milliy qadriyatlarimizni, tariximizni o‘rganish uchun keng yo‘l ochildi.

6-mashq. Quyidagi hikmatli so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. O‘zingiz ham shunday misollar toping.

Ona tilim – jon-u dilim.

Ona tili – millatning ruhi.

Ona tilini unutganlar xor bo‘ladi.

***7-mashq.** She’rni o‘qing va unda ilgari surilgan g‘oyani aniqlang. Uning mustaqillik g‘oyasiga birlashadigan jihatlari haqida gapiring.

Ona tilim – onajonim tili bu –
 Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa.
 El-u yurtim, xonumonim tili bu,
 Qadimlikda o‘xshar ona tuproqqa.

(*Mirtemir*)

8-mashq. Rasm asosida «Ona – ulug‘ zot» mavzusida matn tuzing.



Tayanch so‘zlar: ona, bola, chaqaloq, beshik, alla, mehr, Vatan, munosib, farzand, ulg‘aymoq, tarbiyalamoq, sevmok, duosini olmoq, xizmat qilmoq, til, ona tili

Savol va topshiriqlar

- ❓ 1. Ona tili deganda nimani tushunasiz?
- ❓ 2. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi qachon berilgan?
- ❓ 3. Tilimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida nima deysiz?

◆ **9-mashq.** Uyga topshiriq. Mustaqillik tufayli tilimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida hikoya yozing.

TAKRORLASH

3-d a r s. AYRIM UNLILAR IMLOSI

10-mashq. Maqollarni o‘qing, *i* unlisining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.

1. Vatanni sevmok iymondandir. 2. Ona yurtning omon bo‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo‘lmas. 3. Bulbul chamanini sevar, odam — Vatanini. 4. O‘z yurtningning qadri o‘zga yurtda bilinadi. 5. Qush ham iniga qarab intiladi.

✓ **11-mashq.** Nuqtalar o‘rniga *i* yoki *u* harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

But...n, sov...q, uyq..., kulg..., shov...llamoq, sup...rmoq, quv...r, uch...n, qiz...q, ...st...qlol.

12-mashq. Quyidagi so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. *E* harfi-ning yozilish o‘rinlariga diqqat qiling.

Erk, ertak, ber, e‘lon, yetti, ehtiyot, e‘tibor, tole, termoq.

13-mashq. Gaplarni o‘qing, *o‘* unlisining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.


O‘ziga boqma, so‘ziga boq. O‘qigan o‘zar, o‘qimagan to‘zar. O‘zga elda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtningda gado bo‘l. O‘zini bilmagan o‘zgani bilmas. O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil.

Takrorlash uchun savollar



1. O‘zbek tilida nechta unli tovush bor?
2. *I* va *u* unlarining imlosi haqida ayting.
3. *E* va *u* unlarining imlosi haqida so‘zlab bering.
4. *A* va *o* unlarining imlosi haqida gapiring.

14-mashq. *Uyga topshiriq.* Boshqotirmaning javobini toping. *A* harfining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.



1. «Damas», «Tiko», «Neksiya» mashinalari ishlab chiqarilayotgan shahar nomi. 2. Husanning akasi. 3. Ish-... 4. Urishqoq xo‘roz.

4-d a r s. **AYRIM UNDOHLARNING YOZILISHI**

***15-mashq.** So‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing va ular o‘rtasidagi farqlarni aytib bering.

Bob – bop, bol – pol, besh – pesh, barcha – parcha, dala – tala, dil – til, dur – tur, oz – os, eg – ek, mard – mart.

✓ **16-mashq.** Tez aytishlarni mashq qiling. Qaysi tovushga ta’kid tushayotganini toping va shu tovushga ta’rif bering.

Turg‘un turib tarozida turp tortdi. O‘zim uzum uzdim. Sharif Sharofatni sharaflab she‘r o‘qidi. Qayiqqa ayiq chiqdimi, qayiq qirg‘oqqa chiqdimi?

17-mashq. Gaplarni ko‘chirib yozing. Undosh tovushlarning imlosiga diqqat qiling.

1. Obod va ozod Vatan bizniki. 2. Daraxtni yer ko‘kartiradi, odamni – el. 3. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l. 4. Sayoq yursang, tayoq yeysan. 5. Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim. 6. Sog‘tanda sog‘lom aql.

18-mashq. Nuqtalar o‘rniga *x* yoki *h* harflaridan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

...ushyor, sa...iy, ma...sulot, ...ulosa, ...arakat, ...urmatli, ...ukm, ...ozirjavob, ta...t, sa...na, ...ayol, ...ar kim, ...ech qachon.

* **19-mashq.** O‘qing. Undosh tovushlarning imlosiga diqqat qiling.

1. Falak – palak, faqir – paqir, sof – sop, tuf – tup, fol – pol.
2. Juma, jurnal, jirafa, jonsarak, hayajon, jajji, g‘ijjak. 3. Ong, tong, bong, hang-mang, ko‘ngil, singil, dengiz, kelingiz. 4. G‘ujg‘on, og‘a, tog‘, ag‘darmoq.

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. O‘zbek tilida nechta undosh tovush bor va ular yozuvda nechta harf bilan ifodalanadi?
 2. *B–p, v–f, d–t, g–k* undoshlarining yozilishi haqida gapirib bering.
 3. *H* va *x* undoshlarining yozilish o‘rinlari qanday?
 4. *Q, g‘, ng* undoshlarining imlosi haqida so‘zlab bering.

20-mashq. Uyga topshiriq. «Ozod va obod diyorum» mavzusida kichik hikoya yozing.

5-d a r s. BOSH VA KICHIK HARFLARNING QO‘LLANILISHI

21-mashq. Bosh harflarning ishlatilish sababini aniqlang, matnni ko‘chirib yozing.

O‘zbekiston – yer yuzining jannati. U bizning jonajon Vatanimizdir.

Yam-yashil bog‘-rog‘larga burkangan Farg‘ona vodiysi, ko‘hna Samarqand-u Buxoro, Xiva, azim Qashqadaryo va Surxondaryo yurtimizning maftunkor maskanlaridir.

O‘zbekistonda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolar, Chotqol, Qurama, Hisor, Nurota, Chimyon singari tog‘lar bor.

22-mashq. «Mening ona shahrim» (yoki qishlog‘im) mavzusida matn tuzing. Bosh harflarning ishlatilish o‘rinlariga izoh bering.

23-mashq. Mashq «Xatosini toping» deb nomlanadi. Matnda kichik harflar bilan berilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, bosh harflar bilan yozing.

Mening bolalik yillarim farg‘ona vodiysining yaypan, nursuq, qudash, buvayda, tolliq, olqor, yulg‘unzor, oqqo‘rg‘on degan qishloqlarida o‘tgan. o‘ttizinchi yillarning o‘rtalarida bolaligimni o‘ylanimda chalakam-chatti tush ko‘rganday edim: dumli yulduz chiqqan edi; Babar (Bobir bo‘lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o‘lmagan edi... (*Abdulla Qahhor*)

✓ **24-mashq.** Buxoro, Hamid Olimjon, «Tong yulduzi» kabi soʻz va soʻz birikmalarining bosh harflar bilan yozilish sabablarini tushuntirib bering.

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. Joy nomlari nima uchun bosh harf bilan yoziladi?
 2. Kishilarning ism-familiyalari, taxalluslariga misollar keltirib, ularning qanday harf bilan yozilishini tushuntirib bering.
 3. Korxonalar, tashkilotlar, gazeta, jurnal nomlari qanday yoziladi?

25-mashq. *Uyga topshiriq.* Oʻzingiz istiqomat qilayotgan koʻcha (mahalla) yoki qishloqda joylashgan korxonalar va tashkilotlar, fermer xoʻjaligi nomlarini daftaringizga yozing va ularning bosh harflar bilan yozilish sabablarini izohlang.

6-d a r s. BIR TOVUSH BILAN FARQ QILADIGAN SOʻZLAR MAʼNOSI VA IMLOSI

26-mashq. Gaplarni oʻqing. Nuqtalar oʻrniga quyida berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, koʻchiring.

... lar qoʻriqlaydi Vatanni. Ogʻzi kuygan ...ni ham puflab ichadi. ... shamol esdi. Sakkizinchi ... – onamlarning bayrami. Onangni ...ingda tutsang, singlingni ...ingda tut. ... soat sakkiz yarimda boshlanadi. Oyna ... ketdi.

Soʻzlar: mard, mart, qatiq, qattiq, kift, kaft, dars, darz.

27-mashq. Soʻzlarni izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Barmoq – barmoq, daʼvo – davo, saʼva – sava, six – siq, odim – odam.

✓ **28-mashq.** Soʻzlarni oʻqing. Ularning oʻrtasidagi farqlarni aniqlang.

azm – azim	xalos – xolos	urush – urish
ahl – ahil	sut – sud	shox – shoh

* **29-mashq.** Berilgan gaplardagi soʻzlarning xatosini toping. Ularni toʻgʻrilab, daftaringizga koʻchirib yozing.

1. Besh asirkim nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sheʼr. (A. Oripov)

2. Sanat saroyiga konsert tomosha qilgani bordik.
3. Chop yoni bilan turmoq.
4. Urish!!! Noming o'chsin jahonda... (*Zulfiya*)

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. *Tilla* – *tila*, *qatiq* – *qattiq* kabi so'zlarning yozilishini va ma'nosini ayting.
 2. *Qarz* – *qars*, *darz* – *dars*, *yod* – *yot* kabi so'zlardagi o'zgarishlarni belgilab, ularning ma'nosini tushuntiring.
 3. 1- va 2-topshiriqlardagi so'zlarni bir xil yozsak bo'ladimi?

30-mashq. *Uyga topshiriq. Uxlamoq – uhlamoq, shoh – shox, tana – ta'na* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

7-d a r s da nazorat diktanti o'tkaziladi.

8-d a r s. MA'NODOSH SO'ZLAR

31-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Egilganga egilgin boshing yerga tegguncha, kekkayganga kekkaygin boshing ...ka yetguncha (osmon, ko'k, samo). 2. ... o'zadi, egri to'zadi (to'g'ri, vijdonli, insofli). 3. Do'st achitib gapiradi, ... kuldinib (yov, g'anim, dushman). 4. ... avlod orzusi (yetuk, barkamol, raso). 5. ... do'st ayrilmas (o'lchovli, sanoqli, hisobli). 6. ...ga ayyor (muhayyo, shay, tayyor).

◆ **32-mashq.** *Yuz, chehra, bet, aft, turq, bashara* so'zlarini bir matn ichida keltirib, gaplar tuzing.

✓ **33-mashq.** *Qaramoq, yugurmoq, irg'imoq* so'zlarining ma'nodoshlarini toping va ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. *Ma'nodosh so'zlar* deb qanday so'zlarga aytiladi?
 2. *Vatan* so'zining ma'nodoshlarini toping.
 3. *Ozodlik, hurlik, mustaqillik* so'zlaridagi ma'noviy farqlarni tushuntiring.

34-mashq. *Uyga topshiriq. Bajarmoq, buyruq, ilg'or, kiyim, iste'dodli, o'rtoq* soʻzlarining maʼnodoshlarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

9-dars. SHAKLDOSH SOʻZLAR

35-mashq. Gaplarni oʻqing, shakldosh soʻzlarni topib, ularga izoh bering.

1. Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi. Yaxshilarning etagini tut, adashmaysan. 2. Yoz oʻtmoqda soz. Dutor – eng yaxshi soz. 3. Argʻamchiga qil quvvat. Nomusni yoshlikdan ehtiyot qil. 4. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni hayotga tatbiq etmoq. Filmdagi eng yaxshi chiqqan kadrlarni koʻrsatmoq.

* **36-mashq.** *Yoq, karam, kuy, qoʻy, ot, kul, mushak, oy, bogʻ, taxt, et, chang* soʻzlari ishtirokida gaplar tuzib, ularning matndagi maʼnolarini izohlang.

✓ **37-mashq.** Gaplarni daftaringizga koʻchirib yozing, shakldosh soʻzlarga izoh bering.

Topgan gul keltirar, topmagan – bir bogʻ piyoz. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda koʻplab bogʻlar barpo qilindi. Ozodlik – biz uchun eng katta davlat. Eli boy davlat kuchli va qudratli boʻlur. Ertalab atrofni qalin tuman qopladi. Bizning tumanimizda bir qancha sport inshootlari qurildi.

Takrorlash uchun savollar



1. *Shakldosh soʻzlar* deb qanday soʻzlarga aytiladi?
2. *Kul* soʻzining shakldoshlarini ayting.
3. Shakldosh soʻzlarni qanday farqlash mumkin?

38-mashq. *Uyga topshiriq. Bor, yoq, dogʻ, sir, tush* soʻzlari ishtirokida gaplar tuzing. Ularning matn ichidagi maʼnolarini izohlang.

10-dars. ZID MAʼNOLI SOʻZLAR

39-mashq. Gaplarni oʻqing, zid maʼnoli soʻzlarni aniqlab, ularni izohlab bering.

1. Doʻst achitib gapiradi, dushman – kuldirib. 2. Baxtiyor oqni qoradan ajratadigan boʻlib qoldi. 3. Qarilar – izzatda, yoshlar – xizmatda.

***40-mashq.** Quyidagi zid ma'noli so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing.

Egri – to'g'ri, baland – past, uzun – qisqa, achchiq – shirin, toza – iflos.

✓ **41-mashq.** Quyidagi so'zlarning zid ma'noli juftlarini topib, ular ishtirokida so'z birikmalari tuzing va daftaringizga yozing.

Oz –..., qalin –..., ulkan –..., keng –..., tinchlik –..., yer –..., kun –... .

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. *Zid ma'noli so'zlar* deb qanday so'zlarga aytiladi?
 2. *Do'st* so'zi nima uchun *yov*, *g'anim* emas, ko'proq *dushman* so'ziga zid qo'yiladi?

42-mashq. *Uyga topshiriq.* Maqollarni o'qing. Shunga o'xshash maqollar topib, daftaringizga yozing.

1. Aqlli uzoqni ko'zlar, aqlsiz – yaqinni. 2. Tinchlik urushni yengar. 3. To'g'ri oshini yeydi, egri – boshini. 4. Baxil topsa, bosib yer, saxiy topsa, hamma yer. 5. Ko'p o'yla, oz so'yla.

11-dars. QO'SHMA SO'ZLAR IMLOSI

43-mashq. O'qing. Qo'shma so'zlarni aniqlab, yozilishiga diqqat qiling.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi joriy qilindi. Uning bosh maqsadi chuqur bilimli, yuksak ma'naviyatli, hozirjavob yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Mehmondo'st, mehnatsevar, bolajon xalqimizga mos bo'lgan sofdil, mard va dovyurak, dono yoshlar kelajak poydevoridir.

***44-mashq.** Matni o'qing. Qo'shma so'zlarni ajratib, daftaringizga ko'chirib yozing, ularning ma'nosini aytib bering.

1. Ochildimi boychechak, Endi har yon gul demak. (*Shukur Sa'dulla*) 2. Bu shaharning oti Ko'kterak ekan. (*G'afur Gulom*) 3. Bir kuni Oqiljonning dadasi uch-to'rt tup atirgul ko'chati ko'tarib keldi. (*Farhod Musajon*) 4. Onasi: «To'polon qilmay o'tiringlar, agar yaxshi bola bo'lib o'tirsanglar, ikkalovingga xo'rozqand olib kelib beraman», – deb tayinlab ketdi. (*Karim Rahim*)

✓ **45-mashq.** *Shirin, umum, xush, qora, oq, katta, uch, to‘qqiz* so‘zlarini ishtirok ettirib, qo‘shma so‘zlar tuzing.

N a m u n a: shirinso‘z, shirinzabon, shirintomoq.

46-mashq. «Manzilga kim birinchi yetadi?» o‘yinini tashkil qiling. Buning uchun uch guruhga bo‘linib, sinf taxtasiga har bir guruhdan bittadan vakil chiqaring. Ular qo‘shma so‘zlarga 7 tadan misol yozsin. Kim birinchi bo‘lib topshiriqni bajarsa, o‘sha g‘olib chiqqan bo‘ladi.

1-guruh

2-guruh

3-guruh

Qorasuv

Uchtepa

xushbichim

Takrorlash uchun savollar



1. Qo‘shma so‘zlar nechta so‘zdan tashkil topgan bo‘ladi?
2. Qo‘shma so‘zlar qanday yoziladi?
3. *Balandparvoz* so‘zini ajratib, har bir so‘zga alohida izoh bering.
4. Uchta so‘zdan ham qo‘shma so‘z yasaladimi?

47-mashq. *Uyga topshiriq.* **Gaplarni ko‘chiring, qo‘shma so‘zlarni topib, izohlang.**

1. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e‘tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning katta boyligidir. (*I. Karimov*) 2. Temur dushmanlariga ofat keltiruvchi, askar-u lashkarboshilariga qattiqqo‘l, xalqiga esa saxovatli ota kabi edi. (*Sharafiddin Ali Yazdiy*) 3. Mana, qishlog‘imizning nomini olaylik. Bir zamonlar uni Mingchinor deb atashgan. Oq laylaklar qishlog‘imiz chinorlariga in qo‘yib ko‘payib ketgach, Mingchinorni unutib, Laylakxona deb nom berishgan. (*S. Barnoyev*)

12-d a r s. JUFT SO‘ZLAR IMLOSI

48-mashq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobidan keltirilgan quyidagi parchani o‘qing, ko‘chirib yozing va juft so‘zlarni aniqlang.

Dono xalqimiz g‘araz va hasad bilan yashaydigan, o‘z shaxsiy manfaatiga o‘zgalar hisobidan erishishni ma’qul ko‘radigan, faqat o‘zini o‘ylaydigan kimsadan o‘zi asrasin, deydi. Bag‘rikeng, halol-pok, vij-

donli, mehr-oqibatli, el-yurtning g'am-u tashvishi bilan yashaydigan kishilarni esa, aksincha, boshiga ko'taradi va bunday odamlar jamiyat tomonidan qadr-qimmat, hurmat-e'tibor topadi.

***49-mashq.** «Xato toping» o'yinini tashkil qiling. Quyida berilgan noto'g'ri so'zlarni to'g'rilab yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Kuch - farosat, ko'cha - tomosha, aql - so'z, egri - dushman, gap - qudrat, yaxshi - bugri, to'y - ko'y, do'st-u - yomon, baxt - xayol, o'y - saodat.

✓ **50-mashq.** Juft so'zlarning tushirib qoldirilgan qismini topib, daftaringizga ko'chirib yozing.

Kasb -... kollejlari yangi tipdagi o'quv dargohi sanaladi. Mamlakatimizda tinchlik -...ning hukm surayotgani bizning baxtimizdir. El -... manfaati uchun kurashish hammaning burchidir. Insonlarning aql -...i, fe'l -...i, ma'naviy -... kamoloti mamlakat taraqqiyotini belgilaydi.

Takrorlash uchun savollar



1. Juft so'zlar deb qanday so'zlarga aytiladi?
2. Juft so'zlarga misollar ayting.
3. Juft so'zlar qanday yoziladi?

51-mashq. Uyga topshiriq. Juft so'zlar ishtirok etgan gaplar tuzing, ularning yozilishiga diqqat qiling.

N a m u n a: O'g'il-qizlarimiz jahondagi boshqa millat vakillaridan qolishmaydigan bo'lsin.

13-d a r s. DARAK, SO'ROQ, BUYRUQ VA HIS-HAYAJON GAPLARDA TINISH BELGILARI

52-mashq. Matnni o'qing. Gaplarning oxiriga kerakli tinish belgilarini qo'yib, daftaringizga ko'chiring.

Tog'ga ham chiqamizmi () dedi Feruza quvonchidan qichqirib ()
Zuhra Feruzaning qo'lidan ushlab, yo'l boshlagan edi, oyisi tayinladi ()
– Yalpiz ham terib kelinglar () Feruza yalpizni hech ko'rmagan edi ()

– Nima, yalpiz ham gulmi () deb so‘radi () – Voy, yalpizni bilmaysanmi () Fotima hayron bo‘ldi () Yalpiz o‘t-da ()

(O‘. Hoshimov)

53-mashq. Rasm asosida «Bolalikning beg‘ubor tongi» mavzusida og‘zaki matn tuzing. Unda darak, so‘roq, buyruq va his-hayajon gaplardan foydalaning.



Tayanch so‘zlar: o‘g‘il, qiz, baxtli, gul, kapalak, varrak, bog‘, chamanzor, mehribon, g‘amxo‘rlik, o‘ynamoq, yugurmoq, maza qilmoq, xursand bo‘lmoq

***54-mashq.** His-hayajon gaplarni topib, ularning oxirida nima sababdan undov belgisining ishlatilayotganini tushuntirib bering.

Achchiq savol berib, shirin javob kutma! Bugungi ishni ertaga qo‘yma! Ma‘rifatli, yuksak didli bolalardan kelajakda ulug‘ insonlar yetishib chiqsa ne ajab!

Kelishning ketishi bordir dunyoda,
So‘zingni ezgu qil – umring ziyoda!

(Yusuf Xos Hojib)

Takrorlash uchun savollar



1. «O‘zbekiston – mustaqil davlat». Bu gapning oxirida nima uchun nuqta ishlatiladi?
2. So‘roq belgisining ishlatilishiga misollar keltiring.
3. Undov belgisi qanday gaplarda ishlatiladi?

55-mashq. *Uyga topshiriq.* **Rivoyatni o‘qib, undagi mazmun haqida o‘ylang. Fikrlaringizni daftarga yozing.**

Aytishlaricha, ikki qo‘shni bir parcha yerni talashib qolishibdi.

– Bu yer meniki! – debdi biri.

– Yo‘q! Bu yer meniki! – debdi ikkinchisi.

Shunda yerdan sado chiqib:

– Ikkoving ham meniki! – debdi.

Shu sado tufayli ikki qo‘shni murosaga kelib, yarashishibdi.

(Rivoyat)

14-d a r s da nazorat diktanti o‘tkaziladi.

15-d a r s da test ustida ishlanadi.

SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA

16-d a r s. SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA

1-topshiriq. Quyidagi soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, gap tuzing. *Oʻzbekiston, buyuk, kelajak, davlat.* Gap tuzish uchun nimalar qilganingizni ayting.

2-topshiriq. *Yaxshi, kitob oʻqi. Yaxshi kitob oʻqi.*

Yuqoridagi jumlar bir-biridan nimasi bilan farq qilayotganini ayting. Tinish belgisining fikrni toʻgʻri ifodalashdagi ahamiyatini tushuntiring.

! Maʼlum bir fikrni ifodalash uchun soʻzlarni tilimizning muayyan qoidalari asosida bir-biriga bogʻlab, gap tuzamiz. Soʻzlarning bir-biriga bogʻlanishi, gap va uning turlarini oʻrgatadigan tilshunoslik boʻlimiga sintaksis, tinish belgilari va ularni yozma nutqda toʻgʻri qoʻllash yoʻl-yoʻriqlarini oʻrgatuvchi tilshunoslik boʻlimiga esa punktuatsiya deyiladi.

56-mashq. Gaplarni oʻqing. Tinish belgisi bilan bogʻliq holda gaplar maʼnosidagi farqni tushuntiring.

1. Bu gapiy yomon, boʻlmadi. Bu gapiy yomon boʻlmadi. 2. Sen katta, bola emassan. Sen katta bola emassan. 3. Ona aziz, farzandiga yelni ham ravo koʻrmaydi. Ona aziz farzandiga yelni ham ravo koʻrmaydi. 4. Toʻgʻri, yoʻllarda ham mashaqqat bor. Toʻgʻri yoʻllarda ham mashaqqat bor.

✓ **57-mashq.** Maktabdagi hayotingiz bilan bogʻliq 4 ta gap tuzing. Gapdagi soʻzlarning asosini aniqlang. Soʻzlar gapda nimalar yordamida bogʻlanayotganini tushuntiring. Gap boʻlaklarining joylashishiga diqqat qiling.

58-mashq. Berilgan gaplarning maʼnosini tinish belgisini qoʻyish bilan oʻzgartiring. Har bir gapni oʻzgarguncha va oʻzgargandan keyin oʻqing hamda ohangiga eʼtibor qarating.

1. Sobir akam keldi. 2. Yaxshi bolalar vaqtini bekor oʻtkazmaydi. 3. Xona katta kishilarga yoqdi. 4. Gullar chiroyli stolni bezab turibdi.

5. Akam kecha kelgan mehmonlarni o‘zi kutib oldi. 6. Ajdodlarimiz ulug‘ temuriylarga borib tutashadi.

◆ ***59-mashq.** Gaplar tuzing, vergulni o‘zgartirish orqali yangi gaplar hosil qiling.

N a m u n a: Havo sovuq emas, issiq.
Havo sovuq, emas issiq.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Sintaksis nimani o‘rganadi?
 2. Punktuatsiya tilshunoslikning qanday bo‘limi?
 3. *Sport, tinchlik, elchi* so‘zlarini bog‘lab, gap tuzing. Qanday tinish belgilaridan foydalanganingiz sababini ayting.

60-mashq. Uyg‘a topshiriq. «Saxiy kuz keldi» mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda ishlatilgan tinish belgilarini izohlang.

17-d a r s. GAP

- 1-topshiriq.** 1. *Gulzor, gul, ter.*
2. *Gulzordan gul teraman.*

Birinchi qatordagi uchta so‘z bilan ikkinchi qatordagi so‘zlar nimasi bilan farq qilishini ayting.

2-topshiriq. Vatanni sevish to‘g‘risida maqol ayting. Tarkibida nechta so‘z borligini aniqlang.

Siz yangi bir ertakni eshitdingiz. Uni o‘rtoqlaringizga aytib bermoqchisiz. Ana shunda nima qilasiz? O‘zbek tilining qonun-qoidalari asosida so‘zlarni qo‘shib hosil qilingan gaplardan foydalanasiz. Demak, nutqimiz gaplardan iborat bo‘ladi. Masalan: 1. *Baliqchi chol oltin baliq ushlab olibdi.* 2. *Sevinibdi.* Bularning har ikkisi gap, lekin birinchisi bir necha so‘zdan, ikkinchisi esa faqat bitta so‘zdan tashkil topgan. Ularning har ikkisi uchun muhim narsa kesimlarning mavjudligi, tugallangan ohang bilan aytilishi va fikr ifodalashidir. Ana shu belgisi bilan gap so‘z va so‘z birikmasidan farq qiladi.

! Ohang va fikr tugalligiga ega bo‘lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi so‘z va so‘zlar qo‘shilmasiga gap deyiladi. M a s a l a n: *Vohid o‘rnidan turdi. (O. Yoqubov)*

Yurtimiz qanday chiroyli! Yozuvda gap oxiriga nuqta, so‘roq yoki undov belgilaridan biri qo‘yiladi va har bir gap bosh harf bilan boshlanadi.

61-mashq. Quyidagi so‘zlardan foydalanib, gaplar tuzing, so‘zlarning bog‘lanishiga alohida diqqat qiling.

1. Ma’naviyat, qalb, quyosh. 2. Biz, Amir Temur, nabira. 3. Mustaqillik, abadiy, bo‘l. 4. Siz, o‘z, Vatan, sev. 5. Iste’dodli, bola, deganda, kim, tushun. 6. Ona, tabiat, e‘zoz.

62-mashq. O‘qing. Har bir qatordagi gap, so‘z va so‘z birikmalari sonini aniqlang.

1. Ko‘hna Samarqand. Har bir o‘zbek bu shahar bilan faxrlanadi. 2. Mana Registon. Binolarga hayrat bilan boqaman. 3. Kuch – adolatda. Bu – Sohibqironning hayotdagi shiori edi. 4. Kuch – bilimda. U insonni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi mayoqdir.

63-mashq. *Ertasi, shahrimiz, tonggi, bobom, do‘sting, yuksak, kelajagi* kabi so‘zlarni tegishli so‘zlar bilan kengaytiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a: Ertasi: Vatanimning ertasi – Vatanimning ertasi charog‘on.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. *Gap* deb nimaga aytiladi?
 2. Gapning so‘z va so‘z birikmasidan farqi nimada?
 3. Bitta so‘zni gapga aylantiring.

64-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zingiz tanlagan biror rasm asosida hikoya tuzing. Tuzgan hikoyangizga sarlavha toping hamda og‘zaki so‘zlab bering.

18-d a r s. GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI

1-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, gap tuzing. So‘zlarni bog‘lash uchun nimalar qilganingizni ayting.

Mustaqillik, biz, baxt, ber.

2-topshiriq. Berilgan gapning boshidagi ikki soʻz orasiga va bogʻlovchisini qoʻying.

Shahar, qishloqlarimizda bugun oʻzgacha hayot hukm surmoqda.

Gap tarkibida ishtirok etgan soʻzlar bir-biri bilan bogʻlanadi. Masalan: *qir va adir, Oygul bilan Baxtiyor; gulni hidlamoq, maktabga kelmoq* kabi. Misollardan koʻrinadiki, soʻzlarning bogʻlanishi bir xil emas. Ayrim soʻzlar *va, ham, hamda, bilan* singari bogʻlovchi va bogʻlovchi vazifasidagi soʻzlar yoki sanash ohangi yordamida bogʻlanadi.

Boshqalarida esa birinchi qism ikkinchi qismga *-ni, -da, -dan, -ning* kabi qoʻshimchalar, *tomon, toʻgʻrisida, haqida, uchun* singari yordamchi soʻzlar bilan bogʻlanadi. Masalan: *akasiga olmoq, akasi uchun olmoq.*

! Soʻzlarning bogʻlanishi ikki xil boʻladi: teng bogʻlanish va tobe bogʻlanish.

Olma va oʻrik shaklidagi bogʻlanish teng bogʻlanish, *olmani yemoq* shaklidagi bogʻlanish esa tobe bogʻlanish sanaladi.

✓ **65-mashq.** Notoʻgʻri bogʻlangan soʻz birikmalarini toping va ularning nima sababdan bir-biriga bogʻlanmasligini tushuntirib bering.

Shirin taom, shirin xotira, achchiq va shirin, qovunning shirini, kitobning shirini, qovunni kesmoq, daftarning olmoq, kitob bilan daftar, suv va havo, suvda choʻmilmoq, suvga ichmoq, sutni ichmoq.

***66-mashq.** Soʻzlarni qaysi soʻzga bogʻlanishini toping va daftaringizga koʻchiring.

ozodlikka	oʻqimoq
ertakni	choʻmilmoq
daryoda	duosi
lolani	erishmoq
onaning	uzmoq

67-mashq. Berilgan hikmatli soʻzlarni oʻqing. Soʻz birikmalarini aniqlab, daftaringizga yozing.

N a m u n a: Toʻgʻri yoʻlni tanla.
(toʻgʻri yoʻl, yoʻlni tanlamoq)

1. Beshikdan qabrgacha ilm izla. 2. Bir odam ariq qaziydi, ming odam suv ichadi. 3. So‘z qadrini bilmagan, o‘z qadrini bilmas. 4. Vatan ostonadan boshlanadi. 5. To‘g‘ri so‘zning zahri yo‘q. 6. Bir gul bilan yoz bo‘lmas.

1-topshiriq. Maqol va hadislarning mag‘zini chaqing. Ularni izohlang.

2-topshiriq. Ajratgan birikmalaridagi qaysi so‘z asosiy ma‘noni ifodalayotganini, qaysi biri uni to‘ldirib, izohlab kelayotganini aniqlang.

Savol va topshiriqlar



1. Gapda so‘zlar necha xil usul bilan bog‘lanadi?
2. Teng bog‘lanishga misollar keltiring.
3. Tobe bog‘lanishga misollar ayting.
4. *Kitob o‘qimoq, yer va quyosh* birikmalaridagi so‘zlarning bog‘lanish usullarini aniqlang.

68-mashq. *Uyga topshiriq.* So‘zlarni bir-biriga bog‘lab gaplar hosil qiling va ularni daftaringizga ko‘chiring.

1. Biz, bog‘, ish. 2. Ona, dunyo, eng, chiroyli, ayol. 3. Toza, yur, kasal, bo‘l. 4. Alisher Navoiy, o‘zbek, xalq, buyuk, shoir. 5. Uy, ish, ona, yordam.

19-d a r s. SO‘Z BIRIKMASI


1-topshiriq. *Kuylayman* so‘ziga nisbatan savol (*nimani?*) berib ko‘ring. Darhol javob olasiz: *yurtimni kuylayman*. Bu birikmada qaysi qism muhim ahamiyatga ega ekanini toping.

2-topshiriq. *Chiroyli bino, katta bino, yangi bino* birikmalaridagi tobe va hokim qismlarni aniqlang.



Ikki so‘zning biri tobe, ikkinchisi hokim tarzidagi bog‘lanishiga tobe bog‘lanish deyiladi. Tobe bog‘lanishda doim ikkita qism: tobe va hokim so‘z bo‘ladi. Tobe so‘z hokim so‘zga bog‘lanadi. So‘roq hokim so‘zga qarab beriladi. So‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z tobe qism sanaladi.


M a s a l a n:



69-mashq. Aralash holda berilgan so'zlarni unga mos keladigan so'zlar bilan bog'lab, so'z birikmalari tuzing, hokim va tobe qismlarni toping.

Mamlakatimizning, dunyoga, xorijda, fermer, jonini, fidoyi, zotlar, xo'jaligi, fido qilmoq, o'qimoq, chiqmoq, shuhrati.

***70-mashq.** O'zbek so'zi ishtirokida so'z birikmalari tuzing va gaplar hosil qiling.



71-mashq. Grammatik o'yin tashkil qiling. *Gul* so'zi ishtirokida kim eng ko'p so'z birikmasi tuza olar ekan? Topshiriqni yozma bajaring.

72-mashq. Gaplar tarkibidan so'z birikmalarini ajratib oling va ularning bog'lanish usullariga izoh bering.

1. Aql bozorda sotilmas. 2. Aql aqldan quvvat oladi. 3. Aybini yashirmoq – nodonlar ishi. 4. Aqldan ortiq boylik yo'q. 5. Aqlni beaqlndan o'rgan. 6. Ahmoqning katta-kichigi yo'q.

Savol va topshiriqlar

- 1. Qanday bog'lanishga tobe bog'lanish deyiladi?
- 2. Hokim so'z deb nimaga aytiladi?
- 3. Tobe so'z haqida gapirib bering.

73-mashq. *Uyga topshiriq. Bahor, do'stlik, tinchlik* so'zlari ishtirokida so'z birikmalari tuzing, so'zlarning bog'lanishiga alohida diqqat qiling.

N a m u n a: bahor gullari, bahorda ochilmoq, bahorni kutib olmoq, ilk bahor...

20-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSI

74-mashq. «Ikki yorti – bir butun» o'yinini tashkil qiling. Ikki guruhga bo'ling. Birinchi guruh aytgan so'zga ikkinchi guruh so'z topib, ularni bir-biriga bog'lasin va izohlab bersin.

<i>N a m u n a:</i>	1-guruh	2-guruh
	daraxtning	bargi
	(tobe so'z)	(hokim so'z)
	so'rog'i: nimaning?	nimasi?

✓ **75-mashq.** *Maktab* so'zi ishtirokida kim eng ko'p so'z birikmasi hosil qila olar ekan? Musobaqa tashkil qiling.

N a m u n a: maktabimiz bog'i, maktab binosi, maktabga bormoq, bizning maktabimiz va hokazo.

76-mashq. Teng bog'lanish usuli bilan hosil qilingan so'z qo'shilmalarini daftaringizga yozing va so'zlarni bog'lovchi vositaga diqqat qiling.

Kuch – bilim va tafakkurda. Xalq va Vatan manfaati yo'lida kurashmoq hammamizning burchimizdir. Turli millat vakillari bilan inoq va ahil yashash ezgu maqsadimizdir. Ozod va obod, erkin va farovon hayotni barpo etish har bir yurtdoshimizning e'tiqodiga aylangan.

***77-mashq.** Quyidagi so'zlarni bir-biriga bog'lab, gaplar tuzing, so'zlarning bir-biriga bog'lanish usullarini aniqlang.

1. Or, nomus, imon, e'tiqod, lozim, bo'l. 2. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, o'zbek, xalq, ulug', shoir. 3. Xalq, Vatan, qo'riqlash, biz, muqaddas, burch.

78-mashq. *Uyga topshiriq. Ukam bilan singlim, kitoblar va daftarlar, ota-yu ona, gul-u bulbul ko‘rinishidagi bog‘lanishlarni izohlashga harakat qilib ko‘ring. O‘zingiz ham shunga o‘xshash misollar topib, yozing.*

21-d a r s. **GAPLARNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARI**

1-topshiriq. Quyida berilgan gaplarning bir-biridan farqini ayting.

1. Sen qaysi kasbni yaxshi ko‘rasan? 2. Dalalarda ishlar qizg‘in.
3. Ertaga, albatta, bu she‘rni yodlab kel. 4. Zora, u sening aytganlaringni qilsa.

2-topshiriq. *Qachon, qanday* so‘zlari ishtirokida gap tuzing. Bu gapni qanday maqsadda qo‘llashingizni ayting.

Siz o‘zingiz bilmagan narsalarni boshqalardan so‘ramoqchisiz yoki o‘zingiz bilgan axborotni tinglovchiga yetkazmoqchisiz. Ana shu vaqtda maqsadingizga muvofiq keladigan gap shakllaridan birini tanlaysiz.



Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra to‘rt xil shakli bor:

1) darak gap; 2) so‘roq gap; 3) buyruq gap; 4) istak gap.

79-mashq. *Matnni o‘qing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aytib bering. Sizning orangizda ham Qosimga o‘xshagan bolalar bormi? Bu haqda o‘ylab ko‘ring.*

YOMONLIKNING JAZOSI

Bir kishining Qosim ismli o‘g‘li bor edi. Ota-yu onasining so‘ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilar edi. Bolalar bilan urishib, yoqalashib, kiyimlarini yirtib kelar edi. Uyda mehmon uchun asrab qo‘ygan taomlarni yegan vaqtda onasi: «Qosim, o‘g‘lim! Taomni sen yedingmi?» – desa, «Men yeganim yo‘q! Mushuk yegandir», – der edi. Bora-bora otasining pulini ham o‘g‘irlab oladigan bo‘ldi. Otasi bilib: «O‘g‘lim, pulni kim oldi?» – desa, «Onam olgandir», – deb onasini o‘g‘ri qilar edi.

Bir kuni otasi stol ustiga bir tanga qo‘yib o‘zini uxlaganga solib yotdi. Qosim kelib, sekin tangani og‘ziga soldi. Shu vaqt otasi uni ushlab qolmoqchi bo‘lgan edi, Qosim tangani yutib yubordi. Tanga uning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Ey bolalar! Ko‘rdinglarmi, yomonning yomonligi o‘z boshiga yetdi.

(*Abdulla Avloniy*)

80-mashq. Gaplarni o‘qing, ularning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini topib, daftaringizga yozing.

1. Ilm baxt keltiradi. 2. Ilmning aql chirog‘i ekanini bilasizmi? 3. Dunyo ko‘raman desang, o‘qi! 4. Ilm olish igna bilan quduq qazish demakdir. 5. Qani edi, men ham o‘qib, olim bo‘lsam edi. 6. Bilmaslik ayb emas, bilimga intilmaslik – ayb. 7. Bilimning har qanday boylikdan afzal ekanidan xabardormisiz?

81-mashq. To‘rt guruhga bo‘lining. Birinchi guruh darak gapga, ikkinchi guruh so‘roq gapga, uchinchi guruh buyruq gapga, to‘rtinchi guruh istak gapga 3 tadan misol yozsin. Qani, kim birinchi bo‘lib topshiriqni bajarar ekan?

N a m u n a: 1. Mustaqillikning oydin yo‘lidan ketyapmiz. 2. O‘zbekiston BMTga qachon a‘zo bo‘lgan? 3. Ona yurtिंगni ko‘z qorachig‘idek asra! 4. Ertaga yomg‘ir yog‘masa edi.

Savol va topshiriqlar



1. Gapning ifoda maqsadi deganda nimani tushunasiz?
2. Ifoda maqsadiga ko‘ra gapning qanday turlarini bilasiz?
3. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlariga misollar keltiring.

82-mashq. Uyga topshiriq. O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarining har biriga 2 tadan misol yozing.

22-d a r s. DARAK GAP

1-topshiriq. Oromgohda ko‘rganlaringiz haqida hikoya qilib bering. Qanday gaplardan foydalanganingizni ayting.

2-topshiriq. Maktab direktori nomiga ariza yozing. Qanday gaplardan foydalanganingizni ayting.

Darak gapda biror voqea-hodisa haqida xabar beriladi. Shuning uchun darak gaplarning kesimi darak-xabar ma'nosini bildiruvchi so'zlar yordamida ifodalanadi. Masalan: *Vatanimizning har bir qarich yerini qadrlaymiz.*

! Darak, xabar ma'nosini bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi. Darak gaplar oxiriga yozuvda doimo nuqta qo'yiladi.

✓ **83-mashq.** Gaplarni o'qib, ularning nima sababdan darak gap ekanini aytib bering.

Quduq yonida uch xotin uchrashib qolishdi. Biri o'z o'g'lini «Juda sho'x, yerga ursa, osmonga sapchiydi» deb maqtandi. Ikkinchisi o'g'lining ashula aytishini ulug'ladi. Uchinchi ayol o'g'li haqida hech narsa demadi.

Shunda uchala ayolning o'g'illari kelib qolishdi. Birinchi bola hush-tak chalib, osmonga tosh otdi. Ikkinchisi ashula boshladi. Uchinchi ayolning o'g'li indamay kelib, onasining qo'lidan paqirni olib, unga yordamlashdi.

Aytinglar-chi, kimning o'g'li yaxshi ekan? (O'. Hoshimov)

84-mashq. So'roq gaplarni darak gaplarga aylantirib, ko'chiring.

Vatanning muqaddas tushuncha ekanini bilasizmi? Dunyoda onadan ulug'roq zot bormi? Kitobning bilim manbayi ekanini kim ham bilmaydi deysiz? Yaxshilik yerda qoladimi? Yaxshi do'st o'rtog'iga xiyonat qiladimi?

***85-mashq.** Harflarni o'z o'rniga qo'yib chiqsangiz, darak gap shaklidagi xalq maqoli kelib chiqadi. Uni toping.

K	t	l	
i	o	m	
b	b	m	
i	l	a	n
b	a	y	i

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qanday gaplarga darak gap deyiladi?
 2. Darak gaplar oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

86-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi soʻzlardan foydalanib, darak gaplar tuzing. Gapda soʻzlarning bogʻlanishiga diqqat qiling.


1. Goʻzallik, husn, emas, mehnat. 2. Mehnat, mehnat, tag, rohat. 3. Mehnat, kel, boylik, turmush, boʻl, chiroyli. 4. Daryo, suv, bahor, tosh, odam, qadr, mehnat, osh. 5. Hurmat, savlat, mehnat, davlat.

23-d a r s. SOʻROQ GAP

1-topshiriq. *Kim, nima, qachon* soʻroq bildiruvchi soʻzlar ishtirokida gap tuzing. Gaplarning farqini ayting.

2-topshiriq. Quyida berilgan gaplarning qanday javob talab qilishiga koʻra farqini ayting. 1. *Siz qaysi yozuvchilarni sevasiz?* 2. *Abdulla Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» romanini oʻqiganmisiz?*

! Soʻroq maʼnosini bildirgan gaplar soʻroq gaplar hisoblanadi.

 Soʻroq gaplar soʻroq olmoshlari (*kim, nima, qayer, qancha* kabi), soʻroq yuklamalari (*-mi, -a (-ya), -chi*) yoki soʻroq ohangi yordamida ifodalanadi. **M a s a l a n:** – Tunda yoʻlga chiqamiz.

– Tunda?

Yozuvda soʻroq gap oxiriga soʻroq (?) belgisi qoʻyiladi.

87-mashq. Darak gaplarni soʻroq gaplarga aylantirib, daftaringizga koʻchiring.

Bepoyon sahro. Quyosh olov seli purkaydi. Ufq qadar yastangan sarhadsiz qumlikda qilt etgan tirik jon koʻrinmaydi. Ahyon-ahyonda koʻhna sardobalar uchraydi.

(X. Sultonov)

***88-mashq.** Soʻroq gaplarni hosil qiluvchi vositalarga diqqat qiling. Savollarga ogʻzaki javob bering.

«Mustaqil yurt» deganda, nimani tushunasiz? Boʻsh paytingizda onangizga yordam berasizmi? «Ogohlik» nima degani? Bolalar qanday sifatlarga ega boʻlishi kerak? Jaloliddin Manguberdi kim boʻlgan? Qanday xalq ertaklarini oʻqigansiz? Kelajakda kim boʻlmoqchisiz?

✓ **89-mashq.** Nuqtalar o‘rniga so‘roq olmoshlari yoki so‘roq yuklamalaridan birini qo‘yib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

- ... tishlaysan? – dedi Til duduqlana-duduqlana Tishga.
 - Uchingdan ozginasini uzib tashlamoqchi edim-da! – javob qildi Tish.
 - Gunohim ...?
 - Shuni ham bilmaysan..., ko‘ringanga zahar sochasan, hamma sendan bezor. Sal qisqartirib qo‘ysam, shirinroq bo‘lar...ding?
- Qissadan hissa: Tilning zahari – jonning azobi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qanday gaplar so‘roq gap hisoblanadi?
 2. So‘roq gaplar qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
 3. So‘roq gap oxiriga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

90-mashq. Uygʻa topshiriq. O‘qiyotgan badiiy asaringizdan so‘roq gaplarga misollar yozing.

24-d a r s. SO‘ROQ OLMOSHLARI YORDAMIDA IFODALANGAN SO‘ROQ GAPLAR

1-topshiriq. Shaxsni, miqdorni, o‘rinni aniqlash uchun beriladigan so‘roqlarni toping va ularni gap ichida keltiring.

2-topshiriq. Belgini, paytni, narsa va hodisalarni aniqlash uchun beriladigan so‘roqlarni toping va ular ishtirokida gap tuzing.

So‘roq gaplar tarkibida ko‘pincha so‘roq olmoshlari ishtirok etadi.

- ! **So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘zni talab qiladi. M a s a l a n:**
- Ko‘chatlarga kim suv quydi?
 - Salim.

91-mashq. Nuqtalar o‘rniga so‘roq olmoshlaridan mosini qo‘yib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring. Savollarga javob berishga harakat qiling.

1. Uchi ochilmagan qalamning ... qirrasini bor?
2. Boku ... davlatning poytaxti sanaladi?
3. Qo‘rqma, yuraging yorilmasin, ... yotibsan? (*Ertakdan*)
4. Ketsang, yana ... kelasan?
5. Bobo, ... odobli? Menmi yoki Shuhratmi, ayting, axir? (*X. To‘xtaboyev*)

✓ **92-mashq.** *Nega?, kim?, nima?, qaysi?, qanday?, qanaqa?* olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

93-mashq. Matnni o'qing. So'roq gaplarni topib, ifodalanish usullarini tushuntirib bering.

Sobir buvajonini o'zining kutilmagan, ba'zan esa qiyin savollari bilan ajablantirib, hatto shoshirib ham qo'yardi.

Bir kuni buvasining yelkasida bog'chaga ketayotgan Sobir o'zim yuraman deb, yerga tushdi. Chopqillayman deb, qoqilaverdi. Shunda buvasi:

– Ko'zingga qarab yur, bo'tam, – degandi, Sobir:

– Ko'zimga nima bilan qarayman? – deb buvasini kuldirdi.

Boshqa safar u buvasidan so'rab qoldi:

– Aql nimada, buvajon?

– Aql ... – Nodir buva o'ylab olib, dedi. – Bu – es-hush. Miyada bo'ladi.

– Miyada bo'lsa, uni qanaqa qilib yeb bo'ladi?

– Kimdan eshitding buni?

– Oyim aytdi-ku «Aqlingni yeb qo'yibsan!» deb.

Bu ham Nodir buvaning soqolini selkillatib kulishiga sababchi bo'ldi.

(*Hakim Nazir*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. So'roq olmoshlari yordamida ifodalangan so'roq gaplar so'roq yuklamalari yordamida ifodalangan so'roq gaplardan qanday farq qiladi?
 2. Belgini (rang, maza, hajm va boshqalar), o'rinni, miqdorni, shaxsni, narsani bildiruvchi so'roqlarni aniqlang.

94-mashq. *Uyga topshiriq.* «Qarisi bor uyning parisi bor» mavzusida matn tuzing. Unda so'roq olmoshlari ishtirok etgan so'roq gaplardan foydalaning.

25-d a r s. SO'ROQ YUKLAMALARI YORDAMIDA IFODALANGAN SO'ROQ GAPLAR

1-topshiriq. *-mi, -a (-ya)* yuklamalari yordamida so'roq gap hosil qiling.

2-topshiriq. *-chi* yuklamasi yordamida so'roq gap hosil qiling. So'roq yuklamasining qanday yozilganini tushuntiring.

So‘roq gaplarning bir guruhi **-mi, -chi, -a(ya)** kabi so‘roq yuklamalari orqali ifodalanadi. Bu yuklamalar so‘roq gaplar kesimining oxiriga qo‘shiladi.

! So‘roq yuklamalari orqali ifodalangan so‘roq gaplar **ha** yoki **yo‘q** javoblarini talab qiladi.

☞ Yozuvda **-mi** yuklamasi kesimga qo‘shib yoziladi. **-chi** va **-a (-ya)** yuklamalari esa o‘zi qo‘shilayotgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

95-mashq. Nuqtalar o‘rniga **-mi, -chi, -a, -ya** yuklamalaridan mosini qo‘yib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

1. Shu aziz Vatan barchamizniki emas...? 2. Kasallikka eng yaxshi davo mehnat ekanini bilasiz...? 3. Singling a‘lo o‘qishi bilan hammani xursand qilyapti, sen- ...? 4. Shu ishlarni o‘zing qilib qo‘ya qolsang-...? 5. Chaqimchilik nima ekanini bilasizlar...? U odamlarning gaplarini bir-biriga tashimoqlikdir. (*Hadisdan*)

✓ 96-mashq. «Odob salomdan boshlanadi» mavzusida bahs yuriting. Bahs davomida so‘roq gaplardan foydalaning.

97-mashq. Matnni o‘qing. So‘roq gaplarni topib, ularni hosil qiluvchi vosita haqida gapirib bering.

Bir podshoh vazirini chaqirib buyuribdi:

– Bir imorat qurdirki, tepasi osmonga, tagi yerga tegmasin.

Vazir: «Bu qanday buyruq ekan-a?» – deb o‘ylabdi.

Keyin kallasiga bir fikr kelib qolibdi.

– Xo‘p, mayli! Men aytganlaringizni bajaraman, lekin siz ham qovoqqa o‘xshagan savat to‘qiting. Men ishlayotgan yerga shu savatda suyuq osh olib borishsin, – debdi.

Shunda podshoh:

– Savatda hech zamonda suyuq osh turadimi, ahmoq?! – deb urishibdi.

Vazir:

– Ey podshohim, bo‘lmasa, ochiq havoga ham imorat qurib bo‘ladimi? – deb podshohni mot qilgan ekan.

(*O‘zbek xalq ertaklaridan*)

98-mashq. Matnni o‘qing. So‘roq gaplarni topib, ularning hosil bo‘lishini tushuntiring. Sizning oyingiz ham shundaymi?

YAXSHI OYI

Baxtiyor koptok o‘ynayotgan o‘rtog‘iga tashvishlanib qararkan, so‘radi:

– Alibek, bugun juda ko‘p o‘ynab yubording-ku. Oying urishmaydimi?

– Yo‘q, bugun urishmaydilar, – dedi Alibek gerdaygancha.

Baxtiyor hayron bo‘lib, yelka qisdi:

– Nega endi bugun urishmas ekanlar?

Alibek yotig‘i bilan tushuntirdi:

– Bugun-chi, uyimizga amakimlar kelishgan. Uyimizga mehmon kelgan kuni oyimlar meni urishmaydilar.

(*E. Madrahimov*)

Savol va topshiriqlar



1. **-mi** yuklamasi qanday yoziladi?
2. **-chi** va **-a (-ya)** yuklamalarining yozilishini misollar asosida tushuntiring.

99-mashq. *Uyga topshiriq.* Bobongiz, buvingiz yoki kekxa yoshdagi qo‘shnilaringiz bilan shahringiz (qishlog‘ingiz) tarixi haqida suhbatlashing. Suhbatning mazmunini qisqacha qilib daftarga yozing. Unda so‘roq yuklamalaridan foydalaning.

26-d a r s. BUYRUQ GAP

Topshiriq. *O‘qi, bajar* fe‘llari ishtirokida ikkita gap tuzing. Tuzgan gaplaringizning darak va so‘roq gaplardan nimasi bilan farq qilayotganini ayting.



Buyurish, da‘vat qilish ma’nolarini bildirgan gaplar buyruq gap sanaladi. M a s a l a n: *Chiroyli yoz.*

 **Buyruq gaplarning kesimi buyruq shaklidagi fe'llar orqali ifodalanadi. Buyruq gap oxiriga nuqta qo'yiladi.**

100-mashq. «Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l» maqolini qanday tushunasiz? Sizning orangizda bunga amal qilmaydigan bolalar bormi?

101-mashq. Gaplarni o'qing, buyruq gapni hosil qiluvchi vositalar haqida so'zlang. Kim bilan do'stlashish kerakligi haqida siz ham o'ylab ko'ring.

Agar sen haqiqiy do'st topmoqchi bo'lsang, quyidagilarga amal qil:


1. Do'stingdan hech narsani ayama.
2. Uning nuqsonlarini yashir, faqat o'ziga ayt, toki ularni tuzatib olsin.
3. Do'sting gapirganda diqqat bilan quloq tut!
4. Uning gaplaridan ayb qidirma.
5. Unga hurmat bilan munosabatda bo'l.
6. U yo'qligida orqasidan yomonlama.
7. Do'sting quvonsa, quvon, qayg'ursa, qayg'ur.
8. Kerak bo'lganda uni himoya qil! *(Husayn Voiz Koshifiy)*

***102-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Buyruq gapni hosil qilayotgan qo'shimchalar, vositalarning tagiga chizing, izohlang.

1. O'zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko'r. *(Hadisdan)*
2. To'liq pishmagan mevalarni yemangiz, issiq vaqtlarda yog'li narsalar yemakdin saqlaningizlar. *(Rizouddin ibn Faxruddin)*
3. Onangning aytganlariga quloq solgin, nima buyursa, bajargin.

4. Maqsadimiz – tinch yashash,
O'qish, ishlash va qurish.
Urushni xohlamaymiz,
Yashasin erkin turmush. *(Qudrat Hikmat)*

Savol va topshiriqlar

- 
1. Buyruq gaplarning darak va so'roq gaplardan farqini ayting.
 2. Buyruq gap kesimi qanday so'zlar orqali ifodalanadi?
 3. Buyruq gap oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

103-mashq. *Uyga topshiriq.* «**Agar sharmisor bo'lmayin desang, qilmagan ishni qildim dema**» («Qobusnoma»dan) hikmati mazmunini ifodalovchi hikoya tuzing va uni o'rtoqlaringizga o'qib bering.

27-d a r s. ISTAK GAPLAR

Topshiriq. *Bo'lsa, kelsa* so'zlari ishtirok etgan gap tuzing. Gap ma'nosini tushuntiring.

! Kesimi *-sa* shaklidagi fe'llar orqali ifodalangan gaplar istak gap hisoblanadi. **M a s a l a n:** *Xorijiy tillarni yaxshi o'rganib, chet ellarga o'qishga borsam.*

 **Istak gaplar oxiriga nuqta (.) qo'yiladi.**

104-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, istak gaplarni nihoyasiga yetkazing.

1. Niyatim, yurtimning buguni kechasidan, ertasi bugunidan yaxshiroq 2. Qani edi, dunyodagi barcha bolalar baxtli 3. Istaymanki, onajonim doimo 4. Hammamiz o'quv yilini muvaffaqiyatli 5. Yer yuzida barcha xalqlar tinch va totuv

***105-mashq.** Istak gaplarni toping va izohlang.

Qanday yaxshi,

Bog'larda gul ko'karsa.

Qanday yaxshi,

Do'stlar safi ko'paysa.

Qanday yaxshi,

Do'stlar senga ishonsa.

Qanday yaxshi,

Quvontirsa, quvonsa.

(Po'lat Mo'min)

106-mashq. Quyidagi gaplarni istak gapga aylantiring.

N a m u n a. Ertaga buvimlarnikiga boramiz. — Ertaga buvimlarnikiga borsak.

1. Shaharda ko'kalamzorlashtirish oyligi bo'lib o'tdi. (*X. To'xtaboyev*) 2. Sherg'ozni uydan xitoy qog'oz olib chiqdi. Ikkala o'rtoq varrak yasashga kirishdilar. (*Farhod Musajon*) 3. Bizning loyihamiz tanlovda yutib chiqdi. (*O. Yoqubov*) 4. Hasad bilan emas, havas bilan yashashga o'rganaylik. 5. Millatning dardiga darmon bo'linglar. (*Amir Temur*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Istak gap deganda nimani tushunasiz?
 2. Istak gaplar oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?

107-mashq. *Uyga topshiriq.* «Men kelajakda kim bo'lmoqchiman?» mavzusida insho yozing. Inshoda, albatta, istak gaplar ishtirok etsin.

28-d a r s. HIS-HAYAJON GAP

Topshiriq. His-hayajonsiz gaplarni his-hayajon gapga aylantiring.

His-hayajonsiz gaplar	His-hayajon gaplar
Qor yog'di.
Qo'ng'iroq chalindimi?
A'lochilar taqdirlansin.

 **Gaplar so'zlovchining his-hayajoni qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga ko'ra his-hayajonsiz gaplar va his-hayajon gaplarga bo'linadi.**

! His-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so'roq, buyruq shaklidagi gaplar his-hayajon gaplar sanaladi. **M a s a l a n:** *Ey Vatan! Polvonlaring bor bo'lsin! Uyg'oq bo'lsin!* (Y. Eshbek)

His-hayajon gaplarda ko'pincha *qancha, naqadar, shunchalar, qanday* so'zlari hamda undov so'zlar ishtirok etadi yoki kesim gapning oldida keladi. **M a s a l a n:** *Oh, naqadar go'zal ona tabiat!*

Yozuvda his-hayajon gaplar oxiriga undov (!) belgisi qo'yiladi. Agar so'roq gap his-hayajon bilan aytilsa, oldin so'roq belgisi, undan so'ng undov belgisi ishlatiladi. **M a s a l a n:** *Chiqmaysizmi?!*

✓ **108-mashq.** Matnni ovoz chiqarib o'qing. His-hayajon gaplarning talafuzi va ohangiga e'tibor bering.

Shu payt Shohistaning bobosi kirib keldi:

— Bay-bay-bay! Bunday ajoyib gulni kim parvarishlab o'stirdi-yu, kim sovg'a qildi senga? — deb so'radi nabirasidan.

– Gulni men o‘stirdim! – Bu gap og‘zidan qanday chiqib ketganini Odiljon sezmay qoldi. – Hali g‘unchasi ko‘p, mana ko‘rasizlar, ochilganda Nodiraga ham, Nigoraga ham beraman.

Bobo iljayib uning yelkasiga qoqdi:

– Barakalla, bo‘talog‘im! Niyatingki birovlarining ko‘nglini olish ekan, demak, sendan haqiqiy bog‘bon chiqadi.

(*Farhod Musajon*)

109-mashq. Berilgan gaplarni his-hayajon bilan o‘qing.

1. Iya, o‘g‘lim a‘lochi derdingiz, xati shumi hali?! (*Hakim Nazir*)
2. Barakali mehnatdan so‘ng rohatlanib dam olish qanday zavqli!
3. O, qoyilman, shuniyam hisobga oldingizmi?! (*Oybek*)

1-topshiriq. Gaplardagi his-hayajonni ifodalovchi vositalarni topib, izohlang.

2-topshiriq. Gaplarni his-hayajonsiz o‘qib ko‘ring. Ular ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gaplar hisoblanadi? Tinish belgilari qo‘yilishida o‘zgarish bo‘ladimi?

***110-mashq.** Berilgan his-hayajonsiz gaplarni his-hayajon gapga aylantiring. Tinish belgilariga e‘tibor bering.

1. Bahor... Barqut kiyib bezandi bog‘lar. (*E.Vohidov*)
2. Ipak qurticha g‘ayrating yo‘qmi? (*Navoiy*)
3. Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtog‘lar. (*Muqimiy*)
4. Tonggi qishloq manzarasi go‘zal.
5. Bu chorakni a‘lo baholarga yakunlasang.

Savol va topshiriqlar



1. His-hayajon gap deganda nimani tushunasiz?
2. His-hayajon gaplarning qanday belgilari bor?
3. His-hayajon gaplar oxiriga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

111-mashq. Uyga topshiriq. 1–2 tadan darak, so‘roq, buyruq, istak shaklidagi his-hayajon gaplar tuzing. Gaplarda his-hayajonni ifodalovchi vositalardan foydalaning.

29-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSİ

Bu dars bahs, musobaqa shaklida o‘tkaziladi. Buning uchun, avvalo, 4 guruhga bo‘lining. Musobaqa bir necha bosqichda o‘tkaziladi. Qaysi guruh bir tan-u bir jon bo‘lib o‘z bilimdonligini, sinchkovligini ko‘rsatsa va eng ko‘p ball yig‘sa, g‘olib bo‘ladi.

1-bosqich. «Tez yurar» o‘yini. O‘qituvchi guruhning har bir a‘zosiga o‘tilgan mavzu bo‘yicha navbatma-navbat bittadan savol beradi. O‘quvchilar o‘rnidan turib 3 lahza ichida javob berishi kerak. Shu muddat ichida javob berolmagan o‘quvchi tik turgan holda qoladi. Shu muddat ichida javob bergan guruh 10 ball oladi. Tikka qolgan o‘quvchilar soni 10 dan ayiriladi va bu guruh to‘plagan ball hisoblanadi.

2-bosqich. O‘qituvchi har bir guruhga quyidagi 4 gapni bo‘lib beradi: 1. Har ikkimizning ham baxt izlab yurgan o‘spirinligimiz ma‘lum bo‘ldi. (*G‘afur G‘ulom*) 2. Qo‘shish, ayirish, bo‘lish, ko‘paytirishlarni bilib oldim. (*Hakim Nazir*) 3. Unga Shakarbek deb ism qo‘yishibdi. («*Shirin bilan Shakar*» *dostonidan*) 4. Shahar ko‘chalari keng va chiroyli.

Ushbu darak gaplardan imkoni boricha ko‘proq so‘roq, buyruq, istak hamda his-hayajon gaplar hosil qilinadi. Bu gaplarni hosil qiluvchi vositalardan, albatta, foydalaniladi. Shuningdek, gaplarga boshqa so‘zlarni, ayniqsa, fe‘llarni qo‘shish mumkin. Faqat gapning mazmuni o‘zgarib ketmasin. Har bir to‘g‘ri tuzilgan gapga 1 ball beriladi, noto‘g‘ri bo‘lsa, ball berilmaydi.

3-bosqich. O‘qituvchi sinf taxtasiga har bir guruh uchun bittadan gap yozadi. Gaplarda tinish belgilari hamda imlo bilan bog‘liq 5 ta xato bo‘ladi. Guruhlar uni qog‘ozga ko‘chirib, 2 daqiqada xatolarni tuzatib, o‘qituvchiga topshirishi kerak. O‘qituvchi javoblarni sinf taxtasida tahlil qilib beradi. Har bir to‘g‘ri tuzatilgan xato uchun 1 ball beriladi.

4-bosqich. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi taklif qilinadi.

O‘qituvchi ifoda maqsadi hamda his-hayajon ishtirokiga ko‘ra turlicha bo‘lgan 5 ta gapni o‘qib eshittiradi. Guruh vakillari beshala gapni bexato yozishlari, zarur bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yishlari kerak. Eng yuqori ball 10 ball, har bir xato uchun bir balldan olib tashlanadi.

5-bosqich. Musobaqa yakunlanib, natijalar xulosalanadi.

Agar guruhingiz g‘olib bo‘lolmasa yoki oxirgi o‘rinlarda qolib ketgan bo‘lsa, xafa bo‘lmang. Yaxshisi, keyingi shunday musobaqalarda g‘olib bo‘lish uchun o‘tilganlarni takrorlab turing, puxta va izchil bilim oling.

112-mashq. *Uyga topshiriq.* Berilgan soʻzlarni ifoda maqsadiga koʻra qanday gapning kesimi boʻlishini eʼtiborga olib, jadvalga joylashtiring.

Darak gap	Soʻroq gap	Buyruq gap	Istak gap

Kelyapti, aytsa, yugur, baland, biladimi, koʻrsaydi, koʻrdik, oʻqimoqchiman, bersin, borasan-a, qani kelsa, odobli, tushunsa.

30–31-d a r s l a r d a y o z m a i s h v a u n i n g t a h l i l i oʻt k a z i l a d i .

32-d a r s. GAP BOʻLAKLARI

Topshiriq. Quyida berilgan soʻroqlar asosida gap tuzing: *kim?, qachon?, qayerga?, nima bilan?, nima qildi?*

! **Gap tarkibida maʼlum soʻroqqa javob boʻluvchi mustaqil soʻz yoki soʻzlar birikmasi gap boʻlaklari hisoblanadi.**

113-mashq. Quyidagi jadval asosida gaplar tuzishga harakat qilib koʻring.

kim?	kim bilan?	qayerga?	nima qildik?
Biz	oʻqituvchimiz bilan	muzeysga	bordik

114-mashq. Gaplarni oʻqing, soʻzlarning qaysi soʻroqqa javob boʻlayotganini aniqlab, qavs ichiga soʻrogʻini yozib qoʻying.

Bir kuni () bogʻga () shamol () kiribdi-da (), bir joyga () berkinib olib (), gullarni () tomosha qila boshlabdi (). Unga () gullar () juda yoqibdi (). Shovullab () ularning oldiga () kelibdi (). Gullar () undan () qoʻrqishmabdi (). (*Z. Ibrohimova*)

115-mashq. Soʻzlarni oʻrni-oʻrniga qoʻyib, gaplar hosil qiling. Bunda gap boʻlaklarining oʻrniga diqqat qiling.

1. Gapiga, kattaning, bir, kichikning, bir, kir. 2. Boʻlsa, ruxsatsiz, eshik, ham, ochiq, kirma. 3. Ozoda, sogʻ, desang, yuray, boʻl. 4. Gʻoz, oz, hunaring, maqtanma. 5. Boʻlmang, uyalib, maqtanchoq, qolasiz.

✓ **116-mashq.** O‘qing. Ostiga chizilgan so‘zlarning so‘rog‘ini aniqlang.

Bo‘ron, Jala, Quyosh, Daryo o‘zlarining zo‘rligi haqidagi masalani yecholmay Odamzodning oldiga borishibdi.

– Hoy Odamzod, qani, ayt-chi, bizlarning ichimizda qaysimiz zo‘r?

– Senlardan ham ahillik, do‘stlik zo‘r, – debdi Odamzod. – Ular bor joyda senlar hech narsa emassanlar. Daryodan zo‘r, Jaladan kuchli, Bo‘rondan qudratli, Quyoshdan haroratli narsa ahillik, do‘stlikdir!

(A. Alimardonova, Q. Nazarov)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Gap bo‘lagi tushunchasini izohlang.
 2. *Kim?, qayerga?, nima uchun?, nima qildi?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi bo‘laklar ishtirok etgan gap tuzing.

117-mashq. *Uyga topshiriq.* «Men ardoqlaydigan fazilat» mavzusida matn tuzing. Undagi gaplar tarkibida kelayotgan bo‘laklarga diqqat qiling.

33-d a r s. KESIM

1-topshiriq. *O‘qidim, ko‘rding, aytdi* so‘zlari ishtirok etgan uchta gap yozing. Yuqoridagi so‘zlarning gapdagi o‘rnini va qaysi shaxsda ekanini aniqlang.

2-topshiriq. *O‘quvchisiman, o‘quvchisidan, o‘quvchisidir* so‘zlari ishtirok etgan uchta gap yozing. So‘zlarning shaxsi o‘zgarishi bilan gapning qaysi qismi o‘zgarayotganini bayon qiling.

! Shaxs-son ma’nolarini ifodalab, *nima qil (-di, -yapti va boshq.)?, nima bo‘l (-di, -yapti va boshq.)?, kimdir?, nimadir?, qayerdir?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi mustaqil so‘zlar gapda kesim vazifasini bajaradi.

☞ Kesim gapning mazmuniy markazidir. U boshqa bo‘laklarsiz ham gap bo‘la oladi. **M a s a l a n:** *Yaxshimisiz? Keldi.*

118-mashq. Nuqtalar o‘rniga gap mazmuniga mos kesimlarni qo‘ying, so‘ng ularni daftaringizga ko‘chiring.

1. Bahor kelishi bilan qaldirg‘ochlar... . 2. Dalalarda boychechak, chuchmoma, binafshalar... . 3. O‘lkamizga Navro‘zi olam... . 4. Nuroniy onaxonlar doshqozonda sumalak... . 5. Bolalar raqsga... , qo‘shiq... .

119-mashq. Gaplarni o‘qing, tagiga chizilgan so‘zlarning nima sababdan kesim hisoblanishini tushuntirib bering. Sizning orangizda ham shunday odobli qizlar bormi?

– Odobli qiz o‘rnidan turganida eng avval joyini yig‘adi, – deb gap boshladi Sanam, – undan keyin yuz-qo‘lini yuvadi, undan keyin hovli supuradi.

– Barakalla, qizim, ko‘p odobli ekansan.

– Nonushtaga o‘tirishganda, kattalardan oldin qo‘l uzatmaydi.

– Barakalla, qizim, ofarin!

– Undan keyin... yana aytaveraymi, bobojon? Yana aytaversam, odobli qiz kiyimlarini hamisha ozoda tutadi... aka-ukalarini sizlab chaqiradi. (*X. To‘xtaboyev*)

✓ **120-mashq.** Himoya qilamiz, sayraydi, o‘qiysizmi, ketmoqchiman so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing.

***121-mashq.** Boshqotirmanini to‘g‘ri yechsangiz, o‘zbek xalq maqollari-dan birini topasiz. Gapning kesimiga diqqat qiling.

T	o‘	d	i	e
g‘	r	g	r	i
i	o‘	t	o‘	z
z	a	a	d	i

Savol va topshiriqlar



1. «Gapning mazmuniy markazi» tushunchasini izohlang.
2. Quyidagi fe‘llarga mos shaxs qo‘shimchalarini qo‘shing. Farqini ayting.

B i r l i k

I shaxs bora... bordi...

II shaxs bora... bordi...

III shaxs bora... bordi...

K o ‘ p l i k

bora... bordi...

bora... bordi...

bora... bordi...

122-mashq. Uyga topshiriq. «Dam olish kunida» mavzusida kichik hikoya yozing. Undagi gaplarda ishlatilgan kesimlarni izohlang.

34-d a r s. FE'L KESIM VA OT KESIM

Topshiriq. Quyidagi soʻzlarni bir-biriga bogʻlab, gap tuzing.

1. Doʻst, achitib, gap...
2. Inson, inson..., doʻst...

Gapning toʻgʻri boʻlishi uchun nimalarni qoʻshganingizni ayting.

 **Kesim qanday mustaqil soʻzlar orqali ifodalanishiga koʻra ikki xil boʻladi: feʼl kesim va ot kesim.**

! Feʼl orqali ifodalanib, *nima qilmoq?*, *nima boʻlmoq?* soʻroqlariga javob boʻluvchi kesimlar feʼl kesim hisoblanadi. **M a s a l a n:** *Qushlar sayraydi.*

Feʼldan boshqa soʻzlar orqali (ot, sifat, son, ravish, olmosh) ifodalanib, *kim?*, *nima?*, *qanday?* soʻroqlariga javob boʻluvchi kesimlar ot kesim sanaladi. **M a s a l a n:** *Osmonimiz musaffo.*

123-mashq. Urush yillarida 15 ta bolani boqib tarbiya qilgan Mahkam aka tilidan berilgan hikoyani oʻqing. Kesimlarni topib, ularga izoh bering.

Yoshim bir yerga borib qolganida, yurtim boshiga kulfat tushdi. Laʼnati urush kattalargamas, begunoh norasidalarga ham changalini soldi. Qarab turolmadik. Baholi qudrat shulardan bir nechtasini bagʻrimizga oldik. Endilikda qurbim yetib, ana shu toychoqlarga oʻzim taqa boʻla olsam, shular toymay, qoqilmay, yiqilmay yurib ketsa, gurs-gurs bosgan qadamlarining ovozi quloqlaringa kirib tursa, dunyodan bearmon oʻtardim. Niyatim – shu!

(Rahmat Fayziy)

✓ 124-mashq. Tushirib qoldirilgan kesimlarni topib, maqollarni toʻldiring. Kesimlarning turini aytib bering.

1. Koʻpdan quyon qochib... 2. Doʻstlik barcha boylikdan... 3. Tikan zahri..., dushman zahri... 4. Koʻz ..., qoʻl ... 5. Eldan ayrilguncha, jondan... 6. Izlaganga tole...

125-mashq. Mashq «Xatosini toping» deb nomlanadi. Kesimlari notoʻgʻri berilgan gaplarni topib, toʻgʻrilang va daftaringizga koʻchiring.

Men darsdan keyin uy ishlarida onamga qarashamiz. Siz o‘zingizdan kichiklarga yordamlashaman. Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyoning durdonasiman. Biz o‘lkamiz tarixini o‘rganishga ahd qilgansiz.

***126-mashq.** Har bir gapda to‘rttadan so‘z bor. Ularning tartibi buzilmagan. Faqat ustunchalar ichidan mos so‘zlarni topsangiz bo‘ldi. Gaplarning kesimiga e‘tibor bering.

Oltin	ham	og‘zimga	yotmas
Devorning	uyda	mingga	o‘lim
Bolali	olma	bir	berma
Birga	boshga	duo	bor
Dushmanga	pish	qulog‘i	egizak
Bir	hech ham	siringni	tush
Aql	vafo	sir	ol
Olma	bilan	adab	vafo

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Fe‘l kesim va ot kesim ishtirok etgan ikkita gap tuzing.
 2. Fe‘l va ot kesimlarning o‘zaro farqini ayting.

127-mashq. Uyga topshiriq. «Odamning qo‘li gul» deganda, nimani tushunasiz? *Gul* so‘zini yana nimalarga nisbatan ishlatish mumkin? Gaplar tuzing.

35-d a r s. EGA

Topshiriq. Berilgan so‘zlardagi shaxsga ishora qiluvchi qo‘shimchalar asosida *kim?* yoki *nima?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarni qo‘yib gap tuzing. *Pishdi, kelgansiz, o‘quvchisan.*

! Kesim bilan bog‘lanib *kim?*, *nima?*, *qayer?* singari so‘-roqlarga javob bo‘ladigan bo‘lak ega deyiladi.

☞ Tahlilda eganing ostiga bir to‘g‘ri chiziq, kesimning ostiga esa ikki to‘g‘ri chiziq chiziladi. M a s a l a n: *Bulbul sayradi.* Ot kesim tarkibida shaxs-son qo‘shimchalari qo‘llanilmasa, yozuvda egadan keyin tire qo‘yiladi. M a s a l a n: *Toshkent – go‘zal shahar.*

128-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘roq berib, egani toping va uni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga daftaringizga ko‘chiring.

Yuz yoshga kirgan va qaddi yoydek egilgan bir qariya hassaga tayanib borar edi. Yosh bir yigit uni masxara qilib dedi:

– Ey qariya, ushbu hassani qanchaga sotib olding?

Qariya unga darhol javob berdi:

– Agar uzoq yashasang, sabr qilsang, senga ham shunday hassani tekinga berishadi...

***129-mashq.** *Arslon izidan qaytmas, yigit – so‘zidan.* Siz o‘z so‘zingizning ustidan chiqa olasizmi? Bu haqda o‘ylab ko‘rganmisiz? Berilgan gapning egasini toping.

✓ **130-mashq.** *Inson so‘zini gapning egasi qilib eng ko‘p gap tuzuvchilar musobaqasini uyushtiring.*

N a m u n a: Inson (Kim?) – koinot gultoji.

131-mashq. Gaplarning egalarini toping. Ularning gapdagi o‘rnini aniqlang. Gaplarda ilgari surilgan g‘oya haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Aqlli qariya – oqib turgan daryo. 2. Ota-onasini ulug‘lagan insonni bir kuni kelib bolalari ham boshiga ko‘taradi. 3. Qarisi bor uyning barakasi bo‘ladi. 4. Ko‘pni ko‘rgan chol – jonli tarixning o‘zi. 5. Qadr ko‘raman desang, qarilarni e‘zozla. 6. Duo olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir.

(Sharq hikmatlaridan)

Savol va topshiriqlar



1. Ega qaysi bo‘lak bilan bog‘lanadi?
2. Ega qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
3. Ega bilan kesim o‘rtasida qanday holatda tire qo‘yiladi?
4. Ega bilan kesim orasida tire qo‘yilishi lozim bo‘lgan uchta gap tuzing.

132-mashq. *Uyga topshiriq.* Rasm asosida «Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi» mavzusida matn tuzing. Uni tuzish jarayonida egalarga alohida e‘tibor bering.



Tayanch so‘zlar: ota, bobo, ertak, maqol, nasihat, meros, hurmat, izzat, mehnat qilmoq, quloq solmoq, amal qilmoq, o‘rganmoq

36-d a r s da nazorat diktanti o‘tkaziladi.

37-d a r s. **SODDA YIG‘IQ VA SODDA YOYIQ GAPLAR**

1-topshiriq. *Nima qildi?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘z keltiring.

2-topshiriq. Yuqorida keltirgan so‘zingizni *kim?*, *qachon?*, *qayerda?*, *qanday qilib?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlar bilan kengaytiring.

! Faqat kesimdan yoki ega va kesimdan iborat bo‘lgan gap
 • yig‘iq gap hisoblanadi. **M a s a l a n:** *Qara. Men keldim.*
 Kesimning boshqa bo‘laklar bilan kengayishidan hosil bo‘lgan
 gap yoyiq gap deyiladi. **M a s a l a n:** *Men uni ko‘rdim.*

✓ **133-mashq.** Matnni o‘qing. Yig‘iq va yoyiq gaplarni topib, ularni izohlang.

– Men sizga hamma bilgan ertaklarimni aytib beraman. Har kuni bittadan. Siz menga qishlog‘ingizni tomosha qildirasiz, dalalarga olib chiqasiz. Bo‘ptimi?

- Bo‘pti, olib chiqaman! – dedim sevinib.
- Lekin bitta shart bilan. O‘zingiz ham kitob o‘qiydiz. Shundoq qilmasak, bo‘lmaydi. Men juda qattiqqo‘lman, tekshirib turaman, maylimi?
- Mayli, o‘qiyman!
- Yashang!

(N. Fozilov)

***134-mashq.** *Keldim, bordik* so‘zlarini matn ichida avval yig‘iq gap, so‘ngra yoyiq gap shaklida keltirib, izohlang.

135-mashq. O‘qing, yoyiq va yig‘iq gaplarni izohlang.

- Saxovatli deganingiz nima?
- Bilmaysanmi?
- Bilmayman.
- Saxovatli qo‘li ochiq, xayr-ehsonli degani. Mana, bog‘laring katta, uzumlaring ko‘p-a? Hammasini yeb tugata olmaysizlar, to‘g‘rimi?
- To‘g‘ri.
- Bobong uzumning yarmini beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga tarqatadi. Ana shuni saxovat deyishadi, endi tushundingmi?

(X. To‘xtaboyev)

Savol va topshiriqlar



1. Sodda yig‘iq gap deganda nimani tushunasiz?
2. Sodda yoyiq gap deb qanday gapga aytiladi?
3. *Aytdi* so‘zini *kim?*, *qachon?*, *qayerda?*, *nimani?* so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlar bilan kengaytirish yo‘li bilan gap tuzing. Uning qanday gap ekanini ayting.

136-mashq. *Uyga topshiriq.* «Yurtimizni bog‘ga aylantiramiz» mavzusida hikoyacha tuzing. Unda yig‘iq va yoyiq gaplardan foydalaning.

38-d a r s. HOL

1-topshiriq. *Ketdi* kesimini *qachon?*, *qayerdan?*, *qanday qilib?* so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlar bilan kengaytiring.

2-topshiriq. Savollarga javob berish orqali gap tuzing. *Kim?*, *qachon?*, *qancha?*, *nima qildi?*

! Fe'lga bog'lanib, *qachon?*, *qayerda (-ga, -dan)?*, *qanday (qilib)?*, *nima uchun?*, *nima maqsadda?* singari so'roqlarga javob bo'luvchi gap bo'lagiga hol deyiladi.

☞ Hol fe'ldan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini, o'rnini, tarzini, sababini, maqsadini bildiradi. Tahlil jarayonida hol ostiga nuqtalardan iborat chiziq (.....) chiziladi: *Maktabga ketdi.*
.....

137-mashq. O'qing. Gaplardagi holni topib, unga izoh bering.

Ayiqpolvonnikiga Arslon mehmon bo'lib kelibdi. Ayiq mehmonni yong'oq bilan siylamoqchi bo'lib, katta o'g'liga yong'oqqa chiqishni buyuribdi. U ko'nmagach, o'rtancha, so'ngra kichik o'g'lidan iltimos qilibdi. Ular ham otasining gapini rad etishibdi. Arslonning jahli chiqib:

– Bolalarim odobli degan eding-ku! – debdi. Shunda Ayiqpolvon:
– Yong'oq tagidan sal nariroq ketaylik, – debdi.

Ular yong'oq tagidan ketishi bilan ayiqchalar daraxtga tirmashib chiqishib, birpasda mehmonning oldiga yong'oq uzib qo'yishibdi. Arslon bundan ajablangan ekan, Ayiq:

– Sababini katta o'g'limdan so'ra, – debdi.

Katta o'g'il:

– Otamiz daraxt tagida edi. U turgan joyda uning tepasiga chiqish odobdan emas, – deb javob beribdi.

(Ertakdan)

138-mashq. Quyidagi qoliplar asosida gaplar tuzing va ularni daftaringizga yozing.

Kim? + qayerda? + nima qiladi?

139-mashq. Gaplardagi tushirib qoldirilgan hollarni so'roqlari asosida toping va ularni izohlang.

(Qayerda?) baland va hashamatli binolar ko'p. Tuyaqush (qayerda?) yashaydi. (Qachon?) yangi yilni kutib olamiz. O'rtog'im kecha (qayerdan?) keldi. Biz (qayerga?) sayohatga chiqmoqchimiz.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Hol deganda nimani tushunasiz?
 2. *Gapirdi* kesimini **qachon?**, **qayerda?** so‘roqlariga javob bo‘luvchi hollar bilan kengaytiring.
 3. **Qachon?**, **qayerda?**, **qanday qilib?**, **nima uchun?**, **nima maqsadda?** so‘roqlari nimalarni aniqlash uchun beriladi?

140-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zingiz sevgan o‘zbek allomalaridan birining hayoti va faoliyati haqida gaplar yozing. Unda holdan foydalaning.

39-d a r s. TO‘LDIRUVCHI

1-topshiriq. *Oldi* yig‘iq gapini **kim?**, **nimani?**, **kimdan?** so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlar bilan kengaytirib, yoyiq gap tuzing.

2-topshiriq. Quyida berilgan gap bo‘laklarining har biriga so‘roqlar bering.
Ustoz otangdan ulug‘.

- ! Fe'lga bog‘lanib, **kimga?**, **nimaga?**, **kimdan?**, **nimadan?**,
• **kimni?**, **nimani?**, **kim bilan?**, **nima bilan?** singari so‘roqlarga javob bo‘luvchi bo‘laklarga to‘ldiruvchi deyiladi.

☞ Tahlilda to‘ldiruvchi ostiga uzoq chiziqchalar (- - - - -) chiziladi: Bu so‘zdan Hamid ajablandi. (X. Sultonov)

141-mashq. Maqollarni ko‘chiring. To‘ldiruvchilarni topib, tagiga chizing. Maqollarda ilgari surilgan fikrlarga hayotingizdan misollar keltiring.

1. Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolarsan uyatga. 2. Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga. 3. O‘zingga o‘zingni maqtagandan qo‘rq. 4. Saqlay desang o‘zingni, yomondan yum ko‘zingni.

142-mashq. Matnni o‘qing, nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib, to‘ldiruvchilarni izohlab bering.

Abu Rayhon Beruniy o‘lim to‘shagida yotganida, uning huzuriga shogirdlaridan biri kiribdi. U ustozining umri tugayotgani ... sezib,

ko'ngli ... ko'targan bo'libdi. Kutilmaganda Beruniy un ... bir savol berib qolibdi.

– Avval sog'ayib oling, shu savol ... javob ... bilishingiz shartmi? – deb so'rabdi shogird ustozining qiynalishi ... istamay.

– To'g'ri, umrim tugayapti, ammo shu savol ... javob ... bilmasdan ketgan ... ko'ra bilib ketganim yaxshi-da,– deb javob beribdi Beruniy.

✓ **143-mashq.** «Birni kessang, o'nni ek!» deganda, nimani tushunasiz? Shu haqda bahs tashkil qiling.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. To'ldiruvchi deganda qanday bo'lakni tushunasiz?
 2. Quyida berilgan chiziqlar o'rniga tegishli gap bo'laklarini qo'ying.

_____ - - - - - _____

***144-mashq.** Uyga topshiriq. Bo'sh kataklarni unililar bilan to'ldirsangiz, to'ldiruvchi ishtirok etgan gap hosil bo'ladi. Gapni topib, izohlang.

	y	r		l	g		n	n			y		q	y		r
b		l		n	g		n	n		b		r		y		r

40-d a r s. TO'LDIRUVCHINI HOKIM BO'LAKKA BOG'LOVCHI VOSITALAR

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga tegishli bog'lovchi vositalarni qo'yib ko'chiring.

Ukam... daftar oldim.

2-topshiriq. Quyida berilgan gapda to'ldiruvchining hokim bo'lakka nimalar vositasida bog'langanini ayting.

Mashina bilan (nima bilan?) terdi. Mashinada (nimada?) terdi.

! **To'ldiruvchi hokim bo'lakka kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanadi.**

145-mashq. Savollarga javob bering. So'ng tuzgan gaplaringizni daftaringizga ko'chirib yozing. To'ldiruvchilarning ifodalanishiga diqqat qiling.

1. Kimga jonimiz fido? 2. Kim bilan do'st tutinish lozim? 3. Inson nima bilan faxrlanishi mumkin? 4. Bola o'z ota-onasini nima bilan xursand qilishi mumkin? 5. Nimadan ehtiyot bo'lish kerak?

146-mashq. «Davom ettiring» o‘yinini tashkil qiling. Tuzgan gaplar-ingizda to‘ldiruvchilardan foydalaning, ularni izohlang.

N a m u n a: 1-o‘quvchi: Suv bilan yer ko‘karadi,

2-o‘quvchi: duo bilan – er.

3-o‘quvchi: Bu gapda 2 ta to‘ldiruvchi bor: *suv bilan, duo bilan* (nima bilan?), ular ko‘makchi bilan hokim so‘zga bog‘lanyapti.

✓ **147-mashq.** «O‘quvchi xandasi»ni o‘qing. To‘ldiruvchilarni izohlang.

Geografiya darsida muallim Umidjondan so‘rab qoldi:

– Qani, Umidjon, ayt-chi! Bizga Oy yaqinmi, Amerikami?

– Oy! – deb javob berdi u.

– Nega Oy deb o‘ylaysan?

– Chunki Oyni ko‘rsa bo‘ladi, Amerikani esa yo‘q.

148-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga kerakli vositalarni qo‘yib, mazkur so‘zlarga savol bering. To‘ldiruvchilarning gapdagi o‘rnini izohlang.

SAXOVATLI ODAM

Bir muruvvatli, saxiy odamning juda ko‘p doni bor edi. U turgan shaharda oziq-ovqat tanqisligi boshlandi. Saxiy odam bor g‘allasi ... beva-bechoralar... ulashib tugatdi. Tanqislik kuchaygach, o‘zi ham don ... muhtoj bo‘lib qoldi. Odamlar u... malomat qilishdi.

– Bilib turib nega donlaringning hammasi... ulashib yubording?

Saxiy kishi dedi:

– Xalq och bo‘la turib, men rohat... yashasam, insofsizlik qilgan bo‘laman. Ochlik azobi... xalq... barobar tortish..., xalq qayg‘usi... sherik bo‘lishni vijdonim buyurdi. Men vijdonim amri... itoat etdim.

(Rivoyat)

Savol va topshiriqlar



1. To‘ldiruvchi qanday hokim bo‘lakka bog‘lanadi?
2. To‘ldiruvchi qanday bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi?

149-mashq. *Uyga topshiriq.* «Vatanimga xizmat qilaman» mavzusida hikoya tuzing. Unda to‘ldiruvchilar ishtirok etsin.

41-d a r s da testlar ustida ishlanadi.

42-d a r s. ANIQLOVCHI

1-topshiriq. Gapdagi **qanday?** so‘rog‘iga javob bo‘luvchi bo‘lakni toping.
Yoqimli hid taraldi.

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos keladigan qo‘shimchani qo‘ying va ko‘chiring.

Kitob... muqova...

Qanday qo‘shimchalar qo‘shganingizni ayting.

! **Hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning qandayligi, kimga yoki nimaga qarashli ekanini bildirib, *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?*, *qancha?*, *nechta?*, *kimning?*, *nimaning?* kabi so‘roqlarga javob bo‘luvchi gap bo‘lagiga aniqlovchi deyiladi.**

👉 **Aniqlovchilar ma’nosiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:**

1. Sifatlovchi aniqlovchi. 2. Qaratqich aniqlovchi. Tahlilda aniqlovchilar ostiga to‘lqinli chiziq (~~~~~) chiziladi.

150-mashq. O‘qing. Matndan o‘zingizga qanday xulosalar chiqarasiz?

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o‘g‘li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kuni otasi bozordan olma olib kelib, bolalarini sinamoq uchun chaqirib: «Mana, sizga olma beraman», – dedi. Vali tezlik bilan kelib: «Otajon, menga hammasini bering», – dedi. Ali sekingina kelib: «Menga bitta olma bersangiz bo‘ladi», – dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin o‘qib, quchog‘iga olib, peshonasidan o‘pdi va ikkita olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki: «Qanoatsiz bo‘lma!» – deb dakki berdi.

Qanoat birla qorin to‘ydirursiz,

Qanoat bo‘lmasa, ko‘p och bo‘lursiz.

Qanoatsiz kishi bag‘rini dog‘lar,

Qanoatlik kishi og‘zini yog‘lar.

(Abdulla Avloniy)

1-topshiriq. Matn mazmuniga mos sarlavha toping. Qanoat yoki qanoatsizlik haqida hadis va maqollar keltiring.

2-topshiriq. **Qanday?**, **qancha?**, **nechta?**, **kimning?** so‘roqlariga javob bo‘lib, otga bog‘langan so‘zlarni so‘z birikmasi shaklida ko‘chiring.

✓ **151-mashq.** Matnni ko‘chiring. Aniqlovchilarni topib, ostiga chizing.

Mana, poliz o‘rtasidagi supachada o‘tiribmiz. Oqshom salqin. Osmonda yulduzlar kul bosgan cho‘g‘dek miltillaydi. Qo‘shni polizdagi bolalarning qiyqirig‘i, itlarning vovullashi, qayerdandir yoqimli ashula tovushi eshitiladi. (*N. Fozilov*)

152-mashq. Kuz fasli to‘g‘risida kichik matn tuzing. Unda ishlatilgan aniqlovchilarni toping.

153-mashq. Gaplardagi to‘ldiruvchi va hollar oldiga ularga mos aniqlovchi qo‘yib ko‘chiring.

N a m u n a: Elyor maktabda o‘qiydi. – Elyor bizning maktabda o‘qiydi.

1. Kecha uyingizga borgan edik. 2. Alisher she‘rini bizga o‘qib berdi. 3. Qushlarni boqish menga yoqadi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Aniqlovchi deganda, nimani tushunasiz?
 2. Sinf xonangizdagi jihozlar to‘g‘risida aniqlovchilar ishtirokida uchta gap tuzing.

154-mashq. *Uyga topshiriq. Sabr, odat, bilim, mehr* so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing. Ularda aniqlovchilardan foydalaning.

43-d a r s. SIFATLOVCHI ANIQLOVCHI

1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan so‘zlarning sifatlovchilarini qo‘ying va ko‘chiring:

... gul, ... olma, ...uy, ... ko‘cha.

2-topshiriq. Quyida berilgan kataklarni mos so‘zlar bilan to‘ldiring.

chiroyli , zebo , so‘lim .

! **Hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha? so‘roqlariga javob bo‘lgan aniqlovchiga sifatlovchi aniqlovchi deyiladi.**

155-mashq. Matnni sinchkovlik bilan o‘qing. Mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning qanday so‘roqqa javob bo‘lishini hamda qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganini aniqlang.

Bugunga kelib **ekologik** muammo hayotimizning **eng dolzarb** masalasiga aylandi. **Uzoq** yillar davomida **bu** muammolarni hal etish uchun **jiddiy** ish olib borishga yo‘l berilmadi. U davrlarda **bepoyon** o‘lkamizning **beqiyos** boyliklarini asrash butunlay **yot** tushuncha edi. Natijada **serunum** yerimiz kasallandi, **beg‘ubor** havo, **musaffo** suvlar bulg‘andi. Hozirda tabiatga qarash butunlay o‘zgardi.

✓ **Topshiriq.** Quyidagi savollarga javob bering: 1. Ekologiya deganda nimani tushunasiz? 2. Matnda qaysi davr voqeligi aks etgan?

156-mashq. Hayvonlar, qushlar hamda o‘simliklar dunyosiga munosabatingizni ifodalab, bir nechta gap tuzing. Ularda sifat, son, olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchilarni qo‘llang.

157-mashq. Sifatlovchi aniqlovchilarni topib, izohlang.

O‘zbekistonda qish ko‘pincha uzoq davom etmaydi – ikki oydan oshmaydi. Ko‘pincha havo nam, bulutli, sovuq bo‘ladi. Tez-tez tuman tushadi, ba‘zan qor yog‘adi. Bu yerda qattiq sovuq kunlar kam bo‘ladi. Yomg‘irli kunlar tez-tez iliq kunlar bilan almashinib turadi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Sifatlovchi aniqlovchi qanday savollarga javob bo‘ladi?
 2. Narsaning belgisi deganda nimalarni tushunasiz?

158-mashq. *Uyga topshiriq.* Tabiat manzarasi haqida kichik hikoya yozing. Tabiatning qanday va qaysi jihatlarini diqqatingizni jalb etadi?

44-d a r s. QARATQICH ANIQLOVCHI

Topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli kelishik qo‘shimchasini qo‘ying.


Do‘stlik ... mehri bor, do‘stlik ... sehri bor,

Do‘stlik ... gashti bor o‘zgacha.

Do‘sti bor qarimas, quvonchi arimas

Va yashar yuzgacha, minggacha. (K. Turdiyeva)

! • **Hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning ikkinchi bir narsaga qarashli ekanini bildirib, kimning?, nimaning?, qayerning? so‘roqlariga javob bo‘lgan aniqlovchiga qaratqich aniqlovchi deyiladi.**

 **Qaratqich aniqlovchi doimo aniqlanmishga bog‘lanadi. Ana shu belgisi bilan tushum kelishigini olgan to‘ldiruvchidan farq qiladi. Tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi doimo fe‘l orqali ifodalangan kesimga bog‘lanadi.**

Solishtiring: *olmaning bargi – olmani yedim*

159-mashq. Qaratqich aniqlovchilarni topib, izohlang.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Xalqaro ekspertlarning yuqori bahosini olgan ushbu Konstitutsiya 128 moddani o‘z ichiga oluvchi olti bo‘limdan iborat. Bu bo‘limlarda respublika davlat tuzilishining asosiy yo‘riqlari, fuqarolarning huquq va burchlari, davlat hokimiyatining tashkil etilishi va boshqa masalalar bayon etilgan.

Topshiriq. Maktabingizda har yili Konstitutsiyaga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlar haqida so‘zlab bering.

160-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘ying va ko‘chiring. Qaratqich aniqlovchi va aniqlanmishning shaxs va sonda mosligini tushuntiring. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turini aniqlang.

1. O‘zbekiston Respublikasi... Konstitutsiya... – baxtimiz qomusi.
2. Vatanimiz... poytaxt... – Toshkent shahri. 3. Mamlakatimizda qonunlar... ustuvorlig... so‘zsiz tan olinadi. 4. Siz o‘z... huquqlar...ni bilasizmi?

***161-mashq.** *Huquq, burch, bo‘lim, modda, respublika, Oliy Majlis* so‘zlari yordamida qaratqich aniqlovchilar ishtirok etgan gaplar tuzing.

Savol va topshiriqlar



1. Qaratqich aniqlovchi deb nimaga aytiladi?
2. Qaratqich aniqlovchiga nisbatan qanday so‘roqlar beriladi?
3. Qaratqich aniqlovchi bilan tushum kelishigidagi to‘ldiruvchi o‘rtasidagi farqni ayting.

162-mashq. *Uyga topshiriq. Konstitutsiya, Prezident, bayroq, gerb, madhiyaga bag‘ishlangan she‘rlardan topib, ulardan birini yod oling.*

45-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSİ

Savollar



1. Qanday gap bo‘laklarini bilasiz?
2. Qaysi gap bo‘lagi boshqa bo‘laklarsiz ham yolg‘iz o‘zi gap bo‘la oladi?
3. Gap bo‘laklaridan qaysilari, asosan, kesimga bog‘lanadi?
4. Kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar bilan hokim bo‘lakka bog‘langan so‘z qanday gap bo‘lagi bo‘ladi?
5. Ikki va undan ortiq gap bo‘laklaridan iborat bo‘lgan gap qanday gap hisoblanadi?
6. Qaysi gap bo‘lagi to‘ldiruvchiga tobe bog‘lanib kelishi mumkin?
7. O‘zbek tilida gap bo‘laklari qay tartibda joylashadi?

1-topshiriq. Uchta yoki to‘rtta so‘zdan iborat gap tuzing. Unda *kim?* so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘z gapning boshida va oxirida kelsin. Ularning qanday gap bo‘lagi bo‘lib kelishini aniqlang. Gapdagi boshqa so‘zlarning qaysi so‘roqqa javob bo‘lishi va qanday gap bo‘lagi bo‘lib kelishini ayting.

2-topshiriq. She’rni o‘qing. Unda ishtirok etgan gap bo‘laklarini aniqlang.

– Aka, aka, bugun men

Juda qiziq tush ko‘rdim.

– Qani, ayt-chi, tushingni, –

Kulib singlimdan so‘rdim.

– Tushimda-chi, men bilan

Nasiba ham bor edi.

Yuzim yuvib kelguncha,

Aytib bersin u, – dedi.

(A. Ko‘chimov)

3-topshiriq. Yuqorida berilgan she’rdagi to‘ldiruvchilarni o‘zi tobe bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring. Ularning hokim so‘zga qanday vositalar orqali bog‘langanini ayting va bu vositalarning ostiga chizing.

4-topshiriq. Berilgan qoliplar asosida gaplar tuzing. Gap bo‘laklarining joylashish tartibiga e‘tibor bering.

Ega, aniqlovchi, kesim.

Ega, hol, kesim.

Ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim.

Ega, to‘ldiruvchi, hol, kesim.

Aniqlovchi, ega, to‘ldiruvchi, kesim.

To‘ldiruvchi, kesim.

Kesim.

163-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi jadvalni gap bo‘laklarining so‘roqlari bilan to‘ldiring. Ularning har biriga og‘zaki misol keltiring.

Kesim	Ega	Hol	To‘ldiruvchi	Aniqlovchi

46-d a r s. **UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLAR VA ULARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI**

1-topshiriq. Uyingizda qanday o‘quv qurollari borligini ayting.

2-topshiriq. Maktabingiz hovlisida gulning qanday turlari borligini ayting.

! Bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil vazifada keladigan so‘zlarga uyushiq bo‘laklar deyiladi.

M a s a l a n: *Dadam, oyim va men (kim?) hayvonot bog‘iga bordik.*

☞ Sanash ohangi yordamida bog‘langan uyushiq bo‘laklar bir-biridan vergul bilan ajratiladi.

164-mashq. Matnni o‘qing va uyushiq bo‘laklarning o‘qilish ohangiga e‘tibor qaring.

Igna-bigiz sotuvchi, Jayraga qon tortuvchi,

O‘lja poylab yotuvchi Tipratikanga salom.

Jirafa-yu Bo‘taloq, Zebra, Maymun, Ot, Uloq,

To‘q Yo‘lbars-u och Timsoh, ayyor Qoplonga salom.

Bulbul kabi izillar, tog‘-toshlarda g‘izillar,

Yirtqichlardan bezillar do‘stim Jayronga salom. (*Anvar Obidjon*)

1-topshiriq. *Jayra, Tipratikan, Jirafa, Bo‘taloq, Zebra, Maymun, Ot, Uloq, Yo‘lbars, Timsoh, Qoplon, Bulbul, Jayron* so‘zlarini izohlab bering.

2-topshiriq. Uyushiq bo‘laklarini o‘zlari bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chiring. Har biriga so‘roq bering. Tinish belgilarini izohlang.

✓ **165-mashq.** Qavs ichidagi so‘roqlarga uyushiq bo‘laklar bilan javob berib, tinish belgilarini qo‘ying. Qaysi bo‘laklar uyushib kelayotganini aniqlang.

1. (*Nimalar?*) barg yozsin deb suv quydi. (*Ilyos Muslim*)
2. Qo‘shni bog‘dagi (*qanday?*) gul tepasida bulbul sayrab turibdi. (*Hakim Nazir*)
3. (*Qayerlarda?*) bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.
4. Vatan obro‘cini ko‘targan (*kimlarni?*) olqishlaymiz. (*Matbuotdan*)

***166-mashq.** Nuqtalar o‘rniga *bilan, va, -u, -yu* bog‘lovchi vositalarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring, uyushiq bo‘laklarining tagiga chizing.

1. Shijoat deb botir ... yurakli bo‘lmakni aytilur. (*Abdulla Avloniy*)
2. Sabr ... bardosh Tangridan, shoshqaloqlik esa shaytondandir. (*Hadisdan*)
3. Safar qilinglar, sog‘lom, rizq ... nasibali bo‘lasiz. (*Hadisdan*)
4. Yashnagay to abad ilm ... fan, ijod. (*A. Oripov*)

Savol va topshiriqlar



1. Qanday bo‘laklar uyushiq bo‘laklar sanaladi?
2. Uyushiq bo‘laklar bir-biri bilan qanday bog‘lanadi?
3. Uyushiq bo‘laklar orasiga qanday holatlarda vergul qo‘yiladi?

167-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasidagi uyushiq bo‘lakli misralarni topib, daftaringizga ko‘chiring.

47-d a r s. UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI SO‘ZLAR VA ULARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

1-topshiriq. O‘zbekistondagi yirik shaharlarni sanab, gap ichida keltiring. Sanalayotgan bo‘laklar orasiga qanday tinish belgisi qo‘yganingizni ayting.

2-topshiriq. Sizda qanday qishki liboslar borligini sanab, gap tuzing.



Sanalayotgan bo‘laklar ma‘nosini jamlab ifodalagan so‘zga umumlashtiruvchi so‘z deyiladi.



Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so‘z bilan uyushiq bo‘laklar o‘rtasiga ikki nuqta (:) qo‘yiladi.

M a s a l a n: Bog‘imizda mevalar: olma, o‘rik, shaftolilar bor.

Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘lakdan keyin kelsa, uyushiq bo‘lak va umumlashtiruvchi so‘z o‘rtasiga tire (–) qo‘yiladi.

Masalan: *Kutubxonamizda Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Usmon Azimov – barcha taniqli shoirlarning asarlari bor.*

168-mashq. Matnni o‘qib, mazmunini sharhlab bering. Uyushiq bo‘laklar va umumlashtiruvchi so‘zni topib, izohlang.

Bir g‘oz suvda suzib yurib, o‘ziga o‘zi maqtandi:

– Olamda men kabi iqtidorli bo‘lmasa kerak. Menda uch hunar: yugurish, suzish, uchish bor. Shuning uchun yer, suv, havo – uch makon mening izmimda. Bir o‘zimda uch qobiliyat mujassam!

G‘ozning bu so‘zlarini eshitib turgan Qurbaqa dedi:

– Birodar, muncha maqtanmasang ham bo‘lar edi. Sen ayta-yotgan qobiliyat uch jonivorning: kiyikning, baliqning, lochinining ishidir. Yerdagi kiyikdek yugurolmaysan, suvda baliqdek suzolmaysan, havoda lochindek ucholmaysan, chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing yaxshi edi. (*Abdulla Avloniy*)

✓ **169-mashq.** Umumlashtiruvchi bo‘laklarni topib, tinish belgilarining ishlatilishini tushuntiring.

1. Yaxshi xulqlar: diyonat, qanoat, shijoat, vijdon, Vatanni suymak va boshqalar insonni ulug‘laydi. (*Abdulla Avloniy*) 2. G‘azab, jaholat, adovat, g‘iybat, tama, zulm – yomon xulqlar kishini tubanlik qariga tashlaydi. (*Abdulla Avloniy*) 3. Quyosh, havo, suv – hammasi bizning eng qadrligi do‘stimiz.

170-mashq. Uyushiq bo‘laklardan avval yoki keyin umumlashtiruvchi so‘z qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Hademay, o‘rik, shaftolilar gulga kirdi. (*Hakim Nazir*) 2. Mehnatda, ijodda, san’atda, fanda kattadir yoshlarning qo‘shgan hissasi. (*Uyg‘un*) 3. Kishilar, xotinlar, bolalar vagon bo‘ylab chopdilar. (*G‘afur G‘ulom*) 4. Qumri, sa’va, bulbul, mayna va boshqalar bor. (*G‘afur G‘ulom*)

Savol va topshiriqlar

- ❓ 1. Umumlashtiruvchi so‘z deganda, nimani tushunasiz?
- 2. Umumlashtiruvchi so‘zlar bilan uyushiq bo‘laklar o‘rtasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

171-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zingiz qatnashgan bayram, to‘y yoki kechalarni tasvirlab hikoyacha tuzing. Unda uyushiq bo‘laklar va umumlashtiruvchi so‘z ishtirok etsin.

48-d a r s. UNDALMALI GAPLAR

1-topshiriq. Quyida berilgan gaplarni o‘qing. Ularning bir-biridan farqini aytib bering.

1. Siz qanchalar go‘zalsiz! 2. Tog‘lar, siz qanchalar go‘zalsiz!

2-topshiriq. Suhbatdoshingiz diqqatini o‘zingizga jalb qilish uchun qanday so‘zlardan foydalanganingizni ayting. Yozuvda bu so‘zlardan so‘ng qaysi tinish belgisi qo‘yilishini tushuntiring.

! So‘zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsalarni bildiruvchi so‘z va so‘zlar birikmasiga undalma deyiladi.

M a s a l a n: *Yurtim, senga she‘r bitdim bugun.* (A. Oripov)

☞ Undalmalar bitta yoki bir nechta so‘zdan iborat bo‘ladi.

M a s a l a n: *Qizim, yalpiz terib kelsang-chi.* (H. Raimova) *Qadrli bolalar, kelajak siznikidir.*

✓ **172-mashq.** Dialogni o‘qing. Undalmalarning ohangiga e‘tibor bering. Birinchi undalmadan keyin ifodalanmagan egani qo‘yib, gapni ko‘chiring.

Bir bola qo‘shnining uyiga o‘ralgan bir idishda taom olib borar edi. Bir kishi uchrab:

– Ey o‘g‘lim, idishda nima olib borursan? – dedi.

– Ey otajon! Idish ichidagi narsani birovga aytmog‘ va ko‘rsatmoq mumkin bo‘lsa edi, usti o‘ralmagan, ochiq bo‘lar edi, – deb javob berdi aqlli bola.

(Abdulla Avloniy)

173-mashq. O‘qing. Avval undalmasiz ega ishtirok etgan gaplarni, so‘ngra ham ega, ham undalma mavjud bo‘lgan gaplarni ko‘chiring.

1. Sen gapimga quloq sol, o‘g‘lim. (O‘. Hoshimov) 2. Bobo, to‘qayda arslon bo‘ladimi? (Yusuf Shomansur) 3. Soliyaxon qayerlik o‘zi? (S. Zunnunova) 4. Go‘zal Bahor! Sen munchalar maftunkorsan!

174-mashq. Berilgan gaplardagi egalarni undalmaga aylantirib, ko‘chiring. Ega bilan undalmaning farqini tushuntiring.

1. Bolalar atrofni to‘yib-to‘yib tomosha qilishar edi. (*N. Fozilov*)
2. Buvam bo‘lsa qari tutni sira-sira kestirmaydilar. (*S. Barnoyev*)
3. Bobo yo‘l boshladi. (*L. Mahmudov*)
4. Ona uyimiz obodligidir. (*Zafar Diyor*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Undalma deb nimaga aytiladi?
 2. Bitta so‘zdan iborat bo‘lgan undalmalarga misollar ayting.
 3. Undalmalar ikki va undan ortiq so‘zdan ham tashkil topadimi?

175-mashq. Uyga topshiriq. To‘rtta gap tuzing. Bunda *ustoz* so‘zi birinchi gapda ega, ikkinchi gapda to‘ldiruvchi, uchinchi gapda aniqlovchi, to‘rtinchi gapda undalma bo‘lib kelsin.

49-d a r s. UNDALMALI GAPLARDA TINISH BELGILARI

1-topshiriq. Quyidagi gapda undalmadan so‘ng vergul yoki undov belgisi qo‘yib ko‘ring. Uning gap ma‘nosiga ta‘siri bormi, yo‘qmi?

Mana, opa, gunafsha...

Mana, opa! Gunafsha. (*Zafar Diyor*)

2-topshiriq. *Ukajon* so‘zini gapning boshida, o‘rtasida va oxirida qo‘llab ko‘ring. Gapda qanday o‘zgarish bo‘layotganini aniqlang.

Ukajon, uy vazifasini tayyorlab bo‘ldingmi?

- ! Undalmalar gapning boshida, o‘rtasida va oxirida ishlatiladi.
 • **M a s a l a n:** *Navbahorim, o‘zing ayt... O‘zing, navbahorim, ayt... O‘zing ayt, navbahorim.* (*Quddus Muhammadiy*)

☞ Undalmalar gapning qayerida kelishidan qat‘i nazar boshqa bo‘laklardan vergul bilan ajratiladi. Tahlilda uning ostiga ikkita to‘lqinli chiziq chiziladi.

M a s a l a n: *Sen, Murod, nega indamaysan?*

Undalmalar his-hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng undov belgisi qo‘yiladi. Masalan: *Men sizni quyosh deb atayman, oyijon!..* (*Po‘lat Mo‘min*)

176-mashq. Matnni o‘qing. Undalmalarni topib, izohlang, tinish belgilariga diqqat qiling.

Bir bola ko‘chada yig‘lab o‘tirar edi. O‘tib ketayotgan kishilardan biri: «O‘g‘lim, sanga nima bo‘ldi? Nega muncha yig‘laysan?» – deb so‘radi. Bola: «Bir tiyin aqcham bor edi, yo‘qotib qo‘ydim. Shuning uchun yig‘layapman», – dedi. U kishining bolaga rahmi kelib, «Mana, o‘g‘lim, aqchang yo‘qolgan bo‘lsa, man sanga boshqasini beraman», – deb cho‘ntagidan bir tiyin aqcha chiqarib berdi. Bola aqchani olib yana avvalgidan ortiq yig‘lamoqqa boshladi. U kishi: «Yana nimaga yig‘laysan?» – desa, bola: «Oh otajon! Agar o‘z aqcham yo‘qolmagan bo‘lsa edi, hozir aqcham ikki tiyin bo‘lar edi», – dedi.

Ko‘zing och bo‘lmasin, o‘g‘lim, ko‘zing och,
Qanoatsiz kishini uxlatib qoch. (*Abdulla Avloniy*)

1-topshiriq. Matnga sarlavha toping. Unda qanday ibratli fikr ifodalangan deb o‘ylaysiz?

2-topshiriq. Matn oxirida berilgan baytning birinchi misrasida «ko‘zing och» birikmasi ikki marta qo‘llangan. Ular orasidagi ma‘no farqini tushuntiring.

✓ **177-mashq.** Undalmalar gapning qaysi o‘rnida kelayotganiga e‘tibor bering, tinish belgilarining ishlatilishini tushuntiring.

1. Do‘stim, biror narsaga muhtoj bo‘lsang, yashirma. (*Ertakdan*)
2. Xush kelibsizlar, qo‘noqlar, poyqadamingizga hasanot. (*Mirkarim Osim*)
3. Biror boshqa kasb qilsang bo‘lmaydimi, bolam. (*G‘afur G‘ulom*)
4. Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo‘lib qolganman. (*O‘. Hoshimov*)

178-mashq. Tushirilgan tinish belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Nima qilmoqchisan o‘g‘lim?
2. Voy-voy Maynaxon uyingizni yig‘ishtirib olsangiz bo‘lmaydimi? (*Z. Ibrohimova*)
3. Qizil shapkacha qayoqqa ketyapsan? – debdi Bo‘ri. (*Sharl Perro*)
4. Hoy qizim xafa bo‘lma. (*L. Mahmudov*).
5. Bulbul sening makoning shu yerda – odamlar orasida bo‘lsin. (*Rivoyatdan*)

179-mashq. Gaplardagi undalmalarni toping, tinish belgilarining ishlatilishini tushuntiring.

1. Qorbobojon, Qorbobo, tinglang bir so‘z bor, bobo. (*Quadrat Hikmat*) 2. Oyim xursand bo‘lganidan: «Barakalla, qo‘zim!» – deb yelkamga qoqib qo‘ydi. (*Hakim Nazir*) 3. Dadasi: «Qani, o‘g‘lim, qarashib yubor, gul ekamiz», – dedi. (*Farhod Musajon*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Undalmalarning gapdagi o‘rni haqida so‘zlab bering.
 2. Undalmalarda vergul qachon ishlatiladi?
 3. Qaysi hollarda undalmalardan so‘ng undov belgisidan foydalanamiz?
 4. Undalmalar gapning o‘rtasida kelsa, qanday tinish belgisi ishlatiladi?

180-mashq. Uyga topshiriq. Yaqinlaringizga xat yozing. Unda *qadrli, hurmatli, aziz, mehribon* kabi so‘zlar bilan kelgan undalmalarni qo‘llang.

50–51-d a r s l a r da yozma ish va uning tahlili o‘tkaziladi.

52-d a r s. KIRISH SO‘ZLAR

1-topshiriq. *Ehtimol, albatta, shubhasiz* so‘zlari ishtirokida gap tuzing. Ularning qanday ma’no ifodalashini ayting.

2-topshiriq. Quyida berilgan gaplarga *ehtimol, albatta, shubhasiz* so‘zlaridan mosini qo‘ying va ko‘chiring.

... keladi.

... kelib qolar.

! So‘zlovchining fikriga ishonch, gumon, taxmin singari
• ma’nolarni qo‘shadigan so‘zlarga kirish so‘zlar deyiladi.

☞ Kirish so‘zlar yozuvda gapning boshqa bo‘laklaridan doimo vergul bilan ajratiladi.

Tahlilda kirish so‘zlar to‘g‘ri chiziq ostiga to‘lqinli chiziq chizish bilan ifodalanadi: 

***181-mashq.** Nuqtalar o‘rniga tegishli kirish so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chirib yozing. Kirish so‘zlar gapga qanday ma’no yuklayotganini ayting.

..., ma'qul gap, – qo'shib qo'ydi Bilmasvoy, ..., pushaymon emasman. ..., bu ish menga juda foydali bo'ldi. Har kuni ertalab sovuq suvda yuvinishga o'rganib qoldim. ..., endi bu ishdan o'zim ham maza qiladigan bo'ldim. («*Bilmasvoy quyosh shahrida*» erta-gidan)

182-mashq. Gaplarni o'qing, ularning tarkibidagi kirish so'zlarni topib, qanday ma'no anglatayotganini ayting.

Bunday paytlarda odamlar yordamga kelishmasa, nozik ni-holchalarning ko'pchiligi nobud bo'lib ketishi mumkin-ku, axir! Nahotki, nahotki, shunday bo'lsa! Axir, ular tog' bag'ridagi sersuv, bahavo adirlarda maza qilib o'sishayotgan edi, o'z hollariga qo'yib berishganda, bu yerlarga majburan ko'chirib kelishmaganda, qanday soz bo'lardi-ya!


(X. To'xtaboyev)

183-mashq. Uch guruhga bo'lining. Birinchi guruh *albatta*, ikkinchi guruh *shubhasiz*, uchinchi guruh *ehtimol* kirish so'zlari ishtirokida 3 tadan gap yozsin. Qaysi guruh birinchi bo'lib topshiriqni bajarar ekan?

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Kirish so'zlar deganda nimani tushunasiz?
 2. Kirish so'zlar so'zlovchining fikriga qanday ma'nolarni qo'shadi?
 3. Kirish so'zlar yozuvda qanday tinish belgisi bilan ajratiladi?


184-mashq. Uyga topshiriq. Ushbu boshqotirmaga berkitilgan kirish so'zlarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.



53-d a r s. **KIRISH SO‘ZLARING GAPDAGI O‘RNI**

1-topshiriq. *Albatta, shubhasiz* so‘zlarini gapning turli o‘rinlarida keltiring. Qanday tinish belgisi qo‘yganingizni tushuntiring.

2-topshiriq. *So‘zsiz, demak, xullas* so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing, kirish so‘zlarning gapdagi o‘rnini belgilang.

 **Kirish so‘zlar gapning turli o‘rinlarida qo‘llanila oladi. Yozuvda gap boshida kelsa, kirish so‘zdan so‘ng, o‘rtasida kelsa, kirish so‘zning har ikki tomonidan, gap oxirida kelsa, kirish so‘zdan oldin vergul qo‘yiladi.**

185-mashq. Gaplarni ko‘chiring, kirish so‘zlarning turli o‘rinlarda kelayotganiga diqqat qiling. Ular gapning ma‘nosiga ta‘sir ko‘rsatadimi, yo‘qmi?

1. Mayli, qo‘shiq ayta qolinglar, – debdi Tulki. (*Ertakdan*) 2. To‘g‘ri, endi uni – o‘ng qo‘limni oz-oz ishlatyapman-u, ammo tuzukroq xat yozishga yaramaydi. (*Hakim Nazir*) 3. Bu ariqlarning suvlari allaqachon, aniqrog‘i, bundan to‘rt yillarcha oldin qurib qolgandi. (*X.To‘xtaboyev*) 4. Bizni do‘stimiz sog‘insin, albatta. (*K. Turdiyeva*)

186-mashq. Gaplarni o‘qing, kirish so‘zlarni topib, ularni izohlang.

Xalqimizda «Kuch – bilimda!» degan gap bor.

Albatta, to‘g‘ri. Bilimsiz odam hech narsaga erisholmaydi, aksincha, hayotda yutqazadi. Ayniqsa, hech narsa o‘qimaydigan, johil kimsalar faqat bugunini o‘ylab, hayotdan orqada qoladi. Shu bois bilim olishga astoydil kirishmoq darkor! Orzularga erishishning yagona yo‘li – shu.

(*Gazetadan*)

***187-mashq.** Quyidagilarni yodingizda tuting.

1. Albatta, shubhasiz, darhaqiqat – fikrning to‘g‘riligini bildiradi. 2. Ehtimol, balki, shekilli – gumonni anglatadi. 3. Xullas, demak – yakuniy fikrni bildiradi. 4. Avvalo, birinchidan – tartibni anglatadi.

Bu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib, kirish so‘zlarning gap ma‘nosiga ko‘rsatayotgan ta‘sirini aniqlang.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Kirish soʻzlarning gapdagi oʻrni haqida gapiring.
 2. Kirish soʻzlarda qanday tinish belgisi ishlatilishini ayting.

188-mashq. *Uyga topshiriq.* **Birorta badiiy asardan kirish soʻzli gaplarga misollar toping. Ularni izohlang.**

54-d a r s. QO‘SHMA GAP

1-topshiriq. Quyida berilgan sodda gaplarni bir-biriga bogʻlab, gap tuzing. Sodda gaplarni qanday vositalar yordamida bogʻlaganingizni ayting.

Qoʻngʻiroq chalindi, dars boshlandi.

2-topshiriq. Ikkita sodda gap tuzib, **va** bogʻlovchisi yordamida bir-biriga bogʻlang.

! **Ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikuvidan hosil boʻlgan gap qoʻshma gap hisoblanadi.**

👉 **Qoʻshma gapni tashkil etgan sodda gaplar bir-biri bilan *va, ammo, lekin, chunki, negaki* kabi bogʻlovchilar hamda ohang yordamida bogʻlanadi.**

Yozuvda *ammo, lekin, biroq, chunki, negaki* bogʻlovchilaridan oldin vergul qoʻyiladi. Ohang yordamida bogʻlangan sodda gaplar bir-biridan, asosan, vergul yoki tire bilan ajratiladi. M a s a l a n: *Biz baxtiyormiz, chunki yurtimiz ozod. Yurt tinch – sen tinch.*

189-mashq. Sodda gaplarni oʻrniga qoʻyib, qoʻshma gaplar hosil qiling.

1. Bilmasdan qilingan har qanday aybni kechirish mumkindir, isitmasi oshkor qiladi. 2. Kuz keldi, aqlsiz tushiga ishonadi. 3. Kasalni yashirsang, ammo xiyonatni aslo kechirib boʻlmaydi. 4. Aqlli ishiga ishonadi va mevalar gʻarq pishdi.

190-mashq. Oʻyinimiz «Sendan ugina, mendan bugina» deb nomlanadi. Ikki guruhga boʻlining. Birinchi guruh tomonidan aytilgan sodda gapga ikkinchi guruh shunday sodda gap aytsinki, ikkalasini qoʻshib qoʻshma gap hosil qilish mumkin boʻlsin.

N a m u n a: *1-oʻquvchi:* Xalqimiz obodonchilikka yaxshi eʼtibor beradi.

2-o'quvchi: shuning uchun shahar va qishloqlarimiz kundan kunga obod bo'lib bormoqda.

***191-mashq.** Mustaqillik o'gitlarini o'qing. Qo'shma gaplarni aniqlab, ko'chirib yozing. Sodda gaplarni bog'layotgan vositani aytib bering.

Vatan ko'nglimizda bo'lsa, Alloh ishimizga madadkor bo'lgay. Vatan va el manfaati muqaddasdir. Vatan hissi, Vatan tuyg'usi barcha narsadan qadrliroqdir. Zamonlar o'taveradi, davrlar o'zgaraveradi, ammo Vatan abadiydir. Bu aziz Vatan – barchamizniki. Dunyoda mamlakat ko'p, lekin olamda ona yurtimiz – O'zbekistonimiz yakka-yu yagona.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qo'shma gap deb nimaga aytiladi?
 2. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar qanday vositalar yordamida bir-biri bilan bog'lanadi?
 3. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar yozuvda qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?

192-mashq. Uyga topshiriq. Rasm asosida «O'zbekiston XXI asrda» mavzusida matn tuzing. Unda qo'shma gaplardan foydalaning va ularni izohlang.



T a y a n c h s o ' z l a r: O'zbekiston, mustaqillik, ilgari, hozir, televide niye, radio, yodgorlik, tarixiy, bino, yo'l, yangi, litsey, kollej, bunyod etmoq, yaratmoq, tiklamoq, rivojlanmoq

55-d a r s. KO‘CHIRMA GAPLAR

1-topshiriq. *Dedi* so‘zi ishtirok etgan gap tuzing. Gapda qanday tinish belgilaridan foydalanganingizni ayting.

2-topshiriq. Quyida berilgan belgilarga mos gap bo‘laklarini qo‘yib, gap tuzing: « _____ - - - ===== », – dedi.



Birovning aynan keltirilgan gapi ko‘chirma gap deyiladi.



Ko‘chirma gap doimo so‘zlovchi gapi bilan birga keladi. So‘zlovchi gapi muallif gapi hisoblanadi. Ko‘chirma gap bilan muallif gapi birikib ko‘chirma gapli qo‘shma gapni hosil qiladi. Yozuvda ko‘chirma gap qo‘shtirnoq ichiga olinadi.

193-mashq. «Qo‘rqoqqa qo‘sha ko‘rinar», – deydi xalqimiz. Bu ko‘chirma gapga izoh bering.

194-mashq. Muallif gapining kesimlariga diqqat qiling. Ularni ko‘chirma gapdagi kesimlarga solishtiring.

1. «Inson har doim quvnoq, xushchaqchaq bo‘lishi va baxtiyor yashamog‘i lozim», – degan edi Forobiy. 2. Abu Rayhon Beruniy shunday deydi: «Erta-yu kech dushmanga zarar-u do‘stga foyda keltirgan odam mardlarning mardidir». 3. Mahmud Koshg‘ariy: «Botir jangda, dono majlisda sinaladi», – deb aytgandi.

195-mashq. Quyidagi gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantiring va tinish belgilarini qo‘yib, ularni daftaringizga ko‘chiring.

1. Navoiy tilga ixtiyorsizlikning elga e‘tiborsizlik ekanini aytgan edi. 2. Xalqimiz uyatning o‘limdan qattiqligini uqtiradi. 3. Qozoq shoiri Abay birlik yo‘q yerda baraka yo‘qligi to‘g‘risida so‘zlagan. 4. Mirtemir yoshlikning orqaga qaytmasligi haqida yozgan edi.

196-mashq. «Buvimning o‘g‘itlari» mavzusida kichik matn tuzing, unda ishlatilgan ko‘chirma gaplarni aniqlang.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Ko‘chirma gap deganda, nimani tushunasiz?
 2. Muallif gapi deganda-chi?
 3. Ko‘chirma gap qanday tinish belgilari bilan yoziladi?

197-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zbek allomalari tomonidan aytilgan hikmatli so‘zlarni toping va ularni ko‘chirma gapli qo‘shma gap shaklida daftaringizga yozing.

N a m u n a: Navoiy shunday degan edi:

«Odami ersang, demagil odami,
Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami».

56-d a r s. **KO‘CHIRMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI. MUALLIF GAPI KO‘CHIRMA GAPDAN OLDIN KELGANDA, TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI**

1-topshiriq. *Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar* maqoli ishtirokida ko‘chirma gapli qo‘shma gap tuzing. Muallif gapi va ko‘chirma gap orasida tinish belgilarining ishlatilishiga e‘tibor bering.

2-topshiriq. *Vatan sajdagohimdir – degan edi Abdurauf Fitrat.* Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘ying.

! • Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin, uning o‘rtasida, oxirida, ikki chekkasida kelishi mumkin. Shunga ko‘ra yozuvda ular orasida turlicha tinish belgilari ishlatiladi.

Muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelsa, undan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi, ko‘chirma gap qo‘shirnoqqa olinib, bosh harf bilan yoziladi.

M a s a l a n: *Xalqimiz shunday deydi: «Hunar – zar, hunarsiz – xor».*

Ko‘chirma gap so‘roq yoki his-hayajon gap bo‘lsa, qo‘shirnoq yopilishidan oldin so‘roq yoki undov belgisi qo‘yiladi.

M a s a l a n: *Men undan so‘radim: «Mehringni qo‘yib, bunchalar saralab gul terding kimga?» Bulbul der: «Ochil, g‘uncha!» (Mirtemir)*

Ko‘chirma gap darak gap bo‘lsa, qo‘shtirnoqdan so‘ng nuqta qo‘yiladi.

M a s a l a n: *Donolar deydi: «Aql boylik bilan o‘lchanmas».*

198-mashq. Berilgan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni tegishli tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Shoir Abdulla Oripov shunday yozadi

Yurtim, faqat sening qo‘lingdan tutib,

Bolangday ergashib keta olsam bas.

2. Yurtboshimiz tariximizni o‘rganish haqida yozadilar O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q. 3. Qobus deydi Yangi do‘st orttirsang, eskisidan yuzingni burma... 4. Saltanatning birdan oyog‘i chaqqonlashib dedi Mana bu joy qalay? (*O‘. Usmonov*)

199-mashq. Berilgan gaplardan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar tuzing. Qanday tinish belgilaridan foydalanganingizni tushuntiring.

1. Kerilgan ko‘chaga sig‘mas. 2. Maqtanchoq – quruq po‘choq. 3. Sen o‘zingni maqtama, seni birov maqtasin. 4. Boylikning boshi – sog‘lik. 5. Do‘sting ham til, dushmaning ham til. 6. Yomon bilan yursang, yomon bo‘lasan, yaxshi bilan yursang, omon bo‘lasan.

200-mashq. Quyidagi gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirib, ko‘chiring, unda muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelsin.

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan – olim, orlanib so‘ramagan – o‘ziga zolim. (*Alisher Navoiy*) Odam tili bilan hayvondan ustun, ammo tildan nojoiz foydalansa, hayvondan battar. (*Sa‘diy*) Kitoblar aql farzandlaridir. (*Jonatan Svift*) Kitobsiz uy jonsiz tanaday gap. (*Sitse-ron*) Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do‘stlardir. (*Viktor Gyugo*)

Savol va topshiriqlar



1. Muallif gapi ko‘chirma gapdan oldin kelsa, qanday tinish belgisi qo‘yiladi?
2. Ko‘chirma gap so‘roq, undov gaplar bo‘lsa, so‘roq va undov belgilari qo‘shtirnoqning qayeriga qo‘yiladi? Misollar bilan tushuntiring.

201-mashq. *Uyga topshiriq.* Ko‘chirma gaplardan foydalanib, matn tuzing. Qanday tinish belgilaridan foydalanganingizni tushuntiring.

57-d a r s. MUALLIF GAPI KO‘CHIRMA GAPNING BOSHQA O‘RINLARIDA KELGANDA, TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

1-topshiriq. «Eng buyuk jasorat, – deydi Yurtboshimiz, – bu ma’naviy jasorat» gapidagi ko‘chirma gap bilan muallif gapining o‘rinlarini o‘zgartiring. Tinish belgilarini tushuntiring.

2-topshiriq. *Do‘stlar diydoridan ortiq quvonch, firog‘idan ortiqroq g‘am yo‘q (Rudakiy)* gapini ko‘chirma gapli qo‘shma gapga aylantiring. Tinish belgilarini tushuntiring.

! Muallif gapi ko‘chirma gapdan keyin, uning o‘rtasida yoki ko‘chirma gap muallif gapining o‘rtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

Misollar: 1. «*Aqli kishi sabr etar har nafas*», – deydi *Sa’diy Sheroziy*. 2. «*Jaholat – o‘lim, – deb aytadi Nosir Xisrav, – bilim esa tiriklikdir*». 3. *Alisher Navoiy*: «*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur*», – deb aytgan edi.

☞ Ko‘chirma gapli qo‘shma gap tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin: M: «K». «K», –m. «K, –m, –k». M: «K», –m. M, m belgilari muallif gapini, K, k belgilari ko‘chirma gapni ifodalash uchun qo‘llanilgan.

202-mashq. Berilgan ko‘chirma gaplarni turli o‘rinlarda qo‘llab ko‘ring. Ularda tinish belgilarining ishlatilishiga alohida e‘tibor bering.

N a m u n a: Ingliz xalq maqollarida shunday deyiladi: «Ota – xazina, aka-uka – tayanch, do‘st esa har ikkovidir».

Ingliz xalq maqollarida: «Ota – xazina, aka-uka – tayanch, do‘st esa har ikkovidir», – deyiladi.

Gruzinlar deydi: «Daraxt ildizi bilan kuchli, odam – do‘stlari bilan». «Yaxshi do‘stni, – deyiladi o‘zbek xalq maqolida, – yomon kunda sinamoq kerak».

***203-mashq.** Quyidagi boshqotirmani yechib, ko‘chirma gapni daftaringizga yozing.

O‘zbek xalqi deydi:

« (1) (2) (3) (4) (5) (6) (7) (8) (9) (10) (11) (12) (13) (14) (15) (16) (17) (18) »

1. 1, 2, 3 – qo‘rg‘oshin so‘zining birinchi bo‘g‘ini.
2. 4, 5, 6 – suvi qochgan, qotib qolgan narsa.
3. 7, 8 – o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi.
4. 9, 10, 11 – qushlar va hayvonlarning ini.
5. 12 – alifbodagi 19-harf.
6. 13 – p undoshining jarangli jufti.
7. 14, 15, 16, 17, 18 – mangu, abadiy.

◆ **204-mashq.** M: «K?»; «K», – m.; M: «K!» – m.; «K, – m, – k» ko‘rinishidagi gaplarga misollar toping.

Savol va topshiriqlar



1. Muallif gapi ko‘chirma gapdan keyin kelsa, qanday tinish belgilari ishlatiladi?
2. Ko‘chirma gapni muallif gapi ichida keltirib, misollar tuzing.
3. Muallif gapi ko‘chirma gap ichida kelsa, qanday tinish belgilaridan foydalanamiz?
4. Ko‘chirma gap so‘roq va his-hayajon gap bo‘lsa, qanday tinish belgilari ishlatiladi?

205-mashq. *Uyga topshiriq.* «Bobomning o‘g‘itlari» mavzusida matn tuzing. Unda ko‘chirma gaplardan foydalaning. Ayrimlarini daftaringizga yozing.

58-d a r s. DIALOG VA ULARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

1-topshiriq. Ikki kishi o‘rtasidagi suhbatni daftaringizga yozing. Qanday tinish belgilari qo‘yganingizni ayting.

2-topshiriq. Quyida berilgan suhbatning tinish belgilarini tushuntiring.

- Isming nedur, chirog‘im?
- Alisher.
- Kimning o‘g‘lidursen?
- G‘iyosiddin Kichkinaning. (*Mirkarim Osim*)

! Ikki kishi o‘rtasidagi suhbat dialog sanaladi.

☞ Dialogdagi har bir gap tire bilan boshlanadi. Bir kishining nutqi monolog sanaladi.

206-mashq. *Hikoyani o‘qing. Nuroniy chol va bola o‘rtasidagi dialogga diqqat qiling. Unda ishlatilgan tinish belgilariga e‘tibor bering.*

Nuroniy chol ko‘chada o‘tirgan yosh bolani ko‘rib so‘radi:

- Hoy yaxshi bola, oting nima?
- A? – dedi bola anqovlanib.
- Oting nima deyapman!
- A, otimmi?
- Ha, oting!
- A... – o‘ylanib qoldi bola.
- Oting anqov ekan! – dedi chol xafa bo‘lib.

(Shukur Sa’dulla)

207-mashq. «O‘quvchi xandasi»ni o‘qing. Dialoglar va ularda ishlatilayotgan tinish belgilariga e‘tibor bering.

Ona:

- Rustam, devorga nima deb yozyapsan?

O‘g‘il:

- Devorga yozmang, yomon bo‘ladi, – deb ... *(«Gulxan»dan)*

208-mashq. «Uyda», «Kutubxonada», «Ko‘chada» kabi mavzularda dialoglar tuzing. Ularning qurilishiga alohida diqqat qiling.

Savol va topshiriqlar

- ?** 1. Dialog deganda, nimani tushunasiz?
- 2. Dialogni tashkil etgan har bir gap qanday tinish belgisi bilan boshlanadi?

209-mashq. *Uyga topshiriq. «Dadam bilan suhbat» mavzusida dialog tuzib, daftaringizga yozing.*

59–60-d a r s l a r da yozma ish va uning tahlili o‘tkaziladi.

TAKRORLASH

61-d a r s. **GAPLARNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI**

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. Gap deb nimaga aytiladi?
 2. So'roq gaplar qanday hosil qilinadi?
 3. Darak gaplarga misollar keltiring.
 4. Buyruq gap deb nimaga aytiladi?
 5. Istak gaplarda qanday mazmun ifodalanadi?

210-mashq. Quyidagi darak gaplarni so'roq gaplarga aylantiring va farqlarini tushuntiring.

N a m u n a: Tom orqasida xo'roz qichqirdi. (*Abdulla Qahhor*) – Tom orqasida xo'roz qichqirdimi?

1. Nonning butuni ham, ushog'i ham non. 2. Bobosi quyonchani qo'liga oldi. (*N. Fozilov*) 3. Omon menga qarab kuldi. (*G'afur G'ulom*)

211-mashq. She'rni o'qing. Undagi ikki gap kesimining shaxs-sonini o'zgartirib, ularni so'roq va buyruq gapga aylantiring.

Sog'lom, quvnoq bolaman,	Foydam tegsa birovga,
Mehnatdan zavq olaman.	Men tengsiz baxtiyorman.
Agarda ish qilmasam,	Hozir maktab bolaman,
Tez zerikib qolaman.	Mehnatdan zavq olaman.
Kattalarga dastyorman,	Katta bo'lsam, ko'rasiz,
Xizmatiga tayyorman.	Halol odam bo'laman.

(*Qambar Ota*)

***212-mashq.** Avval darak gaplarni, keyin so'roq gaplarni, so'ng buyruq gaplarni, oxirida istak gaplarni ko'chirib yozing.

1. Ha, endi qo'limdan osonlikcha qutulib bo'psan! (*Lev Tolstoy*)
 2. Nimaga qarab turibsan, ishla. (*L. Mahmudov*) 3. Bu bolaning fikrlarini diqqat bilan eshitsangiz. 4. Iya, kuzda kim varrak uchiradi?! (*Farhod*)

Musajon) 5. Ey qo‘ychivonlar, chopinglar bu tomonga. (*Ch. Aytmatov*)
 6. Soraning kutishga vaqti yo‘q edi. (*Hakim Nazir*) 7. Tezroq yetib kela qolsa edi. 8. Hoy, nega panaga o‘tmay ivib o‘tiribsan? (*Zohir A‘lam*)

213-mashq. Rivoyatni o‘qing. Gaplarni ifoda maqsadiga ko‘ra tahlil qiling.

Bir dehqon qo‘sh haydab turgan edi. Ittifoqo uning dalasi yonidan hukmdor o‘tib qoldi. U dehqonga: «Hormang!» – dedi. Dehqon eshitmaganga olib: «Xo‘sh, jonivor!» – deb ho‘kizlarini qaytarib, yerini haydayverdi.

Hukmdor ikkinchi marta ham «Hormang!» deb ko‘rdi. Bu gal dehqon bosh qimirlatib qo‘ydi. Hukmdor achchiqlanib jo‘nab ketdi. Saroyga borib dehqonni tutib kelish uchun mulozimlarini jo‘natdi. Ular dehqonni saroyga olib borishdi.

Hukmdor unga jahl bilan dedi: «Ikki marta «Hormang!» desam ham, bir marta «Bor bo‘ling!» deyishga yaramading. Meni mensimadingmi?»

Dehqon:

– O‘sha vaqtda yerimning obi-tobi joyida edi. Sizga «Bor bo‘ling!» desam, vaqtim ketib, yerim tobidan qochardi. Mana, yerimni haydab bo‘ldim. Qancha «Bor bo‘ling!» kerak bo‘lsa, olavering. «Vaqtning ketdi – baxting ketdi» degan maqolni eshitmaganmisiz?

Hukmdor vaqtni qanchalik qadrlashini ko‘rib, dehqonni afv qildi va unga tasannolar aytdi.

(*Rivoyat*)

214-mashq. *Uyga topshiriq.* «Nonni isrof qilmang!» mavzusida kichik hikoya tuzing. Unda darak, so‘roq, buyruq va istak gaplardan foydalaning.

62-d a r s. **GAP BO‘LAKLARI**

Takrorlash uchun savollar



1. Gap bo‘laklari deb nimaga aytiladi?
2. Ega deb nimaga aytiladi?
3. Kesimning gapdagi o‘rni qanaqa?
4. Fe‘l kesim va ot kesimlarga misollar keltiring.
5. Hol deb nimaga aytiladi?

6. To'ldiruvchi nima?
7. Sifatlovchi aniqlovchi qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
8. Qaratqich aniqlovchi nima?

215-mashq. Gaplarni daftaringizga ko'chiring. Ega va kesimlarning tagiga chizing.

Bilimli bo'l, hech qachon erinma. Ilm qadrini ma'rifatli odam biladi. Odobning boshi tildir. Kishi boshiga tushgan har qanday ish uning tili tufayli sodir bo'ladi. Dunyoda yaxshi va nuqsonsiz nom saxiylkdir. (*Ahmad Yugnakiy*)

216-mashq. Qavs ichidagi so'roqlarga mos to'ldiruvchilarni qo'ying va ularning ifodalanishini tushuntiring.

1. Odam (*kimga?*) suyanadi. 2. (*Nima bilan?*) olam charog'on, (*nima bilan?*) umr charog'on. 3. Dunyoda onadan (*kimdan?*) ulug' zot yo'q. 4. Aql (*nimadan?*) quvvat oladi.

217-mashq. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan to'rtta gap tuzing.

218-mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring va ularning qanday gap bo'lagi ekanini aniqlang.

Ho'ngrab yig'lab yubordim. Turtinib-surtinib o'z ...imga bordim-da, ...imni ko'rpaga burkab ...larimda yosh tamom bo'lguncha ...dim.

– Qalpoqcham, ey ...larda hamisha yo'ldoshim, maslahatgo'yim, qani, ayt-chi, nega men maqsadga erisha olmadim?

– Chunki ...ing yo'q edi, – deydi qalpoqcham.

– Ilm olish uchun nima qilish kerak edi?

– ...ing kerak edi.

– Nima?

– Ha, ha, o'qituvching Qobilov, sevimli direktoring Otajon Azizovichlarning ...iga quloq solishing kerak edi.

– Demak, sen ...i chalg'itgan ekansan-da, aldabsan-da!

– Yo'q, ...madim, ...madim, fikrlaring xato ekanini tushunib olgin, deb qo'limdan kelganicha ko'maklashdim, yordamimni ...madim.

(*X. To'xtaboyev*)

Kerakli soʻzlar: *safar, gap, alda, chalgʻit, ilm, oʻqish, aya, bosh, men, koʻz, oʻrin, yigʻla.*

219-mashq. *Uyga topshiriq. Bilim va uning ahamiyati haqida uchta gap yozib, gap boʻlaklari boʻyicha tahlil qiling.*

63-d a r s. **UNDALMA, KIRISH SOʻZLAR**

Takrorlash uchun savollar



1. Undalma deb nimaga aytiladi?
2. Undalmalar gapda qanday oʻrinlarda keladi?
3. Kirish soʻzlar nima?
4. Kirish soʻzlarning gapdagi oʻrni haqida aytib bering.
5. Undalmalar va kirish soʻzlardan keyin qanday tinish belgilari qoʻyiladi?

220-mashq. *Oʻqing. Undalmalarni topib, ularga izoh bering.*

Oʻsha kuni kechasiyoq qahramonliklar koʻrsatib, shon-u shuhrat taratib, oʻqituvchilarimni, Otajon Azizovichni hayratda qoldirish niyatida safarga otlandim.

Xayr, jonajon qishlogʻim, hayqirib toshdan toshga urilib oqayotgan zilol suvli anhorlar, poyonsiz mevazor bogʻlar, hammangizga xayr. Yoʻl yoqasidagi azim yongʻoqlar, sizlar ham yaxshi qoling. Endi sizlarga hech kim tosh otib shoxingizni sindirmaydi, tanangizga mix qoqib ozor bermaydi.

Mehribon oyijonim, shoʻxliklar qilib koʻnglingizni ogʻritgan boʻlsam, qaysarligim tufayli oʻksitgan boʻlsam, kechiring meni! Qoʻngʻir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling... Sogʻinganda, koʻnglingiz oʻksiganda, rasmga boqing. (*X. Toʻxtaboyev*)

221-mashq. *Kirish soʻzlarning ishlatilish oʻrinlariga diqqat qiling. Ular anglatayotgan maʼnoni toping. Undalmali gaplarni daftaringizga koʻchiring.*

Bolalar, ehtimol, siz Cholbolani koʻrmagandirsiz? Men uni koʻrganman. Cholbola aslida chol emas, bola. Yoʻq, bola emas, chol. Hayron boʻlmang, ochigʻi, u siz tengi bola.

Unda nega chol bo‘larkan, deysizmi?

Bo‘lmasa, eshiting, uning Cholbola bo‘lishi o‘zi bir ertak.


Odatda, buvalar, buvilar bolalarga ertak aytishadi.

... Sirli tushdan keyin Umidjon buvasiga ertak aytadigan bo‘libdi. Uning ertaklarini buvasi gohida chuqur o‘yga tolib, gohida jilmayib, gohida afsus bilan bosh chayqab eshitarkan.

Xullas, Umidjon deyarli har kuni bitta yangi, ibratli ertak o‘ylab topib, buvasiga so‘zlab beradigan bo‘libdi. (*N. Aminov*)

222-mashq. Dadangizga, oyingizga, aka-ukalaringizga, opa-singil-laringizga, do‘stlaringizga, dugonalaringizga murojaat qilganingizda, qanday undalmalardan foydalanasiz? Ular ishtirokida gaplar tuzing.

N a m u n a: Og‘ayni
 Oshna
 Do‘st
 O‘rtoq
 Jo‘ra



, birga dars tayyorlaymizmi?

223-mashq. Uygga topshiriq. *Menimcha, nazarimda, afsuski, demak, xullas* so‘zlari ishtirokida «Maktab o‘quvchisi qanday kiyinishi kerak?» mavzusida bahs o‘tkazib, taassurotlaringiz asosida hikoya yozing.

64-d a r s da test ustida ishlanadi.

MORFOLOGIYA

65-d a r s. SO‘Z TURKUMLARI. MUSTAQIL VA YORDAMCHI SO‘ZLAR

1-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarning har biriga so‘roq bering: *daftar, yoki, keldi, yaxshi, ko‘p, aqlli, kabi, o‘rta, va, men, uchun, o‘quvchi, bilan*. Qaysi so‘zlar so‘roq olmayapti?

2-topshiriq. Bu so‘zlarning qaysi birlari bilan gaplarni boshlab bo‘l-maydi?

! **Biror so‘roqqa javob bo‘lib, ko‘pincha atash ma‘nosini bildiruvchi, gapda ma‘lum bir gap bo‘lagi yoki undalma vazifasida keladigan so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi.**

So‘roqqa javob bo‘lmaydigan, atash ma‘nosini bildir-maydigan so‘zlarga yordamchi so‘zlar deyiladi.

224-mashq. O‘qing. Yordamchi so‘zlarni topib, ular ishtirokida uchta gap tuzing.

Bir ko‘r kishi bilan cho‘loq katta suv yoqasiga yetishdilar. Suv ustiga tashlangan yog‘ochdan o‘tishlari lozim edi. Cho‘loq aytdiki: «Birodar, men o‘tolmayman, chunki oyog‘im yaramaydi». Ko‘r: «Agar ko‘zim bo‘lsa edi, o‘tardim», – dedi. Biror tadbir topishlari yoki birovdan yordam so‘rashlari kerak edi. O‘tirdilar va biroz o‘yladilar. Shunda cho‘loq dedi: «Bo‘lmasa, sen meni orqangga opich, senga yo‘l ko‘rsatib, oyoq qo‘yadigan yeringni ko‘rsatib turay, ikkimiz ham o‘tib ketamiz». Shunday qilib, bir-birlarining yordami bilan ikki yorti bir butun bo‘lib, suvdan o‘tdilar.

(*Abdulla Avloniy*)

225-mashq. So‘zlarni ularga beriladigan so‘roqlar asosida guruhlarga ajrating. Har bir guruhni umumiy bir atama bilan qanday nomlash mum-kinligini ayting.

N a m u n a: Kim? nima? *bola, kitob ...*
 qanday? *yashil ...*

nechta? nechanchi? *o'nta, uchinchi ...*
 nima qildi? *bordi ...*
 qachon? qancha? *kecha, oz ...*

Ko'p, birinchi, keldi, qora, ko'ylak, beshta, o'qiyapti, zavqli, bugun, musicha, shirin, uchtdan, ancha, neft, yumaloq, yozdi, to'qqiz, o'quvchi, hali, hozir.

◆ **226-mashq.** Nuqtalar o'rniga mos keladigan yordamchi so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Maktabda shoirlar ... uchrashuv bo'ldi.
2. Onam ... sovg'a oldim.
3. U dushman ... sher ... olishdi.

227-mashq. *Bilan, uchun* so'zlari ishtirokida ikkitadan gap tuzing. Birinchi gapda *bilan* so'zini va bilan almashtirish mumkin bo'lsin, ikkinchisida mumkin bo'lmasin. *Uchun* so'zi birinchi gapda atalganlik ma'nosini, ikkinchi gapda maqsad ma'nosini ifodalasin.

Savol va topshiriqlar



1. Mustaqil so'zlar deb qanday so'zlarga aytiladi?
2. Yordamchi so'zlar deganda, nimani tushunasiz?
3. Uchta yordamchi so'z topib, uni gap ichida keltiring.

228-mashq. *Uyga topshiriq.* Adabiyot darsligida berilgan asarlardan oltita yordamchi so'zlar ishtirok etgan gapni ko'chiring.

66-d a r s. OT

1-topshiriq. Shaxs va narsani bildiruvchi to'rtta so'z toping va ularning qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.

2-topshiriq. Joy bildiruvchi uchta so'z toping va ularning qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.



Shaxs, narsa-buyum, joy nomlarini bildirib, kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'luvchi mustaqil so'zga ot deyiladi.

Otlar son, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi. Gapda otlar bosh va ikkinchi darajali bo'lak, shuningdek, undalma vazifasida keladi.

 **Otlar birlik va ko‘plik sonda qo‘llanadi. Ko‘plik otlarga -lar qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi.**

M a s a l a n: *bola* – birlik sonda, *bolalar* – ko‘plik sonda.

229-mashq. Gaplar tuzing, undagi otlarni topib, izohlang. Tuzgan gaplaringizdagi mavjud otlarni ma’nosiga ko‘ra guruhlariga bo‘ling va ularning so‘roqlarini aniqlang.

N a m u n a:

Shaxs otlari	Narsa-buyum otlari	O‘rin-joy nomlari

230-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Otlarning qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganini aniqlab, tagiga chizing.



1. Muhammadqodir Abdullayev 1973-yilda Andijonning Jalabek mavzesida tug‘ilgan. (*U. Shukurov*)
2. Oqqan daryo oqaveradi. (*Maqol*)
3. Oyijon, chindan ham shishaning ichida jin bormi? (*X. To‘xtaboyev*)

***231-mashq.** Berilgan otlarni ko‘plik shakliga aylantiring, ular ishtirokida so‘roq, istak, buyruq gaplar tuzing.

She’r, tadbirkor, mashina, mezbon, shoir.

232-mashq. Har biri besh so‘zdan iborat ikkita gap tuzing. Otlarning bitta yoki ikkitasini ko‘plik shaklida qo‘llang. Gap bo‘laklarini aniqlab, tagiga chizing.

Savol va topshiriqlar

-  
1. Ot deb nimaga aytiladi?
 2. Otlar qanday ma’nolarni bildiradi?
 3. Otlar qaysi qo‘shimchalar bilan keladi?
 4. Otlar qanday gap bo‘lagi vazifasini bajaradi?

233-mashq. *Uyga topshiriq.* Gaplarni ko‘chiring, ko‘plik sonda qo‘llangan otlarning gapdagi vazifasini aniqlang. Ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli so‘zlarni topib, izohlang.

1. Do‘stlar, bu mening eng yaqin oshnam, tanishing.
2. Bu o‘tlar oftobda rosa qurigan, yaqinida gugurt chaqmang, o‘t ketib qolmasin.

3. Sergap, ezma bo‘lmang, birovning gapini behuda bo‘lmang. 4. Ko‘p o‘lkalarda bo‘ldim, lekin yurtimiz hammasidan a‘lo. 5. Qo‘ling-dagilarni qo‘y, o‘g‘lim, tez borib qo‘ylarni qaytarib kel.

67-d a r s. **TURDOSH VA ATOQLI OTLAR**

1-topshiriq. O‘zingiz yashayotgan shahar (tuman), mahalla nomini, yaqinlaringiz ismini yozing. Ular gap ichida qanday yozilishini eslang.

2-topshiriq. Sinfxonangizdagi narsa-buyumlarning nomini yozing. Ular gap ichida qanday yoziladi?

! **Bir turdagi narsa-buyumning nomini bildirgan otlar turdosh ot deyiladi. M a s a l a n: qishloq, choynak, aka, daraxt.**

Ayrim shaxs yoki narsa-buyumga atab qo‘yilgan nomlar atoqli ot deyiladi. Kishilarning ism, familiyasi, joy hamda hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar, gazeta, jurnal, kitob, tarixiy voqea kabilarning nomlari atoqli otlardir. Masalan: *Toshloq tumani, Mustaqillik kuni, «Gulxan» jurnali, Olapar.*

Atoqli otlar doimo bosh harf bilan yoziladi.

234-mashq. O‘qing, otlarni aniqlang. Ularning qaysilari biror shaxs yoki narsalarga atab qo‘yilgan nomlar?

Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Boburning qizi bo‘lib, u 1523-yili Kobulda tug‘ilgan. Onasi Dildorbegim temuriy Sulton Mahmud Mirzoning qizi bo‘lgan. Otasining farmoniga ko‘ra u katta onasi, ya‘ni Humoyun Mirzoning onasi Mohimbegim qo‘lida tarbiyalangan.

Gulbadanbegim zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. Akbarshohning taklifi bilan «Humoyunnoma» nomli ajoyib va muhim tarixiy asarni yozgan. «Humoyunnoma» Bobur va Humoyun podshohlarning hayoti va sarguzashtlarining qisqacha tarixi bo‘lib, «Boburnoma»ning mantiqiy davomidir. «Akbarnoma»ning muallifi Abul Fazlning yozishicha, Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etgan.

235-mashq. O‘zingiz eshitgan yoki o‘qigan kitoblaringizdan hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlardan bir nechtasini yozing. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

◆ ***236-mashq.** Viloyatingizdagi shahar, tuman, ko‘l, daryo, anhor va boshqa joy nomlarini bir necha guruhga ajratib, har biriga uchtdan misol yozing.


237-mashq. O‘qing. Atoqli otlar qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganini aniqlang. She’rda ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gap turlari mavjudligini ayting.

Akam Dilshodning
Odati qiziq.
Ish taqsimlab u,
Ko‘rgazar yo‘riq.
Hoy Umarjon, sen
Molga sol xashak.
Uyni supurib,
Suv keltir, Qo‘shoq.

Sen-chi, Mavjuda,
Qara ukangga.
Hamrobek, suv och
Darhol ekinga.
Akam Dilshodbek
Taqsimlaydi ish.
O‘zi to‘p tepib,
Qilmas hech yumush.

(Po‘lat Mo‘min)

Topshiriq. Birinchi sakkiz qatordagi turdosh otlarni ular bog‘langan so‘zlar bilan birgalikda (so‘z birikmasi sifatida) ko‘chiring.

 **Kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, binolar hamda tashkilotlarga atab qo‘yilgan nomlar qo‘shtirnoq ichiga olinadi. Ammo shahar, kinoteatr, jamoa xo‘jaligi kishilar nomiga qo‘yilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoq ishlatilmaydi. Ularda *nomidagi, nomli* so‘zlari qo‘llanadi.**

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Turdosh ot deb nimaga aytiladi?
 2. Atoqli otga ta’rif bering.
 3. Qanday atoqli otlar qo‘shtirnoq ichiga olinadi?

238-mashq. Uyga topshiriq. Atoqli otlarning yozilishiga diqqat qiling. Qo‘shtirnoqning qo‘llanish sabablarini izohlang.

«Kachal polvon» spektakli, Cho‘lpon nomidagi kinoteatr, «Xamsa» asari, Navoiy shahri, Mustaqillik kuni, «Bahor» qahvaxonasi, «Navoiy» romani, Navoiy asarlari, «Nido» dostoni, Bobur nomidagi fermer xo‘jaligi.

68-d a r s. **KELISHIK QO‘SHIMCHALARI**

1-topshiriq. O‘qidim so‘zini *kitob* so‘ziga bog‘lang. *Kitob* so‘ziga qanday qo‘shimchalar qo‘shganingizni ayting.

2-topshiriq. *Kitob, kitobning, kitobni, kitobda, kitobdan, kitobga* so‘zlarini o‘qidim, muqovasi, oldim, yozilgan, ko‘chirdi, xaridor bo‘ldi so‘zlaridan muvofiq keladiganiga bog‘lang.

! Otlarga qo‘shilib, ularni o‘zidan keyin kelgan boshqa so‘zlarga tobelashtirib bog‘lab keladigan qo‘shimchalarga kelishik qo‘shimchalari deyiladi.

👉 Tilimizda 6 ta kelishik mavjud bo‘lib, ulardan beshtasi-ning qo‘shimchasi bor: 1) *bosh kelishik (-)*; 2) *qaratqich kelishigi (-ning)*; 3) *tushum kelishigi (-ni)*; 4) *jo‘nalish kelishigi (-ga, -ka, -qa)*; 5) *o‘rin-payt kelishigi (-da)*; 6) *chiqish kelishigi (-dan)*.

239-mashq. O‘qing. Rivoyat mazmunini so‘zlab bering.

XUSHMUOMALALIK

Xushmuomalalik yarim baxtdir, ya’ni u baxt eshigini ochishi mumkin, xolos. Biroq bu bilan baxtni uzoq ushlab bo‘lmaydi. O‘zingiz o‘ylang, inson xushmuomala bo‘lsa-yu, lekin mehribonlikni va g‘amxo‘rlikni bilmasa, birovning mushkulini oson qilmay, faqat o‘zining shaxsiy manfaati uchun ish yuritsa, hurmatga sazovor bo‘lmaydi, yakkalanib qoladi.

Xushmuomalalik zaminida mehnatsevarlik bilan bir qatorda mehribonlik va g‘amxo‘rlik qaynab tursa, odam umrbod baxtli hayot gash-tini suradi. (*H. Ziyoyev*)

Topshiriq. Matndagi kelishik qo‘shimchalarini ko‘chiring.

240-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos otlarni qo‘yib, so‘z birikmalarini ko‘chiring.

... onasi, ... bordi, ... chiqdi, ... ko‘chasi, ... jo‘nadi, ... intizomi, ... kichik, ... o‘qidi, ... javobi.

241-mashq. Nuqtalar o‘rniga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘ying.

1. Suvlar... tikilsam, ko‘zim yoshlanur, jarlar... egilsam – aylanur boshim. (*Mirtemir*)
2. Ko‘k... boqqan yiqilur.
3. Odobli bola el... manzur.
4. Maqto‘v ahmoq... yoqar. (*Maqollar*)

Savol va topshiriqlar





1. Kelishik qo‘shimchalari deb qanday qo‘shimchalarga aytiladi?
2. Kelishik qo‘shimchalarining nomini ayting.
3. Tushum va qaratqich kelishiklarining ishlatilish o‘rinlarini ayting.

242-mashq. Uyga topshiriq. «Gulxan» jurnalidan istalgan matnni olib, undagi kelishik qo‘shimchalari qo‘llangan so‘zlarni kelishiklar tartibida ko‘chiring.

69-d a r s. EGALIK QO‘SHIMCHALARI

Topshiriq. Quyida berilgan qo‘shimchalarning ma’nosini tushuntiring.



Otlarning uch shaxsdan biriga qarashli ekanini bildirgan qo‘shimchalarga egalik qo‘shimchalari deyiladi.



Egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan ot, albatta, o‘zidan oldingi otning qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi.

243-mashq. Matnni o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

– Shahardagi 50-maktabda boks to‘garagi ochilibdi. Birga yur, biz ham qatnaymiz, – taklif qilishdi Muhammadqodirning do‘stlari.

Bu xabar Andijon shahridagi 23-maktabning 4-sinf o‘quvchisi Muhammadqodirning uyqusini qochirdi. O‘zidan ham otasi Matyoqub akaning orzusi shu edi: «Men bokschi bo‘lolmadim. O‘g‘lim, albatta, bokschi bo‘ladi!»

Yillar o‘tdi... Muhammadqodir ota ishonchini oqlash uchun bor

imkoniyatini ishga soldi. Qiyinchiliklardan qo‘rqmadi. Natija kutilganday bo‘ldi. U o‘smirlar o‘rtasida boks bo‘yicha xalqaro turnir g‘olibligidan olimpiada va jahon chempionligigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. O‘zbekning dovrug‘ini olamga yoydi.

(U. Shukurov)

1-topshiriq. Matnga sarlavha qo‘ying. O‘zingiz bilgan yana boshqa o‘zbek sportchilari haqida ma‘lumot bering.

2-topshiriq. Egalik qo‘shimchalarini topib, izohlang.

! **K va q undoshlari bilan tugagan otlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, qanday eshitilsa, o‘shanday yoziladi, ya’ni ba’zan k undoshi g tovushiga, q undoshi g‘ tovushiga o‘zgaradi. M a s a l a n: tuproq – tuprog‘i, terak – teragi. Ayrim so‘zlarda bunday o‘zgarish yuz bermaydi. M a s a l a n: huquq – huquqi, idrok – idroki.**

O‘g‘il, burun kabi otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi i yoki u unlisi tushib qoladi va o‘g‘li, burni kabi yoziladi.

244-mashq. Berilgan so‘zlarga I va III shaxs egalik qo‘shimchalaridan birini qo‘shib, namunadagidek yozing. Hosil bo‘lgan so‘z shaklini tushuntirib bering.

N a m u n a: quloq – qulog‘im, quduq – qudug‘i.

Ishtirok, pichoq, ertak, bo‘taloq, farq, axloq, tok, to‘garak, tirnoq.

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Qanday qo‘shimchalarga egalik qo‘shimchalari deyiladi?
 2. **Bog‘** so‘ziga uchala shaxsni bildiruvchi egalik qo‘shimchalarini qo‘shing.
 3. Egalik qo‘shimchalarining birlik va ko‘plikdagi shakllarini ayting.

245-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi otlarga II shaxs egalik qo‘shimchasini qo‘shib, namunadagidek yozing va yuz bergan o‘zgarishni izohlang.

N a m u n a: Bag‘ir – bag‘ring.

O‘rin, qorin, burun, singil, ko‘ngil, mag‘iz.

70-d a r s. SIFAT

1-topshiriq. Rang bildiruvchi soʻzlar topib, ular ishtirokida gap tuzing. Soʻrogʻini aniqlang.

2-topshiriq. Maza-taʼm bildiruvchi soʻzlar ishtirokida gap tuzing.

! Qanday?, qanaqa? soʻroqlariga javob boʻlib, narsa-buyumning belgisini bildirgan soʻzlarga sifat deyiladi. Belgi deganda, rang-tus, maza-taʼm, shakl-hajm, xil-xususiyat kabilar tushuniladi.

Sifat gapda aniqlovchi, hol yoki kesim boʻlib keladi.

246-mashq. Matnni oʻqing.

Ey hurmatli qizlar! Ey izzatli qarindoshlar! Sizlarga maʼlumdirki, goʻzal xulqli qiz bola butun oila uchun ulugʻ boylik va saodatdir.

Oʻqimishli, xulqini tarbiya qilgan qiz bola oltindan qimmatli, injudan qadrlı bir boylikdirki, bu kabi qizlarning ismlari eng yiroq qarindosh-u tanishlarga qadar yetadi.

(Rizouddin ibn Faxruddin)

1-topshiriq. Matnga sarlavha qoʻying. «Goʻzal xulq» deganda, nimani tushunishingizni soʻzlab bering.

***2-topshiriq.** Sifatlarni tushirib, matnni oʻqib koʻring. Qanday farqni sezyapsiz? Shundan kelib chiqib, sifatlarning nutqdagi ahamiyati haqida gapiring.


247-mashq. Sifatlarga misollar toping va ularni quyidagi jadvalga joylashtiring.

rang-tus	maza-taʼm	shakl-hajm	xil-xususiyat

248-mashq. Sifatlarni ular bogʻlanib kelgan soʻzlar bilan koʻchiring.

Hotamning tim qora, uchqur oti bor ekan. Ana shu otning dongʻi Rum podshohining qulogʻiga borib yetibdi. Podshoh bilimli, dono bir odamga oʻn kishini qoʻshib, Hotamning uyiga yuboribdi.

(Saʼdiy Sheroziy)

 **Sifat gapda otga bog'lansa, aniqlovchi, gapning oxirida kelsa, kesim vazifasini bajaradi. M a s a l a n: *Bu ko'rkam bino – kasb-hunar kolleji. Bu gullar xushbo'y.***

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. Sifat deb qanday so'zlarga aytiladi va ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
 2. Belgi deganda qanday ma'nolar tushuniladi? Har biriga misol keltiring.
 3. Sifatlar, asosan, qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?

249-mashq. *Uyga topshiriq.* Rang bildiruvchi sifatlar ishtirok etgan to'rtta gap tuzing. Ularning qanday gap bo'lagi vazifasida kelganini ayting.

71-d a r s. SIFAT DARAJALARI

1-topshiriq. *Baland, balandroq, juda baland* so'zlari ishtirokida gap tuzing va ularning ma'nolaridagi farqni tushuntiring.

! Muayyan bir belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi sifat darajasi deyiladi.

Sifatlarda to'rtta daraja bor: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, ozaytirma daraja.

Narsalar orasidagi belgi o'zaro taqqoslanmasa, oddiy daraja deyiladi. M a s a l a n: *yuksak, uzun, hushyor, kalta.*

Bir narsadagi belgining boshqalariga nisbatan ortiq yoki kamligi qiyosiy daraja deyiladi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga *-roq* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi. M a s a l a n: *yuksakroq, uzunroq, hushyorroq, kaltaroq.*

Belgining bir narsada boshqalariga nisbatan eng ko'p ekani orttirma daraja deyiladi. Orttirma daraja *eng, juda, nihoyat* kabi so'zlar bilan hosil bo'ladi. M a s a l a n: *eng yuksak, juda uzun...*

Belgining bir narsada boshqalariga nisbatan bir qadar kam ekani ozaytirma daraja deyiladi. Ozaytirma daraja *sal, biroz, xiyla, nim* kabi so'zlar bilan hosil bo'ladi. M a s a l a n: *biroz yuksak, sal uzun...*

250-mashq. Oddiy darajadagi sifatlarni qiyosiy yoki orttirma darajaga aylantiring.

1. Go‘zal bir yigit eshikni qoqdi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Ayiq qahri qistab, g‘ijinib qoldi, Panjasiga nogoh bir xarsang oldi. (*Mirtemir*) 3. Tarbiyachi o‘rta va katta guruh bolalariga doston haqida so‘ylardi. («*Durdona*»)

251-mashq. Gaplarni o‘qing. Sifatlarning darajasini o‘zgartiring. Bu gap mazmuniga qanday ta’sir qilayotganini tushuntiring.

1. G‘azal nihoyatda ta’sirli. Ayniqsa, uch-to‘rt bolaning ovozi juda yoqimli, ohangdor. (*Oybek*) 2. Biz kirgan xona dadam ishlaydigan hujradan ham tor, qorong‘iroq ekan. (*Hakim Nazir*) 3. So‘ng sirkka o‘tib, eng uchqur otlardan birini tanlaysan, yo‘lga ravona bo‘lasan. (*X. To‘xtaboyev*)

252-mashq. Uyga topshiriq. Sifat darajalarini aniqlab, namunadagidek yozing.

N a m u n a: Ayolning cho‘zinchoqroq yuzida hadik paydo bo‘ldi.
– Cho‘zinchoqroq (*qiyosiy daraja*)


1. Baykal – dunyodagi eng chuqur ko‘l. 2. Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. (*Maqol*) 3. Hayotda halol, to‘g‘riso‘z bo‘lish kerak. (*Rauf Tolib*) 4. Qo‘rqoq oldin musht ko‘taradi. (*Maqol*) 5. Uning dadil harakatini ko‘rib, sal yengil nafas oldim. (*Sh. Xolmirzayev*)

72-d a r s. SON

1-topshiriq. O‘nlik va yuzlik miqdor bildiruvchi so‘zlarni aniqlang va ular ishtirokida to‘rtta gap tuzing. O‘nlik va yuzlik ma’nolarini bildiruvchi so‘zlarning qanday so‘roqlarga javob bo‘layotganini aniqlang.

2-topshiriq. O‘nlik miqdorni bildiruvchi so‘zlarga **-nchi (-inchi)** qo‘shimchalarini qo‘shing. Qo‘shimcha qo‘shilgandan so‘ng ma’noda qanday o‘zgarish bo‘lganini ayting.

! **Qancha?, necha?, nechanchi?** so‘roqlariga javob bo‘lib,
• narsalarning son-sanog‘i va tartibini bildirgan so‘zlarga son deyiladi.

 **Sonlar ikkiga bo‘linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar. *Qancha?, necha?* so‘roqlariga javob bo‘lgan sonlar miqdor sonlar, *nechanchi?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan sonlar tartib sonlar hisoblanadi.**


253-mashq. Topishmoqning javobini toping. Avval miqdor sonlarni, so‘ng tartib sonlarni ko‘chiring.

To‘planib o‘n o‘g‘il-qiz:
– Mezbon-mehmon o‘ynaymiz, –
Deyishar. – Sobir, sana,
Adashib ketma yana.
Toq sonlar bo‘lar mezbon,
Juft sonlar – aziz mehmon.
Sobir sanar: – Ko‘ring-chi,
Nodir bo‘ldi birinchi.
Ikki – singlim Durdona,
Uchinchisan, Guldona.

To‘rtsan, Dilshod, Lola – besh,
Dildor – olti, yetti – Esh.
Sakkizinchi sen, Gulqiz,
Ahmadullo-chi – to‘qqiz.
Iya, o‘n yo‘q-ku, qarang!
Topmas Sobir, bosh – garang.
O‘rtoqlari kulishar:
– Boshqa sana, – deyishar.
Yordam bering siz endi,
Chiqmagan o‘n kim edi!

(«Durdona»)

254-mashq. *Uch, besh, yetti, o‘n* sonlarini avval miqdor son, keyin tartib son shaklida qo‘llab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

 **Son gapda otga bog‘lansa, aniqlovchi, fe‘lga bog‘lansa hol, gapning oxirida kelsa, kesim vazifasini bajaradi. M a s a l a n: *Sinfimizda yigirma besh o‘quvchi bor. U olmadan beshta oldi. O‘nning yarmi – besh.***

255-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Sonlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

1. Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi. (*Topishmoq*) 2. Mening kitoblarim hammasi bo‘lib yettita. 3. Opam bizga uzgan olmalaridan to‘rttadan berdi. 4. Bir daraxtda o‘n ikki shox, har shoxida o‘ttiz yaproq, yaprog‘ining bir yog‘i qora, bir yog‘i oq. (*Topishmoq*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Son deb qanday soʻzlarga aytiladi?
 2. Miqdor va tartib sonlarga misollar keltiring va ularning oʻzaro farqini ayting.

256-mashq. Uyga topshiriq. «*Bizning sinfimiz*» mavzusida matn tuzing. Unda miqdor va tartib sonlar ishtirok etsin.

73-d a r s. SONLARNING YOZILISHI

1-topshiriq. *Beshinchi sinf, yigirmanchi dekabr, ikkinchi qavat* birikmalaridagi sonlarni raqam bilan yozib, koʻchiring.

2-topshiriq. *Besh* va *olti* soʻzlariga *-ov* yoki *-ala* qoʻshimchalaridan birini qoʻshib koʻchiring. Qaysi soʻzning asosida oʻzgarish yuz beryapti?

! ***Ikki, olti, yetti*** sonlariga jamlilikni bildiruvchi *-ov, -ala* qoʻshimchalari qoʻshilsa, asos oxiridagi *i* unlisi tushib qoladi: ***Ikkala, oltov, yettov.***

Tartib sonlar raqam bilan yozilsa, *-nchi, -inchi* qoʻshimchalari oʻrniga chiziqcha qoʻyiladi: ***2002-yil, 22-dekabr, 5-sinf, 3-qavat.***

Tartib sonlar rim raqamlari bilan yozilsa, bu qoʻshimchalar oʻrniga chiziqcha qoʻyilmaydi: ***IX sinf, XXI asr.***

Bir soʻziga *-ta* qoʻshimchasi qoʻshilsa, ***bitta*** deb aytiladi va yoziladi.

257-mashq. Tartib sonlarni toping, ularni raqamlar bilan yozing.

1. Birinchi iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni. 2. Alisher Navoiy bir ming toʻrt yuz qirq birinchi yil toʻqqizinchi fevralda Hirot shahrida tugʻildi. 3. Chol bilan kampir uch nafar qizlari bilan yashar ekanlar. (*Ertakdan*)

***258-mashq.** Tez aytishni aytib koʻring. Oʻzingiz ham sonlar ishtirok etgan tez aytishlarni topib, oʻrtoqlaringiz bilan musobaqa oʻying.

Tyanshan togʻining tagida Toshtemir togʻaning traktori toʻqson tonna temirni tortolmay, tirillab turibdi.

259-mashq. *Uyga topshiriq.* Sonlarga qavs ichidagi qo‘shimchalarni qo‘shing va ko‘chiring. Tartib sonlarni raqamlar bilan yozing.

1. Zulfiqorovning xotini bir (ta) qiyiqchada uch-to‘rt (ta) anor olib keldi. (*Abdulla Qahhor*) 2. Pahlavonning ikki (nchi) kun madori qolmadi. (*Navoiy*) 3. Hilola qirq (inchi) uy, yigirma (nchi) xonadonda yashaydi. 4. Ota-onasining ikki (ala)si yoxud bir (ta)si keksayib qolganda ularni rozi qilmagan kishi ikki dunyoda xor bo‘ladi. (*Hadis*)

74-d a r s. OLMOSH

Topshiriq. Quyida berilgan gapda **u** so‘zi qaysi so‘z o‘rnida almashinib kelayotganini ayting.

Uyga qaytayotganimizda u mendan xafa bo‘ldi. (*N. Fozilov*)

! **Ot, sifat, son va boshqa so‘zlar o‘rnida qo‘llanib, ularga ishora qiluvchi so‘zlar olmosh hisoblanadi.**

👉 **Olmoshlar qaysi so‘z o‘rnida qo‘llansa, o‘sha so‘zning so‘rog‘iga javob bo‘ladi.**

***260-mashq.** Gaplardan avval ot, keyin sifat, so‘ng son o‘rnida qo‘llangan olmoshlarni aniqlang.

1. U o‘ymakor eshikni qiya ochib ichkari kirdi. (*X. Sultonov*)
 2. O‘rtog‘ing yugurishda birinchi ekan, sen-chi, nechanchi o‘rindasan?
 3. Cholning chapdast, chaqqon o‘g‘li bor ekan, mening ham shunday farzandim bo‘lsa edi. (*Ertakdan*) 4. Men ham shunday o‘ydaman, fikr-u yodim undadir, gar o‘zim har joydaman. (*Yo‘ldosh Sulaymon*)
 5. Bu ish uchun senga qancha vaqt kerak?

261-mashq. Nuqtalar o‘rniga oldingi gap mazmunidan kelib chiqib, mos keladigan olmoshlarni qo‘ying. Bu olmoshlar qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llanganini aniqlang.

N a m u n a: Uning beshta kitobi bor. Yana ... bo‘lsa, o‘nta bo‘ladi.
 Uning beshta kitobi bor. Yana shuncha bo‘lsa, o‘nta bo‘ladi.

1. Men, Bahodir, Elbek, Hilola bog‘ga bordik. ... u yerdan kech qaytdik.
2. Uning ko‘ylagi yashil ekan. ... rang menga ham yoqadi.
3. Ziyoda bilan Durdona – yaqin dugona. ... – beshinchi sinf o‘quvchilari.

262-mashq. Berilgan so‘roq olmoshlarini boshqa so‘zlarga almashtiring va ular ishtirokida gaplar tuzing. So‘z turkumini aniqlang.

N a m u n a: Kim? – Tikuvchi. Opam atelyeda tikuvchi bo‘lib ishlaydi. Kim?, qanday?, nechanchi?, nima?, nechta?, qancha?, qaysi?

! *Men, sen* kishilik olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchalari hamda *-niki* qo‘shimchasi qo‘shilsa, bir *n* undoshi tushib qoladi: *Men + ning – mening, sen + niki – seniki.*

U, bu, shu, o‘sha olmoshlariga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari hamda *-ga, -dek, -day* qo‘shimchalari qo‘shilsa, *n* undoshi orttiriladi: *unga, shunda, bunda, shunday.*

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. *Qancha, necha, o‘shancha* olmoshlari qanday so‘zlar o‘rnida qo‘llanadi?
 2. *O‘sha, u, men, sen* olmoshlari qanday so‘zlar o‘rnida qo‘llanadi?
 3. *Shunday, o‘shanday* olmoshlari ishtirokida gap tuzing. Bu olmoshlarning qaysi so‘z o‘rnida qo‘llanayotganini ayting.

263-mashq. *Uyga topshiriq.* **Gaplarni ko‘chiring. Olmoshlarni topib, ularning yozilishini tushuntiring.**

1. Meniki va seniki shu aziz tuproq, ko‘z qorachig‘iday asraylik, o‘rtoq!
2. Mening ikki onam bor, ikkisi ham mehribon. (*Uyg‘un*)
3. Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda, bunchalar muhtaram bo‘lmasdi ayol. (*A. Oripov*)
4. Otang seni ko‘rmadi, chog‘i.
5. Sen qancha kitob olgan bo‘lsang, men ham o‘shancha miqdorda olib keldim.

75-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSİ

1-topshiriq. T. Adashboyev ijodidan keltirilgan she'rlarni o'qing. She'rlardagi ot, sifat, son, olmoshga oid so'zlarni topib, daftaringizga guruhlab ko'chiring.

OQ SHAFTOLI

Bog' ko'chada	O'ta shirin,
Oq shaftoli.	Xushbo'y edi.
Ellik uchta –	Yettovini
Toq shaftoli.	Norboy yedi.
Sobir uni	O'n to'rttasin
Qoqdi kecha,	Bog'bon oldi!
Solijonga	Xo'sh, chelakda
Tegdi beshta.	Nechta qoldi?

BOBO, QANCHA YOSHINGIZ?

– Bobo, kenja nabirangiz
 Necha yoshga chiqdi hozir?
 – Kenjam Nazir,
 Men qanchaga chiqqan bo'lsam,
 Shuncha oylik bo'ldi, bo'tam.
 – Siz qanchaga chiqdingiz? –
 Qaytib-qaytib so'rar Javlon.
 – Yetmish sakkiz yoshga chiqdik
 Nabiramiz ikkovlon.
 – Voy, qizig'-a, xo'sh, qanday?
 – Mening yoshim unikiga qo'shganda...
 Kim topadi, Ro'zmat bobo
 Qancha yoshga to'lganligin?
 Nabirasi Nazir esa
 Necha oylik bo'lganligin?

***2-topshiriq.** Matematik qobiliyatingizni sinab, she'rlardagi masalani yeching. Miqdor sonlarni tartib sonlarga aylantirib, ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

3-topshiriq. Berilgan qoliplar asosida gaplar tuzing.

N a m u n a: Ega (ot) + aniqlovchi (sifat) + to'ldiruvchi (ot) + kesim (fe'l). – Bolalar qiziqarli hikoyani o'qidilar.

Aniqllovchi (sifat) + ega (ot) + hol (ot) + kesim (fe'l).
 Ega (ot) + aniqllovchi (sifat) + to'ldiruvchi (ot) + kesim (fe'l).
 Ega (ot) + to'ldiruvchi (olmosh) + hol (sifat) + kesim (fe'l).
 Aniqllovchi (olmosh) + ega (ot) + kesim (sifat).
 Ega (olmosh) + aniqllovchi (sifat) + hol (ot) + kesim (fe'l).
 Aniqllovchi (olmosh) + ega (ot) + kesim (olmosh).

4-topshiriq. So'z turkumlari bo'yicha olgan bilimlaringiz asosida jadvalni to'ldiring.

So'z turkumlari	Ot	Sifat	Son	Olmosh
So'roqlari				
Nimani bildiradi?				
Gapdagi vazifasi				

76–77-d a r s larda yozma ish va uning tahlili o'tkaziladi.

78-d a r s. **FE'L**

1-topshiriq. *Ishladim, o'qidim, uxladim, o'yladim* so'zlarini harakat va holat ma'nolarini bildirishiga ko'ra ikki guruhga ajrating.

2-topshiriq. Quyida berilgan so'zlar nimasi bilan farq qilishini ayting.
o'qidim *o'qiyapman* *o'qiyman.*

! Nima qilmoq?, nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lib, harakat-holatni bildiruvchi so'zlarga fe'l deyiladi.

☞ Fe'llar zamon, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi qo'shimchalarga ega bo'ladi. M a s a l a n: yozmadim so'zida -ma qo'shimchasi bo'lishsizlik, -di qo'shimchasi zamon, -m qo'shimchasi esa shaxs-son ma'nolarini bildiradi.

264-mashq. Gaplarni daftaringizga ko'chirib yozing va fe'llarga izoh bering.

Suvni iflos qilmang. Uning har bir tomchisi aziz.

Suv shahar va qishloqlarga, bog'-rog'larga, dalalarga obi hayot eltadi, jon bag'ishlaydi. Usiz hayotning bo'lishi mumkin emas.

Afsuski, ayrim odamlar chiqindilarni suvga tashlashadi. Bu eng og'ir gunoh sanaladi.

Aziz bolalar! Siz aslo bunday qilmang. Suvni hamisha aziz tuting.

265-mashq. Hikoyatni o'qing. Fe'llarni topib, ularni izohlang. Donishmandning gaplari bo'yicha bahslashing.

Bir odam maslahat so'rab donishmandning huzuriga boribdi.

– Ey ulug' zot, – debdi u. – Mening farzandlarim ko'p. Nima qilsam, ulardan mehr-oqibat, e'tibor ko'raman?

Donishmand o'ylab turib javob beribdi:

– Mehr ko'ray desang, farzandlaring qalbiga mehrigiyo urug'ini soch.

(Rivoyat)

266-mashq. Nuqtalar o'rniga gapning mazmunidan kelib chiqib, kerakli fe'llarni qo'ying.

Maktab o'quvchisi qanday bo'lishi lozimligini ... U bilimga chanchoq, odobli, tarbiyali ... O'zidan kattalarni ko'rganda birinchi bo'lib salom ...

Savol va topshiriqlar



1. Fe'l deganda qanday so'z turkumini tushunasiz?
2. Fe'l qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
3. Harakat va holat bildiruvchi fe'llarga misollar keltiring.


267-mashq. Uyga topshiriq. Hikoya tuzing. Unda ishlatilgan fe'llarga diqqat qiling.

79-d a r s. FE'L ZAMONLARI

1-topshiriq. O'qidim, o'qiyapman, o'qiyman so'zlarining umumiy va farqli qismlarini ajrating. O'qi asosiga qo'shilayotgan qo'shimchalarning qanday ma'no bildirayotganini ayting.



Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq so'zlanib turgan paytga munosabati fe'l zamonlari, shunday ma'noni ifodalovchi qo'shimchalar esa zamon qo'shimchalari deyiladi.

 Fe'llarda uchta zamon bor: 1) o'tgan zamon; 2) hozirgi zamon; 3) kelasi zamon. Bu uch xil ma'no maxsus qo'shimchalar yordamida ifodalanadi va ular zamon qo'shimchalari hisoblanadi.

268-mashq. Ko'chiring. Fe'llarni topib, ularning zamonini aniqlang.

BOBOMIZ AMIR TEMUR

Temur bobomiz birso'zli, qattiqqo'l podshoh bo'lgan. Butun umri davomida «Kuch adolatdadir» degan shiorni ilgari surdi. Ulkan qasrlar, bog'lar barpo qildi. Odamlarga faqat yaxshilik qilishni o'yladi.

Bugun Amir Temurning an'analari davom etmoqda. Yurtimizda biri-biridan go'zal binolar qurilmoqda, odamlarimizda mehr-oqibat kuchayib bormoqda. Bir so'z bilan aytganimizda, O'zbekiston Amir Temur orzu qilgan yurtga aylanib bormoqda.

***269-mashq.** Boshqotirmani yechsangiz, o'zbek xalq maqollaridan birini topasiz. Gapdagi fe'l zamonini aniqlang.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----	----	----	----	----	----	----	----

1. 1, 2, 3 – *bildi* so'zining buyruq shakli.
2. 4, 5 – *imkon* so'zining birinchi bo'g'ini.
3. 6, 7, 8, 9 – *saodat* so'zining sinonimi.
4. 10, 11, 12 – so'zlovchi tomon yurishni bildiruvchi buyruq fe'li.
5. 13, 14, 15 – *o'tir* so'zining ikkinchi bo'g'ini.
6. 16 – alifbodagi birinchi harf.
7. 17, 18 – o'tgan zamon qo'shimchasi.

270-mashq. Uch guruhga bo'lining. *Bilmoq, uchmoq, o'rganmoq, ekmoq, ketmoq* fe'llarini 1-guruh o'tgan zamonda, 2-guruh hozirgi zamonda, 3-guruh kelasi zamonda qo'llagan holda gaplar tuzsin.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Fe'l zamonlari deganda nimani tushunasiz?
 2. Fe'llarning nechta zamonini bilasiz?
 3. Qanday qo'shimchalarga zamon qo'shimchalari deyiladi?

271-mashq. *Uyga topshiriq.* Eng yaxshi ko'rgan adabiy qahramoningizga maktub yozing. Maktubda foydalanilgan fe'llarning zamonini ayting.

80-d a r s. O'TGAN ZAMON

1-topshiriq. Yoz fe'lga *-di, -gan, -gan edi, -gan ekan* qo'shimchalarini qo'shing. Ular qaysi zamoni ifodalayotganini ayting.

2-topshiriq. *Ko'r* fe'lga *-di* va *-ibdi* qo'shimchalarini qo'shing. Ularning qaysi zamoni ifodalashini bayon qiling.

! ***-di, -ib (fe'l unli bilan tugasa -b), -gan edi, -gan ekan*** qo'shimchalari bilan kelib, ish-harakat va holatning nutq jarayonidan oldin sodir bo'lganini yoki bo'lmaganini bildirgan fe'llarga o'tgan zamon fe'llari deyiladi.

 **O'tgan zamon fe'llari uchala shaxsda tuslanadi.**

M a s a l a n: *bordim* *bording* *bordi*
 bordik *bordingiz* *bordi (-lar)*

272-mashq. O'tgan zamon fe'llarini hosil qiluvchi qo'shimchalarni topib, ularga izoh bering.

Bolg'achalarning tiqillashi bir soatcha davom etdi. Gulliver boshini burib, yoniga qaray degan edi, chilvir va qoziqlar imkon bermadi. U boshining yonida hozirgina yasalgan taxta minbarchanigina ko'rdi.

Bir necha odamcha shu minbarga zinapoya yasabdi.

(Jonatan Svift)

273-mashq. Ko'chiring. O'tgan zamon fe'llariga izoh bering.


Ota-onasi Ibn Sinoni maktabga berishdi. Lekin u maktabda o'qitiladigan kitoblarni allaqachon o'qib, ularni uqib olgan edi, shu-

ning uchun ota-onasi madrasada o‘qisin deb, Buxoroga ko‘chib kelishibdi... Ibn Sino bora-bora zo‘r tabib bo‘lib ketibdi. (*Rivo-yatdan*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. O‘tgan zamon fe’li deganda qanday fe’llarni tushunasiz?
 2. O‘tgan zamon qo‘shimchalari haqida gapiring.

274-mashq. *Uyga topshiriq.* Boshqotirmaga yashiringan o‘tgan zamon fe’llarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.



1. Olmalarni ...
2. Ko‘ylagining tugmasini ...
3. Tashqariga ...
4. Sochini silliq qilib ...
5. Hisobda ...

81-d a r s. HOZIRGI ZAMON

Topshiriq. *Kel* asosiga **-moqda**, **-ayotir**, **-yapti** qo‘shimchalarini qo‘shing. Bu qo‘shimchalarning qanday zamonni ifodalayotganini ayting.

! **-yap**, **-(a)yotir**, **-moqda** qo‘shimchalari bilan kelib, ish-harakat va holatning nutq jarayonida yuz berayotgani yoki bermayotganini bildirgan fe’llarga hozirgi zamon fe’llari deyiladi.

275-mashq. *Yashnamoq*, *ko‘karmoq*, *gullamoq* fe’llaridan hozirgi zamon shakllarini hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzib, daftaringizga yozing.

***276-mashq.** Rasm asosida hikoya tuzing. Hikoyada hozirgi zamon fe'llaridan foydalaning.



Tayanch soʻzlar: bino, buldozer, kran, asfalt, yoʻl, shagʻal, daraxt, koʻcha, qurmoq, koʻtarmoq, surmoq, tekislamoq, ishchi, quruvchi.

277-mashq. Kerakli fe'llarni nuqtalar oʻrniga qoʻyib, koʻchiring. Hozirgi zamon fe'llarining hosil boʻlishini tushuntiring.

Tag'in nimalar desam ekan? Ha, «Buvim kasal boʻlib qoldilar. Sizni koʻp oʻylab, tashvish ... !» deyman. Buni ham yozdim. Endi-chi? Ha, «Ona tilidan bahomni «besh»ga ... , yozuvim ... , mana koʻring», – deyman. Xursand boʻladi. Yozdim. Hammasi boʻlib yarim betcha boʻldi. U yogʻini nima bilan toʻldiraman? Varaq-varaq xat yozganlar gapni qayoqdan toparkin-a? (*Hakim Nazir*)

Savol va topshiriqlar



1. Hozirgi zamon fe'li deb qanday fe'llarga aytiladi?
2. Hozirgi zamon fe'li qanday qo'shimchalar bilan keladi?

278-mashq. *Uyga topshiriq.* Onangizga uy ishlarida qanday yordam berishingiz haqida hikoya tuzing. Unda hozirgi zamon fe'llaridan foydalaning.

82-d a r s. KELASI ZAMON

Topshiriq. *Kel* asosiga *-a /-y, -ajak, -moqchi, -ar* qo‘shimchalarini qo‘shing. Ularning qaysisi nutqimizda ko‘proq ishlatiladi?

! *-a /-y, -(a)r, -ajak, -moqchi* qo‘shimchalari bilan kelib,
• **ish-harakat va holatning nutq jarayonidan keyin yuz berishi yoki bermasligini bildirgan fe’llarga kelasi zamon fe’llari deyiladi.**

279-mashq. O‘qing, kelasi zamon fe’llarini topib, izohlang.

1. Ishlagan tishlar, ishlamagan kishnar. 2. Biz yurtimizni bog‘-u bo‘stonga aylantirmoqchimiz. 3. Hali shunday kunlar kelajak. O‘zbek xalqining ichidan yana Beruniy, Farg‘oniy, Xorazmiy, Navoiy singari allomalar yetishib chiqajak. 4. Kelajakda ilm-fan sirlarini o‘rganib katta olim bo‘lmoqchiman.

280-mashq. Matnni o‘qing. Fe’llarga kelasi zamon qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

– Bir kosa ayroningiz bormi, opa? Men ket (*-moqchi, -ar, -ajak, -adi*) man hozir.

– Eshikdan kirmasdan turib qayoqqa qoch (*-adi, -ar, -ajak, -moqchi*) san, bolam?

– Hozir Toshkentdan televizorchilar, shoirlar, muxbirlar kelish (*-ar, -ajak, -adi, -moqchi*). Bizni suratga olish (*-ajak, -moqchi, -adi, -ar*) ! – dedi Lochin bolalarcha g‘urur bilan.

(O. Yoqubov)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Kelasi zamon fe’li deb qanday fe’llarga aytiladi?
 2. Qanday qo‘shimchalar kelasi zamon fe’llarini hosil qiladi?
 3. Kelasi zamon qo‘shimchalarining faollik darajasini aniqlang.

281-mashq. *Uyga topshiriq.* Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz? Shu haqda kelasi zamon fe’llari ishtirokida hikoyacha tuzing.

83-d a r s. SHAXS-SON QO‘SHIMCHALARI

Topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli qo‘shimchalarni qo‘yib, ko‘chiring.

men
sen
u \rightarrow *keldi...*

biz
siz
ular \rightarrow *keldi...*

! Fe‘ldan anglashilgan ish-harakat va holatning so‘zlovchi, tinglovchi yoki o‘zgaga tegishli ekanini bildiruvchi qo‘shimchalarga shaxs-son qo‘shimchalari deyiladi.

👉 So‘zlovchi 1-shaxs, tinglovchi 2-shaxs, o‘zga 3-shaxs hisoblanadi.

282-mashq. Nuqtalar o‘rniga shaxs-son qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni o‘qing. Ularning ishlatilish o‘rinlarini tushuntiring.

1. Yer haydasa..., kuz hayda, kuz haydamasa..., yuz hayda. (*Maqol*)
2. Atirgul shunday chiroyli ediki, Oqiljon qarab to‘ymas... (*Farhod Musajon*)
3. Men ham o‘zimni kulgidan to‘xtata olmadi... (*N. Fozilov*)
4. O‘zingni er bilsa..., o‘zgani sher bil. (*Maqol*)

283-mashq. Uch guruhga bo‘lining. Har bir guruhdan navbat bilan bittadan vakil o‘rtaga chiqsin. Birinchi o‘quvchi aytgan gapni ikkinchi o‘quvchi II shaxsda, uchinchi o‘quvchi III shaxsda o‘zgartirishga harakat qilsin.

N a m u n a : 1-o‘quvchi 2-o‘quvchi 3-o‘quvchi
 tayyorman tayyorsan tayyor

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. Shaxs-son qo‘shimchalari deb qanday qo‘shimchalarga aytiladi?
 2. **-m**, **-ng** qo‘shimchalari bilan **-man**, **-san** qo‘shimchalarining ishlatilishiga misollar keltiring. Ularning qanday fe‘llarga qo‘shilishini ayting.

284-mashq. Uyda kitobning ahamiyati haqida matn tuzing, unda ishlatilgan fe‘llarning shaxs-sonini aniqlab, gapirib bering.

84-d a r s. RAVISH

1-topshiriq. *To‘satdan, qo‘qqisdan, ancha* so‘zlari ishtirok etgan gaplar tuzing. Ularning qanday ma‘no ifodalayotganini ayting.

2-topshiriq. *Avval, keyin* so‘zlari ishtirokida gap tuzing. Bu so‘zlarning qanday so‘roqqa javob bo‘layotganini ayting.

! *Qanday?, qancha?, qachon?* singari so‘roqlarga javob bo‘lib, harakatning holati, o‘rin, payt, sabab, daraja-miqdorini bildirgan so‘zlar ravish sanaladi.

☞ Ravish, asosan, fe‘lga bog‘lanadi va gapda ko‘proq hol vazifasida keladi.

285-mashq. Gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing. So‘ng ravishlarni topib, ularga izoh bering.

1. Yurtimizni obod qilish uchun astoydil harakat qilmoqdamiz.
2. Tez-tez kitob o‘qib turilsa, fikr ravshanlashadi. 3. Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerga qayg‘u yaqin kelolmas.

***286-mashq.** O‘yinimiz «Qanday?, qachon?, qancha?» deb nomlanadi. Bir o‘quvchi istalgan fe‘lni misol qilib keltiradi. Masalan: *keldi*. Qolgan o‘quvchilar shu fe‘l orqali ifodalangan ish-harakatning belgilarini topishga urinib ko‘radilar: *To‘satdan keldi, qo‘qqisdan keldi*.

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. Ravish deb qanday so‘z turkumiga aytiladi?
 2. Ravish bilan sifatning o‘xshash va farqli tomonlarini ayting.
 3. Ravishlarning qanday turlari bor?

287-mashq. *Uyga topshiriq.* Hikoyatni o‘qing. Ravishlarni topib, ular ish-harakatning qanday belgisini bildirayotganini aniqlang.

Husayn Boyqaro doimo Navoiyning gaplariga quloq solar ekan. Bir kuni ertalab podshoh saroyga kirib kelayotib, Navoiyga qarabidda, ko‘rsatkich barmog‘i bilan boshini ko‘rsatibdi. Shunda Navoiy tilini chiqarib qo‘yibdi. Boyqaro ma‘qullagannamo boshini qimirlatibdi. Bu voqeani zimdan kuzatib turgan Navoiyning shogird-

lari bu imo-ishoraning sababini so‘rabdilar. Navoiy shunday deb javob beribdi:

– Hukmdor boshga doim baloni nima keltiradi? – deb so‘ragan edi, men darhol «Til!» deb javob berdim.

(«Hikmatlar xazinasi»dan)

85-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSI

Savol va topshiriqlar



1. Fe'ning nechta zamoni bor?
2. O'tgan zamon fe'llari qanday hosil qilinadi?
3. Hozirgi zamon fe'llari-chi?
4. Kelasi zamon fe'llariga misollar ayting.
5. Shaxs-son qo'shimchalari haqida gapiring.
6. Ravish deb nimaga aytiladi?

1-topshiriq. Daftaringizga fe'lga bittadan misol yozing.

M a s a l a n: **o'qimoq.**

2-topshiriq. Shu fe'lni uch zamonda tuslab, ular ishtirokida 3 ta gap yozing.

1. «*Shum bola*» qissasini **o'qidim.**

2. Hozir «*O'zbek xalq ertaklari*»ni **o'qiyapman.**

3. **Kelajakda yana ko'p badiiy asarlarni o'qimoqchiman.**

3-topshiriq. Misol uchun olingan fe'lni 3 ta shaxsda tuslang.

I shaxs	o'qidim	o'qidik
II shaxs	o'qiding	o'qidingiz
III shaxs	o'qidi	o'qidilar

4-topshiriq. Fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish paytini, sababini, holatini, daraja-miqdorini bildiruvchi so'zlarni toping.

(holat) sekin		o'qidim
(payt) hali		
(maqsad) ataylab		
(miqdor) ko'p		

5-topshiriq. Bir-biringiz bilan turli mavzularda suhbatlar uyushtiring. Unda daftaringizga yozilgan fe'llardan foydalaning.

6-topshiriq. Uyga topshiriq. Fe'l so'z turkumi bo'yicha o'rganganlaringizni quyidagi jadvalda aks ettiring.

Fe'l shakllari	Turlari	Qo'shimchalari	Misollar
Bo'lishli – bo'lishsizlik	bo'lishli		
	bo'lishsiz		
Fe'l zamonlari	o'tgan zamon		
	hozirgi zamon		
	kelasi zamon		
Shaxs-son	I shaxs		
	II shaxs		
	III shaxs		

86–87-d a r s l a r d a y o z m a i s h v a u n i n g t a h l i l i o'tkaziladi.

88-d a r s. YORDAMCHI SO'ZLAR

1-topshiriq. Berilgan gapdagi so'roqqa javob bo'lmaydigan so'zni ajrating.
Bobur Mirzo she'rlaridan rang va ohang olgan tilim. (T. Adashboyev)

! **Biror so'roqqa javob bo'lmay, gap yoki gap bo'laklarini**
• **bir-biriga bog'lash yoki ularga qo'shimcha ma'no yuklash**
uchun xizmat qiladigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi.

☞ **Bog'lovchi, ko'makchi va yuklamalar yordamchi so'zlardir.**

288-mashq. So'zlarni o'rni-o'rniga qo'yib, gaplar tuzing. Ularni mustaqil va yordamchi so'zlarga ajrating.

1. Dadam, dehqonchilik, shug'ullanadi, bilan, mening. 2. Bug'doy, sholi, paxta, va, ekadi, u. 3. E'zozlang, u, chunki, yerni, boqadi, bizni.

289-mashq. Nuqtalar o'rniga yordamchi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Yordamchi so'zlarning gapdagi o'rnini tushuntirib bering.

Vatan tuyg'usi, Vatan tushunchasi biz... sajdagohday muqaddas, sajdagohday pok... ulug' bo'lmog'i kerak. Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, ... bu olamda O'zbekistonimiz yakka-yu yagona.

***290-mashq.** *Haqida, va, orqali, uchun, chunki* yordamchi so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Ularning gapdagi vazifasini izohlang.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qanday soʻzlar yordamchi soʻzlar sanaladi?
 2. Yordamchi soʻzlarning qanday turlari bor?

291-mashq. *Uyga topshiriq.* **Quyidagi qoʻliqlar asosida gaplar yozing.**

1. _____ uchun _____.
2. _____ va _____.
3. _____, chunki _____.
4. _____, _____ hamda _____.
5. _____ bilan _____.

89-d a r s. BOGʻLOVCHILAR

1-topshiriq. *Ammo, lekin, va* soʻzlari ishtirok etgan gap tuzing. Bu soʻzlarning qanday vazifa bajarayotganini ayting.

2-topshiriq. *Negaki, chunki* soʻzlarini gap ichida keltiring. Ularning vazifasini tushuntiring.

! **Uyushiq boʻlaklarni va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladigan yordamchi soʻzlar bogʻlovchi sanaladi.**

 **Bogʻlovchi gap boʻlagi vazifasida kelmaydi.**

292-mashq. **Gaplar ichida kelgan bogʻlovchilarni izohlang.**

Quvnoq va shoʻx kuylarga joydir goʻzal Vatanim. (*Poʻlat Moʻmin*)
 Keyin Salima va oyisi mezbolar bilan xayrlashib, uylariga qaytishdi.
 (*Farhod Musajon*) Oʻzi uddaburon, qoʻrqmas, biroq oʻqishda mazasi
 yoʻqroq ... (*N. Fozilov*) ... Tanalaridagi ozgina namlik bilan ularga
 hayot baxsh eta boshlashdi, ammo kunlar oʻtgan sari bargchalar
 kattalashib, koʻproq suv, koʻproq oziq-ovqat soʻray boshlashdi.
 (*X. Toʻxtaboyev*)

293-mashq. **Nuqtalar oʻrniga bogʻlovchilardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring, ularga tavsif bering.**

1. Tuyaqush ... Qoplon ikkalalari doʻst boʻlibdilar. Qoplon chin soʻzli, doʻstga sadoqatli, gʻamxoʻr ... mehribon boʻlgani uchun harsil-

lab yetib kelibdi. (*Ertakdan*) 2. Pochcham ... ammam bu gul, bu hayvonotlarning har bittasini nuridiydalariday parvarish qiladilar. Tushlik ... nonushtasi uchun suzma bermoqchi edim, bechora qushlar juda ham yovg'onsirab ketdi. (*G'afur G'ulom*) 3. Buvisi ... onasi ketishsa-chi to'ylarga, Uyni poylab o'tirar chiqmay ko'cha-ko'ylarga. (*Ilyos Muslim*)

294-mashq. Ikki guruhga bo'ling. Birinchi guruh *va, ammo, biroq* bog'lovchilari yordamida gap tuzsin. Ikkinchi guruh esa gap ichida *chunki, negaki* bog'lovchilarini qo'llasin. Qaysi guruh adashsa, yutqazgan sanaladi. Gap tuzish galma-gal davom etadi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Bog'lovchi deb qanday yordamchi so'zlariga aytiladi?
 2. *Yo, yoki, biroq, dam..., dam* yordamchilari ishtirokida gap tuzing. Ularning qanday vazifa bajarayotganini va ma'nolarini ayting.

295-mashq. *Uyga topshiriq.* «Yolg'onchilikdan saqlaning!» mavzusida gaplar tuzing. Unda bog'lovchilardan foydalaning.

90-d a r s. KO'MAKCHILAR

1-topshiriq. *Uchun, tufayli, kabi* so'zlari ishtirok etgan gap tuzing. Bu so'zlarning vazifasi va qanday ma'no ifodalayotganini ayting.

2-topshiriq. *So'ng, bo'ylab, tomon* so'zlari yordamida so'z birikmasi tuzing. Bu so'zlarning qanday vazifa bajarayotgani va ma'nosini ayting.

! Otlarning boshqa so'zlarga tobe bog'lanishi uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi.

☞ Ko'makchilar ko'pincha otlarni fe'lga bog'lab keladi.
 Masalan: *Shahar tomon ketdi. Daryo bo'ylab yurdi kabi.*
 Ba'zan otni ot, sifat va ravishlarga tobelantirib bog'laydi.
 Masalan: *Ona kabi mehribon. Halimdan ko'ra katta.*

296-mashq. O'qing, nuqtalar o'rniga ko'makchilardan mosini qo'yib, ko'chiring. Ko'makchilar ma'nosini izohlang.

1. Har holda, menga o‘xshagan o‘yinqaroq bolalar ... bu yerda ermak topiladi. (*G‘afur G‘ulom*) 2. Qaytishda bo‘lsa, o‘rtog‘larim ... chillak o‘ynaguncha guzardan muzqaymoq olib chap tarafdin keldim. (*Hakim Nazir*) 3. Bog‘da gul chaman-chaman, Men gullarni quchaman. Zavq-la ochib qulochin, sho‘x qush ... uchaman. (*Po‘lat Mo‘min*) 4. U so‘zining ustidan chiqdi, Tesha ... gul ko‘chatining tagini yumshatib, kun ora suv quyib turdi. (*Farhod Musajon*)

297-mashq. Ko‘makchilar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘ying. Gap ma‘nosida qanday o‘zgarish sodir bo‘layotganini aniqlang.

1. Onam (*uchun, -ga*) sovg‘a oldim. 2. Mustaqillik (*haqida, -dan*) gaplashdik. 3. Maktab (*tomon, -ga*) qarab jo‘nadim. 4. Oynayi jahon (*orqali, -dan*) eshitdik.

***298-mashq.** Quyidagi so‘z shakllari ishtirokida gaplar tuzing.

Siz bilan, shahrimiz haqida, daryo bo‘ylab, yurtimiz uchun.

Savol va topshiriqlar



1. Ko‘makchi deb qanday yordamchi so‘zlarga aytiladi?
2. Ko‘makchilar qanday so‘zlarni qanday so‘zlarga bog‘laydi?

299-mashq. Uyg‘a topshiriq. Tushirib qoldirilgan ko‘makchilarni o‘rniga qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Mustaqillik ... xalqimizning turmushi o‘zgardi. Hamma Vatan, yurt ... o‘zining kerakligini anglab yeta boshladi. Istiqloq ... gap ketsa, o‘z fikrini bemalol ayta oladigan bo‘ldi.


91-d a r s. YUKLAMA

1-topshiriq. *Faqat, hatto, xuddi* so‘zlarini gap ichida keltiring va ularning vazifasi hamda ma‘nosini ayting.

2-topshiriq. *-gina (-kina, -qina), -u, (-yu)* qo‘shimchalarini mustaqil so‘zga qo‘shib, gap ichida keltiring. Ularning yozilishini tushuntiring.



Ayrim gap bo‘lagi yoki butun gapning mazmuniga qo‘shimcha ma‘no yuklash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlarga yuklama deyiladi.


 Yuklamalar so‘z-yuklamalar va qo‘shimcha-yuklamalarga bo‘linadi. So‘z-yuklamalar o‘zi qo‘shilayotgan so‘zdan doimo ajratib yoziladi. Qo‘shimcha-yuklamalar esa o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga qo‘shib yoki undan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. *-mi, -oq (-yoq), -gina (-kina, -qina)* yuklamalari o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga qo‘shib yoziladi. **Masalan:** *Keldimi? Senmi? Keliboq, kelsayoq, sengina* kabi. *-chi, -u(-yu), -a(-ya), -da* yuklamalari o‘zi qo‘shilayotgan so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. **Masalan:** *Sen-chi? Ayt-chi? Keldi-yu, ketdi. Borgin-a?*

300-mashq. Matnni o‘qib, yuklamalarni va boshqa yordamchi so‘zlarni toping. Ularning gapga qanday ma’no berayotganini aniqlang.

Bobom g‘alatilar-da. Ko‘p gapiradigan kishini hech yoqtirmaydilar. O‘zlari ham juda qarib qolganlar. Bug‘doyrang, cho‘tir yuzlarini ajin bosgan, soqollari oppoq, lekin sira tinchimaydilar, qachon qarama, biron ish qilib turadilar... (*Said Ravshan*)

301-mashq. *-mi, -chi, -a, -da, hatto, faqat, -gina, -u* yuklamalari ishtirokida gaplar tuzing. Ularni daftaringizga ko‘chirib yozing. Yuklamalarning o‘rnini almashtirsa bo‘ladimi? Shu haqda o‘ylab ko‘ring.

Savol va topshiriqlar

-  1. Qanday yordamchi so‘zlarga yuklama deyiladi?
 • 2. Qanday qo‘shimcha-yuklamalar qo‘shib yoziladi?
 3. Qanday qo‘shimcha-yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi?

302-mashq. *Uyga topshiriq.* Nuqtalar o‘rniga tegishli yuklamalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Agar qarshi bo‘lmasalaring, menda bir taklif bor, — dedi Jovli. — Ertaga qishloqni bir boshdan titkilab chiqsak...? — Ol...! (*N. Norqobulov*) 2. Bunisini ko‘ring...! — dedi jaji, chamandagul do‘ppini dadamga uzatib. (*O‘. Hoshimov*) 3. Ikkisi ham birdan: — Besh...? — deb so‘rashdi. — Shunaqaga o‘xshaydi...? — dedim men. Oyim peshanamdan o‘pdi. (*O. Yoqubov*)

92-d a r s. UNDOV VA TAQLID SO‘ZLAR

Topshiriq. Biror narsadan lazzatlanish yoki og‘riq hislari qanday so‘zlar yordamida ifodalanadi? Ular ishtirokida gap tuzing.

! So‘zlovchining his-hayajonini, shuningdek, hayvon-parrandalarni biror harakatga undashni ifodalovchi so‘zlarga undov so‘zlar deyiladi. Inson, hayvon va narsalarning tovushlariga taqlid ifodalovchi so‘zlar taqlid so‘zlar hisoblanadi.

303-mashq. O. Qo‘chqorbekovning «Xatomni tuzating» she‘rini o‘qing. Hayvon va parrandalar tovushiga taqliddan yasalgan fe’llarni taqlid so‘zlarga aylantiring.

N a m u n a: qag‘illadi — qag‘-qag‘

Qag‘illadi mushugim,	Xo‘roz uchdi, qorong‘i
Qarg‘acham miyovladi.	Tushib, hamma yotganda.
Tom ustida turib jim	Eshak kishnab, buqacham
Sichqon mushuk ovladi.	Ochiqqandan hangradi.
It qag‘illab, tovug‘im	Toychog‘imning ham shunda
Birovga hura ketdi.	«Ma-a!» degani yangradi.
Quyoning tug‘di tuxum,	Yolg‘onmi? Agar yurgan
Anhor yugura ketdi.	Bo‘lsangiz siz kuzatib,
Ko‘rshapalak qichqirdi	To‘g‘risini o‘zingiz
Yorishib tong otganda,	Ayta qoling tuzatib.

304-mashq. *Ura, ey, oh, voy, obbo, hoy* undovlari ishtirokida gaplar tuzing, ularning qanday vaziyatlarda aytilishini tushuntirib bering.

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Qanday so‘zlarga undov so‘zlar deyiladi?
 2. Qanday so‘zlarga taqlid so‘zlar deyiladi?
 3. So‘zlovchining his-hayajonini bildiruvchi undovlarga uchta misol keltiring.
 4. Hayvonlar va parrandalarni haydash, chaqirish va to‘xtatish uchun qo‘llaniladigan so‘zlarni ayting.

305-mashq. *Uyga topshiriq.* Uy hayvonlari va qushlarga nisbatan ishlatiladigan undov so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

93-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSI

Mustahkamlash uchun savollar



1. Mustaqil soʻzlar deb nimaga aytiladi?
2. Yordamchi soʻzlar deb nimaga aytiladi?
3. Bogʻlovchilarga misollar keltiring.
4. Koʻmakchilar gapda qanday vazifa bajaradi?
5. Yuklamalar deb nimaga aytiladi?
6. Undov soʻzlar deb nimaga aytiladi?
7. Taqlid soʻzlarga misollar ayting.

1-topshiriq. Tushirib qoldirilgan yordamchi soʻzlarni topib, oʻrniga qoʻying. Gapda ular qanday ahamiyatga ega ekani haqida soʻzlab bering.

1. Ona yurtimiz... halol mehnat qilaylik. 2. Xalqimizning tinchligi... totuvligiga koʻz tegmasin. 3. Xalqimiz kelajakka katta umid... ishonch... qaramoqda. 4. Fidoyilik... qilingan mehnat samarasiz qolmaydi.

2-topshiriq. 1-, 2-, 3-gap tarkibidagi har bir soʻzga namunadagi kabi tavsif bering.

ona – mustaqil soʻz, ot, shaxs oti, birlikda, bosh kelishikda.

3-topshiriq. 1-topshiriqda berilgan **xalq, katta, qaramoqda, samarasiz** soʻzlari ishtirokida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizda yuklamalardan foydalaning.

4-topshiriq. **Xalq, katta, qaramoqda** soʻzlarining maʼnodoshlarini toping. Ularni gap ichida qoʻllang.

Misol uchun: **Mamlakatimiz taraqqiyotning katta (ulkan) yoʻliga chiqib oldi.**

5-topshiriq. *Uyga topshiriq.* Yordamchi soʻzlar jadvalini beshtadan misol keltirib toʻldiring.

Bogʻlovchi	Koʻmakchi	Yuklama	Undov soʻzlar	Taqlid soʻzlar
lekin	uchun	-mi	oh	taq

94-d a r s. SOʻZLARNING TUZILISHIGA KOʻRA TURLARI

1-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlar nechta asosdan tashkil topganini aniqlang. **Iqtisodiyot, kamgap, orzu-niyat.**

2-topshiriq. **Markaziy Osiyo, qirqoyoq, tezyurar** soʻzlarining qanday soʻroqqa javob boʻlishini aniqlang.

! Soʻzlar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, juft va takroriy soʻzlarga boʻlinadi.

306-mashq. Birinchi va ikkinchi qatorlarda berilgan asoslarning oʻzaro mos keladiganlarini topib, qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

1. Joʻja, bozor, oʻpka, sof, qoʻy, gul, xola, osh, oʻrin, oʻq, it, umum, koʻcha.

2. Xola, qovoq, bosar, xalq, koʻy, xoʻroz, oʻchar, dil, gul, jigar, qoʻzi, ilon, uzum.

***307-mashq.** Uch guruhga boʻlinib, sinf taxtasiga yozilgan *qora, oq, uch* soʻzlari ishtirokida qoʻshma soʻzlar hosil qiling. Besh daqiqa ichida kim eng koʻp qoʻshma soʻz aytsa, oʻsha guruh gʻolib boʻladi.

N a m u n a: Qorasuv Oqqoʻrgʻon uchburchak

308-mashq. Qoʻshma va juft soʻzlarni topib, ularni izohlang, qanday asoslardan yasalayotganiga eʼtibor qiling.

Oʻylab-oʻylab topdim. Sagʻbonda bitta ammam bor. Shunikiga boraman... Ammamning eri – moʻynadoʻz-kosib.

Bola-chaqalari boʻlmaganidan uylari biznikiga oʻxshash toʻs-toʻpolon emas, yigʻinchaqli, innaykeyin, bularning uyi salkam ajoyibxona.

Ularning uyidagi gullarning-ku son-sanogʻi yoʻq: gulbeor, gulraʻno, gulsafsar, gulhamishabahor, qoʻqongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul – ishqilib, sanab tugatib boʻlmaydi.

(Gʻafur Gʻulom)

Savol va topshiriqlar



1. Soʻzlar tuzilishiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
2. Sodda soʻzlar qanday boʻlishini tushuntiring.
3. Qoʻshma soʻzlar nechta asosdan tashkil topadi?
4. Imlo lugʻatidan foydalanib, sodda, qoʻshma, juft va takroriy soʻzlarga ikkitadan misol toping.

309-mashq. *Uyga topshiriq.* Berilgan asoslardan foydalanib, qo'shma va juft so'zlar hosil qiling.

Yer ..., qovun ..., kino ..., tosh ..., go'sht ..., ko'k ..., og'iz ..., qosh ..., el ..., xush ..., oshna ...

95-d a r s. QO'SHMA SO'ZLAR

Topshiriq. Quyidagi so'zlarning so'rog'ini va qanday asoslardan tashkil topganini aniqlang.

Beshiktervatar, otquloq, gulbeor, muzyorar, har qachon, ozmuncha, sotib olmoq, temiryo'l, jigarrang, tamom bo'lmoq, mehnat qilmoq.

! Ikki yoki undan ortiq asoslardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'lgan so'zlar qo'shma so'zlar deyiladi.

310-mashq. O'qing, qaysi so'zlar qo'shib, qaysi so'zlar ajratib yozilayotganiga diqqat qiling.

Otquloq, Yurtboshi, tinchliksevar, xushxat, oshko'k, qo'shtirnoq, oshpichoq, qo'lqop, sadarayhon, Yangiyer.

Har bir, qirq uch, hech kim, hech nima, har vaqt, olib chiq, ta'sir et, borib kelmoq.

311-mashq. Qavslarini ochib, qo'shma so'zlarni qoidaga muvofiq ko'chirib yozing. Ular ishtirokida to'rtta gap tuzing.

Qimmat (baho), Besh (ariq), hech (nima), erk (sevar), ming (oyoq), xom (tok), sof (dil), kul (rang), ish (yoqmas), laylak (qor), mosh (rang), hech (qachon), har (doim), ko'z (oynak), shirin (so'z), baland (parvoz).

***312-mashq.** Sinfda «Kim ko'p topadi?» musobaqasini o'tkazing. Bunday o'yin sinfni uch-to'rt guruhga bo'lib yoki sinfdagi 3–4 o'quvchi o'rtasida o'tkazilishi mumkin. Tomonlar avval qo'shib yoziladigan, keyin ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarga misollar topishi kerak. Qaysi guruh yoki o'quvchi ko'p so'z topa olsa, o'yin g'olibi bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qo'shma so'z deb qanday so'zlarga aytiladi?
 2. Qo'shma ot va qo'shma sonlarga uchtadan misol keltiring va yozilishini tushuntiring.
 3. Qo'shma fe'llar qanday yoziladi?

313-mashq. *Uyga topshiriq.* Qo'shma so'zlar ishtirokida kichik bir matn tuzing.

96-d a r s. QO'SHMA SO'ZLAR IMLOSI

Topshiriq. Berilgan so'zlarning so'rog'i va qanday yozilganini aniqlang. *Yakkasaroy, beshotar, xabar qildi, O'rta Osiyo, olib keldi.*

! Qo'shma fe'l va qo'shma sonlar ajratib yoziladi.

 Qo'shma so'zlar yozilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar; 2) ajratib yoziladigan qo'shma so'zlar.

Birinchi so'zi *bir, har, hech* olmoshlari bo'lgan qo'shma so'zlar, qo'shma sonlar doimo ajratib yoziladi. *Birpas, biroz* kabi ayrim so'zlar bundan mustasno.

Qo'shma so'zlarning katta qismi qo'shib yoziladi.

314-mashq. So'zlarni o'qing, ularni imlo qoidalariga mos ravishda qo'shib yoki ajratib yozing.

Oq||saroy, oq||bilak, erk||sevar, sof||dil, oliy||janob, havo||rang, O'rta||Osiyo, sher||dil, xush||ovoz, umum||xalq, o'n||ikki, bayon||et, jo'ja||xo'roz.

***315-mashq.** O'yinimiz «Ikkinchi qismini toping!» deb nomlanadi. Qo'shma so'zlarning ikkinchi qismini topib, ularning qo'shib yoki ajratib yozilishini aytib bering. Ular ishtirokida gaplar tuzing va yozing.

Tinchlik...	jigar...	muz...
qo'l...	xush...	uch...
qirq...	G'arbiy...	bug'doy...

316-mashq. Matnni o‘qing. Qo‘shma so‘zlarning yasalishi va yozilishiga alohida e‘tibor bering.

- Oti nima bu qovuningizning? – qiziqib so‘radi jo‘ram.
- Bo‘rikalla! Bundan bir tilimini yegan kishi mazaxo‘rak bo‘ladi...

Qovun-tarvuzim pishdimi, xuddi paykalning o‘zida savdosi boshlanadi. Mening paykalimda bitgan umriboqiy, shakarpalak, qizilmag‘iz, bo‘rikalla, ko‘kkallapish, doniyoriy, gurvoy, amiriy yoki qo‘zivoy tarvuzlarimning xaridorlari har qachon yo‘lda bo‘ladi. (*N. Safarov*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qanday qo‘shma so‘zlar ajratib yoziladi?
 2. Qanday qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi?

317-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zingiz yashayotgan mahalla (qishloq) va uning atrofida uchrovchi qo‘shma so‘z shaklidagi joy nomlariga misollar yozing.

97-d a r s. JUFT SO‘ZLAR VA ULARNING IMLOSI

Topshiriq. Quyidagi so‘zlarning qanday asoslardan tashkil topganini aniqlang. *Kecha-kunduz, bordi-keldi, qishin-yozin.*

! • **Ma‘nosi bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma‘noli ikki asosning qo‘shiluvidan tashkil topgan so‘zlarga juft so‘zlar deyiladi. Juft so‘z asoslari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.**

Agar juft so‘zlar -u, -yu yuklamalari bilan bog‘lansa, birinchi so‘zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

M a s a l a n: *kecha-yu kunduz, past-u baland, osh-u non.*

318-mashq. Nasihatni o‘qing va yod oling. Juft so‘zlarni topib, ko‘chiring.

Ota-onaga munosabatda bo‘lishning ba‘zi qoidalarini bilib oling. Birinchisi, ularga yurak-yurakdan xizmat qilmoqlikdir. Ikkinchisi, imkoni boricha, ularning hurmatlarini joyiga qo‘ying. Uchinchisi, har qanday buyruqlariga gap-so‘zsiz itoat qiling. To‘rtinchisi, buyruq kutib ularning yuz-ko‘zlariga termilib o‘tirishni odat qiling. Beshinchisi, ularning roziligisiz safarga chiqmang.

319-mashq. Ko‘chiring. Juft so‘zlarning yozilishiga diqqat qiling.

Qarindosh-urug‘, el-yurt, kecha-yu kunduz, uch-to‘rt, bordi-keldi, shirin-u shakar, erta-indin, katta-kichik, yor-u do‘st, baxt-saodat, besh-olti.

320-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlar qo‘yib, juft so‘zlar yasang va ularni ko‘chiring.

Ona... , mayda... , baland... , daftar... , erta... , besh... , qing‘ir... , keldi... , u... , ekin...

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qanday so‘zlarga juft so‘zlar deyiladi?
 2. Juft so‘zlar qanday ma‘noli asoslardan tashkil topadi?
 3. Juft so‘zlar qanday yoziladi?

321-mashq. *Uyga topshiriq.* Beshta gap tuzing. Unda juft so‘zlar ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo‘lib kelsin.

98-d a r s. **TAKRORIY SO‘ZLAR VA ULARNING IMLOSI**

Topshiriq. Quyidagi so‘zlar ishtirokida uchta gap tuzing. Ularning ma‘nolarini ayting. *Katta-katta, uzun-uzun, baland-baland, beshta-beshta, ko‘p-ko‘p.*

! **Bir asosning ikki marta takrorlanishidan hosil bo‘lgan so‘zlarga takroriy so‘zlar deyiladi.**

322-mashq. Gaplarni o‘qing, takroriy so‘zlarni topib, ular orqali ifodalanayotgan ma‘noni tushuntirib bering.

1. Yarim kechada darvozaga o‘rnatilgan qo‘ng‘iroq ustma-ust qattiq-qattiq jiringladi. 2. Zum o‘tmay hovlida gurs-gurs tovushlar eshitilib, eshik sharaqlab ochildi-yu, uyga birin-ketin uch kishi kirib keldi. 3. Odamlar Marjontovga murojaat qilib, undan yomonlarning dodini berishni iltijo qilishardi. Hamon ahvol o‘sha-o‘sha! Hamon yomonlar otda, yaxshilar dog‘da! (*O.Yoqubov*)

323-mashq. Quyidagi takroriy so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularning gapdagi o‘rniga diqqat qiling.

Pir-pir, lip-lip, taq-taq, chars-chars, oz-moz, qand-pand, yugur-yugur.

324-mashq. Quyidagi takroriy soʻzlarning qaysi soʻz turkumiga oidligini aniqlang va ularni guruhlariga boʻlib, daftaringizga koʻchiring.

Dir-dir, duv-duv, omon-omon, shu-shu, mish-mish, sur-sur, hamma-hammaga, sekin-sekin, qop-qop, ayta-ayta, ming-ming.

Savol va topshiriqlar



1. Takroriy soʻz deb qanday soʻzlarga aytiladi?
2. Takroriy soʻzlar qanday yoziladi?
3. Asoslarning aynan takrorlanishi natijasida hosil boʻlgan soʻzlarga misollar keltiring.

325-mashq. Uygʻa topshiriq. Takroriy soʻzlar ishtirokida beshtadan gap yozib, ularni izohlang.

N a m u n a: *Kitoblarimni bir-bir qarab chiqdim* (son takror ishlatilyapti).

99-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARS

1-topshiriq. «Ikkinchi qismini toping!» oʻyinini tashkil qiling. Navbat bilan quyida berilgan soʻzlarning ikkinchi qismini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Uzoq... , onda... , toʻy... , kiyim... , qora... , yakka... , dam... , istar... , quva... , achchiq... , oʻgʻil...

2-topshiriq. Qoʻshma, juft, takroriy otlarni topib, ularni izohlang.

3-topshiriq. Bitta soʻzni, masalan, *qora* soʻzini asos qilib, qoʻshma, juft va takroriy soʻz yasay olasizmi? Shu asosida oʻyin tashkil qiling.

N a m u n a: Qorabuloq, oq-qora, qora-qura.

4-topshiriq. Uch guruhga boʻlining. Birinchi guruh koʻkat, ikkinchi guruh gul, uchinchi guruh poliz ekinlari nomiga 10 tadan qoʻshma ot yozsin. Qaysi guruh birinchi boʻlib bajarsa, shu guruh gʻolib sanaladi. Sinf taxtasiga har bir guruhdan bittadan vakil chiqariladi, qolganlar daftariga yozib boradi.

N a m u n a:	1-guruh	2-guruh	3-guruh
	gʻozpanja	gulbeor	shakarpalak

5-topshiriq. Uyda «Yaxshilik nima?» mavzusida matn tuzing. Unda qoʻshma, juft, takroriy soʻzlardan foydalaning.

100-d a r s da nazorat diktanti oʻtkaziladi.

TAKRORLASH

101-d a r s. MUSTAQIL SO‘ZLAR

Takrorlash uchun savollar



1. Mustaqil so‘zlar deb nimaga aytiladi?
2. Ot deb nimaga aytiladi?
3. Sifatga ta’rif bering.
4. Son deb nimaga aytiladi?
5. Olmoshlardan qanday maqsadda foydalaniladi?
6. Fe’ning nechta zamoni bor?
7. Ravish deb nimaga aytiladi?

326-mashq. Gaplarni o‘qing. Har bir so‘zga so‘roq berib, uning qaysi so‘z turkumiga mansubligini aniqlang.

Xorazm o‘zbek ilm-fani, san’ati va madaniyatining eng qadimgi o‘choqlaridandir. Bu tuproqdan yetishib chiqqan Xorazmiy, Beruniy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Ogahiy kabi allomalarni butun dunyo biladi.

Xivadagi ajoyib qal’alar, muhtasham binolar va ko‘kka bo‘y cho‘zgan minoralar dunyoning boshqa yerida yo‘q.

327-mashq. O‘zingiz yod olgan biror she’rdagi so‘zlarga egalik, kelishik va shaxs-son qo‘shimchalarining qay tarzda qo‘shilganini tahlil qiling.

328-mashq. O‘yiniz «So‘zdan gapga» deb nomlanadi. O‘qituvchi sinf taxtasiga bir so‘zni yozib qo‘yadi. O‘quvchilar shu so‘zga sifat, son, ravish, fe’lni qo‘shib, gap holatiga keltiradilar.

N a m u n a:

Nima? daraxt/qanday? mevali/nechta? o‘nta/qachon? kecha/nima qildik? ekdik

Kecha o‘nta mevali daraxt ekdik.


329-mashq. Uyga topshiriq. Tarixiy obidalarimiz haqida bilganlaringizni hikoya tarzida yozing. Unda ishlatilgan so‘zlarni izohlashga hozirlik ko‘ring.

102-d a r s. YORDAMCHI SO‘ZLAR

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. Yordamchi so‘zlar deb nimaga aytiladi?
 2. Ko‘makchi deb nimaga aytiladi?
 3. Bog‘lovchiga ta’rif bering.
 4. Yuklamaga misollar keltiring.
 5. Qaysi yuklamalar so‘zga qo‘shib yozildi?

330-mashq. Boshqotirmaga yashiringan yordamchi so‘zlarni toping, ular ishtirokida gaplar tuzing.



1. Bog‘lovchi. 2. Yuklama. 3. Ko‘makchi. 4. Ko‘makchi. 5. Bog‘lovchisi. 6. Bog‘lovchi.

Kalit so‘z: *bog‘lovchi*

331-mashq. Qavs ichidagi yordamchi so‘zlardan gap mazmuniga mos keladiganlarini belgilang va gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

1. Dunyoda (*xuddi, faqat, uchun*) Vatan degan so‘z insonga aziz bo‘lgan tushunchalarni o‘zida mujassam eta oladi.
2. Vatanni sevish lozim, (*ham, -mi, chunki*) u bizning nomusimiz, orimiz.
3. Vatan (*ostida, goh...goh, va*) ona degan so‘zlar hamisha yonma-yon keladi.
4. Vatan (*-chi, hatto, uchun, -a*) joningni qurbon qilsang arziydi.
5. Uzoq safardan o‘z yurtingga qaytish qanday yaxshi (*-ku, -ya, -da*)!

332-mashq. Uyga topshiriq. Yordamchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

103-d a r s da test ustida ishlanadi.

FONETIKA. GRAFIKA

104-d a r s. **TILSHUNOSLIK VA UNING BO‘LIMLARI**

! Til o‘z ichki tuzilishiga ega. Tilning ana shu ichki tuzilishidan qaysisini o‘rganishga ko‘ra tilshunoslik fani ham bir necha bo‘limlarga bo‘linadi.

Tilning tovush tuzilishi fonetika bo‘limida, harflar tizimi esa grafika bo‘limida o‘rganiladi.

So‘z va uning ma‘nolari leksikologiya bo‘limida, so‘z turkumlari morfologiya bo‘limida, gap va gapda so‘zlarning bog‘lanishi sintaksis bo‘limida o‘rganiladi.

Shunday qilib, tilshunoslik fonetika (grafika), leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo‘limlarining uzviy bog‘liqligidan iboratdir.

333-mashq. Boburning quyidagi baytiga diqqat qiling. Undagi unli va undosh tovushlarni ajrating.

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

334-mashq. She‘rni o‘qing, tagiga chizilgan so‘zlarning qanday ma‘no bildirayotganini toping. So‘z va uning xususiyatlari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganilishi haqida bahslashing.

Qalin og‘ayni	Ulg‘ayishmoqda	
Eson va Omon.	omon va eson.	
Bir xil yoshdadir	Doim bo‘lishsin	
Omon va Eson.	eson va omon.	(«Gulxan»)

***335-mashq.** Xandalarni o‘qing. Undagi so‘zlarni so‘z turkumlari bo‘yicha tahlil qiling. So‘z turkumlari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi? Shu haqda savol-javob tashkil qiling.

O‘qituvchi:

– Qani, Tohirjon, uchmoq fe’lini uch zamonda tuslab ber-chi.

Tohirjon:

– Uchdim, uchypaman va men oydaman.

* * *

O‘qituvchi:

– Rustamjon, bog‘lovchilarga misol keltir-chi.

Rustamjon:

– Sim, arqon, ip... («Gulxan»)

Savol va topshiriqlar



1. Fan va uning o‘rganish predmeti deganda, nimani tushunasiz?
2. Tilning tuzilishi va tilshunoslik bo‘limlari haqida fikringizni bayon qiling.
3. Tilshunoslikning qanday bo‘limlari borligini ayting va ularning har biriga izoh bering.

336-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, gaplar tuzing. So‘zlarning bir-biriga bog‘lanishi, gap va uning turlari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganilishi haqida bahs tashkil qiling.


1. O‘lka, Navro‘z, kir, kel.
2. Dala, ek, ish, boshla.
3. Butun, tabiat, qayta, uyg‘on.

105-d a r s. FONETIKA VA GRAFIKA

Topshiriq. Bola, kitob so‘zlarini bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni tovushlarga ajrating. So‘zlarning necha bo‘g‘in va tovushdan iborat ekanini ayting.

! Og‘zaki nutqning tovush tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi fonetika, yozma nutqning harflar tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi esa grafika deyiladi.

☞ Fikrimizni boshqalarga tovushlar vositasida so‘zlash va harflar vositasida yozish orqali bayon qilamiz. So‘zlash va yozish orqali ma’lum fikr bayon qilishimiz nutq hisoblanadi.

 **Nutq ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq og‘zaki nutq, harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq esa yozma nutq sanaladi.**

337-mashq. Tagiga chizilgan so‘zlarning nima sababdan ma’no anglatmasligini toping, fonetika haqida bahs yuriting.

Bizlar chug‘urlashib turganimizda Akmal aka kelib qoldi. Shunday bo‘lsa ham, Akbar gapida davom etaverdi:

- Lamaymizmipoy?
- Dayqan libqi? – dedi A’zam.

Akmal aka bu qanaqa til degandek bizlarga qaradi?

Bizlar maktabda shunaqa tilda gaplashardik, maynavozchilikka. Masalan, bir so‘zni aytmoqchi bo‘lsak, u so‘zning birinchi bo‘g‘inini oxiriga olib gapiraveramiz. (*N. Fozilov*)

◆ **338-mashq.** Tovushlarni o‘rni-o‘rniga qo‘yib, so‘zlar hosil qiling. So‘zlarni hosil qilishda ular qanday o‘rin tutayotganini aytib bering.

hdoneq, kabtma, atdarf, garb, lyo, kdikle.

339-mashq. So‘zlar qatoridan xato yozilgan so‘zni toping, uni imlo qoidasiga mos ravishda to‘g‘rilab yozing.

Kutibxona, bultir, fikir, ilim, olip, qovin, shovullap.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Fonetika deb tilshunoslikning qanday bo‘limiga aytiladi?
 2. Tilshunoslikning qanday bo‘limiga grafika deyiladi?

340-mashq. Uyga topshiriq. Siz ham shunday bahslar yuriting.


- Shoshma, «unutish»ning buyruq formasi qanday yozilardi?
- «Unit!»
- «I» bilanmi? – Yayra kitobni varaqlab, o‘sha so‘zni qidirib topdi:
- Xato ketding, ukam! Mana «unut» yozilarkan.
- Tavba! «Urush»ning buyruq formasi «urish» yoziladi-ku?
- «Urush» fe‘l emas, ot. Men bog‘dan kelsam, sen tog‘dan kelyapsan. (*P. Qodirov*)

106-d a r s. NUTQ TOVUSHI VA HARF

Topshiriq. Quyidagi gapni so‘zlarga, so‘zlarni bo‘g‘inlarga, bo‘g‘inlarni tovushlarga bo‘ling:

Dalalarda boshlanadi ish. (*Hamid Olimjon*)

- ! **Og‘zaki nutqning eng kichik, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan qismi nutq tovushi deyiladi.**
 • **Tovushning yozuvdagi ifodasiga harf deyiladi.**

 **Bir tovush bir harf bilan ham, ikki harf bilan ham ifodalanishi mumkin: v, a, o, e harflari bir tovushni ifodalasa, sh, ch, ng singarilarda ikki harf bir tovushni ifodalaydi.**

341-mashq. Quyidagi harflarni yuqoridan pastga, so‘ngra pastdan yuqoriga qarab o‘qib ko‘ring, pastdan yuqoriga qarab o‘qilgandagi gapga e‘tibor qiling.

A	CH	T	CH
L	N	R	N
I	I	U	I
O	T	Y	T

342-mashq. Hazil topishmoqlarning javobini toping. Ularda tovushlarning tutgan o‘rnini belgilang.

«Kel-kel», – desam, kelmaydi, «Kelma», – desam, keladi. Olamda-yu odamda bitta, elatda yo‘q, odoblida ikkita. U nima? Unli bilan boshlanadigan oylar ko‘pmi, undosh bilan boshlanadigan oylarmi?

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Nutq tovushi deb nimaga aytiladi?
 2. Harf deb nimaga aytiladi?
 3. Tovushlar bilan harflar bir-biriga teng keladimi? Teng kelmagan holatlarni ayting.

343-mashq. *Uyga topshiriq.* Boshqotirmadagi bo‘sh kataklarni to‘ldirib, yashiringan gapni toping, tovushlarga izoh bering.

q	u	v	o	n	ch	i
		h	a	y	o	t

107-d a r s. UNLI TOVUSHLAR

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni bir-biridan farqlab turgan tovushlarni aniqlang.

Bor, ber, bir, bur, bo‘r.

2-topshiriq. *A, o, e, o‘, u, n, q, p, m* tovushlarini talaffuz qiling. Bu tovushlarning hosil bo‘lishidagi farqni tushuntiring.

! **Tovushlar o‘pkadan chiqayotgan havoning og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrashi yoki uchramasligiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: unli tovushlar va undosh tovushlar.**

O‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramay chiqishi natijasida hosil bo‘ladigan tovushlarga unli tovushlar deyiladi.

 **Tilimizda oltita unli tovush bor: a, o, e, o‘, u, i.**

344-mashq. Uch guruhga bo‘lining, birinchi guruh unlilarning so‘z boshida, ikkinchi guruh so‘z o‘rtasida, uchinchi guruh so‘z oxirida keli-shiga misollar keltirsin.

1-guruh

2-guruh

3-guruh

antiqa

basavlat

manba

345-mashq. Gaplardagi unlilarning ishlatilishiga alohida diqqat qiling.

1. Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan. 2. Kishining hurmati o‘z qo‘lida. 3. Ko‘z qayerda bo‘lsa, mehr ham o‘sha yerda bo‘ladi. 4. Mehrning xazinasi – til.

346-mashq. Katakalar ichiga tushirib qoldirilgan unli harflarni qo‘ying. Ularning gap ma‘nosiga qanday ta‘sir qilayotganini aniqlang.

O'	R		N	S		Z	G'	A	Z		B
		Z		NG	G	A		Z		B	

Savol va topshiriqlar



1. Unli tovushlar deb qanday tovushlarga aytiladi?
2. Tilimizda nechta unli tovush bor? Ularni sanab ko'rsating.

347-mashq. Uyga topshiriq. Rasm asosida matn tuzing, unli tovushlarga tavsif bering.



T a y a n c h s o ' z l a r: qor, qorbobo, chana, qorbo'ron, archa, daraxt, kuchuk, o'rtoq, sovuq, oppoq, o'ynamoq, o'tmoq, yugurmoq, yog'moq.

108-d a r s. **UNDOSH TOVUSHLAR**

1-topshiriq. Quyidagi tovushlarni talaffuz qilib ko'ring. O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ining qayerida to'siqqa uchrayotganini aniqlang:

b, p, m, t, d, s, z.

2-topshiriq. Mazkur tovushlarning qaysilari talaffuzida lab ishtirok etadi?

! O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida yoki bo'g'izda to'siqqa uchrashidan hosil bo'lgan tovushlar undosh tovushlar sanaladi.

☞ Tilimizda quyidagi 24 ta undosh tovush bor: *b, v, g, d, z, j, dj, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng.*

348-mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli undosh tovushni qo'yib, so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing va ularga izoh bering.

Odo..., farzan..., ...arq, mi...bar, ma...sad, ozo..., obo..., to'...son, dori...ona, ayti... keldi, ...alq.

◆ **349-mashq.** Tarkibida bir xil undoshlar qatnashgan *dada, bobo, jaji* kabi so'zlarga misol toping.

350-mashq. *K* tovushi bilan boshlanib, *k* tovushida tugaydigan so'zlar asosida tuzilgan boshqotirman yeching.

1. Zarur, darkor
2. Teshik, o'yiq joy
3. Yovvoyi hayvon
4. Tanlov, musobaqa

	1			3
2	k			k
		K		
4	k			k

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Undosh tovush deb qanday tovushlarga aytiladi?
 2. Tilimizda nechta undosh tovush bor?
 3. To'rtta so'z yozing va bu so'zlarda ishtirok etgan unli hamda undosh tovushlarni aniqlang.

351-mashq. Uyga topshiriq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan undoshlarni qo'yib, so'zlarni ko'chirib yozing.

Ta...simot, tala..., xursan..., pas..., baro...ar, ...abab, shar...ona, shar...iy, bola...on, il...om, ka...it.

109–110-d a r s larda yozma ish va uning tahlili o'tkaziladi.

111-d a r s. NUTQ A'ZOLARI

1-topshiriq. Quyidagi tovushlarni talaffuz qiling. Bu tovushlar talaffuzida qaysi nutq a'zolari ishtirok etayotganini aniqlang.


B, p, t, q, u, o'.

! Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan inson a'zolariga nutq a'zolari deyiladi.

☞ Nutq a'zolariga o'pka, bo'g'iz, tovush paychalari, og'iz bo'shlig'i, til, lablar, tishlar va burun bo'shlig'i kiradi. Qaysi nutq a'zosi ishtirok etishiga ko'ra nutq tovushlari: lab (*b, p, m, v, f*), til oldi (*t, l, s, z, d, sh, ch, j, dj, n, r*), til o'rta (*y*), til orqa (*g, k, ng*), chuqur til orqa (*q, g', x*) tovushlari va bo'g'iz (*h*) tovushi singari guruhlarga bo'linadi.

Nutq a'zolari:

1. O'pka
2. Tog'aylar
3. Un paychalari
4. Bo'g'iz bo'shlig'i
5. Og'iz bo'shlig'i
6. Burun bo'shlig'i
7. Til
8. Lablar
9. Tishlar



352-mashq. Gaplarni daftaringizga ko'chirib yozing. Nutq tovushlarini hosil qilishda til qanday o'rin tutadi? Shu haqda bahslashing.

1. Til yugurigi boshga.
2. Til qilichdan o'tkir.
3. Boshga balo nedan kelur? – Ikki enlik tildan kelur.
4. Fil kuchli, fildan ham til kuchli.
5. Baxtli qiladigan ham til, baxtsiz qiladigan ham til.

353-mashq. Tagiga chizilgan soʻzlardagi tovushlarni hosil qilishda qaysi nutq aʼzolari faol qatnashayotganini toping, ularga izoh bering.

Javohir darsga kelayotib, adashib qolgan bir cholni koʻrib qoldi. Chol undan manzilga yetkazib qoʻyishni soʻradi. Javohir cholga yordam berib, darsga kech qoldi. Aytinglar-chi, u toʻgʻri ish qildimi? Shu haqda bahs yuriting.

354-mashq. Sheʼriy parchalarni oʻqing. Toʻqson yoshli boboning nima sababdan «hushtak chalib» gapirishini, bolaning esa *r* harfini ayta olmay, uning oʻrniga *y* deyishini izohlang. Ularda qaysi nutq aʼzolari yetarli emas?

Toʻqsonga yetdi bobom,
Ishda ham javlon urar.
Ammoki soʻzlaganda,
«Hushtak chalib» yuborar.

Bir ukam bor, gapirsa,
Hamisha dakki yeydi.
Sababi *r* tovushin
Ayta olmay *y* deydi.

(«Durdona»)

Savol va topshiriqlar



1. Nutq aʼzolari deganda nimani tushunasiz va ularga nimalar kiradi?
2. Nutq aʼzolari ishtirokiga koʻra nutq tovushlari qanday turlarga boʻlinadi?

355-mashq. Uyga topshiriq. *Til, tish, lab, boʻgʻiz, oʻpka* kabi nutq aʼzolarining joylashuvi va ularning nutq tovushlarini hosil qilishdagi oʻrni haqida ixcham matn tuzing.

112-d a r s. LAB TOVUSHLARI

1-topshiriq. *B, p, m* tovushlari hosil boʻlishida qaysi nutq aʼzolari ishtirok etishiga diqqat qiling.

2-topshiriq. *V, f* tovushlari talaffuzida qaysi nutq aʼzolari ishtirok etadi?



Talaffuzida lab ishtirok etgan tovushlar lab tovushlari deyiladi.



Lab tovushlariga *b, m, p, v, f* undoshlari kiradi. Ular ikkiga boʻlinadi: lab-lab undoshlari – *m, b, p*; lab-tish undoshlari – *v, f*.

356-mashq. «Soʻzlar halqasi» oʻyinini tashkil qiling. Har bir bola bittadan soʻz aytsin. Soʻzlar *b* bilan boshlanib, *b* bilan tugasin. **M a s a l a n:** *bob, bilib, buyurib* kabi. Keyin shu usulni *p, m* tovushlariga nisbatan ham qoʻllab, oʻyinni davom ettiring.

***357-mashq.** Birinchi va uchinchi tovushi *p* boʻlgan soʻzlardan iborat boshqotirmaning toping.

1.	p		p					1. Sumka
2.	p		p					2. Doʻq
3.	p		p					3. Qush nomi
4.	p		p					4. Namangan viloyati-dagi tumanning nomi.

358-mashq. *Umum, baho, vaʼda, puxta, foyda* soʻzlari ishtirokida gaplar tuzib, ularning aytilishi va yozilishini tushuntiring.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. *B, m, p* undoshlari ishtirok etgan uchta soʻz yozing. Bu undoshlar talaffuzida qaysi nutq aʼzosi ishtirok etayotganini aniqlang.
 2. *Vatan, urf* soʻzlaridagi undoshlarni aniqlang. Undoshlar ichidan lab tovushlarini toping.

359-mashq. *Uyga topshiriq.* Maqollarni oʻqing, ularda ilgari surilgan gʻoya haqida bahs yuring. Lab tovushlarining ishlatilish oʻrinlariga diqqat qiling.


1. Uzumini yegin-u, bogʻini surishtirma. 2. Ustoz koʻrmagan shogird har maqomga yoʻrgʻalar. 3. Butun xalqning istagi shu — tinchlik. 4. Oʻqigan oʻqdan oshar, oʻqimagan turtkidan shoshar. 5. Oʻqigan yaxshi, uqqan undan ham yaxshi. 6. Oʻqish, ilm olish oson emas, unga har kim ham chidayvermaydi.

113-d a r s. TIL TOVUSHLARI

1-topshiriq. *S, z, t* tovushlari ishtirok etgan uchta soʻz toping. Bu tovushlar talaffuz qilinayotganda qaysi nutq aʼzosi ishtirok etayotganini aniqlang.

2-topshiriq. *L, r, y* tovushlari talaffuzida qaysi nutq aʼzosi ishtirok etadi.

! Tilning tish va tanglayga tegishidan hosil boʻlgan tovush-
• larga til tovushlari deyiladi.

 Til tovushlariga *t, d, s, z, ch, j, dj, sh, l, r, n, y, g, k, ng, q, g', x* undoshlari kiradi. Til qismlarining harakatiga ko'ra til tovushlari to'rtga bo'linadi.

1. Til oldi undoshlari: *t, d, s, z, ch, j, dj, sh, l, r, n.*
2. Til o'rta undoshi: *y.*
3. Til orqa undoshlari: *g, k, ng.*
4. Chuqur til orqa undoshlari: *q, g', x.*

360-mashq. Gaplarni ko'chirib yozing. Ularning tarkibida kelayotgan til undoshlarining tagiga chizing.

Vatan arabcha so'z bo'lib, ona yurt degan ma'noni bildiradi. U har birimizning kindik qonimiz to'kilgan muqaddas dargoh. Bu tuproqda ota-bobolarimizning xoki yotibdi.

Inson uchun Vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi, boy-kambag'ali bo'lmaydi.

Inson uchun undan ulug' in'om yo'q. Vatandan judolik eng katta baxtsizlikdir.

(S. Otamurotov)

361-mashq. *Dard, toqat, qo'rqqoq* kabi birinchi va oxirgi tovushi bir xil bo'lgan so'zlarga misollar keltiring.

362-mashq. Til undoshlarining har birini aytib, ularni hosil qilishda qaysi nutq a'zolari qatnashayotganini tushuntiring.

Savol va topshiriqlar



1. Til tovushlari deb nimaga aytiladi?
2. Til undoshlari qanday turlarga bo'linadi?
3. *t, d, s, z, ch* undoshlari nima uchun til oldi undoshlari deyiladi?
4. *y* tovushini talaffuz qilib, tilning qaysi qismida hosil bo'layotganini ayting.
5. *q, g', x* undoshlari nima uchun chuqur til orqa, *k, g, ng* undoshlari esa til orqa undoshlari deyiladi?

363-mashq. *Uyga topshiriq.* Daftaringizga yovvoyi hayvonlar va qushlarning nomlarini yozib, ularda ishtirok etgan til undoshlarini izohlang.

114-d a r s. **BURUN TOVUSHLARI**

Topshiriq. Burningizni barmoqlaringiz bilan qisib, *b, t, m, n, ng* tovushlarini talaffuz qiling. Qaysi tovushlarni erkin, qaysilarini qiynalib talaffuz qilganingizni ayting.

! **To'siqqa uchragan havoning burun orqali o'tishidan hosil bo'lgan tovushlar burun tovushlari deyiladi.**

☞ **Burun tovushlariga *m, n, ng* undoshlari kiradi.**

364-mashq. Mustaqillik o'gitlarini o'qing. Gaplar tarkibida kelayotgan burun tovushlariga izoh bering.

Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon kuch-qudrat bo'lmaydi. Xalqimizning ma'naviy ildizlari juda chuqur.

Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi.

365-mashq. Tez aytishlarni mashq qiling. Gaplarning tarkibida kelayotgan burun undoshlariga diqqat qiling.

Bir tup tut, tutning tagida bir tup turp. Tut turpni turtib turibdimi, turp tutni turtib turibdimi?

Shotursunning shotutini shitirlatgan shamol Sharifning shaftolisini shitirlatdi.

Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?

366-mashq. *Ong, tong, bong, qarang, ko'ngil* kabi *ng* burun tovushi bilan kelgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Burun tovushlari deb qanday tovushlarga aytiladi?
 2. Qaysi tovushlar burun tovushlariga kiradi?

367-mashq. *Uyga topshiriq.* Odob haqidagi fikrlaringizni daftarga yozing. Gaplarda ishlatilgan burun undoshlarini izohlang.

115-d a r s. BO‘G‘IZ TOVUSHI

Topshiriq. *X* va *h* tovushlari ishtirokida ikkita so‘z yozing. Bu undoshlarning talaffuzdagi farqni ayting.

! O‘pkadan chiqayotgan havoning bo‘g‘izda qisilishidan hosil bo‘lgan tovushga bo‘g‘iz tovushi deyiladi.

👉 Bo‘g‘iz tovushiga *h* undoshi kiradi.

368-mashq. *H* va *x* tovushlari ishlatilgan xalq maqollarini o‘qing, ularning ishlatilish o‘rinlariga alohida diqqat qiling.

1. Hunarli er xor bo‘lmas, do‘st-dushmanga zor bo‘lmas. 2. Har kallada har xayol. 3. Xalq meniki dema, sen xalqnikisan. 4. Xayrli ishning kechi yo‘q.

***369-mashq.** Nuqtalar o‘rniga *h* yoki *x* harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni daftaringizga yozing va ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

...ullas, osh...ona, ...ayolparast, ...indiston, a...loq, ...ol-a...vol, ...alokat, e...timol, ...ushyorlik, ...atti-...arakat, ...alqparvar, mu...lis, ...abar, podsho...

Savol va topshiriqlar

- ? 1. *H* undoshi ishtirokidagi uchta so‘z toping. Uning *x* dan farqini tushuntiring.
2. Bo‘g‘iz tovushi deb nimaga aytiladi?

370-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyida xato berilgan so‘zlarni imlo qoidalariga mos ravishda daftaringizga ko‘chiring.

Bahil, hasis, xasad, gox-goh, habar, mexnatkash, xovuz, xosil, xuquq, xiylakor, hato, hokkey, ho‘roz.

116-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSII

1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kerakli tovushni qo‘ying, so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Ularning aytilishi va yozilishini tushuntirib bering.

I...ror, mi...dor, ket...i, fo...z, ij...d, muro..., ray...on, ...amimiyat, muhok...ma, qa...at, yura...im, pu...ta.

2-topshiriq. Gaplarni o‘qing, so‘zlar tarkibida kelayotgan unli tovushlarni aniqlab, ularga izoh bering.

1. Tomoqni asray desang, ehtiyot bo‘lib ye, izzatni asray desang, ehtiyot bo‘lib de. 2. Gapning bezagi – to‘g‘ri so‘z. 3. Dononing so‘ziga quloq solgan odam baxt topadi.

3-topshiriq. «Xatosini toping!» o‘yinini tashkil qiling. Noto‘g‘ri yozilgan o‘rinlarni topib, ularga mos keladigan tovushlarni aniqlang.

Zaril, teray, ottan, ishta, ishtim, borip, aynala, murun, shamba.

4-topshiriq. Quyidagi undosh tovushlarni kerakli kataklarga joylashtiring: *sh, ch, b, v, g, d, j, dj, z, y, k, l, m, n, r, s, t, f, x, q, h, ng, p, g‘.*

Lab undoshlari		Til undoshlari				Bo‘g‘iz undoshi
lab-lab undoshlari	lab-tish undoshlari	til oldi undoshlari	til o‘rta undoshi	til orqa undoshlari	chuqur til orqa undoshlari	

5-topshiriq. *Uyga topshiriq.* O‘tilganlarni takrorlang. O‘zingiz sevgan badiiy asar qahramoniga maktub yozing.

117-d a r s. **NUTQ TOVUSHLARINING MA’NO FARQLASH VAZIFASI**

1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga tegishli tovushlarni qo‘yib so‘zlar hosil qiling. So‘zlarni farqlashda nima xizmat qilayotganini ayting.

to...

bo...

 **Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so‘zlarning ma’nolarini farqlashdir.**

371-mashq. Tagiga chizilgan so‘zlarda qaysi tovushlar ma’noni farqlash uchun xizmat qilayotganini ayting.

1. Xush kelibsiz, mehmonlar O‘zbekning diyoriga, xalqimizning quchog‘i ochiq do‘st-u yoriga (*Miraziz A‘zam*) 2. Mevasini ko‘tarolmagan shox qarsillab sindi. 3. Navoiyning g‘azallaridan birini yod oldim. 4. O‘rtog‘idan hol-ahvol so‘ragani kirdi.

372-mashq. *Mato, fol, qo‘y, mis, po‘k, mot* so‘zlarini o‘ngdan chapga qarab o‘qing, shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

***373-mashq.** Bir kuni 5-sinf o‘quvchisi Umida uyiga borsa, eshikda shunday yozuv bor ekan. Uni o‘qishga siz yordam bera olasizmi?

k	i	o‘	i	z
a	t	sh	m	d
l	q	n	i	a

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Nutq tovushlari qanday vazifani bajaradi?
 2. **Qol, qor, qoch, qot** so‘zlarining ma’nolarini farqlashda xizmat qilayotgan tovushlarni aniqlang.

374-mashq. *Uyga topshiriq.* Tovushlarni o‘rni-o‘rniga qo‘yib, gapni daftaringizga to‘g‘rilab yozing.

Qo‘siang, ehch aqochn mak o‘blamyasn.

118-d a r s. O‘ZBEK ALIFBOSI

1-topshiriq. *D, g, v* harflari qanday tartibda joylashadi?

2-topshiriq. Qanday yozuvlarni bilasiz va *ў, ж, u* harflari qaysi yozuvga mansub? *M, n, ch* harflari-chi?

! Harflarning ma’lum bir tartibda joylashuviga alifbo deyiladi.

☞ Alifbo so‘zi arab yozuvidagi harflar tartibining birinchi va ikkinchi harflari – alif va bo(be) nomlarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan.

Hozirgi o‘zbek alifbosi lotin yozuviga asoslangani tufayli lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi deyiladi.

YANGI O‘ZBEK ALIFBOSI

Aa Bb Dd Ee Ff Gg Hh Ii Jj Kk Ll Mm
Nn Oo Pp Qq Rr Ss Tt Uu Vv Xx Yy Zz O‘o‘
G‘g‘ Sh sh Ch ch Ng ng ‘ (tutuq belgisi)

375-mashq. Matnni o‘qing. Undagi g‘oya haqida bahs yuring.

O‘zbek xalqi o‘z tarixida juda ko‘p yozuvlardan foydalangan. Oromiy, so‘g‘d, o‘rxun-enasoy yozuvlari shular jumlasidandir.

VIII asrdan 1929-yilgacha arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek yozuvini ishlatganmiz.

1929-yildan 1940-yilgacha lotin yozuvi qo‘llanilgan. So‘ngra kirill yozuvidan foydalanildi.

Hozirda asta-sekin lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosiga o‘tilmoqda.

***376-mashq.** Hikoyatni o‘qing. Nima sababdan oldingi zamonlarda yozuv bo‘lmagan, deb o‘ylaysiz? To‘marisning donoligi nimada?

To‘maris huzuriga Eron shohi Kirdan elchilar keldi. U elchilarni yaxshilab mehmon qilib, shohga «sovg‘a» berib yubordi.

Kir dasturxonni ochib ko‘rsa, uning ichida o‘q-yoy, sichqon, baliq va qush jasadi bor ekan. Eroniyalar bunga o‘zicha ta‘rif berishdi: – Massagetlar bizga taslim bo‘lishmoqchi, o‘q-yoy – bu bizning timsolimiz, anovi narsalar esa yovvoyilardir, – deyishdi.

Shunda podshohning dono maslahatchilaridan biri «sovg‘a»ni quyidagicha izohladi:

– Bular ogohlantirish. Ular: «Ey bosqinchilar, baliqdek suvga sho‘ng‘ib, sichqondek yerga kirib, qushdek osmonga uchib, tezda yurtimizdan yo‘qolmasalaring, bizning o‘q-yoylarimiz ostida halok bo‘lasanlar!» – demoqchi.

Kir gapga quloq solmadi va oxiri sharmandalarcha yengildi.

Savol va topshiriqlar



1. Alifbo deb nimaga aytiladi?
2. Hozirgi o‘zbek alifbosi qaysi yozuvga asoslangan?
3. Hozirgi o‘zbek alifbosida nechta harf bor?

377-mashq. *Uyga topshiriq.* Gaplarni ko‘chiring. Birinchi gapning uchta so‘zi tarkibidagi harflarni alifbo tartibida yozing.

1. Mevasiz shox osmonga tirmashur, mevali shox yerga engashur. (*Abdurahmon Jomiy*)
2. Olimlarning xizmati mangu qoladi. (*Ulug‘bek*)
3. Jaholat o‘limdir, bilim esa tiriklik. (*Nosir Xisrav*)
4. Quyosh olamga, bilim insonga nur sochadi. (*Rus xalq maqoli*)

119-d a r s da nazorat diktanti o‘tkaziladi.

120-d a r s. **TALAFFUZ VA IMLO ME‘YORLARI**

Topshiriq. Quyida berilgan so‘zlardan qaysisi adabiy tilga, qaysisi xalq shevalariga xos?

Kelyapti, kelutti, kevotti, kelopti; teshik – to‘shuk – teshuv.

! Og‘zaki nutqda bir necha xil talaffuz qilinuvchi tovush, qo‘shimcha va so‘zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi to‘g‘ri talaffuz me‘yori sanaladi.

Yozma nutqda bir necha xil yoziluvchi tovush, qo‘shimcha va so‘zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi imlo me‘yori sanaladi.

☞ To‘g‘ri talaffuz me‘yorlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga orfoepiya (yunoncha: *orfo* – «to‘g‘ri», *epos* – «so‘zlamog‘», «nutq») deyiladi.

To‘g‘ri yozish me‘yorlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga orfografiya (yunoncha: *orfo* – «to‘g‘ri», *grafo* – «chizmoq») deyiladi.

378-mashq. Quyidagi so‘zlarning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Ular o‘rtasida qanday farqlar borligini ayting.

Shamba – shanba, maxsat – maqsad, taxsim – taqsim, Samarqan – Samarqand, kitop – kitob, tambur – tanbur, o‘m besh – o‘n besh.

379-mashq. O‘zingiz yashayotgan joy tilida (shevada) ishlatiladigan, adabiy tildan farq qiladigan so‘zlarga misollar keltiring. Ularni adabiy tildagi shakliga solishtiring va o‘rtadagi farqlarni ayting.

N a m u n a: galdi – keldi (*Xorazmda*), ko‘ddim – ko‘rdim (*Namanganda*), bag‘da – bu yerda (*Farg‘onada*), kevotti – kelyapti (*Toshkentda*).

Savol va topshiriqlar

- ?
1. To‘g‘ri talaffuz me‘yori deganda, nimani tushunasiz?
 2. To‘g‘ri yozish me‘yori deganda-chi?
 3. Orfografiya bo‘limi nimani o‘rganadi?
 4. Orfoepiya bo‘limi nimani o‘rganadi?

380-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘z shevangizdan misollar yozib, ularning aytilishi va yozilishidagi farqlarni tushuntiring.

121-d a r s. UNLILAR TALAFFUZI VA IMLOSI

U va i unllarining talaffuzi va imlosi

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inidagi unlining talaffuzi va yozilishini tushuntiring.

Biroq, sira, bilan.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inidagi ***i*** va ***u*** unllarining talaffuzi va yozilishini tushuntiring. So‘zlar nimasi bilan farqlanayotganini ayting.

Urush – urish, yumush – yumish, burush – burish.

! So‘zlarning birinchi bo‘g‘inida ***r, l*** undoshlaridan oldin kelgan ***i*** unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinsa ham, yozuvda ***i*** harfi bilan yoziladi.

Ikki bo‘g‘inli so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida lablangan ***u*** unlisi ta’sirida ikkinchi bo‘g‘indagi ***i*** unlisi ***u*** holida talaffuz qilinsa ham, yozuvda ***i*** yoziladi. Shunday yozilishi bilan ikkinchi bo‘g‘inida ***u*** yoziladigan otlardan farqlanadi.

381-mashq. Quyida berilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Ularning aytilishi va yozilishidagi farqlarni tushuntirib bering. Ushbu so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

Kilogramm, kiprik, yo‘lkira, kitob, kifoya, kichik, kishan, rivoj, rizolik, rivoyat, rioya qilmoq, risola.

382-mashq. Nuqtalar o‘rniga *i, u* harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

Kund...z, yuld...zcha, tov...q, tut...n, guv...llamoq, qas...r-qus...r, uchq...n, uch...n, kampirqov...n, chur...llamoq.

***383-mashq.** So‘zlarning qaysi ko‘rinishi to‘g‘ri ekanini toping va uni daftaringizga yozib oling.

Tuyg‘i||tuyg‘u, uyqu||uyqi, chopqi||chopqu, qayg‘i||qayg‘u, tulki||tulku, kulgu||kulgi.

Savol va topshiriqlar



1. Birinchi bo‘g‘inda *r, l* undoshlaridan oldin kelgan *i* unlisi qanday talaffuz qilinadi va yoziladi?
2. Birinchi bo‘g‘inida *u* ishtirok etgan so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inidagi *i* qanday talaffuz etiladi va yoziladi?

384-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling va yozing, o‘rtadagi farqlarini aytib bering.

Bur – bir, tir – tur, qur – qir, dur – dir, sur – sir, ombor – ombur, chopqir – yovqur, surma – sirli, tirkak – tirsak, mulk – milk.

122-d a r s. A VA O UNLILARI TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida kelgan *a* harfining qanday talaffuz qilinishini ayting.

Savob, zamon, bahor.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning birinchi va ikkinchi bo‘g‘inlarida kelgan *o* harfining qanday talaffuz qilinishini ayting.

Kollej, pomidor, pochta, avtomat.



A, a harfi *savob, zamon* singari so‘zlarda *o* kabi aytilsa ham, *a* yoziladi.

O, o harfi *tonna, noyabr* kabi so‘zlarda *o‘* kabi aytilsa ham, *o* yoziladi.

385-mashq. Nuqtalar o‘rniga *a* yoki *o* harfini qo‘yib yozing. So‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.

S...mon, t...mosha, m...bodo, mu...mala, d...la, al...qa, bul...q, b...ho, j...hongir, om...n, f...netika, h...mon.

386-mashq. Quyidagi so‘zlarda *o* tovushining *a* kabi talaffuz qilinishiga e‘tibor bering. Yozilishiga diqqat qiling.

Okean, zoologiya, zoopark, oynak, okop, obro‘, orkestr, roman, kovak, joy, kokil, kombayn, konstitutsiya, konsert, kosmonavt.

***387-mashq.** Quyidagi so‘zlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni toping.

Son – sana, ong – angla, qayna – qaynoq, ishla – ishlov, dumala – dumaloq, bo‘ya – bo‘yoq.

388-mashq. Uyga topshiriq. Rasm asosida matn tuzing. Gaplardagi *a* va *o* tovushlarining talaffuzi hamda imlosiga diqqat qiling.



Tayanch so‘zlar: ota, ona, farzand, ahil, sog‘lom, mehribon, o‘g‘il, qiz, qo‘g‘irchoq, koptok, o‘ynamoq, suhbatlashmoq, mehmon, bormoq, o‘qimoq, yozmoq, ishlamoq, hurmat qilmoq.

123-d a r s. QATOR KELGAN UNLILAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Topshiriq. Quyida berilgan soʻzlar tarkibidagi *oa, ao, ua* qator unlilarining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Soat, taom, maosh, muallim, muattar, saodat, muallif, tabiat.

! Adabiy talaffuz va imlo meʼyoriga asosan qator unlilar *oa, ao, ia, ai, io, aa* tarzida aytiladi va shunday yoziladi.

☞ Qator kelgan unlili soʻzlar boshqa tillardan kirib kelgani tufayli bunday soʻzlardagi qator unlilarni ogʻzaki nutqda yo bir choʻziq unliga aylantirish (*m a s a l a n, muallimni malim*) yoki qator kelgan unlilar oʻrtasiga ayrim undoshlarni qoʻshish yoʻli bilan tilimizga moslashtirishga harakat qilinadi. **M a s a l a n:** *soat* soʻzi Fargʻonada *sohat*, Toshkentda *sogʻat* tarzida talaffuz qilinadi.

389-mashq. Matnni oʻqing, qator unlilar kelgan soʻzlarni topib, ularning aytilishi va yozilishiga diqqat qiling.

OQSAROY

Amir Temur qurdirgan hashamatli saroylardan biri Shahrisabzdagi Oqsaroy sanaladi.

Oqsaroyga tashrif buyurgan kishi uning goʻzalligi va ulugʻvorligi oldida taajjubga tushadi, bu yerdan katta taassurotlar bilan qaytadi.

Oqsaroy temuriylar saltanatiga taalluqli boʻlgan oʻlmas obidalaridan biridir. Biz har doim bu kabi oʻlmas obidalarimiz borligidan faxrlanib yuramiz.

390-mashq. Gaplarni daftaringizga koʻchirib yozing. Unlilar qator kelgan soʻzlarni topib, ularning tagiga chizing.

1. Muallimlar ilm-u fan va maorifimiz jonkuyarlari sanaladi.
2. Xushmuomalalik uzoq umr koʻrishning sabablaridan biridir.
3. Qanoatli boʻlinglar, bu sizni saodatga eltadi. (*Yusuf Xos Hojib*)
4. Sharoitga qarab ish koʻraverasan. (*M. Murodov*)

***391-mashq.** Nuqtalar o‘rniga kerakli unli tovushlarni qo‘ying, so‘zlarni daftaringizga ko‘chirib yozing va ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

Z...omagazin, mu...llif, ta...mil, mu...vin, ge...log, d...ira, sho...r, j...iz, ma...sh, mu...mmo, ge...metriya, ...ila, d...imo.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qator kelgan unlilar qanday so‘zlarda uchraydi?
 2. Ularni tilimizga moslashtirish uchun og‘zaki nutqda qanday tovush o‘zgarishlari hosil qilinadi?
 3. Adabiy talaffuz va imlodagi qaysi holatga amal qilinadi?

392-mashq. *Uyga topshiriq. Badiiy, ilmiy, siyosiy, tabiiy kabi so‘zlarning aytilishi va yozilishini bir-biriga solishtiring. Qaysilarida bitta, qaysilarida ikkita i yozilishini toping va ularni izohlang.*

124-d a r s. **O‘ UNLISINING TALAFFUZI VA IMLOSI**

1-topshiriq. *O‘lka, o‘zbek, ko‘klam so‘zlaridagi o‘ tovushining talaffuziga e‘tibor bering.*

2-topshiriq. *Bo‘ron, qo‘rqmas, o‘rtoq so‘zlarida o‘ tovushi qanday eshitilyapti? Uni yuqoridagi so‘zlar tarkibida kelayotgan o‘ ga solishtiring.*

! **O‘ tovushi ko‘l, o‘s, cho‘l, jo‘ra, mo‘tabar kabi so‘zlarda torroq, bo‘ri, qo‘ri, xo‘roz, ro‘mol kabi so‘zlarda esa kengroq eshitiladi, ammo har vaqt bir xil shaklda yoziladi.**

☞ **Mo‘tadil, mo‘jiza, mo‘tabar kabi so‘zlardagi tutuq belgisi yozuvda tushirib qoldiriladi.**

393-mashq. Maqollarni o‘qing, o‘ tovushining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling, so‘ng gaplarni daftaringizga ko‘chirib oling.

QO‘RQOQ BO‘LMANG

Qo‘rqoqning ko‘zi katta, ahmoqning so‘zi katta. Qo‘rqoq oldin musht ko‘tarar. Arslonning bo‘kirkani – sichqonning o‘lgani. Qo‘rqoq,

qo‘rzoqning oyog‘i cho‘loq. Qo‘rzoqning o‘z quroli o‘ziga yov. Botir bir marta o‘lar, qo‘rzoq yuz marta.

◆ **394-mashq.** Quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. *O‘* unlisining talaffuzi va imlosini izohlang.

O‘yin, o‘jar, o‘rdak, o‘rta, o‘tkir, o‘tin, o‘sha, o‘q, o‘choq, o‘quvchi, o‘rmon.

Savol va topshiriqlar



1. *O‘* tovushi qanday hollarda torroq talaffuz qilinadi?
2. *O‘* tovushining keng aytilish holatlariga misollar keltiring.
3. *O‘* harfi tutuq belgisi (apostrof) bilan kelganda, qanday yoziladi?

395-mashq. *Uyga topshiriq.* *O‘* harfi noto‘g‘ri ishlatilgan o‘rinlarni toping. So‘zlarni imlo qoidalariga mos ravishda to‘g‘rilang va daftaringizga ko‘chiring.

Amir Temur o‘rdeni, to‘rt sotib olmoq, bir to‘nna paxta, o‘bdan o‘ylab gapirmoq, direkto‘rga ariza yozmoq.

125-d a r s. E UNLISINING TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida kelayotgan unlining aytilishi va yozilishiga diqqat qiling. Ularning bir-biridan farqini ayting.

Ikki, televizor, mehnat.

2-topshiriq. *Ertak* so‘zidagi *e* unlisi bilan *teatr* so‘zidagi *e* unlisini bir-biriga solishtirib, talaffuzidagi farqli jihatlarni aytib bering.



E harfi *kecha, ekran, ne‘mat* kabi so‘zlarda to‘liq talaffuz qilinadi. *Telefon, teatr, okean, material* kabi so‘zlarda *i* ga monand aytiladi, lekin *e* yoziladi.

396-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va daftaringizga yozing. *E* unlisining talaffuzi va imlosini izohlang.

Egar, egizak, egov, ekologiya, elak, elektr, eng, ertalab, eshik, e‘tibor, ehtiyot.

397-mashq. Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh so‘z boshida, ikkinchi guruh so‘z o‘rtasida *e* unlisi qatnashgan so‘zlarga 10 tadan misol yozsin. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

398-mashq. Maqollarni daftaringizga ko‘chirib yozing. *E* unlisining talaffuzi va imlosiga e‘tibor bering.

1. Egilgan boshni qilich kesmas. 2. El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi. 3. Elga qo‘shilsang, er bo‘lasan, eldan ajrasang, yer bo‘lasan. 4. Er so‘zidan qaytmas, sher – izidan. 5. Nomusni yoshlikdan ehtiyot qil.

Savol va topshiriqlar



1. *E* unlisi qanday so‘zlarda *i* ga yaqin eshitiladi?
2. *E* tovushiga moyil talaffuz qilinadigan so‘zlarga misollar keltiring.

399-mashq. Uyga topshiriq. Boshqotirmani yeching. Unda dehqonchilik bilan bog‘liq maqol yashiringan. *E* unlisi ishlatilgan so‘zlarga izoh bering.

	r	t	a			k	a	n			t	a		i	g‘	a	r
--	---	---	---	--	--	---	---	---	--	--	---	---	--	---	----	---	---

126-dars. MUSTAHKAMLASH DARSI

Mustahkamlash uchun savollar



1. Talaffuz me‘yorlari deganda nimani tushunasiz?
2. Imlo me‘yorlari nima?
3. *I* va *u* unilarining aytilishi va imlosida qanday farqli jihatlar bor?
4. *A* va *o* unilarining talaffuzi hamda imlosi haqida gapiring.
5. *O‘* unlisining aytilishi va imlosida farq qiladigan o‘rinlar bormi?
6. *E* unlisining talaffuzi va imlosi haqida nimalarni bilasiz?

1-topshiriq. Gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing. Unlilarning talaffuzi va imlosi haqida so‘zlab bering.

Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, o‘z harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurib berur.

Bizlarni ilm jaholat qorong‘uligidan qutqarur.

(Abdulla Avloniy)

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos keladigan unli tovushlarni qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring. So‘ng unli tovushlarning aytilishi va imlosini tushuntiring.

T...mon, ilm...y, manfa...t, insho...t, sano...t, matbu...t, milli...n, so...t, mudofa..., milli...rd, ukra...n.

3-topshiriq. Xato yozilgan so‘zlarni topib, to‘g‘rilang. So‘ng ularni izohlang.

1. Tabiyat qanday go‘zal! 2. O‘zbekiston sanooti tinmay rivojlanib bormoqda. 3. Sinfimiz bilan tiyatirga tomoshaga bordik. 4. Uzin yoz kechalarida yulduzlarga termilib yotish insonga zavq bag‘ishlaydi. 5. Abu Ali ibn Sino tug‘ulgan Afshona qishlog‘iga bordik.

4-topshiriq. Talaffuzi va imlosi farqlanadigan so‘zlarga misollar keltiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Uyga topshiriq. 121–125-darslarda o‘rganilgan unlilar talaffuzi va imlosi bo‘yicha jadval tuzing hamda uni to‘ldiring.

Unlilar	Talaffuzi	Yozilishi

127–128-d a r s l a r da yozma ish va uning tahlili o‘tkaziladi.

129-d a r s. **AYRIM UNDOSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI**

Jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosi

Topshiriq. Quyidagi so‘zlar oxiridagi jarangli undoshlar talaffuziga e‘tibor bering.

Bob, yod, eg.

! So‘z oxirida *b – p, d – t, z – s* singari jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi farq yo‘qolib, bir xil – jarangsiz undosh tovush holda talaffuz etiladi, lekin *b, d, z* yoziladi.

400-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli undosh tovushlarni qo‘ying, ularning talaffuzi va imlosi o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.

Tala..., dar...chil, nomar..., bar..., makta..., balan..., pas..., i...timoiy, ma...ba, ta...dimot, ofto..., farzan...

401-mashq. Berilgan soʻzlarga qavs ichidagi tovushlar juftligidan mos keladiganini qoʻyib, koʻchiring.

I (z-s)siz yoʻqoldi, tu(z-s)ini oʻzgartirmoq, koʻ(z-s)ini davolamoq, tu(z-s)iz ovqat, «Mati(z-s)» avtomobili, afsu(z-s) qilmoq.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Qanday undoshlarga jarangli undoshlar deyiladi?
 2. **b – p, d – t** undoshlari qanday talaffuz qilinadi?

***402-mashq.** Uygʻa topshiriq. Berilgan gaplar ichidan xato yozilgan soʻzlarni toping, ularni imlo qoidalariga mos ravishda toʻgʻrilab, daftaringizga koʻchirib yozing.

Ertalap turganda, albatta, yuz-qoʻlni yuvish keray. Soʻng narsalarni tartipga keltirip, ota-onasiga, oila aʼzolariga salom berish lozim.

Qizlar nonushta tayyorlashta onasiga yordam bersa, juda maʼqul ish boʻladi.

Nonushta tugagach, kattalarning ruxsati blan maktabga joʻnash maʼqul.

130-d a r s. **G – K, Q – Gʻ** UNDOSHLARI TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Quyida berilgan undoshlarning jarangli-jarangsizlik juftligiga eʼtibor bering. Qaysilarining jufti yoʻqligini ayting.

jarangli	b	v	z	g	d	j	gʻ	dj	y	l	m	n	ng	r	–	–
jarangsiz	p	f	s	k	t	sh	x	ch	–	–	–	–	–	–	q	h

2-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlar oxiridagi **g** va **k**, **gʻ** va **q** tovushlarining talaffuziga va imlosiga eʼtibor bering.

Eg – ek, tug – tuk, bogʻ – boq, yogʻ – yoq.

! Soʻz oxirida **g** va **k** hamda **gʻ** va **q** jarangli va jarangsiz undoshlari oʻrtasidagi farq yoʻqolib, har ikki undosh bir xil **k** va **q** holida talaffuz qilinsa ham, yozuvda **g** va **k**, **q** va **gʻ** harflari orqali yoziladi.

403-mashq. Quyidagi soʻzlarni daftaringizga yozing. *Q* undoshining talaffuzi va imlosiga eʼtibor bering.

Qaynoq, taroq, qishloq, sanoq, taqdim, taqsimot, qiziq, u yoq-bu yoq, oʻroq, qoʻrmaq, qoʻshiq, maqsad, qumloq, oʻtloq, buloq, soʻroq, sovuq.

404-mashq. Nuqtalar oʻrniga *g* yoki *k* harfini qoʻyib, gaplarni koʻchiring. Ularning talaffuzi va imlosidagi farqlarni aytib bering.

1. Dushmanni ta...-tu...i bilan yoʻqotib yubordi. 2. Tuflisining ta... charmi yeyilib ketibdi. 3. Matoga bar...simon gullar chizilgan edi. 4. Pa...-pa...ana boʻyi bor, yetti qavat toʻni bor.

405-mashq. Soʻz oʻrtasi va oxirida *q* undoshining *gʻ* ga, *g* undoshining *k* ga aylanishiga misollar topib, gaplar tuzing.

Savol va topshiriqlar




1. Qaysi undoshlar jarangli-jarangsizlik belgisiga koʻra oʻz juftlariga ega?
2. *G* va *k*, *q* va *gʻ* tovushlari soʻz oxirida qanday talaffuz qilinadi?

406-mashq. Uygʻa topshiriq. «Koʻchat ekib, bogʻ qiling» mavzusida matn tuzing, unda *q* va *gʻ* undoshi ishtirok etgan soʻzlardan foydalaning.

131-d a r s. *Q, Gʻ* UNDOSHLARI BILAN TUGAGAN SOʻZLARGA QOʻSHIMCHALARNING QOʻSHILISHI VA ULARNING IMLOSI

Topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasini qoʻshing. Qanday talaffuz qilinishi va oʻzak bilan qoʻshimcha oʻrtasida qanday oʻzgarish boʻlganini ayting.



☞ Q undoshi bilan tugagan asosga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilsa, bu qo‘shimcha *-qa* tarzida aytiladi va shunday yoziladi. **M a s a l a n:** *qaymoqqa, toshloqqa* kabi.

Xuddi shunday asoslarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilsa, o‘zak oxiridagi *q* undoshi *g‘* ga aylanadi va shunday yoziladi. **M a s a l a n:** *bulog‘i, qishlog‘i*.

G‘ undoshi bilan tugagan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilsa, asos va qo‘shimcha qanday aytilishidan qat‘i nazar o‘zgarmaydi. **M a s a l a n:** *bug‘ga, bog‘ga*.

407-mashq. Rasm asosida «Bog‘da» mavzusida hikoya tuzing. Unda *bog‘, o‘rtoq, yoq (tomon)* kabi so‘zlarni jo‘nalish kelishigida hamda egalik qo‘shimchalarida qo‘llang.



408-mashq. Berilgan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi va egalik qo‘shimchalarini qo‘shing va yuz bergan o‘zgarishlarni izohlang. Bu so‘zlardan ikkitasini bir gap ichida qo‘llab, to‘rt-beshta gap tuzing.

Yarog‘, butoq, o‘rtoq, dog‘, bayroq, tog‘, o‘choq, uzoq.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. **Q** va **gʻ** undoshlari oʻzaro qaysi belgisiga koʻra farqlanadi va bu undoshlar bilan tugagan oʻzaklarga joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qoʻshilganda, qanday talaffuz qilinadi va yoziladi?
 2. **Q** undoshi bilan tugagan oʻzaklarga egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda, bu soʻzda qanday oʻzgarish roʻy beradi?

409-mashq. *Uyga topshiriq.* Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni joʻnalish kelishigi hamda egalik qoʻshimchasi bilan qoʻllab, koʻchiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

1. Kunchiqar **tomonda** katta **oʻchoq**, qozonda shoʻrva qaynab turibdi. (*Ertakdan*) 2. Hammamiz bir piyola-bir **piyola** bugʻi chiqib turgan **sutdan** ichdik. (*Oʻ. Umarbekov*) 3. Topgan bir dasta **gul** keltiradi, topmagan — bir bogʻ **piyoz**. (*Maqol*) 4. **Tigʻ** yarasi bitadi, **til** yarasi bitmaydi. (*Maqol*) 5. Soʻzning onasi — **quloq**, suvning onasi — **buloq**. (*Maqol*)

132-d a r s. **B, M** UNDOSHLARIDAN OLDIN KELGAN **N** UNDOSHINING TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlardagi **n** harfining qanday oʻqilishi va imlosini ayting.

Shanba, yoʻllanma, qoʻllanma, oʻn bir.

2-topshiriq. **B, m** tovushlarining talaffuzida qaysi nutq aʼzolari ishtirok etishini ayting. **N** tovushining talaffuzida-chi? Farqini tushuntiring.

 **B, b** va **M, m** harflaridan oldin kelgan **n** harfi **m** holda oʻqiladi, lekin **n** yoziladi.

410-mashq. Quyida berilgan soʻzlarning oʻqilishi va imlosiga diqqat qiling. Ularni qoʻllab, gaplar tuzing.

Yakshanba, Susambil, oʻn bir, bilganmi, boʻlinma, Jomboy (tuman), manman, sunbula, tanbal.

***411-mashq.** **Tanbur** va **tambur** soʻzlarining farqini tushuntiring. Bu soʻzlar ishtirokida gap tuzing.

412-mashq. Gaplarni o‘qing. *M* va *b*, *n* va *b* undoshlari yonma-yon kelgan so‘zlarni toping. Ularning so‘z turkumini, bu undoshlarning asos yoki qo‘shimchalar tarkibida kelayotganini aniqlang.

1. Qorong‘ida turtingan holda Otinbibi paydo bo‘ldi. (*Oybek*)
2. Axir, u biror marta bo‘lsin yoniga kelganmi, ovqat berganmi, iltifot ko‘rsatganmi? (*Rauf Tolib*)
3. Bugun ham Julqunboydan eshitamizmi? – deb so‘raydilar dadam. (*Hakim Nazir*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. *B* va *m* undoshlaridan oldin *n* undoshi kelgan to‘rtta so‘z yozing. *N* tovushining qanday o‘qilishi va imlosini ayting.
 2. *B* va *m* undoshlaridan oldin kelgan *n* undoshining *m* holida talaffuz qilinishi sababini ayta olasizmi?


413-mashq. *Uyga topshiriq.* Hafta kunlari haqida hikoya tuzing, unda *nb* (*mb*) harflari yonma-yon kelgan so‘zlar ishtirok etsin.

133-d a r s. **AYRIM HARFLAR IZOHI**

J, j harfi va j, dj tovushlari

1-topshiriq. *Jo‘ja, jo‘ra, jajji* so‘zlarida *j* harfi qaysi tovushni ifodalashini ayting.

2-topshiriq. *Gijda, jurnal, vijdon* so‘zlaridagi *j* harfi qanday o‘qilishini ayting.

 ***J, j* harfi *jo‘ja, jajji* kabi so‘zlarda til oldi, portlovchi, jarangli tovushni ifodalaydi. *Jurnal, jirafa* kabi so‘zlarda esa til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli tovushni ifodalash uchun qo‘llaniladi.**

414-mashq. Vatan haqidagi quyidagi hikmatlarni qalbingizga jo qiling.

Vatan sajdagoh kabi bo‘lmog‘i lozim.

Yov kelganda, qochganlar dinsiz, dilsizlardir. O‘z jonini asrab kovaklarga berkinganlar iymonsizlardir! Ey yosh yurtdoshim! Vatanga sadoqating vijdongingga sadoqatingdir!

(*G. Asqarova*)

1-topshiriq. Vatan haqida bilgan hikmatlar va she'rlaringizdan ayting.

2-topshiriq. *j* harfi ishtirok etgan so'zlarni ko'chiring. Ularning talaffuzidagi farqni izohlang.

415-mashq. Sinfda uch yoki to'rt guruhga bo'linib, «Kim tez, kim ko'p topadi?» musobaqasini o'tkazing. Musobaqa bir necha bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqichda guruhlar 2 daqiqa ichida portlovchi *j* undoshi so'zning oxirida kelgan so'zlarga, ikkinchi bosqichda 2 daqiqada tarkibida sirg'aluvchi *j* undoshi bo'lgan so'zlarga ko'proq misollar yozishi kerak. Har bir so'z uchun – 1 ball. Uchinchi bosqichda *j* harfi bilan boshlanuvchi hayvon, qush, o'simliklar nomini kim ko'p topib yozish talab qilinadi. Bu shartni bajarishga ham 2 daqiqa beriladi. Har bir so'zga – 1 ball.

Dars oxirida to'plangan ballar hisoblanib, guruhlarning o'рни aniqlanadi.

Savol va topshiriqlar



1. *J* harfi qanday tovushlarni ifodalash uchun qo'llaniladi?
2. *J* harfining yuqorida aytilgan ikkita vazifasini ko'rsatuvchi to'rtta misol keltiring.

◆ **416-mashq.** *Uyga topshiriq.* O'zingiz yashab turgan qishloq (shahar) yoki mahalla nomining kelib chiqishi va ma'nosini buva, buvilaringiz yoki otangizdan so'rab bilib, yozing.

134-d a r s. *X, x* VA *H, h* HARFLARI

1-topshiriq. *Bahor, hokim, goh-goh* so'zlaridagi *h* harfining qanday tovushni ifodalashini ayting.

2-topshiriq. *Xon, xor, hovuch, hol* so'zlaridagi *x* va *h* harflari ifodalagan tovushlarning talaffuzdagi farqini izohlang.



X, x harfi *q, g* tovushlari bilan bir xil o'rinda, tilning orqa qismida hosil bo'ladigan undosh tovushni ifodalaydi.

H, h harfi esa bo'g'izda hosil bo'ladigan undosh tovushni ifodalaydi.

417-mashq. O'qing, *x* va *h* undoshlarining talaffuziga e'tibor bering.

Paxta, xatar, shox, no‘xat, taxta, baxt, shaxta, sinfxona, xil-xil.
Ogoh, harf, shoh, halol, havaskor, hayvonot, hayot, suhbat, hil-hil.

***418-mashq.** *Shox va shoh, uxlamoq va uhlamoq* so‘zlarining ma’nosidagi farqni tushuntiring hamda ular ishtirokida gaplar tuzing.

419-mashq. Nuqtalar o‘rniga *x* yoki *h* harflaridan talab qilinganini qo‘yib, ko‘chiring.

1. Kechga borib, No‘...atpolvon o‘rnidan turib, u yoq-bu yoqqa pildirab yura boshlabdi. (*Mirza Karim*) 2. Ogo...lik — davr talabi. 3. Bolalarim, ...alol va ...aromning farqiga boringlar, — derdilar bobom. (*Gazetadan*) 4. Alifboda 26 ta ...arf va 3 ta ...arflar birikmasi bor. 5. Ro...at kelinoyi cho‘pchakka usta, ajoyib gapdon ...otin. (*Gazetadan*)

Savol va topshiriqlar



1. *X, x* va *H, h* harflari ifodalagan tovushlar talaffuzda qanday farq qilishini ayting.
2. *X, x* va *H, h* harflarining birini ikkinchisi o‘rnida qo‘llaganda, ma’noga ta’sir qiladigan so‘zlarni keltiring.

420-mashq. *Uyga topshiriq.* «Halol va harom» mavzusida o‘z fikrlaringizni yozma bayon qiling.

135-d a r s. *F, f* UNDOSHINING TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlar tarkibida kelgan *f* undoshining qanday o‘qilishi va imlosini ayting.

Dilafro‘z, foiz, faqir.

2-topshiriq. Berilgan so‘zlar tarkibidagi *f* undoshining talaffuzi va imlosiga diqqat qiling.

Afzal, afg‘on.



F undoshi *fil, futbol* singari so‘zlarda *p* holida o‘qilsa ham, *f* bilan yoziladi.

Afzal, afg‘on kabi so‘zlarda *f* undoshi, *p* yoki *v* holida o‘qilsa ham, *f* bilan yoziladi.

421-mashq. Quyida berilgan soʻzlarni oʻqing. *F* tovushining talaffuzi va imlosini izohlang.

Fidoi, shafqat, xufton, taraf, iftixor, fitobar, daftar, fazo, toifa, urf, faxr, ifoda, jafokash, telegraf, saf, tanaffus, tufli.

***422-mashq.** Kataklarda beshta soʻz yashiringan. Birinchi soʻz *f* bilan boshlanadi va oxirgi soʻz shu harf bilan tugaydi. Har bir soʻzning oxirgi harfi keyingi soʻzning birinchi harfi hamdir. Ochqichdan foydalanib, soʻzlarni oʻqing.

F																				F
---	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	---

1. *Osmon* soʻzining maʼnodoshi (4 harf)
2. *Quyosh* soʻzining maʼnodoshi (5 harf)
3. *Yuz* soʻzining maʼnodoshi (3 harf)
4. *Taraf* soʻzining maʼnodoshi (5 harf)
5. *Foyda* soʻzining maʼnodoshi (3 harf)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Quyidagi soʻzlar oʻrtasidagi maʼno farqlanishini ayting: *faqir* va *paqir*, *Ufa* va *upa*, *tuf* va *tup*, *fol* va *pol*.
 2. *F* undoshining talaffuzi va imlosini ayting.

423-mashq. *Uyga topshiriq.* Berilgan ikki harfdan zarurini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring.

Tara(f – p),	a(v – f)tomobil,	sha(v – f)qat,
o(v – f)qat,	a(f – v)zal,	na(f – p)as,
inso(f – p),	ka(p – f)tar,	(p – f)aqat.
(p – f)ilik,	har(f – p),	

136-d a r s. *Ng, ng* HARFLAR BIRIKMASI VA UNING VAZIFALARI

1-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarda qoʻllanilgan *ng* harflar birikmasining talaffuzini tushuntiring.

Keng, eng, ming, yengil, singil, koʻngil.

- ! **Ng** harflar birikmasi bitta til orqa undoshini ifodalaydi.
- Bu harflar birikmasini ikkita alohida *n* va *g* undoshlarini ifodalovchi harflarning yonma-yon kelishidan farqlash lozim. **Ng** harflar birikmasi bir bo‘g‘in tarkibida, *n* va *g* harflari boshqa-boshqa bo‘g‘inlar tarkibida keladi. Solishtiring: *shud-ring, ko‘-ngil, si-ngil, ko‘rdi-ngiz, men-ga, osmon-ga, kongress, shtan-ga*.

424-mashq. Avval *ng* undoshi ishtirok etgan so‘zlarni, keyin alohida *n* va *g* tovushlari yonma-yon ishtirok etgan so‘zlarni ko‘chiring.

Menga, unga, ingramoq, kenglik, mingashmoq, dengiz, tanga, jiringlamoq, ko‘ngil, alanga, sening, tonggi, tungi, dangasa, singil, donga, jonga.

425-mashq. Gaplarni ko‘chiring, *ng* undoshi bo‘lgan so‘zlarni topib, ostiga chizing.

1. Ukam minib «saman oti»ni, «qilich» ushlab chiqibdi «jang»ga. (*E. Vohidov*)
2. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo. (*Maqol*)
3. Qo‘liga uch tanga berib, bolani rozi qilib jo‘natibdi.
4. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar. (*Maqol*)

Savol va topshiriqlar



1. *Ng* nima uchun harflar birikmasi deyiladi?
2. *Ng* harflar birikmasi ishtirok etgan beshta so‘z yozing.

426-mashq. *Uyga topshiriq.* Inson qadriga yetish, yaqinlarini e‘zozlash haqida hadis, maqollar, she‘rlar toping. Ularni yod oling.

137-d a r s. *Sh, sh VA Ch, ch* HARFLAR BIRIKMALARI HAMDA ULARNING VAZIFALARI

- ! **Sh, sh** harflar birikmasi bitta til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi.

Eslatma: *S* va *h* yonma-yon kelib, alohida tovushlarni ifodalaganda, ular orasiga tutuq belgisi (‘) qo‘yiladi.

Ch, ch harflar birikmasi bitta til oldi, portlovchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi.

427-mashq. O‘qing, bir tovushni ifodalagan harflar birikmalari qatnashgan so‘zlarni ko‘chiring.

Toshkent – O‘zbekistondagi eng chiroyli va qadimiy shahar. U o‘tmishda Shosh va Choch nomlari bilan atalgan. Uning yoshi ikki ming yildan ham ortiq. Keyingi yillarda shahar chiroyiga chiroy qo‘shilmoqda. Katta-kichik xiyobonlar, keng va ko‘rkam ko‘chalar yanada obodonlashdi. Chet ellardan, dengiz orti mamlakatlaridan ko‘plab mehmonlar kelmoqdalar. Ko‘chalar chetida chaman-chaman bo‘lib ochilgan gullar yo‘lovchilar bahri-dilini ochadi. («*Gulxan*»)

***428-mashq.** She‘rdagi harflar birikmalari qatnashgan so‘zlarga diqqat qiling. Ikkinchi misradagi *qoshingdan* so‘zini izohlang.

Jilmayadi o‘zida yo‘q shod,
Yangi oy ham ketmay qoshingdan.
Etak-etak olib koinot,
Yulduzlarni sochar boshingdan. (*E. Vohidov*)

◆ **429-mashq.** *Soch, och, shosh* so‘zlarining shakldoshlarini topib, ma’nosini tushuntiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Savol va topshiriqlar



1. Harflar nimaga nisbatan belgilanadi?
2. Bir tovushga bir harf to‘g‘ri keladigan holatlarni ayting.
3. Bir tovush ikki harf bilan ifodalanadigan holatlarni izohlang.

430-mashq. *Uyga topshiriq.* Dialogni diqqat bilan o‘qing, qaysi imlo qoidasidan foydalanilayotganiga diqqat qiling.

- Menga qara, isming nima?
- Bilib turib nega so‘raysan? Otim Is‘hoq.
- Nega unda Ishoq deb yozding?
- Nima? Shundoq yoziladi o‘zi: avval *I*, keyin *s*, keyin *h*, so‘ng *o* va *q*.
- Noto‘g‘ri yozyapsan, o‘qiganda Ishoq bo‘lib qolyapti-ku?
- Nima qilish kerak?
- *S* bilan *h* orasiga tutuq belgisini qo‘y. Shunda sen Ishoq emas, Is‘hoq bo‘lasan. (*I. To‘lakov*)

138-d a r s da test ustida ishlanadi.

139 – 140-d a r s l a r da yozma ish va uning tahlili o‘tkaziladi.

141-d a r s. **QO‘SH UNDOSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI**

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarda ishlatilgan qo‘sh undoshlarni toping va qanday talaffuz qilinishi hamda yozilishiga e‘tibor bering.

Ammo, katta, hassa, hissa, jizza, tizza, tonna.

2-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlar tarkibida kelgan qo‘sh undoshlarning talaffuzini tushuntiring.

Artilleriya, million.

! Tarkibida yonma-yon bir xil undoshlar kelgan so‘zlar qo‘sh undoshli so‘zlardir.

☞ ***Ikki, chaqqon*** kabi so‘zlarda qo‘sh undosh qismlari aniq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

Million, artilleriya kabi so‘zlarda kelgan qo‘sh undoshlar bir undoshdek talaffuz etiladi, lekin qo‘sh undosh bilan yoziladi.

Gramm, metall kabi so‘zlar oxirida kelgan qo‘sh undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldirilsa ham, yozuvda hamisha ifodalanadi.

Bunday undosh bilan tugagan so‘zlarga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qo‘shimchalar qo‘shilganda, qo‘sh undoshning biri yozilmaydi.

431-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘qing, talaffuzini tahlil qiling va farqini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Quvvat, qattiq, issiq, sodda, xuddi, pochcha, karra, murabbiy, do‘ppi, yovvoyi, avval, jajji, arra, taraqqiyot, million, minnatdor, kilogramm, tanaffus, komissiya, milliard, grammatika, marra, zarra, qassob, g‘ijjak.

432-mashq. Gaplardagi qo'sh undoshli so'zlarni ikki guruhga ajratib ko'chiring. Birinchi guruhga qo'sh undoshlarning biri talaffuz etiladigan so'zlarni, ikkinchisiga qo'sh undoshlarning ikkalasi ham aniq talaffuz qilinadigan so'zlarni yozing.

1. Hamma uylarda chiroq bor, ikkinchi qavatdagi bir xona qop-qorong'i. (*X. To'xtaboyev*) 2. Shu chog' artilleriya qismlari og'ir to'plar bilan ota boshladi. (*Oybek*) 3. Suvi mo'l-ko'l bog'larda yayrar ekansan, bulbul. Qanotlaring mallarang, jussang kichikligidan ko'rinarakansan arang. (*Abdurahmon Akbar*)

***433-mashq.** Berilgan so'zlar tarkibidagi qo'sh undoshlardan birini tushiring. Ma'noda qanday o'zgarish ro'y berganini ayting.

Ushshoq, yalla, qattiq, tilla, chinni, yo'lla.

Savol va topshiriqlar



1. Qo'sh undoshli so'zlarni tushuntiring.
2. So'z o'rtasida kelgan qo'sh undoshlarning talaffuzi va imlosi haqida so'zlang.
3. So'z oxirida kelgan qo'sh undoshlarning talaffuzi va imlosiga misollar ayting.

434-mashq. *Uyga topshiriq.* Shu kunlarda o'zingiz mustaqil o'qiyotgan yoki adabiyot darsida o'rganayotgan asardan qo'sh undoshli so'zlar ishtirok etgan gaplardan sakkizta topib yozing.

142-d a r s. TUTUQ BELGISINING ISHLATILISHI

1-topshiriq. Quyidagi so'zlarda qo'llanilgan tutuq belgisining vazifasini aniqlang.

San'at, in'om, mas'ul.

2-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarda birinchi bo'g'indagi cho'ziq unlining talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Mo'jiza, mo'tabar, mo'tadil.

! Tutuq belgisi *a'lo*, *ra'no* kabi so'zlarda unidan keyin kelib, uning cho'ziqroq aytilishini ifodalaydi.

San'at, *in'om* singari so'zlarda tutuq belgisi unidan oldin qo'yiladi va unlini undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi.

☞ *Mo'jiza*, *mo'tadil* kabi so'zlarda *o'* unlisi cho'ziq talaffuz qilinsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi.

435-mashq. So'zlarni o'qing, tutuq belgisi nima uchun ishlatilayotganini aniqlang. So'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

E'lon, she'r, qal'a, shu'la, qit'a, jur'at, da'vo, ma'no, qat'iy, ba'zan, e'tiqod, ne'mat.

436-mashq. Berilgan har bir juftlikdagi so'zlarning ma'nosini izohlang va farqini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

san'at — sanat

sur'at — surat

qal'a — qala

she'r — sher

sa'va — sava

ta'na — tana

437-mashq. O'qing. Avval tutuq belgisi unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilinishni, keyin unli bilan undoshni ajratib talaffuz qilinishni ifodalayotgan so'zlarni ko'chiring.

1. Zamira sun'iy ravishda bosiq bo'lishga urinar edi. (*P. Qodirov*)
2. Podsho vazir-u a'yonlari davrasida otdan tushib, tog' bag'riga qarabdi. (*Mirza Karim*)
3. Sening vujudingda mo'jizalar mavjudligini birinchi bor uchratgandayoq payqagan edim. (*X. To'xtaboyev*)

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Tutuq belgisi qanday vazifa bajaradi?
 2. Qaysi vaqtda unli cho'ziq aytilsa ham, tutuq belgisi qo'yilmaydi?
 3. Unidan oldin qo'yilgan tutuq belgisi qanday vazifa bajaradi?

438-mashq. *Uyga topshiriq.* «Ajdodlar merosi» mavzusida uy inshosini yozing. Rasmdan foydalaning.



Tayanchoʻzlar: ajdod, avlod, meros, yodgorlik, meʼmor, Amir Temur, Ulugʻbek, Alisher Navoiy, Bobur, minora, kitob, olim, shoir, tarix, mangu, jahon, yashamoq, yaratmoq, qurmoq, qoldirmoq, qoyil qolmoq, tan olmoq

143-d a r s. QATOR UNDOSHLARNING TALAFFUZI VA IMLOSI

1-topshiriq. Quyidagi soʻz boshida kelgan qator undoshlar talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Traktor, broker, krem, stakan, stol.

2-topshiriq. Quyidagi soʻz oxirida kelgan qator undoshlar talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Goʻsht, musht, doʻst, sust, barg, daraxt.



Bir boʻgʻinida yonma-yon ikki xil undosh kelgan soʻzlar qator undoshli soʻzlardir.

 So‘z boshidagi qator undoshlar o‘rtasiga yoki oldiga bir qisqa unli qo‘shib talaffuz qilinsa ham, bu qisqa unli yozilmaydi.

Go‘sh, *do‘st*, *barg* kabi so‘z oxirida kelgan qo‘sh undoshlardan biri talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda ifodalanadi. *Paxta*, *nimcha*, *o‘simlik* so‘zlarida ham yonma-yon kelgan ikki undosh bor, lekin bu undoshlar bir bo‘g‘inda bo‘lmaganligi uchun qator kelgan undoshlar hisoblanmaydi.

439-mashq. Qator undoshlar kelgan so‘zlarni ajratib, daftaringizga ko‘chiring.

Hikmat, pand-nasihat, maslahat, baxt, do‘stlik, g‘isht, tabassum, farzand, foyda, qirq, to‘xtamoq, broker, kompyuter, o‘rtoq, ilhom, ko‘rk, stul, ulkan.

440-mashq. Gaplardagi qator undoshlar kelgan so‘zlarni toping. Ularning talaffuzi va yozilishini solishtiring.

1. Senga baxtdan taxt tilayman, toledan boshingga toj. (*E. Vohidov*)
 2. Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur qasriga izzat-ehtirom bilan qadam qo‘ymoq lozim. (*A.I. Gersen*)
 3. Ravon nutq – insonning ko‘rki, fazilati.
 4. Kapalak xursand bo‘ldi, sevinib qanot qoqdi. (*Zulfiya*)

441-mashq. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. *Metr*, *sabr*, *sayr*, *ilm* so‘zlari talaffuzi va yozilishini tahlil qiling. Shunday so‘zlar qatorini kengaytiring.

2-topshiriq. *Tong*, *ingramoq*, *tenglik* so‘zlaridagi *ng* birikmasini qator undoshlar sirasiga kiritish mumkinmi? Fikringizni isbotlang.

Savol va topshiriqlar



1. Qator undosh deganda qanday undoshlarni tushunasiz?
2. Qator undoshlar qanday talaffuz qilinadi va yoziladi?

442-mashq. *Uyga topshiriq.* «Do‘st – do‘stning oynasi» mavzusida mulo-hazalaringizni yozing.

144-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSI

Mustahkamlash uchun savollar



1. Jarangli undoshlarning talaffuzi va imlosi haqida aytib bering.
2. **Tilak, pishloq** kabi soʻzlarga egalik va kelishik qoʻshimchalari qoʻshilganda, oʻzakda qanday tovush oʻzgarishi roʻy beradi?
3. **B, m** harflaridan oldin kelgan **n** harfining talaffuzi va imlosi haqida gapiring.
4. **X** va **h** harflarining yozilishi haqida soʻzlang.
5. **J, f, sh, ch** harflarining yozilishi haqida soʻzlang.
6. Tutuq belgisining ishlatilish oʻrinlariga misollar keltiring.

1-topshiriq. *Qishlogʻimiz, tilagimiz, tomogʻim* soʻzlarida roʻy berayotgan tovush oʻzgarishlarini ayting. Soʻngra «Soʻzlar zanjiri» oʻyinini tashkil qiling. Oʻqituvchi oxirgi tovushi oʻzgargan soʻzni aytib boshlab bergan oʻyinni u turgʻizgan oʻquvchilar davom ettirishadi.

N a m u n a: Qaymogʻi, tarogʻing, koʻmagida...

2-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga **f, sh, j, ch, n** harflaridan mosini qoʻyib soʻzlarni koʻchiring, ularning aytilishi va yozilishiga izoh bering.

...aqat, sa...sata, sha...balik, i...ni, i...arachi, ...alokat, qaytasa...mi, i...sof, ...inoyat, sha...qat.

3-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning ichidan **ng** harfi bitta tovushni ifodalaydiganlarini ajratib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bunga, tongga, soʻnggi, arqonga, koʻnglim, bongi, jarangi, ingliz, arang, senga, oʻshanga, minglab.

4-topshiriq. *Uyga topshiriq.* Oʻtilgan darslarda oʻrgangan undoshlar talaffuzi va imlosi boʻyicha jadval tuzing hamda uni toʻldiring.

Undoshlar	Talaffuzi	Yozilishi

145-d a r s da nazorat diktanti oʻtkaziladi.

146-d a r s. BOʻGʻIN VA UNING TURLARI

1-topshiriq. Quyidagi soʻzlarni boʻgʻinlarga ajrating. Boʻgʻinlarni qaysi tovush asosida ajratganingizni ayting.

Dala, bola, onalar, maktabimiz.

2-topshiriq. Quyidagi soʻzlarni boʻgʻinlarga ajrating. Boʻgʻinlarni nima asosida ajratganingizni ayting.

Goʻshtni, bargga, goʻshti, bargi.

! Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar birkimasiga boʻgʻin deyiladi.

☞ Boʻgʻin unli tovushlar asosida hosil boʻladi. Har bir boʻgʻinda bitta unli qatnashadi, shuning uchun soʻzda nechta unli boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻladi.

Soʻzning asos va qoʻshimchalarga ajralishi bilan boʻgʻinlarga ajralishi teng emas: *goʻsht-ni, barg-ga* soʻzlarida asos va qoʻshimchalar bilan boʻgʻinlar teng kelayotgan boʻlsa, *goʻsh-ti, bar-gi* soʻzlarida teng emas.

Boʻgʻinlar ikki turli boʻladi: ochiq boʻgʻin va yopiq boʻgʻin. Unli bilan tugagan boʻgʻin ochiq, undosh bilan tugagan boʻgʻin esa yopiq boʻgʻin hisoblanadi. M a s a l a n: *o-na, bo-la* soʻzlaridagi har ikki boʻgʻin ochiq, *tosh-lar* soʻzidagi har ikki boʻgʻin yopiq boʻgʻindir.

443-mashq. Daftaringizga avval bir boʻgʻinli, soʻngra ikki, uch, toʻrt boʻgʻinli soʻzlarni koʻchirib yozing.

Sholi, qand, jonbaxsh, sinf, jimirlamoq, laylak, amalparast, dard, lazzat, bogʻ, suvsizlik, aʼlochi, qoloqlik, jimjimador, hashamatli.

***444-mashq.** «Davom ettiring» oʻyinini tashkil qiling. Sinf taxtasiga yozilgan soʻzga nechta boʻgʻin qoʻshish mumkin?

N a m u n a: sabr-siz-lik-dan.

445-mashq. Avval faqat ochiq boʻgʻinli, keyin faqat yopiq boʻgʻinli soʻzlarni ajrating, farqini tushuntiring.

Latifa, gʻalaba, sanʼat, sardor, qizgʻin, kema, hujjat, uka, avj, aʼlo.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Boʻgʻin deb nimaga aytiladi?
 2. Boʻgʻinlar soni nimaning soniga teng keladi?
 3. Ochiq va yopiq boʻgʻin deganda, qanday boʻgʻinlarni tushunasiz?

446-mashq. *Uyga topshiriq.* Soʻzlar tarkibidan tushirib qoldirilgan boʻgʻinlarni tiklang, ularga izoh bering.

Ada...yot, an...qa, ar...mas, be...noh, ...jayra, hoki...yat, masʼu...yat, namu..., sez...moq, yangi...moq, za...vat.

147-d a r s. BOʻGʻIN KOʻCHIRISH QOIDALARI

1-topshiriq. *Klub, tank, ayb* soʻzlarini qatorga sigʻmay qolsa, keyingi qatorga koʻchirib boʻladimi?

2-topshiriq. *5-«A» sinfi, BMT, D. Komilova* soʻzlari qatorga sigʻmay qolganda, qanday koʻchirasiz?

! Soʻzlar qatorga sigʻmay qolganda, boʻgʻin koʻchirish qoidalarini asosida keyingi qatorga olib oʻtiladi.

Birinchi yoki oxirgi boʻgʻin bir tovushdan iborat boʻlsa, ular yakka holatda qoldirilmaydi. Keyingi qatorga *ibo-li, uka-si, ata-ma* tarzida koʻchiriladi.

Sh, ch, ng harflar birikmalari birgalikda koʻchiriladi: *pe-shana, Chir-chiq, koʻ-ngil* kabi.

2005, XXI, 5-«B» sinfi, «Navroʻz – 2015», BMT kabi soʻzlar qatordan qatorga boʻlib koʻchirilmaydi.

447-mashq. Boʻgʻin koʻchirish qoidalarini buzilgan oʻrinlarni topib izohlang. Ularni toʻgʻrilab daftaringizga koʻchirib yozing.

A-ka-de-mik, a-ri-za, o-i-la-viy, o-lam, o-ri-yat-li, mu-do-fa-a, to-le-yi, mu-o-ma-la, e-lak, e-shit-moq.

448-mashq. Matnini oʻqing. Tagiga chizilgan soʻzlar keyingi qatorga qanday koʻchirilishini ayting.

Ulugʻbek rasadxonasi Samarqanddagi XV asr meʼmorchiligining nodir namunasi sanaladi. Bino Ulugʻbekning farmoyishi bilan 1428–1429-yillarda Choʻponota tepaligidagi Obirahmat arigʻi boʻyida bunyod etilgan.

Rasadxona 3 qavatli boʻlib, balandligi 30,4 m ga teng boʻlgan.

449-mashq. A. Oripov, 5-«D» sinfi, SamDU, 2011, «O‘qituvchi–2015» so‘zlarini harflar bilan to‘liq yozing. Ularning bo‘g‘inlarga qanday ko‘chirilishini izohlang.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Bir tovushdan iborat bo‘lgan bo‘g‘inlar keyingi qatorga ko‘chiriladimi?
 2. *Sh, ch, ng* harflar birikmasini ajratib ko‘chirish mumkinmi?
 3. Raqam bilan ifodalangan ko‘p xonali sonlar, qisqartma so‘zlar keyingi qatorga qanday ko‘chiriladi?

450-mashq. Uyga topshiriq. Tarjimayi holingizni yozing. Unda bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga qat’iy rioya qiling.

148-d a r s. URG‘U VA UNING TURLARI. SO‘Z URG‘USI

1-topshiriq. Quyida berilgan so‘z bo‘g‘inlarining talaffuziga e’tibor bering. Qaysi bo‘g‘in boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishini aniqlang.

Bo-la-lar, mak-tab-ga, so‘z-la-di.

2-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlar nimasiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi?

ot	fe’l
<i>tug-ma</i>	<i>tug-ma</i>
<i>ol-ma</i>	<i>ol-ma</i>
<i>ko‘z-lar</i>	<i>ko‘z-lar</i>
<i>so‘z-lar</i>	<i>so‘z-lar</i>
<i>suz-ma</i>	<i>suz-ma</i>

! So‘z bo‘g‘inlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan so‘zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishiga **urg‘u** deyiladi.

☞ **Urg‘u** ikki xil bo‘ladi: 1) so‘z urg‘usi; 2) gap urg‘usi. So‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilinishi *so‘z urg‘usi* deyiladi. Tilimizda so‘z urg‘usi ko‘pincha so‘zlarning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. So‘zda bo‘g‘inlar ko‘payishi bilan urg‘u ham oxirgi

bo'g'inga ko'chib boradi. Yozuvda urg'u tushgan bo'g'in tepasiga (') belgisini qo'yish bilan ifodalash mumkin.

M a s a l a n: *dalá, dalalár, dalalargá.*

◆ **451-mashq.** «Birni birov beradi, ko'pni – mehnat» deganda, nimani tushunasiz? Uni izohlab, har bir so'zdagi urg'uning o'rnini belgilang.

452-mashq. Quyidagi so'zlarning urg'usini qo'yib, ko'chirib yozing. So'ng ularning talaffuziga e'tibor bering.

Qachondir, zakovat, yozamiz, do'stlarcha, yuzta, fidokor, hamma-miz, hech qanday, har bir, o'qish, o'qishing, o'qishimiz, o'qishimizda.

453-mashq. Gaplarni bir-biriga solishtiring. So'z ma'nolarining urg'uga ko'ra farqlanayotganiga diqqat qiling.

1. Chin inson birovga yaxshilik ko'zlar. Ko'zlar inson qalbining oynasidir. 2. Bog'lar yil sayin ko'payib bormoqda. Balki, endi arqonni mahkamroq bog'lar. 3. O'zbek qizlariga atlas ko'ylak juda yarashadi. Geografiya o'qituvchimiz darsga atlas olib kirdi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Urg'u nima va uning qanday turlari bor?
 2. Tilimizda so'z urg'usi ko'proq so'zning qaysi bo'g'iniga tushadi?

454-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi so'zlarning urg'uli bo'g'inlarini belgilab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Pillakor, tantana, mamlakatimiz, daryolarga, o'qidimi, ajdodlar, temuriylar, musobaqa, ko'kalamzorlashtirish.

149-d a r s. GAP URG'USI

1-topshiriq. Berilgan gap tarkibidagi har bir so'zni boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilib ko'ring. Ma'nosi ta'kidlanayotgan so'zlarni aniqlang.

Vafo va sadoqat timsoli bo'lgan Mohlaroyim Farg'ona xoni shoir Amir Umarxonning umr yo'ldoshi, benazir maslahatchisi bo'lgan. (*Said Ahmad*)

2-topshiriq. O'zingiz bitta yoyiq gap yozib, uning har bir bo'lagini mantiqiy urg'u ostida talaffuz qilib ko'ring. Qanday ma'no farqlanishi ro'y berganini ayting.

! Gapda ishtirok etayotgan soʻzlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinishiga gap urgʻusi yoki mantiqiy urgʻu deyiladi. **M a s a l a n:** *Buvijonim soʻzlarini kutaman. (Yoʻldosh Sulaymon)*

455-mashq. Matnni koʻchiring. Gap (mantiqiy) urgʻusi tushgan soʻzlarni aniqlang. Urgʻu ostidagi soʻzning ohangini izohlang.

Andisha – oqibatini oʻylab yoki yuz-xotir qilib yuritiladigan mulohaza, ehtiyotkorlik hissidir. Andishali odam deganda, oqibatni oʻylab ish qiladigan, yuz-xotirni biladigan, or-nomusli, sharm-hayoli, iboli insonni tushunamiz. Odatda, andishali odam farosat bilan ish tutadi. («*Vatan tuygʻusi*»)

456-mashq. Adabiyot darsligida berilgan badiiy asarlardan parcha keltiring va gap urgʻusini aniqlang. Gap urgʻusining vazifasini izohlang.

457-mashq. Quyidagi parchada gaplarni gap urgʻusiga muvofiq oʻqing va koʻchiring.

Otchoparda Sherbekning tanishi Zokir chavandoz oʻzining otini yuvib-tarash, sugʻorish, tizginidan tutib turishga ruxsat beradi. Sherbek Zokirga beminnat yordamchi boʻlib qolgan. Otxonani tozalaydi, egar-jabduqni joy-joyiga ilib, otni koʻl yoqasiga yetaklab chiqadi. Zokirning oti juda chiroyli qora argʻumoq, ismi ham oʻziga yarasha: «Duldul». Sherbek yap-yalangʻoch boʻlib, uni salt minadi-da, koʻlning chuqur joyiga undaydi, Duldul yaxshi suzadi, sovuq suvda rohat qiladi. (*Asqad Muxtor*)

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. Gap urgʻusi nima va u qanday vazifa bajaradi?
 2. Bitta yoyiq gap yozib, uning turli boʻlaklarini gap urgʻusi ostida talaffuz qiling. Maʼnoda qanday oʻzgarish roʻy berayotganini izohlang.

458-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi soʻzlarga gap urgʻusini tushirib, gaplar tuzing.

Aʼlo, puxta, gʻallakorlarimiz, paxtadan, qizgʻin, buyuk, baland.

150-d a r s. **TOVUSHLARNING ORTTIRILISHI VA TUSHIB QOLISHI**

1-topshiriq. *Tabiat (tabiyat), doim (doyim), ilm (ilim)* soʻzlarining yozilishi va aytilishini bir-biriga solishtiring, oʻrtadagi farqlarni aytib bering.

2-topshiriq. *Doʻst (doʻs), kelma (kema), farzand (farzan)* soʻzlarining yozilishi va aytilishiga diqqat qiling.

! **Rost (ros), gʻisht (gʻish)** kabi soʻzlarning oxiridagi tovush talaffuzda tushib qoladi, ammo ular yozuvda saqlanadi.

Oid, shoir soʻzlarida esa ikki unli orasida talaffuzda y undoshi orttiriladi, lekin yozuvda asl holati saqlanadi.

👉 **Oʻrni, singlisi, pasay** kabi soʻzlardagi oʻzgarish adabiy meʼyor sanaladi.

459-mashq. Soʻzlarni imlo qoidalariga mos ravishda daftaringizga koʻchirib yozing. Sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarga eʼtibor bering.

Blan, istadion, birgada, qrov, brov, blyard, mlyon, brgalikda.

460-mashq. *Singil, koʻngil, oʻrin* soʻzlariga egalik qoʻshimchasini qoʻshing, soʻz asosida sodir boʻlayotgan tovush oʻzgarishlarini toping.

461-mashq. Gaplarni daftaringizga koʻchiring. Qaysi soʻzlarda tovush oʻzgarishi hodisasi roʻy berayotganini toping.

1. Qornimga emas, qadrimga yigʻlayman. 2. Odamning koʻngli nozik. 3. Oltovlon ola boʻlsa, ogʻzidagin oldirar, toʻrtovlon tugal boʻlsa, koʻkdagini undirar. 4. Koinotga sigʻmas kuching boʻlsa ham, zaiflarga ozor berma.

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Tovushlarning tushib qolishiga misollar ayting.
2. Qanday soʻzlarda tovush orttirilishi kuzatiladi?

462-mashq. *Uyga topshiriq.* «Stadionda» mavzusida hikoya yozing. Unda tovush oʻzgarishiga uchragan soʻzlardan foydalaning.

151–152-d a r s l a r da yozma ish va uning tahlili oʻtkaziladi.

TAKRORLASH

153-d a r s. UNLILAR TALAFFUZI VA IMLOSI

Takrorlash uchun savollar



1. O‘zbek tilida nechta unli tovush bor?
2. *I* va *u* unli tovushlarining aytilishi va imlosi haqida so‘zlab bering.
3. *O‘* unlisining aytilishi va imlosi qanday?
4. *A* va *o* unllarining aytilishi va imlosi haqida nimalarni bilasiz?
5. *E* unlisining talaffuzi va imlosi haqida gapirib bering.

463-mashq. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan unli harflarni qo‘yib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.

1. Shirin uyq...dan voz kechib, kitoblarga do‘st tut...ngan inson vaqtlar o‘tib kamol...tga erishadi. 2. Xalq e‘zosi inson uch...n eng oliy mukof...tdir. 3. Xalq uchun o‘z umrini baxshida etgan insonning nomi hech qachon un...tilmaydi.

***464-mashq.** So‘zlardagi xato yozilgan o‘rinlarni toping, ularni to‘g‘rilab, gaplar tuzing.

Jangovor, fidoiy, tushintirmoq, qoyida, pshiqchilik, tushkin, xursan bo‘lmoq.

465-mashq. Gaplarni o‘qib, xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilang. So‘zlarning aytilishi va imlosini izohlang.

Ey farzan! Har bir qadamingni o‘ylab bos. Mulohaza blan ish qil. Zomonga munosib bo‘l. O‘zingni oliy toifa deb ko‘rsatma, amal va boyliging bilan g‘ururlanma. Doyimo kamtar bo‘l, xalqqa xizmat qil.

Kamtarga komol, manmanga zavol, degan maqolni aslo unitma. Bu sening shioring bo‘lsin.

466-mashq. *Uyga topshiriq.* «Kamtarlik – ulug‘ fazilat» mavzusida hikoyacha yozing. Unli tovushlarning aytilishi va imlosiga alohida diqqat qiling.

154-d a r s. **AYRIM UNDOSHLAR TALAFFUZI VA IMLOSI**

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. Jarangli undoshlarning so‘z oxirida jarangsizlanishiga misollar keltiring.
 2. *Q* ning *gʻ* ga, *d* ning *t* ga o‘tishi qanday so‘zlarda kuzatiladi?
 3. *Ng* harfining yozilishi haqida gapirib bering.
 4. *Sh* va *ch* harflari qaysi o‘rinlarda qanday yoziladi?
 5. *Q* va *gʻ* undoshlari bilan tugagan so‘zlarga egalik va kelishik qo‘shimchalarini qo‘shing.
 6. Qo‘sh va qator undoshlarning talaffuzi va imlosi haqida so‘zlab bering.
 7. Tutuq belgisining ishlatilish o‘rinlarini tushuntiring.

467-mashq. So‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. So‘ng ularni talaffuz qilib, aytilishi va imlosi o‘rtasidagi farqlarni toping.

Hisob-kitob, avtobus, nafas, fazilat, Yusuf, daromad, dasht, qasd, mahsulot, himoya, jarroh, g‘irrom, masofa.

468-mashq. Gaplarni o‘qing, tagiga chizilgan so‘zlar tarkibida kelayotgan undosh tovushlarga tavsif bering, ularni lab undoshlari, til undoshlari va bo‘g‘iz undoshiga ajratib yozing.

Har bir ota-ona o‘z farzandiga shunday deydi:

– O‘qi, o‘rgan, tiklan, otameros Vatanga jonkash, jonkuyar bo‘l, xoindan hazar qil. Xiyonatning din-u millati bo‘lmaydi. Vatanningni asra. Yuraging mehr-u muhabbatga to‘liq bo‘lsin.

Bu ishda senga kitoblar yaqindan yordam beradi. (*R. Xalilova*)

***469-mashq.** Boshqotirmanini to‘g‘ri yechsangiz, Alisher Navoiyning hunar haqidagi hikmatli so‘zini o‘qiysiz. Undagi tushirilgan undosh tovushlarga tavsif bering.

	U	A		I	A		A	O		E		U		I	O	I
O	I		U		O		A	U	E		U		I	O	I	

470-mashq. Uyga topshiriq. Bolalarga bag‘ishlangan teleko‘rsatuvlarning biriga maktub yozing. Unda ishlatilgan undosh tovushlarga izoh berishga hozirlaning.

155-d a r s. **BO‘G‘IN KO‘CHIRISH QOIDALARI.** **TOVUSHLARNING ORTTIRILISHI VA** **TUSHIB QOLISHI**

Takrorlash uchun savollar



1. Bo‘g‘in deb nimaga aytiladi?
2. Ochiq bo‘g‘in nima?
3. Yopiq bo‘g‘inga misollar keltiring.
4. Tovush tushishi qanday so‘zlarda sodir bo‘ladi?
5. Qaysi so‘zlarda tovush orttirilishi hodisasi kuzatiladi?

471-mashq. So‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga mos ravishda bo‘g‘inlarga ajrating.

Arafa, adolat, a‘zolik, murojaat, mo‘tabar, mo‘jizakor, karaxt, taxt, turp, Surxondaryo, Sherobod, Alisher.

472-mashq. Gaplardagi xato yozilgan so‘zlarni imlo qoidalariga mos ravishda ko‘chiring. Bu so‘zlarning aytilishi va yozilishi o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

1. Fikir-mulohazalarimni qog‘ozga tushurishga urindim. 2. O‘tgan haftada o‘qituvchimiz bilan tiyatrga borgan edik. 3. Qo‘shnimizning Absalom va Abjabbor ismli o‘g‘illari bor. 4. Sinfdoshim Karimjon katta bo‘sa artis bo‘moqchi.

***473-mashq.** Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh so‘zlarda tovush tushib qolishiga, ikkinchi guruh tovush orttirilishiga misollar aytsin. O‘yin tomonlardan biri misol ayta olmay qolguncha davom etadi.

◆ **474-mashq.** Uyga topshiriq. Quyidagi chaynovordni yeching. *Kent* so‘zi bilan tugallanadigan shahar nomlarini toping. Talaffuzda *t* tovushining tushib qolishiga e‘tibor bering.

1					K
2					E
3					N
4					T

1, 2, 4 – Toshkent viloyatidagi shaharlar.

3 – O‘zbekiston poytaxti.

156-d a r s da test ustida ishlanadi.

157-d a r s da nazorat diktanti o‘tkaziladi.

LEKSIKOLOGIYA

158-d a r s. LEKSIKOLOGIYA HAQIDA SUHBAT

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Ma’nosini aytib bering.

Tilimiz nihoyatda boy va rang-barang. Bir tushunchani turfa so‘zlar vositasida ifodalash bilan birga, o‘zingizning turli xil munosabatingizni ham ifodalashingiz mumkin. Masalan: *jilmaymoq, miyig‘ida kulmoq, kulmoq, tabassum qilmoq, xoxolamoq, qah-qah otmoq, tirjaymoq, ishshaymoq* kabi o‘ndan ortiq so‘zlar orqali kulish holatini ifodalaysiz va shu bilan birga kulayotgan shaxsga o‘zingizning ijobiy yoki salbiy bahongizni berasiz.

Musiqa asboblari, masalan, dutorni olaylik. Dutor o‘zidan turli-tuman ovoz chiqarish imkoniyatiga ega, lekin undan hamma har xil foydalanadi.

Agar ustasining qo‘liga tushsa, u shunday sayraydiki, yurakni sel qiladi. So‘z ham shunday. Uni qanday jilolantirish, qanday sayratish so‘zlovchi mahoratiga bog‘liq. Siz so‘zlardan mahorat bilan foydalanishni o‘rganing.

Leksikologiya yunoncha lexikos – «*lug‘at*», logos – «*ta’limot*» so‘zlaridan olingan bo‘lib, so‘z haqidagi, to‘g‘rirog‘i, so‘z ma’nolari haqidagi ta’limotdir.

***475-mashq.** Tuyuqni o‘qing, yoz so‘zlarining qanday ma’nolarda kelayotganini tushuntiring. Har biriga bittadan gap tuzing.

Taqdirni o‘z qo‘ling bilan yoz,
 Mehring bilan qishni qilgin yoz,
 Erkinlikning osmonida uch,
 Maqsad sari qanotingni yoz.

(*Hamid Nuriy*)

476-mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘ying va ko‘chiring. Nima uchun aynan shu so‘zni tanlaganingizni izohlang.

1. Uning dastxati ... (chiroyli, go‘zal, suluv) ekan. 2. Bu elda har qanday dushmanga yuzlasha oladigan ... (qahramon, jasur, botir) xalq yashaydi. 3. Shahrimizda birin-ketin... (buyuk, katta) binolar qad ko‘tarmoqda.

477-mashq. Quyidagi soʻz birikmalari yordamida gaplar tuzing, maʼnolarini tushuntiring.

Koʻchaning boshi, zumrad bahor, kumush qish, poʻlat iroda.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Leksikologiya deb tilshunoslikning qanday boʻlimiga aytiladi?
 2. *Yemoq* soʻzi oʻrnida qanday soʻzlarni qoʻllash mumkin? Ular oʻrtasida qanday maʼno farqi borligini ayting.
 3. *Yosh* soʻzi qanday maʼnolarni bildiradi? Har bir maʼnosini gap ichida keltirib, asoslang.

478-mashq. *Uyga topshiriq.* «Yurtimizda yuz berayotgan oʻzgarishlar» mavzusida mulohazalaringizni yozing.

159-d a r s. SOʻZNING ATASH MAʼNOSI

1-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning borliqdagi nimalarni bildirishini ayting. Gul, daftar, oʻrik, piyoz, qor.

2-topshiriq. Hayvonlarni bildiruvchi oʻnta soʻz yozing. Bu soʻzlarning bir-biridan qanday hayvonni bildirishiga koʻra farqlanayotganini ayting.

! **Soʻzlarning borliqdagi qanday narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-hoʻlatlarni bildirishi uning atash maʼnosi sanaladi.**

☞ **Faqat mustaqil soʻzlargina atash maʼnosiga ega boʻladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash maʼnosiga ega boʻlgan soʻzlarga ishora qiladi.**

479-mashq. Gapning mazmunidan kelib chiqib, nuqtalar oʻrniga mos keladigan soʻzlarni qoʻying va koʻchiring.

N a m u n a: Shoshilayotgan odam ... yuradi. — Shoshilayotgan odam tez yuradi.

1. ... manzarani koʻrib koʻz quv Naydi. 2. Sumalak — xushxoʻr va tansiq («Oʻzbek taomlari»dan) 3. Qadim zamonda Chin mam-lakatida bir ulugʻ xoqon ... ekan. (*Navoiy*)

480-mashq. Rasmdagi tasvirga asoslanib «Stadionda» mavzusida ogʻzaki hikoya tuzing. Hikoyadagi soʻzlarning atash maʼnolarini ayting.



Tayanch soʻzlar: toʻp, futbol, sport, kurash, musobaqa, jamoa, oʻynamoq, sogʻlom, oʻsmoq, yugurmoq, tepmoq, eʼtibor bermoq, rivojlanmoq, tomosha qilmoq

481-mashq. Quyida berilayotgan soʻzlarning atash maʼnolarini izohlang.

Yugurmoq, bino, kollej, yashil, beshinchi, kutmoq, baland, uchta, qalam, javob bermoq, chiroyli, sakramoq, sakkiz, ikki, quvnoq, aytmoq, oʻn ikki, deraza, oʻntacha.

Savol va topshiriqlar



1. Atash maʼnosi deb qanday maʼnoga aytiladi?
2. Qanday soʻzlar atash maʼnosiga ega?
3. Oltita mustaqil soʻz yozib, ularning atash maʼnolarini ayting.

482-mashq. *Uyga topshiriq.* Beshta gap tuzing. Har bir gapda narsa-hodisa, belgi-xususiyat hamda harakat-hoʻlatlarni ifodalovchi soʻzlar ish-tirok etsin.

160-d a r s. **BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR**

Topshiriq. Quyidagi birikmalardagi **bosh** soʻzining maʼnolarini ayting: *boshi ishlamoq, bosh farzand, suvning boshi, bir bosh uzum, boshi ogʻrimoq, bosh mutaxassis, bosh harf.*

- ! Soʻzlar bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarga boʻlinadi.
- *Oʻn, Toshkent, Mirzachoʻl* singari aniq bir maʼnoni ifodalash uchun qoʻllanilgan soʻzlar bir maʼnoli soʻzlar sanaladi.
- Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq maʼnoda qoʻllanuvchi soʻzlarga koʻp maʼnoli soʻzlar deyiladi.

483-mashq. Koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnosini izohlang.

1. Oʻzbekistonning Davlat tili – oʻzbek tilidir. 2. Razvedkachilarga «til» tutib kelish topshirilgan edi. 3. Shoir boshini birdan koʻtardi. (*Oybek*) 4. Ochilgan paxtani bir boshdan teringlar.

***484-mashq.** Avval bir maʼnoli, keyin esa koʻp maʼnoli soʻzlarni koʻchiring. Koʻp maʼnoli soʻzlarning har bir maʼnosi asosida gap tuzing.

Ogʻiz, geografiya, geometriya, qoʻl, oyoq, maktab, boʻgʻin, tom, oʻtmas, dasturxon, oshxona, kitob, non, iflos.

485-mashq. Quyidagi birikmalardagi koʻp maʼnoli soʻzni toping, qanday maʼno ifodalayotganini izohlang.

Iliq munosabat, qalb izhori, chuqur tekshirmoq, xira odam, istiqbol yoʻli, sovuq xabar.

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Qanday soʻzlarga bir maʼnoli soʻzlar deyiladi?
 2. Qanday soʻzlarga koʻp maʼnoli soʻzlar deyiladi?
 3. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarga misol keltiring.

486-mashq. *Uyga topshiriq.* «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»dan *pešana, burun, ogʻiz, tish, quloq, yuz, bel* soʻzlarining maʼno turlarini aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

161-d a r s. SO‘ZNING O‘Z VA KO‘CHMA MA’NOLARI

1-topshiriq. *Ko‘z, oltin, temir, quloq, og‘iz* so‘zlarini eshitganingizda, eng avvalo, nimalar ko‘z oldingizga keladi?

2-topshiriq. Quyida berilgan birikmalar tarkibida kelgan *ko‘z, oltin, temir, quloq* so‘zlarining qaysi ma’noda kelganini ayting.

Derazaning ko‘zi, buloq ko‘zi, ishning ko‘zi, oltin bosh, oltin kuz, qozonning qulog‘i, temir intizom.

! So‘zlarning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan atash ma’nosi o‘z ma’no sanaladi.

So‘zning nutqda boshqa so‘zlarga bog‘lanib hosil qiladigan yondosh ma’nosi ko‘chma ma’no hisoblanadi. **M a s a l a n:** *Odamning qulog‘i* – o‘z ma’noda, *qozonning qulog‘i* – ko‘chma ma’noda.

👉 O‘z va ko‘chma ma’no birikib, ko‘p ma’noli so‘zni hosil qiladi.

487-mashq. Gaplarni o‘qing. So‘zlarning qaysi ma’noda qo‘llanganini aniqlab, o‘zlari bog‘langan so‘zlar bilan birgalikda «O‘z ma’no» va «Ko‘chma ma’no» sarlavhasi ostida ikki ustunga ajratib yozing.

1. Osmon uzoq, yer qattiq. (*Maqol*) 2. Qattiq ovoz eshitildi. 3. Uy supurilgan, toza. 4. Do‘stimning qalbi pok, toza.

◆ **488-mashq.** *Gul, shirin, issiq* so‘zlarining har biriga ikkitadan gap tuzing. 1-gapda o‘z ma’nosida, 2-gapda ko‘chma ma’noda kelsin.

489-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi zarur so‘zlarni qo‘ying. Ma’nosini izohlang.

1. Yo‘ldoshboy soy ... pastga tomon qiyalab yurdi. (*Habib No‘mon*) 2. Farzandlari yo‘q, haligacha ... zor ular. 3. Eshitgan ... nima deydi. 4. Ishning ... bilishini qarang-a. (*Ch. Aytmatov*)

(Tirnoqqa, yoqasidan, quloq, ko‘zini).

***490-mashq.** a) quyidagi so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanishini ko‘rsatuvchi gaplar tuzing; b) ular o‘rtasidagi ma’no tafovutiga e’tibor bering.

Yer, maktab, qosh, ko‘z, etak.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Soʻzning oʻz maʼnosi deganda, nimani tushunasiz?
 2. Koʻchma maʼno deb qanday maʼnoga aytiladi?
 3. *Tosh* soʻzining oʻz va koʻchma maʼnosini aniqlang.

491-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyida berilgan soʻzlar qavs ichidagi soʻzlar bilan birikib, qanday maʼno anglatishini tushuntiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qattiq (yongʻoq, sovuq, uyqu), yumshoq (non, ovoz, tovush, suv), olmoq (majburiyat, asir, ketmon), ochmoq (yoʻl, oyna, oʻt).

162–163-d a r s l a r da yozma ish va uning tahlili oʻtkaziladi.

164-d a r s. SHAKLDOSH SOʻZLAR

Topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarning atash maʼnolarini ayting va ularni gap ichida keltiring.

Tut, yut, oq, yot, et, uch.

- ! Aytilishi va yozilishi bir xil boʻlib, turli atash maʼnolarini bildirgan soʻzlarga shakldosh soʻzlar deyiladi.

☞ **Shakldosh soʻzlar bir qarashda koʻp maʼnoli soʻzlarga oʻxshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Koʻp maʼnoli soʻzlar bir soʻzni oʻz va koʻchma maʼnolarida qoʻllashdan hosil boʻladi. Shakldosh soʻzlar esa shakli oʻxshash ikki va undan ortiq soʻzlardir.**

***492-mashq.** Tuyuqni oʻqing. Shakldosh soʻzlarni aniqlab, maʼnosini tushuntiring. Bu sheʼrdan oʻzingizga qanday xulosa chiqarganingizni ayting.

Yoshliging gʻanimat, bolam, oʻsib, un,
 Chiqarma behuda sado hamda un.
 Koʻr, quyosh tigʻida va tegirmonda
 Ezilib, soʻng aziz boʻldi bugʻdoy – un.

(A. Abdumalikov)

493-mashq. Gaplarni o‘qing. Shakldosh so‘zlarni toping. Ma’nosini tushuntiring.

1. Sen ham pastroqqa tush endi. 2. Tushimda alahsiraganman, shekilli. (*M. Mahmudov*) 3. Chang-to‘zon mashina oynasiga urilib, yo‘lni ko‘rsatmay qo‘yar edi. 4. Bastakor changda qandaydir kuy chalar edi.

***494-mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning shakldoshlarini toping.

1. Belni aldab-aldab ishga solmasak bo‘lmas. (*S. Ahmad*) 2. Qing‘ir ish qirq yildan keyin ham fosh bo‘laveradi. (*Hikmatlardan*) 3. Go‘ro‘g‘li och qoldi, enasiga qarab bir so‘z dedi. (*Dostondan*) 4. Idoraga uch, senga ham pul katta. (*Sh. Toshmatov*)

495-mashq. Quyida berilgan shakldosh so‘zlarning ma’nosidagi farqni tushuntiring.

N a m u n a: gullár — gúllar. Bahorda har xil gullár ochilgan. Hammadan oldin bodom daraxti gúllar.

olmá — ólma

ko‘zlár — kó‘zlar

bog‘lár — bóq‘lar

Savol va topshiriqlar



1. Shakldosh so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
2. Shakldosh so‘zlarning ko‘p ma’noli so‘zlardan farqini tushuntiring.
3. Shakldosh va ko‘p ma’noli so‘zlarga ikkitadan misol keltiring.

496-mashq. *Uyga topshiriq.* Avval shakldosh so‘zlar qo‘llangan gaplar juftligini, keyin ko‘p ma’noli so‘zlar ishtirok etgan gaplar juftligini ko‘chiring.

1. Hech bo‘lmaganidan ko‘ra kech bo‘lgani yaxshi. (*Maqol*) Bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning. (*Ertakdan*) 2. Maktabda «O‘tkir zehnlilar» musobaqasi bo‘lib o‘tdi. O‘tkir boltasi bo‘lsa-yu, shart bir daraxtni kesib yelkaga olib jo‘nasa. (*Oybek*) 3. Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib, eng yorug‘ yulduzdan seni so‘rayman. (*Cho‘lpon*) Maktabimizdagi kechada barcha o‘quvchilar faol ishtirok etdilar.

165-d a r s. UYADOSH SO‘ZLAR

1-topshiriq. Meva guruhiga kiruvchi otlarni sanang.

2-topshiriq. Parranda guruhiga kiruvchi otlarni sanang.

! Bir mazmuniy uyaga (guruhga) mansub bo‘lgan so‘zlar uyadosh so‘zlar deyiladi.

☞ Tilimizdagi barcha so‘zlar ongimizda ma’lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so‘zlarning xotirada oson saqlanish va nutqiy jarayonda ulardan qiynalmasdan foydalanish imkonini beradi.

497-mashq. Quyida berilgan so‘zlarni *qo‘y* va *qoramol* so‘zlari ostiga birlashtirib yozib chiqing.

Buzoq, qo‘zichoq, qorako‘l terisi, sigir, sovliq, novvos, qo‘chqor, jun, buzoqboqar, qo‘ychivon.

498-mashq. *G‘o‘za* so‘zi uyasiga birlashadigan so‘zlarni aniqlang. Bu uyaga yana qanday so‘zlarni kiritish mumkin?

G‘o‘za tolasi uchun ekiladigan texnika ekinlaridan biri. Paxta tolasidan ip yigiriladi, undan xilma-xil gazmol to‘qiladi.

Chigitidan moy olinadi, undan sovun ham tayyorlanadi.

Chigit chiqindisidan olinadigan kunjara mahsuloti chorva hayvonlari uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi.

499-mashq. Ikki guruhga bo‘lining. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi sinf taxtasi yoniga chiqsin. Birinchi guruh vakili uy hayvonlari, ikkinchi guruh vakili yovvoyi hayvonlar sarlavhasi ostida misollar yozsin.

N a m u n a:	1-guruh	2-guruh
	ot	yo‘lbars

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. Qanday so‘zlarga uyadosh so‘zlar deyiladi?
 2. Uy-ro‘zg‘or buyumlari uyasiga oid so‘zlarni ayting.

500-mashq. *Uyga topshiriq.* Rasmga sarlavha toping, so‘ng mazkur sarlavha ostiga birlashadigan so‘zlarni belgilab, ularni ko‘chiring.



Tayanch so‘zlar: poliz, dala, qovun, tarvuz, handalak, hosil, bahor, kuz, chayla, shirin, pishmoq, uzmoq, yordam bermoq, tashimoq, mamnun bo‘lmoq.

166-d a r s. **PARONIMLAR**

Topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarning qaysi qismi bir xil, qaysi qismi farqli ekanini ayting. Ular ishtirokida gap tuzib, ma’nolarini izohlang.

Afzal – abzal, fol – pol, bob – bop, tub – tup.

! Talaffuzi va yozilishi bir-biriga juda yaqin, lekin ma’nolari bir-biridan butunlay farq qiladigan so‘zlarga paronimlar deyiladi.

☞ Talaffuzi yaqin bo‘lgani uchun bunday so‘zlarni bir-biri bilan almashtirib qo‘yish ehtimoli bor. Nutqingizning aniq, ravon bo‘lishini istasangiz, ana shunday xatoga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiling.

501-mashq. Quyida berilgan paronim so‘zlarning ma’nosini bilib oling, ularning talaffuziga e’tibor bering.

1. Abzal – ot-ulovni egarlash yoki aravaga qo‘shish uchun zarur asboblarning jami. Afzal – yaxshi, a’lo, ortiq so‘zlarining ma’nodoshi. 2. Daho – kuchli zehn va iste’dod. Daha – shaharning ma’muriy bo‘linishi. 3. Amr – buyruq, farmon. Amir – o‘tmishdagi davlat rahbari.

502-mashq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi paronimlarning mos keladiganini qo‘yib, ko‘chiring, kerakli o‘rinlarda qo‘shimchalar qo‘shing.

1. Boburning Kobul ... topilgan emas. (*Darslikdan*) Mashina ... tepasiga ko‘tarilar ekan, derazadan salqin shamol urildi. (*Said Ahmad*) (dovon – devon) 2. Mirzakarimboyni Toshkentning to‘rt ... biladi. (*Oybek*) O‘zbek xalqi ichidan o‘nlab ... yetishib chiqqan (daha – daho). 3. Ot ...in shayladi, o‘q-anjomin boyladi. (*Termalardan*) Sizning har bir so‘zingiz biz uchun tilladan ... (*Oybek*) (abzal – afzal).

503-mashq. Ko‘chiring, matndagi paronimlarni toping, ma’nolarini izohlang.

1. Konstitutsiya 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. 2. Ayni bizbop ketmon ekan, endi hech ham qiynalmaymiz. 3. Ularning tub maqsadini bilib olishimiz kerak. 4. Erta bahorda o‘n tup mevali daraxt ko‘chatidan ekdik.

Savol va topshiriqlar



1. Paronimlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
2. Paronimlardan shakldoshlarning farqini ayting.

504-mashq. Uyga topshiriq. Quyidagi paronimlarning ma’nolarini izohli lug‘atdan toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ramz – razm, yolqin – yorqin, sayil – sayr, sada – sado.


167-d a r s. MA’NODOSH SO‘ZLAR

1-topshiriq. *Gapirmoq* so‘zi ifodalagan ma’noni yana qanday so‘zlar bilan ifodalash mumkin. Har birini gap ichida keltiring.

2-topshiriq. *Yuz, bet* so‘zlarining ma’nosiga teng keladigan yana qanday so‘zlarni bilasiz? Ular bir-biridan nimasi bilan farqlanishini ayting.



Bir umumiy ma’noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so‘z-larga ma’nodosh so‘zlar deyiladi.

 **Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalashda, so'z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.**

505-mashq. Mashqni o'qing. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'zlarni toping. Ularning ma'nosini izohlang.

1. Yuzi nam, yaltiroq o'tloqning betida yuk mashinalarining behisob izlari ko'rinib turardi. (*Gazetadan*) 2. Uning quvnoq chehrasi suv betida qizga yanada yoqimli ko'rindi. (*I. Rahim*) 3. Basharasiga tushgan qamchi zarbidan yerga yiqildi. (*Mirmuhsin*)

506-mashq. So'zlarning ma'nodoshlarini toping va ko'chirib yozing.

Bahs, sovg'a, tanqis, g'alaba, gunoh, hadya, ayb, munozara, pinhon, tortiq, kamchil, jinoyat, tortishuv, armug'on, taqchil, zafar, tuhfa, maxfiy.

507-mashq. Ko'chiring. Ma'nodosh so'zlarni aniqlab, ma'nosidagi farqini tushuntiring.

Dalamizda salqin shabboda esdi. Ulug' Madhiyaning yangroq ohangini olib ketdi tungi sho'x sabo. Yel keltirar mayin bir ohang. Yana olib ketar nariga. Saharlab turaman, qutlayman tongni, bo'ynimga osilar subh shamoli. (*Mirmuhsin*)

508-mashq. *Do'st, faqir, Vatan, mangu, dangasa, inoq* so'zlarining ma'nodoshlarini toping. Ular ishtirokida uchtdan gap tuzing.

Savol va topshiriqlar




1. Ma'nodosh so'zlar deb qanday so'zlarga aytiladi?
2. Ma'nodosh so'zlardan foydalanishning qanday ahamiyati bor?
3. *Qaramoq* so'zining ma'nodoshlarini toping. Ularning farqlanishlarini ayting.

509-mashq. *Uyga topshiriq.* O'zingiz o'qigan badiiy asardan ma'nodosh so'zlar topib, ko'chiring.

168-d a r s. MA'NODOSH SO'ZLARDA UMUMIY VA XUSUSIY MA'NOLAR

Topshiriq. Quyidagi so'zlarda umumiy ma'noni aniqlang va bu so'zlar o'rtasidagi o'ziga xos ma'no nozikliklarini ayting.

Yemoq, tanovul qilmoq, iste'mol qilmoq, g'ajimoq, kavshamoq, oshamoq.

 **Ma'nodosh so'zlar bir umumiy ma'noni ifodalasa ham, shu umumiy ma'noni qanday ifodalash nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. M a s a l a n: shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo'kirmoq so'zlari so'zlash umumiy ma'nosi bilan bir xil bo'lsa ham, ular ovozning baland-pastligiga ko'ra farq qiladi. Shuningdek, to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq so'zlari ham so'zlash umumiy ma'nosiga ko'ra yuqoridagi so'zlar bilan birlashadi, lekin ulardan salbiy bahoga egaligi bilan farq qiladi.**

Ko'ryapsizki, bir ma'noni o'zingizning maqsadingizga muvofiq bir necha so'zlardan bittasini tanlash orqali ifodalash mumkin.

510-mashq. Keltirilgan misollarni o'qing. Ma'nodosh so'zlarni topib, izohlang.

1. Bu yoqlarda suluv bo'ladi
May oyining salqin tunlari.
Chechak ochsa turfa gullari,
Qirg'oq chiroy bilan to'ladi.

(Usmon Nosir)

2. Oyi-chi, oyi! Kechqurunlari shahar yanayam chiroyli bo'lib ketarkan. («G'uncha»)

3. Oh, go'zal Farg'onaning husni bugun qandoq emish,
Har taraf osmon emish, osmonga yetgan tog' emish.

(Jamol Kamol)

511-mashq. Ma'nodosh so'zlar qatorini ajrating.

Issiq, yurt, zamon, yugurmoq, sezgir, Vatan, iliq, ziyrak, vaqt, chopmoq, jazirama, diyor, hushyor, payt.

***512-mashq.** Berilgan ma'nodosh so'zlar qatoridagi qaysi so'z ijobiy, qaysi so'z salbiy ma'noni ifodalayotganini, qaysinisi betaraf ekanini aniqlang. Bu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

1. Yuz, bashara, chehra.
2. Tirjaydi, kuldi, jilmaydi.

513-mashq. Berilgan ma'nodosh so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Ma'nolaridagi farqni tushuntiring.

Nam, ho'l, shalabbo; tiqillatdi, taqillatdi, do'pillatdi.

Savol va topshiriqlar



1. Ma'nodosh so'zlardagi umumiy va o'ziga xos ma'noni tushuntiring.
2. To'satdan so'zining ma'nodoshlarini tushuntiring, ular ishtirokida gaplar tuzing.

514-mashq. Uyg'a topshiriq. Xato qo'llangan so'zni uning ma'nodoshi bilan almashtiring.

1. Keksalarning nuroniy aftidan xonadonlar yorishganday bo'ladi.
2. Gap bilan shoshma, mehnat bilan shosh.
3. Bizda doimo kattalar izzatda, kichiklar hurmatda.
4. Fazoda qushlar qanot qoqib uchadi.

169-d a r s. MA'NODOSH SO'ZLAR QATORIDA BOSH SO'Z

Topshiriq. *Sovg'a, hadya, tuhfa, armug'on* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Bu so'zlardan qaysi biri nutqda keng qo'llanilishini aniqlang.

Ma'nodosh so'zlarning bir qatorga tizilib kelishiga ma'nodoshlik qatori deyiladi. Boshqalariga nisbatan nutqda keng qo'llaniladigan va ma'nosi barchaga tushunarli bo'lgan so'z bosh so'z deb yuritiladi. Masalan, *kulmoq, jilmaymoq, iljaymoq, tirjaymoq, qah-qah urmoq, xanda otmog, hirlinglamoq* ma'nodoshlik qatoridagi *kulmoq* so'zi boshqalariga nisbatan nutqda ko'proq qo'llaniladi va uning ma'nosi barchaga tushunarli bo'ladi. Shunga ko'ra, bu so'z bosh so'z sanaladi.

Ma'nodosh so'zlarda ijobiy va salbiy ma'nolar bo'lishi mumkin. *Kulmoq, jilmaymoq, qah-qah urmoq, xanda otmog* so'zlarida ijobiy ma'no kuzatilsa, *hirlinglamoq, iljaymoq, tirjaymoq* so'zlarida salbiy ma'no mavjud. Ammo bosh so'zda bunday ma'nolar bo'lmaydi.

515-mashq. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan olingan parchani o‘qing va unga munosabat bildiring. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan ma’nodoshlik qatorlaridagi so‘zlardan mosini qo‘yib, ko‘chiring.

Har kim ... olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish ... tomonidan kafolatlanadi. Maktab ... davlat nazoratidadir.

So‘zlar: ilm, bilim, ma’lumot; mamlakat, davlat, respublika; ishlari, yumushlari, vazifalari.

516-mashq. To‘rtlikni o‘qing, qavs ichida berilgan ma’nodoshlik qatoridan mos so‘zni o‘rniga qo‘ying va ushbu so‘zning she’r shakli va mazmunini yuzaga chiqarishdagi o‘rni haqida fikr bildiring.

Inson bahra olsa qancha (*kun, oftob, quyosh*) dan,
Shunchalar zavq olar (*doim, hamisha, manguga*) kitobdan.
O‘girma yuzingni inson bo‘lsang sen,
«O‘qi!» degan (*buyuk, ulug‘, muhtasham*) so‘zdan, xitobdan.

517-mashq. Ma’nodoshlik qatoridagi so‘zlardan foydalanib, hikmatli so‘zni toping. Vatanparvarlik haqida fikr yuriting.

1. Bu, shu, mana shu.
2. Aziz, mo‘tabar, qadrdon.
3. Vatanda, yurtida, mamlakatda.
4. Muqaddas, mo‘tabar, ulug‘.
5. Inson, odam, kishi.

518-mashq. Ma’nodoshlik qatoridagi bosh so‘zni aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Imillamoq, g‘izillamoq, jadallashmoq, yurmoq, sudralmoq; go‘zal, chiroyli, kelishgan; bidirlamoq, vaysamoq, sayramoq, gapirmoq, javramoq; uddaburon, epchil, chaqqon.

Savol va topshiriqlar



1. Ma’nodoshlik qatori deganda nimani tushunasiz?
2. Bosh so‘z deb qanday so‘zlarga aytiladi?
3. Ma’nodosh so‘zlardagi ijobiy va salbiy ma’nolar haqida gapiring.

519-mashq. Uyga topshiriq. **Qaramoq, olaymoq, go‘laymoq, boqmoq, termulmoq** so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing va bosh so‘zning qatordagi boshqa so‘zlar bilan munosabatini izohlang.

170-d a r s. ZID MA'NOLI SO'ZLAR

1-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarga zid maʼno bildiruvchi soʻzlarni aniqlang.

Uzun – ... , uzoq – ... , kuldi – ...

2-topshiriq. Quyida berilgan gapdagi zid maʼnoli soʻzlarni aniqlang.

*Oq kun – baxt-u saodat,
Qora kun – gʻam, musibat.*

(Tohir Qahhor)



Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarga zid maʼnoli soʻzlar deyiladi.



Zid maʼnoli soʻzlar doimo ikki qarama-qarshi aʼzodan iborat boʻladi. Birini aytsak, ikkinchisi xayolimizga keladi. M a s a l a n: *achchiq* deyishimiz bilan *shirin* esimizga tushadi. Zid maʼnoli soʻzlar birgalikda qoʻllanib, yangi soʻz hosil qilishi mumkin. M a s a l a n: *yosh-u qari* – bari, *achchiq-chuchuk* – ovqat turi, *uzoq-yaqindan* – hamma yoqdan kabi.

520-mashq. Maqollarni oʻqing va maʼnosini sharhlang. Zid maʼnoli soʻzlarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birgalikda koʻchiring.

1. Yaxshi soʻz – jon ozigʻi, yomon soʻz – bosh qozigʻi. 2. Doʻst achitib gapirar, dushman – kuldirib. 3. Oz soʻzla, koʻp tingla. 4. Eskisiz yangi boʻlmas, yomonsiz – yaxshi.

521-mashq. «Zumrad va Qimmat» ertagi esingizdami? Unday boʻlsa, sinfda ikki guruhga boʻlining. Birinchi guruh Zumradning ijobiy fazilatlarini, ikkinchi guruh Qimmatning salbiy xususiyatlarini yozsin. Qaysi guruh tez va koʻp yozsa, oʻsha guruh gʻolib boʻladi.

Zumrad
mehnatsevar

Qimmat
dangasa

***522-mashq.** Berilgan zid maʼnoli soʻzlarning qanday soʻz turkumlariga mansub ekanini aniqlang.

Mehnatsevar – dangasa, kelmoq – ketmoq, yolgʻonchi – rostgoʻy, ost – ust, toza – iflos, qisqa – uzun, urush – tinchlik, kulmoq – yigʻlamoq.

Savol va topshiriqlar



1. Zid ma'noli so'zlar deb nimaga aytiladi?
2. Zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan maqollar ayting.

523-mashq. *Uyga topshiriq.* Avval o'lchov-hajmni bildirgan zid ma'noli so'zlarni, keyin paytni bildirgan zid ma'noli so'zlarni topib, gaplar tuzing.

Kecha — kunduz, yo'g'on — ingichka, katta — kichik, avval — keyin, ozg'in — semiz, ilgari — hozir, baland — past, tonggi — tungi.

171-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSII

1-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

ONA TABIAT

Qish der: «Kumush qorim bor,
Qorbobo yasang!»
«Gulim ko'rkam, — der bahor, —
Guldasta yasang!»
Yoz der: «Suvim beg'ubor,
Suz baliq misol!»

Kuz der: «Mevam,
bolim bor,
Bari senga, ol!»
Demak, ona tabiat
Bizni der har vaqt!

(T. Xolmatov)

2-topshiriq. Uyadosh so'zlarni topib ko'chiring. Nima uchun ularni bir guruhga kiritganingizni tushuntiring.

3-topshiriq. She'rdan bir ma'noli so'zlarni ko'chirib yozing. Nima uchun ularni bir ma'noli deb hisoblaysiz?

4-topshiriq. She'rdagi *qish der, kumush qor* so'zlar birikmasini qanday tushunishingizni izohlang. Bu tilda qanday hodisa hisoblanadi?

5-topshiriq. *Bor, yoz, suz* so'zlari ishtirokida ikkitadan gap tuzing. Ular gaplarda shakldosh so'zlar bo'lib kelsin.

6-topshiriq. *Bahor, bol, vaqt* so'zlarining ma'nodoshlarini keltiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

7-topshiriq. She'rdagi qaysi so'zlar bilan paronimlar hosil qilish mumkin?

8-topshiriq. She'rdagi ko'p ma'noli so'zlarni belgilang. Ularni qo'llab, o'z va ko'chma ma'noni ifodalovchi so'z birikmalari hosil qiling.

9-topshiriq. Uyda biror she'rni yuqoridagidek tartibda tahlil qiling.

172-d a r s da nazorat diktanti o'tkaziladi.

173-d a r s. O‘ZBEK TILI LEKSİKASINING BOYISH MANBALARI

1-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing.

TILNING BOYISH YO‘LLARI

Mustaqillik yillarida hayotimizda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Yangi-yangi tushunchalar vujudga keldi.

Yangi tushunchalar ko‘proq tilning ichki imkoniyatlari: a) shevalardan so‘z olish; b) so‘z yasash imkoniyatidan foydalanish asosida yuzaga keladi. Ba‘zan yangi tushunchalar boshqa tillardan so‘z olish yo‘li bilan ham ifodalanadi. Bunday so‘zlar olinma so‘zlar hisoblanadi.

Shuni bilinki, dunyoda boshqa tillardan so‘z olmaydigan bironta ham til yo‘q. **Kurash, yonbosh, chala, halol** so‘zlari dunyoning barcha tillariga kirib borayotgani kabi, bizning tilimiz ham turmushimizga kirib kelgan bir qator yangi tushunchalarni ifodalovchi olinma so‘zlar hisobiga boyib bormoqda.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Tilning so‘z boyligi nima uchun o‘zgaradi?
2. Til qanday yo‘llar bilan boyiydi?

524-mashq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Hayotda yuz berayotgan o‘zgarishlarning tilimizga ta’siri haqida mulohaza yuring.

1. Bugun Toshkentda «Ekologiya va salomatlik» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘z ishini yakunladi.
2. Chustdagi stol tennisi bo‘yicha bolalar va o‘smirlar sport maktabi mamlakatimizda ko‘pchilikka ma’lum.
3. Kichkintoylar sportning yengil atletika, futbol, shaxmat, akrobatika, gimnastika kabi turlari bo‘yicha bellashdilar.

(«Ma’rifat»)

***525-mashq.** Kundalik hayotimizda faol ishlatilayotgan olinma so‘zlarga misollar keltiring.

526-mashq. Yasovchi qo‘shimchalar hamda so‘zlar qo‘shilishidan hosil bo‘lgan yangi so‘zlarga misollar keltiring.

527-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘qing. Olinma so‘zlarni aniqlang. Qaysi belgilariga ko‘ra olinma so‘z deb hisoblayotganingizni tushuntiring.

1. Biznes bilan shug‘ullanish uchun ham bilim, qunt, mehnat, eng asosiysi, halollik kerak. 2. To‘g‘on tepasida elektr payvandchilar ishlayapti. (*Said Ahmad*) 3. Men pediatr bilan veterinarlarga qiyin desam, ba‘zan terapevt ham qiyin ahvolda qolar ekan. (*Abdulla Qahhor*)

174-d a r s. ESKIRGAN SO‘ZLAR

1-topshiriq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarining eskirish sababini ayting.
Qozi, mirshab, amin, mingboshi, xon.

2-topshiriq. Quyidagi eski va yangi so‘zlar haqida o‘z fikringizni ayting.

rayon

tuman

oblast

viloyat

! Tilimizning ma‘lum davrida qo‘llanilib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so‘zlarga eskirgan so‘zlar deyiladi.

☞ So‘zlarning eskirishi ikki xil yo‘l bilan amalga oshadi.

1. So‘z o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi. Bunday so‘zlarga tarixiy so‘zlar deyiladi.

2. So‘z eskiradi, tushuncha saqlanadi va u boshqa so‘z bilan nomlanadi. Ularga arxaik so‘zlar deyiladi.

528-mashq. Gaplarni o‘qing, eskirgan so‘zlarni topib, ularning ma‘nosini tushuntirib bering.

1. Ulug‘bek usturlob va undan foydalanish haqidagi so‘zlarni tugatgach, zij tuzmoq hunaridan so‘zlay boshladi. (*O. Yoqubov*)
2. Yana bir istagim shuki, falakiyot, riyoziyot, handasa, tibbiyot, jug‘rofiya, adabiyot ilmidan xabar topsagina, alloma deb tan olinsa. (*Tohir Malik*)

◆ **529-mashq.** *Sohibqiron, yuzboshi, mingboshi* kabi so‘zlarni izohlang, ular ishtirokida gaplar tuzing.

***530-mashq.** Adabiyot darsligida berilgan qaysi asarda tarixiy soʻzlar borligini eslang. Tarixiy soʻzlarni topib, daftaringizga koʻchiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Savol va topshiriqlar



1. Eskirgan soʻzlar deb qanday soʻzlarga aytiladi?
2. Eskirgan soʻzlar qanday turlarga boʻlinadi?

531-mashq. *Uyga topshiriq.* Buva, buvingiz yoki ota-onangiz bilan suhbatlashing. Yaqin oʻtmishimizda ishlatilib, bugungi kunda qoʻllanilmayotgan soʻzlarni aniqlang, ularning maʼnosini daftaringizga yozing.

175-d a r s. YANGI SOʻZLAR

1-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarning maʼnosini ayting.

Dasturchi, birja.

2-topshiriq. Eski soʻzlar oʻrniga qoʻllanilayotgan yangi soʻzlarni toping.

Rayon, oblast, ostanovka, programma.



Hozirgi kunda yangilik belgisini saqlab turgan soʻzlarga yangi soʻzlar deyiladi.

532-mashq. Gapnlarni oʻqing. Tilimizda yangi paydo boʻlgan soʻzlarni toping, ularning qaysi sohalarda ishlatilishiga diqqat qiling.

1. Qisqa vaqt ichida gimnaziyaga zamonaviy kompyuterlar keltirildi, ular internet tarmogʻiga ulandi. 2. Kasb-hunar kolleji oʻtgan yili 220 nafar malakali mutaxassislarni qaynoq hayotga kuzatdi. 3. Bakalavr toʻrt yillik oliy taʼlim bosqichini oʻtagan mutaxassis boʻlsa, magistr bakalavr bosqichidan keyingi ikki yillik mutaxassislik kursini oʻtagan shaxsdir.

(«Maʼrifat»)

***533-mashq.** Kompyuter bilan bogʻliq *monitor*, «*sichqoncha*», «*ku-chukcha*», *internet* soʻzlari bugungi kunda keng qoʻllanmoqda. Ulardan qaysi birining maʼnosini izohlay olasiz?

534-mashq. Koʻchiring. Yaqin oʻtmishda qoʻllanmagan yoki boshqacha nomlar bilan atalgan soʻzlarning ostiga chizing.

1. Fermer xo‘jaliklari soni tobora ortmoqda. («Xalq so‘zi») 2. Har bir tuman va shaharlarda yangi o‘quv muassasalari qurilib, foydalanihga topshirilmoqda. 3. «Oqtosh» oromgohi Toshkent viloyatida joylashgan. U yerdagi o‘yingohda bolalarning sport bilan shug‘ullanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. 4. Keyingi yillarda tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan yurtdoshlarimiz safi tobora kengaymoqda.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Yangi so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
 2. To‘rtta yangi so‘zni gap ichida keltirib, ma’nosini tushuntiring.

535-mashq. *Uyga topshiriq.* Akademik litsey, kollej haqida bilganlaringizni yozma ravishda bayon eting.

176-d a r s. IBORALAR

Topshiriq. Quyida berilgan gap va birikmalarning qanday ma’no ifodalashini ayting. Unga mazmunan teng bo‘lgan va uning o‘rnida almashtirish mumkin bo‘lgan so‘zni topib, ro‘parasiga yozing.

Og‘zi qulog‘iga yetgan
Oyog‘ini qo‘liga olib keldi
Yog‘ tushsa yalagudek

! Ma’nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi.

☞ Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.
Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi.

536-mashq. Matnni o‘qing. Undagi fikr haqida bahs yuriting.

«Burni ko‘tarilgan» iborasi takabbur, manman, o‘ziga bino qo‘ygan kimsalarga nisbatan aytiladi. O‘ta salbiy ma’noga ega. Qaddini tik tutib, burnini havolantirib yurgan kishi burnidan narini ko‘rolmay qoladi. Mansabi yoki boyligiga g‘ururlanib hech qaysi odamni mensimay qo‘yadi. (*Mahmud Sattor*)

537-mashq. «*Tilining uchida turmoq*», «*tishining kovagida saqlamoq*» kabi iboralarga izoh bering. Ular ishtirokida og‘zaki gaplar tuzing.

***538-mashq.** Sinf taxtasi yoniga ikkita o‘quvchi chiqsin. Birinchi o‘quvchi ijobiy ma’noga, ikkinchi o‘quvchi salbiy ma’noga ega bo‘lgan iboralarga misol keltirsin. Shu tariqa o‘yin davom ettirilaveradi.

1-o‘quvchi
tilidan bol tomadi

2-o‘quvchi
ilonning yog‘ini yalagan

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Ibora deganda nimani tushunasiz?
 2. Quyidagi iboralarni gap ichida keltiring va ularning qaysi so‘zlarga teng kelishini ayting:

Qo‘li kaltalik qildi, yetti o‘lchab, bir kesdi, mum tishlab qoldi.

539-mashq. *Uyga topshiriq.* Quyidagi iboralarning ma’nosini aytib bering. Ular ishtirokida gap tuzing.

Belni bog‘lamoq –

Do‘ppisini osmonga otmoq –

Tirnoq ostidan kir qidirmoq –

Ko‘kka ko‘tarmoq –

Tomdan tarasha tushganday –

177-d a r s. IBORALARNING QO‘SHMA SO‘Z VA SO‘Z BIRIKMALARIDAN FARQI

Topshiriq. Berilgan misollarni so‘z birikmalari, qo‘shma so‘zlar va iboralarga ajrating: *og‘zi qulog‘ida, og‘zining chekkasi, otquloq, chap bermoq, burnidan ip o‘tkazmoq, ipning uzunligi, toshbaqa, temiryo‘l.*

- ! Iboralar ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgani bois
- qo‘shma so‘z va so‘z birikmalariga o‘xshaydi, lekin ular ko‘chma ma’noga ega ekani, ta’sirchanligi bilan qo‘shma so‘zlardan; barqarorligi, nutqqa tayyor holda olib kirilishi bilan so‘z birikmalaridan farqlanadi.

Solishtiring. Iboralar: *tepa sochi tikka bo‘lmoq – achchiqlanmoq, qovog‘idan qor yo‘g‘moq – xafa bo‘lmoq, og‘zining tanobi qochmoq – sevinmoq*; so‘z birikmalari: *uzun sochli, qalin qovoq, uyga ketmoq*; qo‘shma so‘zlar: *To‘ytepa, laylakqor, bodom-qovoq.*

540-mashq. Matnni o‘qing, ajratilgan birliklarning ibora, so‘z birikmasi yoki qo‘shma so‘z ekanini aniqlang.

Ikki bola bog‘da o‘ynardi. Ular tasodifan yerda yotgan *yong‘oqni ko‘rib qolishdi*.

– Bu *mening yong‘og‘im*, – deb birinchi bola unga *qo‘l uzatdi*.

– *Toshingni ter*, – dedi ikkinchi bola unga o‘dag‘aylab. – Yong‘oqqa birinchi bo‘lib mening *ko‘zim tushdi*. Demak, bu yong‘oq meniki!

Tortishuv davom etdi.

Shu payt ular uchinchi bolani ko‘rib qolishdi va undan *yordam so‘rashdi*. *Uchinchi bola* o‘ylanib o‘tirmay, yerdan tosh olib yong‘oqni chaqdi. Uni ikkiga bo‘lib, po‘chog‘ini bolalarga uzatdi. O‘ziga esa mag‘zini oldi.

Xulosa: *Ikki kishi* tortishsa, foydani uchinchi odam ko‘radi. (*Hikoyat*)

541-mashq. Quyidagi birliklarni ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zga ajratib yozing. Ular o‘rtasidagi farqlarni tushuntiring.

O‘pkasini cho‘pga ilmoq, asalari, asal yalamoq, kaltafahm, uzun yo‘l, kovushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, qo‘li uzun, to‘g‘riso‘z, so‘zning yaxshisi, mehnatkash inson, mehnatsevar.

542-mashq. Gaplarni o‘qing, tagiga chizilgan birliklarni ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zga ajratib yozing.

1. Dunyoni yaxshi odamlar ushlab turadi, degan ko‘hna ibora bor. (*A. Ko‘chimov*) 2. Yeng shimarib ishga tushilaversa, hammasi bajarilaverar ekan. (*Asqad Muxtor*) 3. Ikkalasi bir tomoni kuyib, qovjirab ketgan mallarang qumtepalar orasida serrayib turib qolishdi. (*Aziz Abdurazzoq*) 4. Umr degan narsa ko‘z ochib-yumguncha o‘tib ketar ekan. (*Mirmuhsin*) 5. Insonning ma‘naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi. (*Sh. Uzoqov*)

Savol va topshiriqlar



1. Iboralar qaysi belgisiga ko‘ra qo‘shma so‘z va so‘z birikmasiga o‘xshaydi?
2. Iboralardagi barqarorlik va ta’sirchanlik deganda nimani tushunasiz?
3. *Qattiqqo‘l, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artmoq, kumush qoshiq* birliklarining nima sababdan qo‘shma so‘z, ibora va so‘z birikmasiga ajratilishini izohlang.

543-mashq. *Uyga topshiriq.* Matnni o‘qing, ibora, so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlarni aniqlab, ularga izoh bering.

Ko‘ksaroy oromgohi va unga tutash tog‘-adirilar o‘simliklar dunyosiga g‘oyatda boy bo‘lib, bu yerdagi giyohlardan yuzga yaqin shifobaxsh dori-darmonlar tayyorlanadi. Bunday orombaxsh, mo‘jizakor maskanlarda sayr qilish inson tanasini qushday yengil qiladi, ruhini ko‘taradi, salomatligini mustahkamlaydi. (*S. Anorboyev*)

178-d a r s. TASVIRIY IFODA

Topshiriq. Quyidagi so‘zlar birikmasining ma‘nosini izohlang.

O‘rmon podshosi, ko‘zimning nuri, bilim manbayi, zangori kema.

! **Biror narsa va hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o‘xshatish orqali tasvirlab ifodalashga tasviriy ifoda deyiladi. Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi hisoblanadi.**

M a s a l a n: *o‘rmon podshosi – sher.*

 **Tasviriy ifodalar nutqimiz ta’sirchanligini ta’minlaydi.**

544-mashq. Quyidagi tasviriy ifodalarni daftaringizga ko‘chirib yozing va ularga izoh bering.

Mo‘yqalam sohibi –

Salomatlik posbonlari –

Charm qo‘lqop ustasi –

G‘azal mulkining sultoni –

Hayotimiz qomusi –

545-mashq. Gaplarni o‘qing. Tasviriy ifodalar orqali nimalar haqida gap ketayotganini belgilang.

1. Zangori ekran orqali «Qishloqdagi tengdoshim» ko‘rsatuvi namoyish etildi. 2. Oq oltin ijodkorlari bu yil ham o‘z zimmalari-dagi vazifani sharaf bilan bajarishdi. 3. Dalalarga baraka urug‘i ekib bo‘lindi.

546-mashq. Gaplarni o‘qib, tasviriy ifodalarni toping, ularga izoh bering.

1. Yaylov bahodirlari qo‘zilatish mavsumini boshlab yubordilar.
2. Yurtimizga uzoq o‘lkalardan qanotli do‘stlarimiz uchib kela boshladi.
3. O‘zbekiston qora oltini bilan ham dunyoga mashhur bo‘lmoqda.

547-mashq. *Kumush tola, o‘rmon malikasi, aql gimnastikasi, oltin boshog* tasviriy ifodalari izoh berib, ular ishtirokida gaplar hosil qiling va daf-taringizga yozing.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Tasviriy ifodalarning nima ekanini va ularning nutqimizdagi aha-miyatini tushuntiring.
 2. Tasviriy ifoda bilan u ifodalagan narsa va hodisa o‘rtasida qanday o‘xshashlik borligini aniqlang.

548-mashq. *Uyga topshiriq.* Tasviriy ifodalarning izohini yozib keling.

Samo lochini –

Kumush choyshab –

Po‘lat ot –

Zangori olov –

179-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSII

Mustahkamlash uchun savollar

- ?
1. O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari haqida so‘zlab bering.
 2. Ichki imkoniyatlar asosida paydo bo‘lgan so‘zlarga misollar keltiring.
 3. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlarga misollar keltiring.
 4. Ibora deb nimaga aytiladi?
 5. Tasviriy ifoda nima?

1-topshiriq. Ikki guruhga bo‘lining. «Oq terakmi, ko‘k terak?» o‘yinini tashkil qiling. Mazkur topshiriqda o‘yinni boshlagan guruh savol berib, qarshi guruhdan istalgan bolani turg‘izadi.

– *Oq terakmi, ko‘k terak,*

Bizdan sizga kim kerak?

– *A‘zamjon kerak.*

Unga savol beriladi:

– *Qani, A‘zamjon, ayting-chi, qaysi so‘zlar o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘lgan?*

(Masalan: u *zamondosh, hokim, vazir* kabi so‘zlarni misol qilib keltirishi mumkin).

A‘zamjon javob bera olmasa, u qarshi guruh hisobiga o‘tadi.

2-topshiriqda ham o‘yin shu taxlit davom etadi.

Tashqi imkoniyat asosida paydo bo‘lgan so‘zlarga misollar keltiring.

3-topshiriq. Ta‘lim tizimida paydo bo‘lgan so‘zlarga misollar ayting.

4-topshiriq. Iboralarga misollar aytib, ularni gap ichida qo‘llab ko‘ring.

5-topshiriq. Tasviriy ifodalarga misollar keltiring.

Dars shu ko‘rinishda tomonlardan birida o‘quvchilar qolmaguncha davom ettiriladi. G‘olib tomon taqdirlanadi.

6-topshiriq. Uyda o‘qiyotgan gazeta yoki jurnalingizdan yuqoridagi mavzular doirasida misollar topib keling.

180–181-darslarda yozma ish va uning tahlili o‘tkaziladi.

182-d a r s. **ATAMALAR. ILMIY ATAMALAR**

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning qaysi kasb-hunarga oidligini aniqlang.

Andava, sog‘moq, yigirmoq.

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning qaysi fanga oidligini aniqlang.

Kvadrat, olti, qo‘shish, ko‘paytirish, ot, fe‘l, sifat.



Ma‘lum bir fan yoki kasb-hunar doirasida aniq bir ma‘noni ifodalash uchun qo‘llanilgan so‘zlarga atama deyiladi.

Atamalar qo‘llanishiga ko‘ra ilmiy atamalar va kasbiy atamalarga bo‘linadi.



Ma‘lum bir fan doirasida qo‘llaniladigan atamalar ilmiy atamalar hisoblanadi.

Atamalar ikki yo‘l bilan hosil bo‘ladi.

1. Umumxalq tilidagi soʻzlardan maʼnosini maxsuslashtirish orqali hosil qilinadi. Natijada bunday soʻzlar umumxalq tilida bir maʼnoni, fan tilida esa boshqa maʼnoni bildiradi.

M a s a l a n: *ot, ildiz, hol, feʼl.*

2. Boshqa tillardan ilmiy tushuncha uchun atama olish orqali. Bular faqat shu fan sohasidagina ishlatilib, umumxalq tilida ishlatilmaydi. M a s a l a n: *kasr, musbat, manfiy.*

549-mashq. Tarix fanida ishlatiladigan atamalar va ularning izohlariga eʼtibor bering. Shu fan doirasida ishlatiladigan yana qanday atamalarni bilasiz?

Arxeologiya (qadimshunoslik) – qadimgi odamlar yashagan joylarda qazish ishlari olib borish natijasida yashash manzilgohlari va topilgan buyumlarni oʻrganadigan fan.

Etnografiya – xalqlarning kelib chiqishi, urf-odatlarini, bayramlari va shu kabilarni oʻrganuvchi fan.

Antropologiya – odamning qiyofasini suyak qoldiqlariga qarab oʻrganuvchi fan.

Sharq, ibtidoiy toʻda, qabila atamalariga izoh bering.

550-mashq. Quyida berilgan atamalarni tarix, matematika, botanika sarlavhalari ostida yozib chiqing.

Milod, urugʻchilik, xonlik, kalendar, kurtak, tub son, raʼnoguldoshlar, mikroskop, quldorchilik, hujayra, kesma, ildizpoya, tenglama.

551-mashq. Matematika faniga oid boʻlgan *tenglama* atamasiga berilgan taʼrifni oʻqing. Shu asosda *tub son, murakkab son, aylana, doira, qoldiq* atamalariga taʼrif bering.

Nomaʼlum son qatnashgan tenglikka tenglama deyiladi.

Savol va topshiriqlar



1. Atama nima?
2. Ular qanday turlarga boʻlinadi?
3. Atamalar qanday hosil boʻladi?
4. Botanika, tarix, ona tili va adabiyotga doir atamalarni ayting.

552-mashq. *Uyga topshiriq.* Matnni o‘qing. Adabiyotshunoslikka oid atamalarni belgilab, ularga izoh bering.

Adabiyot uch turdan iborat. Birinchi turga she’riyat, ikkinchi turga nasr, uchinchi turga dramaturgiya kiradi. She’r, masal, ballada, doston kabi asarlar she’riy turga kiradi. Hikoya, qissa, roman nasr sanaladi. Teatr sahnasi uchun yozilgan asarlar esa dramaturgiyani tashkil qiladi.

183-d a r s. KASBIY ATAMALAR

1-topshiriq. Quyida berilgan birikmalardan kasbiy atamalarni toping va ularning qaysi kasbga oidligini aniqlang.

Chaplama qilib suvamoq, jiyak qadamoq, jo‘yakni katta olmoq, pushtani keng tashlash.

2-topshiriq. Xonadoningizning qaysi kasbga yaqinligiga qarab, shu kasbga xos o‘nta atama yozing. Ularning ma’nosini tushuntiring.



Ma’lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo‘llaniladigan so‘zlarga kasbiy atama deyiladi.

553-mashq. Xalqimizga tegishli bo‘lgan kasb-korlar haqida bahs yuriting. Matndan kasbiy atamalarni belgilang.

Paxtakorlik — bizga ota kasb. Shu bilan birga, biz qorako‘lchi va pillachilar hammiz. Paxtamiz uchun yer, suv, agrotexnik mexanizmlar, o‘g‘it va ishchi kadrlarimiz bor. Qorako‘lchilikka poyonsiz yaylovlarimiz, ishbilarmon cho‘ponlarimiz, zootexniklarimiz, oziq-ovqatimiz va dori-darmonlarimiz bor. Pillachilikda-chi?! (*G‘afur G‘ulom*)

554-mashq. Qizlar ipakchilik, kashtachilik; o‘g‘il bolalar dehqonchilik, quruvchilikka oid kasbiy atamalarga oltitadan misol yozib izohlasin.

555-mashq. Topishmoqlarning javobini toping. Ularning qaysi sohada ishlatilishini ayting. Shu sohaga oid yana qanday atamalarni bilasiz?

1. Tushgan yerini kesar. 2. Og‘zi yo‘q, tishi ko‘p. 3. Yer tagida oy yurar. 4. Kelib og‘zini ochar, tishlab olib qochar.

Savol va topshiriqlar



1. Kasbiy atama deb qanday atamalarga aytiladi?
2. Umumxalq tilidagi soʻzlardan hosil qilingan oʻnta kasbiy atamani topib yozing. Ularning maʼnosini tushuntiring.

556-mashq. *Uyga topshiriq.* **Kelajakda kim boʻlmoqchisiz? Oʻsha kasb doirasida ishlatiladigan soʻzlarga misollar yozib keling.**

184-d a r s. SHEVAGA XOS SOʻZLAR

1-topshiriq. Sheʼrni oʻqing, shevaga xos soʻzlarni aniqlang, ularga izoh bering. Oʻzingiz ham shunday soʻzlarga misollar toping.

Buxoroda **inak** derlar,
Qipchoq elda **uydir** oti.
Doim suyub goʻshtin yerlar,
Sut beradi har bir zoti.
Xashak ushlab unga choping,
Nimadir u, qani, toping.

Bibijonlar nabirasin
Atrofida ovoradir.
Bola uchun bebaho taxt —
Milliy buyum **gavoradir**.
Bola yigʻlar, qani, choping,
Bu nimadir, tezda toping.

(U. Qoʻldosheva)

2-topshiriq. **Inak, uy — sigir, bibi — buvi, gavora — beshik** soʻzlarini bir-biriga solishtiring. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

! Bir tilning faqat maʼlum hududiga xos boʻlib, boshqa joylarda oʻzgacha nom bilan yuritiladigan soʻzlar shevaga xos soʻzlar sanaladi. Bu soʻzlardan bittasi umumxalq tili boʻlgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu soʻz adabiy til uchun meʼyor sanaladi.

M a s a l a n, **doʻppi** soʻzi adabiy meʼyor, **kallapoʻsh, qalpoq, takya** soʻzlari esa shevaga xos soʻzlardir.

557-mashq. Matnni oʻqing, shevaga xos soʻzlarni belgilab, ularga izoh bering.

Oʻzbek shevalarida shunday soʻzlar borki, ular adabiy tilda yoki boshqa shevalarda uchramaydi. Bunday soʻzlar qishloq xoʻjaligi, chorvachilik, qarindosh-urugʻ, daraxt, gul, asbob-uskuna nomlari ichida faol qoʻllaniladi.

M a s a l a n: Toshkentda – dovuchcha, Farg‘onada – g‘o‘ra; adabiy tilda – chumoli, Samarqand, Buxoroda – mo‘rcha, Xorazmda – qarindja; adabiy tilda – tuxum, qipchoq shevalarida – mayak, Xorazmda – yumirta.

(*Sh. Shoabdurahmonov*)

558-mashq. Gaplarni o‘qing. Shevaga xos so‘zlarni aniqlab, ularni adabiy tildagi shakliga solishtiring.

1. *Uchakka* chiquvdim ayni *go‘rmakka*, *Ayning* bahanasinda yorni *go‘rmakka*. (*Qo‘shiq*) 2. *Inakni* o‘tlatgani dalaga olib ketdi. 3. Bolalar daraxtga *shoti* qo‘yib, qushlar uchun in o‘rnatdilar.

Xorazmda: uchak – tom, ay – oy, go‘rmak – ko‘rmoq; Buxoroda: inak – sigir; Farg‘ona vodiysida: shoti – narvon.

Savol va topshiriqlar



1. Shevaga xos so‘zlar deb qanday so‘zlarga aytiladi?
2. Shevaga xos so‘zlar qanday so‘zga qarama-qarshi qo‘yiladi?

559-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘z shevangizdan misollar toping, ularni quyidagicha guruhlab, daftaringizga ko‘chirib yozing.

Uy-ro‘zg‘or asboblari
nomlari

Hayvon
nomlari

O‘simlik
nomlari

185-d a r s. OLINMA SO‘ZLAR

1-topshiriq. *Futbol, voleybol* so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing.

2-topshiriq. Bu so‘zlarning qaysi tildan olinganligini ayting. Shu kabi so‘zlarga misollar keltiring.

3-topshiriq. Tilimizga qaysi tillardan so‘zlar olinishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.



Boshqa tillardan o‘zbek tiliga kirib o‘zlashib qolgan so‘zlarga olinma so‘zlar deyiladi.

M a s a l a n: *radio, televizor, tramvay, kollej, litsey.*



So‘zlar bir tildan ikkinchi tilga xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa aloqalar natijasida o‘zlashadi.

560-mashq. Hikoyatni o‘qing, taassurotlaringizni o‘rtoqlashing. Boshqa tildagi so‘zlar tilimizga qanday olinishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Chin (Xitoy) xoqonlaridan biri ovga chiqdi. Ov paytida u o‘z mahoratini ko‘rsatdi, hamma hukmdorni olqishladi. Faqat go‘zal va sadoqatli kanizagi uning sha’niga hech narsa demadi. Hukmdor otib o‘ldirgan kiyikka achindi. Bundan g‘azablangan xoqon kanizakni cho‘lga tashlab ketishni buyurdi.

Oradan ancha vaqt o‘tgach, shoh yana ovga chiqdi. Cho‘lda tashlab ketilgan kanizakka duch kelib qoldi. Kanizak avvalgidan ham ko‘rkam, bardam holatda edi. Shoh buning sababini so‘raganda, kanizak qo‘lidagi o‘simlikni ko‘rsatib:

– Shu meni ochlikdan va suvsizlikdan qutqarib qoldi, – dedi.

Hukmdor tabiblariga o‘simlikni tekshirtirib, uning shifobaxshligini aniqladi.

O‘simlikni xitoy tilida **cha** – yashil, **ye** – barg deb atashdi. Shunday qilib, **chaye** – choy odamlarning sevimli ichimligiga aylandi.

561-mashq. Olinma so‘zlarni quyida berilgan jadval bo‘yicha guruhlarga ajratib yozing.

Stadion, elektronika, biznes, kollej, avtomobil, menejment, futbol, tramvay, faks, magistr, voleybol, broker, internet, trolleybus, birja, litsey, kompyuter, xokkey.

Transportga oid so‘zlar	Sportga oid so‘zlar	Ta‘limga oid so‘zlar	Iqtisodga oid so‘zlar	Texnikaga oid so‘zlar

***562-mashq.** Sinf taxtasi yoniga uch nafar o‘quvchi chiqsin. Birinchi o‘quvchi arab tilidan, ikkinchi o‘quvchi fors-tojik tilidan, uchinchi o‘quvchi rus va Yevropa tillaridan olingan so‘zlarga navbatma-navbat misol keltirsin. Misol topa olmay qolgan o‘quvchi o‘rnini keyingisi egallaydi. O‘yin g‘olib o‘quvchi qolguncha davom ettiriladi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Olinma soʻzlar deb nimaga aytiladi?
 2. Rus va ingliz tilidan oʻtgan soʻzlarga misollar keltiring.
 3. Oʻzbek tilidagi Yevropa tillaridan olingan soʻzlar koʻproq qaysi sohalarda ishlatiladi?

563-mashq. *Uyga topshiriq.* Gazetadan istalgan bir maqolani oling. Undagi olinma soʻzlarni aniqlashga harakat qiling. Bu soʻzlarni qaysi tildan olinganini koʻrsatib, daftaringizga koʻchiring.

186-d a r s. LUGʻAT VA LUGʻATSHUNOSLIK

Topshiriq. Oʻnta meva nomlarini yozib, ularni alifbo tartibida joylashtiring.

! Tilimizdagi soʻzlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lugʻat, lugʻat tuzish qoidalarini oʻrganuvchi tilshunoslik sohasiga esa lugʻatshunoslik (leksikografiya) deyiladi.

564-mashq. «U kim? Bu nima?» bolalar ensiklopediyasidan olingan parchani oʻqing. Qomusiy lugʻatlarda nimalarga eʼtibor berilar ekan? Shu haqda oʻylab koʻring.

SAMOLYOT

Odamlar asrlar boʻyi osmonga koʻtarilish va balandga uchishni orzu qilganlar. Texnika taraqqiyoti tufayli odamlarning bu orzusi roʻyobga chiqdi. 1884 – 1885-yillarda rus dengiz zobiti A. Mojayskiy birinchi uchish moslamasini yaratdi va oʻzi yasab, sinovdan oʻtkazdi. Uning samolyoti, albatta, hozirgi zamonning qudratli mashinalaridan keskin farq qiladi.

565-mashq. «Oʻzbek tilining imlo lugʻati»dan olingan quyidagi soʻzlarning yozilishiga diqqat qiling, ularni daftaringizga koʻchirib yozing. Imlo lugʻatlarining tuzilishi haqida bahslashing.

Ahil (inoq), ahl (ilm ahli), ahmoq, ahvol, ahyon-ahyonda.

566-mashq. Quyidagi soʻzlarni alifbo tartibida yozib chiqing. Bu tartibdan qanday lugʻatlarda foydalaniladi? Shu haqda fikr yuriting.

Asr, dorivor, ajabo, transport, raqobat, sunʼiy, zerikmoq, hunar, kasb, ahd, latta, eski, sadaqa, tuman, hidoyat, baquvvat.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Lug‘at deb nimaga aytiladi?
 2. Lug‘atshunoslik deganda nimani tushunasiz?

567-mashq. *Uyga topshiriq.* «Botanika» darsligingizning oxirgi qismida berilgan o‘simliklar ro‘yxatiga qarang. Berilish tartibiga diqqat qiling. Uni lug‘at deyish mumkinmi? Shu haqda bahslashing.

187-d a r s. LUG‘AT TURLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

1-topshiriq. *Ona, ota, aka* singari so‘zlarning ingliz tilida qanday nomlanishini bilmogchisiz. Bunday vaqtda qanday lug‘atdan foydalanasiz?

2-topshiriq. *Bosh, qora* so‘zlarining qanday ma‘nolarni ifodalashi haqida qayerdan ma‘lumot olishingiz mumkin?

! Tildagi barcha so‘zlarning qanday ma‘nolarni bildirishini tanishtiruvchi lug‘at izohli lug‘at hisoblanadi.

Bir tildagi so‘z ikkinchi tilda qanday so‘zga teng kelishini ko‘rsatuvchi lug‘at tarjima lug‘ati sanaladi.

So‘zlarning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatuvchi lug‘atga imlo lug‘ati deyiladi.

☞ Lug‘at oldiga qo‘yilgan maqsadiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: izohli lug‘at, tarjima lug‘ati, imlo lug‘ati va boshqalar.

568-mashq. «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»dan olingan quyidagi so‘zlarga e‘tibor bering, ularning lug‘atga joylashtirilish tartibini belgilang.

Maktab, maktub, malak, malaka, malay, malika, malla, malohat.

569-mashq. «U kim? Bu nima?» bolalar ensiklopediyasidagi Samarqand maqolasidan keltirilgan parchani o‘qing. Unda nimalarga e‘tibor berilganini ayting.

Qadimiy madaniyat markazlaridan biri Samarqand 2500 yildan ortiqroq tarixga ega. Arxeologik qazilmalardan ma‘lum bo‘lishicha,

Samarqand dastlab Siyob daryosi sohilida qad ko'targan. U So'g'diyona (So'g'd) davlatining poytaxti bo'lib, so'g'dcha Smarqansa (ulug' shahar) deb yuritilgan. Yunonlar uni Marokanda deb atashgan...

570-mashq. «Jahon tarixidan hikoyalar» (5-sinf uchun) darsligida berilgan tarixiy atamalarning izohli lug'atiga diqqat qiling. Ulardan ayrimlarini daftaringizga namunadagidek ko'chirib yozing. Yana qanday lug'atlarni bilasiz? Ularda so'zning qaysi tomonlari hisobga olinadi?

N a m u n a: *Davlat* – jamiyatni qonun kuchi bilan boshqaruvchi tashkilot.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Izohli lug'at deb qanday lug'atga aytiladi?
 2. Izohli lug'atda **qora** so'zining qanday ma'nolari berilganini aniqlang.
 3. O'zbekcha-ruscha lug'atdan **qora** so'zini toping. Bu lug'atdagi **qora** so'zi bilan izohli lug'atdagi **qora** so'zining izohlanishi o'rtasidagi farqni ayting.

571-mashq. *Uyga topshiriq.* Ingliz tili darsligingizda berilgan lug'atdan so'zlarni daftaringizga ko'chirib yozing. Ularning lug'atga joylashtirilishiga diqqat qiling.

ask	so'ramoq
book	kitob
come	kelmoq

188-d a r s. MUSTAHKAMLASH DARSII

Mustahkamlash uchun savollar

- ?
1. Atamalar deb nimaga aytiladi?
 2. Ilmiy atamalarga misollar keltiring.
 3. Kasbiy atamalar deb nimaga aytiladi?
 4. Shevaga xos so'zlarga misollar ayting.
 5. Olinma so'zlar deb nimaga aytiladi?

1-topshiriq. 5-sinfda o‘qitiladigan botanika, matematika, tarix fanlariga oid ilmiy atamalarga misollar keltiring va ularni izohlang.

2-topshiriq. O‘zbek kurashining jahonga yuz tutishi munosabati bilan dunyo tillariga o‘zlashgan *chala, yonbosh, halol, g‘irrom, dakki* kabi sport atamalariga izoh bering. Yana qanday sport atamalarini bilasiz? Misollar keltiring.

3-topshiriq. Leksikologiya bo‘yicha jadvalni misollar bilan to‘ldirib, daftaringizga ko‘chiring va uni yod oling.

So‘zlar	Misollar
Atash ma’nosiga ega so‘zlar	
Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan so‘zlar	
Bir ma’noli so‘zlar	
Ko‘p ma’noli so‘zlar	
O‘z ma’noli so‘zlar	
Ko‘chma ma’noli so‘zlar	
Shakldosh so‘zlar	
Uyadosh so‘zlar	
Paronim so‘zlar	
Ma’nodosh so‘zlar	
Zid ma’noli so‘zlar	
Eskirgan so‘zlar	
Yangi so‘zlar	
Iboralar	
Tasviriy ifodalar	
Atamalar	
Sheva so‘zlari	
Olinma so‘zlar	

4-topshiriq. Quyidagi ilmiy atamalarni botanika, matematika, tarix sarlavhalari ostida ko‘chirib yozing.

Tenglama, barg, ko‘paytma, qoldiq, maxraj, surat, qo‘riqxon, kesma, gulxayri, qirqbo‘g‘in, parlament.

5-topshiriq. Uyda rasm asosida gaplar tuzing. Ularda ilmiy hamda kasbiy atamalar, shevaga xos so‘zlar, olinma so‘zlar ishtirok etsin.



189-d a r s da nazorat diktanti o‘tkaziladi.

190-d a r s da test ustida ishlanadi.

O‘QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

191-d a r s. **GAPLARNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARI**

Takrorlash uchun savollar



1. Darak gap deb nimaga aytiladi?
2. So‘roq gaplar qanday hosil qilinadi?
3. Buyruq gapga misollar ayting.
4. Istak gapga misollar keltiring.

572-mashq. Quyidagi darak gaplarni so‘roq gaplarga aylantirib, yozing. Gapda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganini tushuntirib bering.

Hayotda shunday: kim tadbirkorlik bilan erinmay mehnat qilsa, sog‘lom, boy-badavlat yashaydi, xor-zor bo‘lmay umr kechiradi. Ertakdagi qumursqa maqtanchoq emas. U oddiy va sodda. Shu fazilatlar bilan ajralib turadi. Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg‘ir, yer, o‘t, mol, bo‘ri, mergan-u sichqonlardan ustun chiqadi.
(M. Jumaboyev)

573-mashq. Gaplarni o‘qing, ularni ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi turga kirishini aytib, izohlab bering.

Har ish qilsang, el bilan kengash. Dangasaning kosasi oqarmas. Daraxt yaprog‘i, odam mehnati bilan ko‘rkam bo‘lishini bilasizmi? Gap bilguncha, ish bil. Ish ustasidan qo‘rqar. Elga bir foydang tegarmikan?!

574-mashq. Quyida berilgan so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, gaplar hosil qiling, ularning ifoda maqsadiga ko‘ra turini ayting.

1. Adolat, taraqqiyot, mezoni, ekan, bil. 2. Har qanday, kuch, birlik, hamjihat, bo‘l. 3. Ona, Vatan, hamisha, sadoqat, bo‘l.

575-mashq. Uyg‘a topshiriq. Daftaringizga o‘zingizning xohish-istaklaringizni yozing. Yozgan gaplaringizni tahlil qiling.

192-d a r s. GAP BO‘LAKLARI

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. Gap bo‘lamlari deb nimaga aytiladi?
 2. Kesim deb nimaga aytiladi?
 3. Ega deb nimaga aytiladi?
 4. Hol deb nimaga aytiladi?
 5. Aniqlovchi necha turli bo‘ladi?
 6. To‘ldiruvchiga misollar ayting.

576-mashq. Quyidagi gaplarga boshqa bo‘lamlarni qo‘shib, gaplarni kengaytiring. Qanday gap bo‘lamlari qo‘shganingizni ayting.

1. Ta’til boshlandi. 2. Mevalar pishdi. 3. Binolar qurildi. 4. Maktablar ochildi.

577-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib, so‘zlarning qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aytib bering.

1. Hayosiz... vafo yo‘q, vafosiz.. hayo yo‘q. 2. Vaqt oltin... qimmat. 3. Umr... oqar suv deydilar. 4. Qush uyasi... ko‘rganini qiladi.

578-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan matn ko‘chiring. Gaplardagi so‘zlarning qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelayotganini aniqlang.

193-d a r s. MUSTAQIL SO‘ZLAR

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. Borliqdagi shaxs, narsa va tushunchalar nomini bildirgan so‘zlar nima deb ataladi?
 2. Qaysi so‘z turkumi belgini darajalab ko‘rsata oladi?
 3. Ish-harakat va holatga bog‘lanib, uning o‘rin, miqdor kabi belgilarini bildiruvchi so‘zlar qaysi so‘z turkumiga kiradi?
 4. Qaysi qo‘shimchalar narsa-buyumning uch shaxsdan biriga tegishliligini ko‘rsatadi?
 5. **Qancha?, nechanchi?, nechta?** kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan so‘zlar qanday nomlanadi?

6. Harakat, holat zamonini ko'rsatish qaysi so'z turkumiga xos?
7. Qaysi so'z turkumi boshqa so'zlar o'rnida qo'llanib, atash ma'nosiga ega emas?
8. Sonlarning qanday ma'no turlari bor?
9. *Men, sen* olmoshlariga tushum va qaratqich kelishigi; *u, bu, shu* olmoshlariga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda qanday fonetik hodisa yuz beradi?

579-mashq. Gaplarni namunada ko'rsatilgandek tahlil qiling.

N a m u n a: Biz daladan kech qaytdik.

Biz (*kim?*) – olmosh; daladan (*qayerdan?*) – ot, chiqish kelishigi, birlik sonda; kech (*qachon?*) – ravish; qaytdik (*nima qildik?*) – fe'l, o'tgan zamon, I shaxs, ko'plik.

1. Mana, uzoqda bombalar portladi. (*Oybek*) 2. Ko'ryapman, ko'ryapman, sen ham qara, kimdir kelyapti. 3. Shu paytda uzoqdan ikki otliq ko'rindi. (*Husayn Shams*) 4. Ziyodning cho'ntagida bitta konfet bor ekan. (*Z. Ibrohimova*). 5. Qo'rqmas archasini yasatib, eng uchiga katta yulduzchani ildi. (*T. Qosimova*)

*580-mashq. Sinfda «Kim yaxshi uddalaydi?» musobaqasini o'tkazing.

U ikki bosqichda bo'ladi. Birinchi bosqichda hamma bittadan gap tuzadi. Undagi barcha so'zlar mustaqil so'zlarga oid bo'lishi kerak. Demak, gapda oltita so'z bo'ladi. Gapdagi so'zlar soni oltitadan kam yoki ko'p bo'lishi ham mumkin. O'rinli qo'llangan yordamchi so'zlar ham hisobga olinadi. Har bir so'z uchun bir ball beriladi.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilar o'zi tuzgan gapdagi so'zlarni o'zgartirib chiqishi kerak. Otni boshqa bir otga yoki olmoshga, sifatni boshqa darajaga, fe'lni boshqa shaxs, son va zamonga o'zgartirishi kerak va hokazo. Har bir o'zgartirish uchun bir ball beriladi.

N a m u n a: Kecha Karim senga chiroyli gullar sovg'a qildi.

O'z g a r t i r i s h: Bugun men faqat unga chiroyliroq gul sovg'a qilmoqchiman.


581-mashq. *Uyga topshiriq.* Rasmga qarab «Maktab bog'ida» mavzusida hikoya tuzing. Fe'llarni uchala zamonda, turli shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llang.



Tayanch so'zlar: bog', ko'chat, daraxt, chelak, ohak, cho'tka, belkurak, mevali, manzarali, bahor, ekmoq, suv quymoq, yumshatmoq, chiroy ochmoq, hosil olmoq.

194-d a r s. YORDAMCHI SO'ZLAR

Boshqotirman yeching, unda berilgan topshiriqlarni bajaring.



1. **Ko'mak** so'zining ma'nodoshini topib, unga **-chi** yuklamasini qo'shish bilan hosil bo'ladigan so'z. Bu so'z qanday so'zlarga nisbatan ishlatilishini tushuntiring.

2. Ikki shaxs, tushuncha yoki narsa-buyumni bir-biridan ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladigan teng bog'lovchi. Bu bog'lovchi ishtirokida gap tuzing.

3. **Dam, ba'zan** so'zlarining o'rnida qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchisi. Bu so'z bo'g'iz undoshi bilan tugaydi. Uni qatnashtirib gap tuzing, gapda to'ldiruvchini bog'lab kelsin.

4. Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi **avval** so'zining ma'nodoshi. Bu so'z odamning yuzidagi bir a'zoga ham shakldosh bo'ladi. Uni ko'makchi vazifasida qo'llab gap tuzing.

5. Lab-lab undoshi bilan tugaydigan ayiruv bog'lovchisi. U **nafas, lahz**a so'zlariga ma'nodosh bo'lgan so'zga shakldosh hamdir. Gap tuzing, unda bu so'z ham bog'lovchi, ham ot bo'lib kelsin.

6. **Lekin, biroq** bog'lovchilarining sherigi, narsa, voqealarni zidlab ko'rsatadi. So'z boshida va oxirida ikki keng unli, o'rtada bir lab undoshi qo'shaloq kelgan. Ikki o'rtog'ingiz harakatini zidlab gap tuzing.

7. **Yordamchi** so'zining ma'nodoshi bo'lgan yordamchi so'z turkumi. U haqida bilganlaringizni gapirib bering.

8. Atalganlik, sabab, ba'zan esa maqsadni ifodalovchi ko'makchi. Bir ochiq, bir yopiq bo'g'indan iborat. Bu ko'makchi ishtirokida uchta gap tuzing.

9. Darak gapni so'roq gapga aylantirib qo'yuvchi qo'shimcha shaklidagi yuklama.

Uyga topshiriq. Gaplar tuzib, ularda ishlatilgan yordamchi so'zlarni izohlang.

195-d a r s. UNLI TOVUSHLAR

Takrorlash uchun savollar



1. Unli tovushlar undosh tovushlardan nimasi bilan farq qiladi?
2. O'zbek tilida nechta unli tovush bor?
3. Unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishda qanday ahamiyati bor?

582-mashq. Ko‘chiring, *i* unlisi qaysi so‘zda qanday talaffuz qilinayotganini izohlang.

Iltimos, injiq, iliq; bilan, bir, sir; bo‘lim, bo‘g‘in, o‘rin.

583-mashq. Ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inidagi *u* tovushning talaffuzi va yozilishidagi farqiga e‘tibor qarating.

1. Ishga chiqdi ulug‘ xalq, Bilakda kuch to‘liq xalq. (*Zafar Diyori*)
2. Uyingga bersa **yumush**, lozimdir yozib qo‘yish. (*Quddus Muhammadiy*)
3. Qani, dilingdagi **tugunni** yech. (*Oybek*)
4. U suvdan ham **quruq** chiqadi.

584-mashq. *Uyga topshiriq.* Qator kelgan unlilar ishtirok etgan so‘zlarni ko‘chiring. Ularning talaffuzi va yozilishiga diqqat qiling.

1. Tabiat o‘z ne‘matlarini bizdan ayamaydi, biz ham unga mehr bilan muomala qilishimiz lozim.
2. Oltin olma, duo ol. (*Maqol*)
3. Sinfidagi barcha o‘quvchilar hasharda faol qatnashdilar. («*Gulxan*»)
4. Muallim kirgach, bolalar o‘rinlaridan turishdi.

196-d a r s. **UNDOSH TOVUSHLAR**

Takrorlash uchun savollar



1. Undosh tovushlar qanday hosil bo‘ladi?
2. Undosh tovushlarning hosil bo‘lishida qaysi nutq a‘zolari ishtirok etadi?
3. Undoshlar nimaga ko‘ra lab, til, bo‘g‘iz va burun tovushlariga ajratiladi?
4. Jarangli-jarangsiz undoshlar juftliklarini ayting.

585-mashq. Gaplarni o‘qing, xatolarini to‘g‘rilab ko‘chiring. Bunday xatolarga yo‘l qo‘yilish sabablarini tushuntiring.

1. O‘zim yoqtirgan she‘rlarni yot olaman.
2. Yorqin darslarda yaxshi javop beradi.
3. Qaysi taom tussiz pishiriladi?
4. Yugurib kelgani uchun chuqur-chuqur napas olyapti.

586-mashq. Berilgan so‘zlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini qo‘shing. Avval qo‘shimcha qo‘shilgach, talaffuzda asosda ham, qo‘shimchada ham

o‘zgarish yuz bermaydigan so‘zlarni, keyin qo‘shimchada o‘zgarish bo‘ladigan so‘zlarni, so‘ng ham asos, ham qo‘shimchada o‘zgarish yuz beradigan so‘zlarni ko‘chiring. Ular ishtirokida uchta gap tuzing.

Terak, quloq, barg, so‘roq, bog‘, istak, yutuq, yantoq, tog‘, yurak, pedagog, buzoq, tok, dog‘.

587-mashq. *Uyga topshiriq.* So‘zlarni ko‘chirib yozing, q undoshining talaffuzi va yozilishidagi farqni tushuntiring.

Taqsimlamoq, to‘qson, taqchil, taqlid, xushchaqchaq, saqlanish, maqtov, nuqta.

197-d a r s. BO‘G‘IN VA URG‘U

588-mashq. O‘qing. Avval faqat ochiq bo‘g‘inli, keyin faqat yopiq bo‘g‘inli so‘zlardan bir nechtasini ko‘chiring.

Salomat opa Dilbarga kichkinagina, chiroyli, qip-qizil, dastasi ixcham qilib bog‘langan supurgi olib kelib berdi.

Dilbar endi har kuni ertalab uyni supuradi. U – juda ozoda qiz. O‘rtoqlari bilan o‘ynaganda ham to‘polon qilmay, uyni iflos qilmay o‘ynaydi, chunki u supurishning qadriga yetadi. (*Karim Rahim*)

***589-mashq.** O‘qing. Bir bo‘g‘in – bir tovush, bir bo‘g‘in – ikki tovush, bir bo‘g‘in – uch, keyin to‘rt tovushdan iborat shakllar uchraydigan so‘zlarni topib, har biriga 4–5 tadan misol yozing. So‘zlarning urg‘ularini qo‘ying.

N a m u n a: Bir bo‘g‘in – bir tovush: *o-na*

Bir bo‘g‘in – ikki tovush: *ik-ki*

Bir bo‘g‘in – uch tovush: *aql-li*

Bir bo‘g‘in – to‘rt tovush: *to‘rt-lik*

1. Sizdagi bu mardlik, quvnoqlik qaydan? (*M. Shayxzoda*) 2. Har faslning o‘z xislati bor. (*Uyg‘un*) 3. Qaysi bir ishni qilishga bel bog‘lagan bo‘lsang, unga astoydil yopish. (*Yusuf Xos Hojib*) 4. Mening do‘stim qushchalar, siz Kuyni muncha xush chalarsiz. Bahor keldi, uchib keling, Bog‘imizga ko‘chib keling. (*E. Raimov*)

590-mashq. *Uyga topshiriq.* Urg‘usi oxirgi bo‘g‘inga tushmagan so‘zlarni ko‘chirib yozing.

Qizaloq, lekin, binokor, hamma, yoqimli, keldi, ruchka, gazeta, piyola, olma, temirchi, respublika.

198 – 199-d a r s l a r da yozma ish va uning tahlili o‘tkaziladi.

200-d a r s. SO‘ZNING O‘Z VA KO‘CHMA MA’NOLARI

Takrorlash uchun savollar



1. Gapda so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi tilda qaysi hodisani yuzaga keltiradi?
2. Tilda qanday so‘zlar doimo o‘z ma’nosida qo‘llanib, ko‘chma ma’noda ishlatilmaydi?
3. So‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari qaysi lug‘atlarda izohlanadi?

591-mashq. *O‘qing.* So‘z birikmalaridagi tobe so‘zlarning qaysi birlari o‘z ma’nosida, qaysilari ko‘chma ma’noda qo‘llanganini aniqlang. Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Temir eshik, temir intizom; tilla uzuk, tilla bola; kumush qish, kumush qoshiq.

592-mashq. *Gaplarni ko‘chiring.* Ko‘chma ma’noda qo‘llangan fe’llarni toping va ma’nosini izohlang.

1. Kun sovuq, lekin bozor qaynaydi. (*Oybek*)
2. Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir. (*Maqol*)
3. Ko‘cha yuzini ko‘rasan, yozilib qaytasan. (*Sh. Xolmirzayev*)
4. Asta-sekin hasrat tarqalar edi. (*Asqad Muxtor*)
5. Yaxshilar sha’niga hamisha maqto‘v yog‘iladi. (*H. Ziyoyev*)

593-mashq. *Ochmoq, yechmoq* so‘zlarini o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llang va gaplar tuzing.

594-mashq. *Uyga topshiriq.* O‘zingiz o‘qiyotgan badiiy asardan ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z yoki so‘z birikmasi ishtirok etgan beshta gap ko‘chirib yozing.

201-d a r s. **ESKIRGAN VA YANGI SO‘ZLAR**

***595-mashq.** Tarixiy so‘zlarni toping. Ular o‘tmishda nimalarni anglatganini tushuntiring.

1. Mingboshi tomdagi karnaychilarga «bas» ishorasini qildi. (*Mirzakalon Ismoiliy*) 2. Ellikboshi beto‘xtov aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketdi. (*Abdulla Qahhor*) 3. Biz sizlardek chog‘imizda 7–8 yashar qiz bola ham ko‘chaga paranjisiz chiqa olmasdi. (*Parda Tursun*)

596-mashq. O‘qiyotgan badiiy kitobingizdan eskirgan so‘zlarga misollar topib, ularning ma’nosini tushuntirib bering.

597-mashq. Quyida «Ma’rifat» gazetasining bir sonidan olingan terma gaplar berilmoqda. Ularni ko‘chiring. Yangi paydo bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalarining ostiga chizing hamda izohlang.

1. Majmuada haftaning har payshanba kunlari viloyat karatechilari mashg‘ulot o‘tkazadilar. 2. Firma xususiy tadbirkorlik, fermerlik bilan shug‘ullanib kelayotgan jismoniy shaxslarga bankdan kredit olish uchun hujjatlarni tayyorlab beradi, biznes-reja tuzishda ko‘maklashadi. 3. Maktabimizda ushu, kik-boksing to‘garaklari faoliyat ko‘rsatmoqda.

202-d a r s. **ATAMALAR. SHEVAGA XOS SO‘ZLAR. OLINMA SO‘ZLAR**

Takrorlash uchun savollar

- ?
1. Atama deb nimaga aytiladi?
 2. O‘zingiz o‘rganayotgan botanika, tarix, matematika fanlariga oid atamalarga misollar aytib bering.
 3. Shevaga xos so‘zlar deb nimaga aytiladi?
 4. O‘zbek tiliga qaysi tillardan so‘zlar o‘zlashgan? Ularga misollar ayting.

598-mashq. Gaplarni o‘qing. Atamalarni topib, ularning o‘zbek tiliga qaysi tillardan olinganini ayting.

Har bir jamiyat qonun kuchi bilan boshqariladi. Qonun oldida hamma tengdir.

Sud, prokuratura va militsiya qonunni adolatli ravishda amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Siz – aziz o‘quvchilar ham o‘zlaringizning huquq va burchlaringizni yaxshi bilishingiz darkor. Bu kelajak hayotingizni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

***599-mashq.** Quyida berilgan tabiatshunoslik faniga oid atamalarni litosfera, gidrosfera va atmosfera sarlavhalari ostida guruhlarga ajratib yozing.

Tog‘lar, okeanlar, bulutlar, daryo, osh tuzi, bug‘, dovul, buloq, mis, ruda, tekislik, muzlik, havo, foydali qazilma, ob-havo, shamol.

600-mashq. «Xatosini toping!» Noto‘g‘ri izohlangan atamalarning to‘g‘ri ta‘rifini aytib bering. Gaplarni daftaringizga ko‘chirib yozing.

Turli hajmda kattalashtirib ko‘rsatadigan ikki tomoni qabariq oynaga mikroskop deyiladi. Tarixiy kitoblarda Misr ehromlari to‘rtburchak deb atalgan. Yerning Quyosh atrofida to‘liq bir marta aylanishiga ketgan vaqt oy deb ataladi.

601-mashq. Uyga topshiriq. She‘rni o‘qing. Shevaga xos so‘zlarni toping va ularga izoh bering.

Andijonlik «shoti» desa,
Toshkentliklar «narvon» deydi.
Xonim yoki o‘ramani
Yana kimdir «huvnon», deydi.
Qo‘qonliklar: «Kanalga yur,

Hopitamiz, chop-chop», – deydi.
Xorazmlik kulib: «Qurg‘ur,
Kanal emas, bu – yop», – deydi.
Bolalarim, qani, o‘ylang,
Qaysi biri to‘g‘ri? So‘ylang.

(A. Abdumalikov)

203-d a r s da test ustida ishlanadi.

204-d a r s. YAKUNIY DARS

TESTLARDAN NAMUNALAR

1. Imlo qoidalarga mos ravishda yozilgan soʻzlar qatorini toping.

- | | |
|-----------------------------|--------------------------------|
| a) mudofa, gramm, moʻtabar | b) taalluqli, kamolot, inshoot |
| c) miqiyos, meʼyor, muomala | d) qitʼa, tamosha, saxovat |

2. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi qachon berilgan?

- | | |
|------------------------------|------------------------------|
| a) 1994-yilning 24-avgustida | b) 1999-yilning 3-avgustida |
| c) 1989-yilning 21-oktabrida | d) 1993-yilning 2-sentabrida |

3. Qoʻshib yoziladigan qoʻshma soʻz qaysi qatorda berilgan?

- | | |
|----------------|----------------|
| a) hech qachon | b) har qanday |
| c) bir zumda | d) qoʻzi qorin |

4. Bogʻlovchilar berilgan qatorni toping.

- | | |
|------------------------|--------------------------|
| a) hatto, faqatgina | b) aloqa, tarmoq, ulamoq |
| c) uchun, bilan, sayin | d) hamda, chunki, biroq |

5. Feʼl kesim berilgan qatorni toping.

- | | |
|---------------------------------|------------------------------|
| a) Yaxshi niyat – yarim mol. | b) Joʻjani kuzda sanaydilar. |
| c) Jahl – dushman, aql – doʻst. | d) a va c qatorlarda |

6. Hollar qanday soʻroqqa javob boʻladi?

- | | |
|--------------------|---------------------|
| a) kim? nima? | b) nima? nimaga? |
| c) qanday? qanaqa? | d) qayerda? qachon? |

7. Til undoshlari ishtirok etgan qatorni toping.

- | | | | |
|---------------|-------------------|-----------------|------------------|
| a) sado, dala | b) gilam, choynak | c) sharq, gʻarb | d) eshik, qaymoq |
|---------------|-------------------|-----------------|------------------|

8. Yangi paydo boʻlgan soʻzlar qaysi javobda berilgan?

- | | |
|-----------------------------|------------------------------|
| a) hozirgi, yangilik, paydo | b) chechak, televizor, radio |
| c) internet, kollej | d) zavod, avtobus, termometr |

9. Undalmalar gapning qayerlarida kelishi mumkin?

- | | |
|--------------------|--------------|
| a) boshida | b) oʻrtasida |
| c) turli joylarida | d) oxirida |

10. Shaxs-son qo'shimchalari berilgan qatorni toping.

- a) -gach, -kach, -qach
 b) -yotir, -yapti, -moqda
 c) -di, -gan, -gan edi
 d) bunday qator berilmagan

11. Eskirgan so'zlar qatorini belgilang.

- a) ko'hna, eski, oldingi
 b) rayon, parangi, qozi
 c) viloyat, respublika, jamoa
 d) tushuncha, omad, hozirlik

12. Burun undoshlari ishtirok etgan qatorni toping.

- a) b, p, m b) m, n, ng c) v, f, k d) q, g', x

13. Nutq a'zolari berilgan qatorni toping.

- a) burun, o'pka, ko'z
 b) til, quloq, tish
 c) un paychalari, o'pka, bo'g'iz
 d) yurak, lab, til

14. Qaysi qatordagi so'zlarning oxirida ikkita bir xil undosh tovush ishlatilishi lozim edi?

- a) do's, g'ish b) tanqid, ma'lum c) gram, metal d) bolajon, qizcha

15. Qaysi qatordagi so'zlarda nuqtalar o'rniga *a* harfi qo'yilishi lozim?

- a) z...mon, h...mon
 b) h...li, h...zir
 c) k...mil, k...mol
 d) q...drdon, z...lim

16. O'zbek tilida nechta unli tovush va unli harf bor?

- a) 5 tovush, 5 harf
 b) 6 tovush, 10 harf
 c) 6 tovush, 6 harf
 d) 7 tovush, 6 harf

17. Yozilishi va aytilishi bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlarga qanday so'zlar deyiladi?

- a) shakldosh so'zlar
 b) ma'nodosh so'zlar
 c) zid ma'noli so'zlar
 d) paronimlar

18. Uyadosh so'zlar qatorini toping.

- a) olma, nok, behi, oy
 b) kitob, daftar, yulduz, ruchka
 c) oila, aka, uka, buzoq
 d) quyosh, oy, yulduz, osmon

19. Lug‘atlarga so‘zlar qanday tartibda joylashtiriladi?

- a) o‘zakka qarab b) faollik darajasiga ko‘ra
c) qo‘shimchalariga qarab d) alifbo tartibida

20. Urg‘u yordamida ma‘nosi farqlanadigan so‘zlar qatorini toping.

- a) sizlar, bizlar b) tog‘lar, uylar
c) qo‘llar, bog‘lar d) bolalar, do‘stlar

21. -mi, -chi, -a, -ya, -ku, -da qo‘shimchalariga qaysi qatorda to‘g‘ri ta’rif berilgan?

- a) ot yasaydi b) sifat yasaydi c) yuklama d) ravish yasaydi

22. Sintaksis nimani o‘rganadi?

- a) nutq tovushlarini
b) imlo qoidalarini
c) so‘zlarning bog‘lanishi, gap va uning turlarini
d) so‘z va uning xususiyatlarini

23. Qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchi ishlatilgan?

- a) Dangasaning vaji ko‘p.
b) Oq oltin hosili mo‘l bo‘ldi.
c) Anvarjon xorijga o‘qishga ketdi.
d) Iste‘dodli o‘quvchilar taqdirlandi.

24. Uyushiq bo‘lakli gap berilgan qatorni toping.

- a) Baxtning kaliti o‘z qo‘lingda.
b) Keng, shinam xonalarda o‘qiyimiz.
c) Maktabimiz binosi yangi qurilgan.
d) Mehribon saxiy quyosh yerga beminnat o‘z nurini to‘kmoqda.

ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI

Aniqlovchi	– hokim bo‘lakdan anglashilgan predmetning belgisini yoki uning kimga qarashli ekanini bildiruvchi bo‘lak.
Buyruq gap	– buyurish, da‘vat qilish mazmunini bildiruvchi gap.
Darak gap	– xabar, darak mazmunini bildiruvchi gap.
Dialog	– ikki kishi o‘rtasidagi suhbat.
Ega	– kesimga bog‘lanib, <i>kim? nima? qayer?</i> so‘roqlariga javob bo‘luvchi bosh bo‘lak.
Fonetika	– nutqning tovush tizimini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.
Gap	– ohang va fikr tugalligiga ega bo‘lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi.
Grafika	– yozma nutqning harflar tizimini o‘rganuvchi tilshu-noslik bo‘limi.
Hol	– kesimga bog‘lanib, uning belgisini bildiruvchi bo‘lak.
Ibora	– ma‘nosi bir so‘zga teng keladigan ko‘chma ma‘nodagi so‘zlar qo‘shilmasi.
Istak gap	– istak, xohish mazmunini bildiruvchi gap.
Kesim	– gapning mazmuniy markazi.
Ko‘chirma gap	– o‘zgalarning aynan keltirilgan gapi.
Leksikografiya	– lug‘at va uning turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.
Leksikologiya	– so‘z va uning xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.
Morfologiya	– so‘z turkumlari va ularning xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.
Mustaqil so‘zlar	– atash ma‘nosiga ega bo‘lgan, so‘roqqa javob bo‘ladigan, sintaktik vazifa bajaradigan so‘zlar.
Orfoepiya	– so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilinishini o‘rgatadigan tilshunoslik bo‘limi.
Orfografiya	– so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini o‘rgatadigan tilshunoslik bo‘limi.
Paronim	– aytilishi va yozilishiga ko‘ra bir-biriga yaqin so‘zlar.
Puntuatsiya	– tinish belgilari haqidagi tilshunoslik bo‘limi.
Sintaksis	– so‘zlarning bog‘lanishi, gap va uning turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.
So‘roq gap	– so‘roq ma‘nosini bildirgan gap.
So‘z birikmasi	– ikki va undan ortiq so‘zlardan birining ikkinchisiga tobe-lanishi natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar qo‘shilmasi.
Takroriy so‘z	– bir asosning takrorlanishidan hosil bo‘lgan so‘zlar qo‘shilmasi.

Tasviriy ifoda	– narsani aniq atamay, tasvirlash uchun qoʻllangan soʻzlar qoʻshilmasi.
Toʻldiruvchi	– hokim boʻlakka kelishik qoʻshimchalari yoki koʻmakchilar orqali bogʻlangan boʻlak.
Undalma	– soʻzlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiruvchi boʻlak.
Undov gap	– buyurish, yalinish, doʻq-poʻpisa mazmunini bildirgan gap.
Uyadosh soʻzlar	– bir umumiy mavzu ostiga birlashuvchi soʻzlar.
Uyushiq boʻlak	– gapda bir xil soʻroqqa javob boʻlib, bir xil vazifa bajarib keluvchi boʻlaklar.
Yordamchi soʻzlar	– atash maʼnosini anglatmaydigan, soʻroqqa javob boʻlmaydigan va sintaktik vazifa bajarmaydigan soʻzlar.
Zid maʼnoli soʻzlar	– qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar.
Shakldosh soʻzlar	– yozilishi va aytilishi bir xil, lekin maʼnosi turlicha boʻlgan soʻzlar.
Shevaga xos soʻzlar	– faqat maʼlum bir hududdagina ishlatiluvchi soʻzlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. –Т.: «Университет», 2010.

Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Т.: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.

Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Т.: «Ўқитувчи», 1995.

Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: «Мумтоз сўз», 2010.

Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: «Янги аср авлоди», 2001.

Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. –Т.: «Ўқитувчи», 1987.

Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. –Т.: «Фан», 2010.

MUNDARIJA

Kirish

1-dars. Kirish suhbat. Til – ijtimoiy hodisa	3
2-dars. O‘zbek tili – davlat tili	5

Takrorlash

3-dars. Ayrim unlilar imlosi	7
4-dars. Ayrim undoshlarning yozilishi	8
5-dars. Bosh va kichik harflarning qo‘llanilishi	9
6-dars. Bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlar ma’nosi va imlosi	10
8-dars. Ma’nodosh so‘zlar	11
9-dars. Shakldosh so‘zlar	12
10-dars. Zid ma’noli so‘zlar	12
11-dars. Qo‘shma so‘zlar imlosi	13
12-dars. Juft so‘zlar imlosi	14
13-dars. Darak, so‘roq, buyruq va his-hayajon gaplarda tinish belgilari	15

Sintaksis va punktuatsiya

16-dars. Sintaksis va punktuatsiya	18
17-dars. Gap	19
18-dars. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi	20
19-dars. So‘z birikmasi	22
20-dars. Mustahkamlash darsi	24
21-dars. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari	25
22-dars. Darak gap	26
23-dars. So‘roq gap	28
24-dars. So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar	29
25-dars. So‘roq yuklamalari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar	30
26-dars. Buyruq gap	32
27-dars. Istak gaplar	34
28-dars. His-hayajon gap	35
29-dars. Mustahkamlash darsi	37
32-dars. Gap bo‘laklari	38
33-dars. Kesim	39
34-dars. Fe‘l kesim va ot kesim	41
35-dars. Ega	42

37-dars. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar	44
38-dars. Hol	45
39-dars. To'ldiruvchi	47
40-dars. To'ldiruvchini hokim bo'lakka bog'lovchi vositalar	48
42-dars. Aniqlovchi	50
43-dars. Sifatlovchi aniqlovchi	51
44-dars. Qaratqich aniqlovchi	52
45-dars. Mustahkamlash darsi	54
46-dars. Uyushiq bo'lakli gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi	55
47-dars. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'zlar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi	56
48-dars. Undalmali gaplar	58
49-dars. Undalmali gaplarda tinish belgilari	59
52-dars. Kirish so'zlar	61
53-dars. Kirish so'zlarning gapdagi o'rni	63
54-dars. Qo'shma gap	64
55-dars. Ko'chirma gaplar	66
56-dars. Ko'chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi. Muallif gapi ko'chirma gaplardan oldin kelganda, tinish belgilarining ishlatilishi	67
57-dars. Muallif gapi ko'chirma gapning boshqa o'rinlarida kelganda, tinish belgilarining ishlatilishi	69
58-dars. Dialog va ularda tinish belgilarining ishlatilishi	70

Takrorlash

61-dars. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari	72
62-dars. Gap bo'laklari	73
63-dars. Undalma, kirish so'zlar	75

Morfologiya

65-dars. So'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'zlar	77
66-dars. Ot	78
67-dars. Turdosh va atoqli otlar	80
68-dars. Kelishik qo'shimchalari	82
69-dars. Egallik qo'shimchalari	83
70-dars. Sifat	85
71-dars. Sifat darajalari	86
72-dars. Son	87
73-dars. Sonlarning yozilishi	89
74-dars. Olmosh	90
75-dars. Mustahkamlash darsi	92

78-dars. Fe'l	93
79-dars. Fe'l zamonlari	94
80-dars. O'tgan zamon	96
81-dars. Hozirgi zamon	97
82-dars. Kelasi zamon	99
83-dars. Shaxs-son qo'shimchalari	100
84-dars. Ravish	101
85-dars. Mustahkamlash darsi	102
88-dars. Yordamchi so'zlar	103
89-dars. Bog'lovchilar	104
90-dars. Ko'makchilar	105
91-dars. Yuqlama	106
92-dars. Undov va taqlid so'zlar	108
93-dars. Mustahkamlash darsi	109
94-dars. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari	109
95-dars. Qo'shma so'zlar	111
96-dars. Qo'shma so'zlar imlosi	112
97-dars. Juft so'zlar va ularning imlosi	113
98-dars. Takroriy so'zlar va ularning imlosi	114
99-dars. Mustahkamlash darsi	115

Takrorlash

101-dars. Mustaqil so'zlar	116
102-dars. Yordamchi so'zlar	117

Fonetika. Grafika

104-dars. Tilshunoslik va uning bo'limlari	118
105-dars. Fonetika va grafika	119
106-dars. Nutq tovushi va harf	121
107-dars. Unli tovushlar	122
108-dars. Undosh tovushlar	123
111-dars. Nutq a'zolari	125
112-dars. Lab tovushlari	126
113-dars. Til tovushlari	127
114-dars. Burun tovushlari	129
115-dars. Bo'g'iz tovushi	130
116-dars. Mustahkamlash darsi	130
117-dars. Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi	131
118-dars. O'zbek alifbosi	132
120-dars. Talaffuz va imlo me'yorlari	134

121-dars. Unlilar talaffuzi va imlosi. <i>U</i> va <i>i</i> unlilarining talaffuzi va imlosi	135
122-dars. <i>A</i> va <i>o</i> unlilari talaffuzi va imlosi	136
123-dars. Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi	138
124-dars. <i>O'</i> unlisining talaffuzi va imlosi	139
125-dars. <i>E</i> unlisining talaffuzi va imlosi	140
126-dars. Mustahkamlash darsi	141
129-dars. Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. Jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzi va imlosi	142
130-dars. <i>G</i> – <i>k</i> , <i>q</i> – <i>g'</i> undoshlari talaffuzi va imlosi	143
131-dars. <i>Q</i> va <i>g'</i> undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shimchalarning qo'shilishi va ularning imlosi	144
132-dars. <i>B</i> , <i>m</i> undoshlaridan oldin kelgan <i>n</i> undoshining talaffuzi va imlosi .	146
133-dars. Ayrim harflar izohi. <i>J</i> , <i>j</i> harfi va <i>j</i> , <i>dj</i> tovushlari	147
134-dars. <i>X</i> , <i>x</i> va <i>H</i> , <i>h</i> harflari	148
135-dars. <i>F</i> , <i>f</i> undoshining talaffuzi va imlosi	149
136-dars. <i>Ng</i> , <i>ng</i> harflar birikmasi va uning vazifalari	150
137-dars. <i>Sh</i> , <i>sh</i> va <i>Ch</i> , <i>ch</i> harflar birikmalari hamda ularning vazifalari ...	151
141-dars. Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi.....	153
142-dars. Tutuq belgisining ishlatilishi.....	154
143-dars. Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi	156
144-dars. Mustahkamlash darsi	158
146-dars. Bo'g'in va uning turlari	158
147-dars. Bo'g'in ko'chirish qoidalari	160
148-dars. Urg'u va uning turlari. So'z urg'usi	161
149-dars. Gap urg'usi	162
150-dars. Tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi.....	164

Takrorlash

153-dars. Unlilar talaffuzi va imlosi	165
154-dars. Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi	166
155-dars. Bo'g'in ko'chirish qoidalari. Tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi	167

Leksikologiya

158-dars. Leksikologiya haqida suhbat	168
159-dars. So'zning atash ma'nosi	169
160-dars. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar.....	171
161-dars. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari	172
164-dars. Shakldosh so'zlar	173
165-dars. Uyadosh so'zlar	175
166-dars. Paronimlar	176

167-dars. Ma'nodosh so'zlar	177
168-dars. Ma'nodosh so'zlarda umumiy va xususiy ma'nolar	179
169-dars. Ma'nodosh so'zlar qatorida bosh so'z	180
170-dars. Zid ma'noli so'zlar	182
171-dars. Mustahkamlash darsi	183
173-dars. O'zbek tili leksikasining boyish manbalari	184
174-dars. Eskirgan so'zlar	185
175-dars. Yangi so'zlar	186
176-dars. Iboralar	187
177-dars. Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi	188
178-dars. Tasviriy ifoda	190
179-dars. Mustahkamlash darsi	191
182-dars. Atamalar. Ilmiy atamalar	192
183-dars. Kasbiy atamalar	194
184-dars. Shevaga xos so'zlar	195
185-dars. Olinma so'zlar	196
186-dars. Lug'at va lug'atshunoslik	198
187-dars. Lug'at turlari va ulardan foydalanish	199
188-dars. Mustahkamlash darsi	200

O'quv yili oxirida takrorlash

191-dars. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari	203
192-dars. Gap bo'laklari	204
193-dars. Mustaqil so'zlar	204
194-dars. Yordamchi so'zlar	206
195-dars. Unli tovushlar	207
196-dars. Undosh tovushlar	208
197-dars. Bo'g'in va urg'u	209
200-dars. So'zning o'z va ko'chma ma'nolari	210
201-dars. Eskirgan va yangi so'zlar	211
202-dars. Atamalar. Shevaga xos so'zlar. Olinma so'zlar	211
204-dars. Yakuniy dars	212
Testlardan namunalar	213
Asosiy atamalar lug'ati	216

UO'K: 811.512.133(075)
KBK 81.2 O'zb – 922

O56 Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik /
Mual. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov va
boshq. – T.: «Ma'naviyat», 2015. – 224 b.
Sarlavhada: O'zR Xalq ta'limi vazirligi

UO'K: 811.512.133(075)
KBK 81.2 O'zb – 922

NIZOMIDDIN MAHMUDOV, ABDUHAMID NURMONOV, ABDULHAY
SOBIROV, VALIJON QODIROV, ZAMIRA JO'RABOYEVA

ONA TILI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik

To'ldirilgan 4-nashri

Toshkent «Ma'naviyat» 2015

T a q r i z c h i l a r:

Sh. To'rayev – Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani
35-sonli maktab o'qituvchisi

Z. Xolmanova – O'zMU Til nazariyasi va amaliyoti kafedrasida professori

Muharrir *B. Umarov*

Rassomlar: *A. Bogdanova, F. Iskandarov, B. G'oyipov*

Musahhihlar *O. Pardayev, Sh. Hakimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Litsenziya №10-2296, 25.11.2014-yilda berilgan. Bosishga 21.04.2015-y.da ruxsat etildi.
Bichimi 70x90¹/₁₆, «Tayms» garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 16,38. Nashr tabog'i 13,22. 444049 nusxa.
Buyurtma № 15-250.

«Ma'naviyat» nashriyoti. Toshkent, Taraqqiyot 2-berkko'cha, 2-uy. Shartnoma 39–15.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida
chop etildi. 100129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy. 2015.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.